

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“MADANIYATSHUNOSLIK”
kafedrasи

“MADANIYAT TARIXI”
fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	600000	– xizmatlar
Ta’lim sohasi:	610000	– xizmat ko`rsatish sohasi
Ta’lim yo’nalishi:	5610400	– Ijtimoiy- madaniy faoliyat

NAMANGAN – 2021

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2019 yil 20 iyuldagi №654-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O.R.Topildiyev –tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.U.Xaydarov - tarix fanlari nomzodi, dotsent

O‘quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2021 yil _____dagi__-son yig`ilishida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Ma'ruza matni
Seminar mashg'ulotlar topshiriqlar.....
Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.....
Glossary.....
Ilovalar:
Fan dasturi
Ishchi fan dasturi
Tarqatma materiallar
Testlar.....
Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.).....
Baholash mezonlari

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**


NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

MADANIYAT TARIXI

fani bo`yicha

MA`RUZALAR MATNI



NAMANGAN -2021

Ushbu ma`ruzalar matni Namangan davlat universiteti «Madaniyatshunoslik» kafedrasining 2021 yil ____ dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti Musiqa ta`limi va madaniyat fakul'teti kengashining 2021 yil ____ dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Namangan davlat universiteti o`quv-uslubiy kengashining 2021 yil ____ dagi № ____ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **t.f.n., dots. O. Topildiyev**

Taqrizchi: **t.f.n., dots. Z. Xaydarov**

SO`Z BOSHI

Ozbekiston Respublikasining mustaqil bo`lishi va madaniyat sohasidagi o`zgarishlar tarixan zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo`lmoqda. Inson hayotiy faoliyatining, uning tevarak-atrofdagi olamni bilish shakllarining madaniyatda aks etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat hayotining madaniy-tarixiy rivodlanishi asosida moddiy buyumlar va ma`naviy omillar – bilim, tajriba, taraqqiyot natijasida insoniyat madaniy taraqqiyotning yuksak cho`qqisiga chiqib bormoqda. Yo`nilgan tayoq va toshdan yasalgan quroldan tortib madaniy boyliklar va ilmiy bilimlargacha bo`lgan madaniyat yodgorliklari muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat tarixi umumjahon jarayoni sifatida jamiyatda ma`naviy va moddiy madaniyatning tutgan o`rni hamda vazifalari yoritishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida moddiy madaniyat va ma`naviy madaniyatning o`zaro bog`liqligi hamda bir-biriga ta`sir ko`rsatishini taqozo qiladi.

Ushbu ma`ruzalar matnining o`z oldiga qo`ygan maqsadi talabalar umumiylar dunyoqarashini yanada kengaytirishga, ularni o`z vatani madaniy mqadriyatlarini chuqrarroq o`rganishga jahon va o`zbek madaniyati tarixining eng noyob jihatlaridan habardor qilishdir.

1-Mavzu: Madaniyat tarixi faniga kirish. Ibtidoiy davr madaniyati tarixi. Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyati tarixi. Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyati tarixi Reja:

1. Madaniyat tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari;
2. Ibtidoiy davr madaniy bosqichlari. Ibtidoiy davrning ma`naviy madaniyati.
3. Misr madaniyatining o`ziga xos xususiyatlari
4. Qadimgi Misr dini. Til, yozuv, ta`lim tizimi va adabiyot. Tasviriy san`at va memorchilik. Ilmiy bilimlarning paydo bo`lishi
5. Qadimgi Mesopotamiyada maktab va kutubxonalar faoliyati. Qadimgi Mesopotamiyada so`z jani va yozuv. Qadimgi Mesopotamiyada din. Qadimgi Mesopotamiyada ilmiy bilimlar rivoji. Qadimgi Mesopotamiyada san`at.
6. Qadimgi Hindiston yozuvi va adabiyoti. Qadimgi Hindistonda me'morchilik va san'at. Qadimgi Hindistonda diniy e`tiqod.
7. Qadimgi Xitoyda mifologiya va din. Qadimmgi Xitoyda adabiyot va yozuv. Tabiiy-ilmiy bilimlar.

Madaniyat tarixi kursi dunyo xalqlari madaniyatining rivojlanish umumiylar qonuniyatlarini o`rgatadi. Madaniyat tarixi fanining predmeti jahon xalqlarining eng qadimgi zamonlardan to xozirgi kunlargacha bosib o`tgan uzoq va murakkab tarixiy yo`lini, madaniy va ma`naviy hayotini xolisona o`rganish va tushuntirishdan iborat. Mazkur kursning asosiy vazifasi insonning tabiat va jamiyat bilan birgalikdagi faoliyati hamda kishilarining ma`naviy turmshiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilishdan iborat. Madaniyat deb insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma`naviy boyliklar majmuasiga aytiladi.

Madaniyat atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotida rang-barang ma`noni anglatadi. U lotincha **ishlov berish, parvarish qilish**, ma`nosini anglatsa, keyinchalik **ma`rifatli bo`lish, tarbiyali, bilimli bo`lish mazmunida ishlataladi**. O`zbek tilida ko`p ishlataladigan “madaniyat” atamasi arabcha “madina” – “shaxarlik” degan ma`noni anglatadi.

Madaniyat insonni to`la qonli faoliyati “Inson tomonidan yaratilgan muhit”, “Insoniyat yaratgan moddiy va ma`naviy qadriyatlar majmuidir”.

Madaniyat tushunchasi XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan o`rin oldi. Insoniyat jamiyat doimiy raqvishda rivojlanishda bo`lib, o`zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy darvrlarda xil madaniyatlar mavjud bo`lib, insonlar dunyoning o`zgacha anglagan va qabul qilgan.

Madaniyat jamiyatning maxsuli ijtimoiy hayotining muhim jabxalaridan biri. Madaniyatsiz jamiyat bo`lmagandek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida bo`lmaydi.

Jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyat boyib borsa, madaniyat ham yuksaladi. Alovida bir shaxsning alovida madaniyati bo`lmaydi. SHaxs muayyan jamiyatdagi madaniy muhitda yashaydi va madaniyati shakllanadi.

Ibtidoiy davr insoniyatning uzoq o`tmishidan iborat bo`lgan bosqichdir. Bu davr insoniyatni hayvonot olamidan ajratib yuborgan davr hisoblanib, ongi mavjudot xisoblanuvchi odam va u tomonidan yaratilgan madaniyatning shakllanish davridir.

Agar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma`naviy boyliklarga nazar tashlaydigan bulsak, bu boyliklarning yaratilishi bundan million yillar ilgari yashab o`tgan qadim ajdodlarimiz tomonidan vujudga keltirilganligining guvohi bo`lamiz. CHunki ibtidoiy davrda yaratilgan barcha moddiy madaniyatning-mehnat qurollari, turar joylar, kiyim-kechaklar va boshqalarning asosiy vazifasi hamda mohiyati hozirgi kunimizda nshlatilayotgan barcha moddiy boyliklarimizda o`z ifodasini topgan. YOKi ma`naviy madaniyatning barcha elementlarida-axloqiy, huquqiy, siyosiy, badiiy ongda, diniy e`tiqodlar va turli xil urf-odatlar, marosimlar va an`analarda ijtimoiy xodisalar xisoblanuvchi oilaviy munosabatlarda, til taraqqiyoti va boshqalarda, ibtidoiy davrda yashagai ajdodlarimizning ruhi sezilib turadi. SHu boisdan hozirgi moddiy va ma`naviy madaniyatimizning vujudga kelishi hamda mohiyati to`g'risida muayyan tasavvur xosil qilish uchun ibtidoiy davr madaniyati, uning rivojlanish bosqichlari masalasiga tuxtalib o`tish o`ta muhimdir.

Ibtidony odamlar er yuzida yo`q bo`lib ketganlar. Biroq ernen yuqori qatlamlarida qadim ajdodlarimiz faoliyatining moddiy qoldiqlari. uning ish qurollari, yaroq-aslahalari, uylari, jixozlari, kiyimlari, tasviriy san`at asarlarn, topinish buyumlari va nihoyat yovvoyi hamda uy hayvonlarining suyaklari birin-ketin, qavatma-qavat bo`lib ko`milib saqlanib qolgan. SHu bilan birga qadim ajdodlarimiz to`g'risida muayyan fikr yuritish uchun ulardan bizga meros bo`lib kelgan, u yoki bu darajada saqlanib qolgan xalq og`zaki ijodining namunalari manba vazifasini o`taydi.

Ibtidoiy jamiyatning rivojlanish tarixi bir qancha, bosqichlar yoki davrlarni bosib utgan. Fanda asosan mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligiga qarab, ibtidoiy davrni tosh, bronza va temir asrlariga bo`lish odatga aylanib qolgan.

Masalan, Kopengagen (Daniya) asori-atiqlalar muzeysi xodimi Kristian Tomsen birinchi marta fanga mehnat qurollarini yasalgan materiallarga qarab tosh, bronza za temir davrlarn tushunchasini kiritadi. Keyinchalik tosh asri qadimgi tosh— paleolit (gr.palato qadimgi va litos-tosh) va yangi (gr. peo-yangi) asrlarga bo`lingan.

Davrلarga bo`lishning boshcha bir juda qadimgi sistemasi- bu ishlab chiqarish faoliyati sohalariga ko`ra bo`lishdir. Bunda ibtidoiy davr ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bosqichlariga bo`linadi .

Kishi va kishilik jamiyatining paydo bo`lishidan boshlangan va tarixning eng avvalgi ibtidoiy poda davri deb yuritiladigan davriga kelib odamning biologik rivojlanishi tugallanadi. Biroq odam mana shu eng avvalgi davrdayoq o`zining hayvonot ajdodidan keskin farq qiladi. Bu davrda ular birgalashib mehnat qila boshlaganlar, sodda mehnat qurollarini yaratishib, madaniyatga asos solganlar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlannshi natijasida kishilarning bir muncha mustahkam birligi vujudga keldi. Bu birlikka urug' asos qilib olindi. Natijada ibtidoiy

davrning ham moddiy, ham ma`naviy madaniyatini yaratish ma`lum bir sistemaga tusha boshladi. Mehnat qurollari takomillashib, kishilar tasavvuri mahsuli hisoblanmish ustqurma elementlari yaratila boshlandi.

Ibtidoiy kishilar uzini qurshab turgan tabiat kuchlarini necha-necha ming yillar davomida o`rgandi. Bu davrda kishilarning ko`pdan-ko`p avlodlari almashindi. Ibtidoiy kishilarning hayoti og`ir bo`lgan. Ular tomonidan yaratilgai qadimgi madaniyat qanchalik sodda bo`lmasin, u texnika, xo`jalik ijtimoiy asosga ega bo`lgan. Madaniy boyliklar yaratish oddiydan asta-sekin yuqori va murakkab shakllarga o`ta borib bu madaniyat muntazam ravishda o`sib bordi.

Eng sodda qurollar yasash bilan inson o`zini yaratdi va o`zi bilan hayvon o`rtasiga chegara qo`ydi. Bu esa insonning tabiat ustidan hukmron bo`lishida birinchi qadam bo`ldi.

Xozirgi davrda ibtidoiy odamlarning eng avvalgi vakillaridan birini Pitekantrop deb ataladi. Pitekantroplarning qoldiqlari dastlab YAva orolidan topilgan. Birmuncha vaqt o`tgandan so`ng Xitoyning Pekin shahri yaqinidagi g`ordan Sinantrop («Xitoy odami»)ning qoldiqlari topilgan. Bu erdan 40 ga yaqin sinantroplarning suyaklari bnlan birga juda sodda tosh qurollari, sinantropga ovqat bo`lgan hayvonlarning suyaklari va nihoyat ularning olovdan foydalanganliklarini ko`rsatuvchi kul qoldiqlari topilgan. Odamning rivojlanishidagi keyingi bosqich Neandertal bosqich deb nomlanadi. Germaniyaning Neandertal' shahri yaqinidan topilgan odam qoldiqlari nomi bilan yuritiladi. Respublikamiz xududidaga Teshik tosh g`oridan (Surxondaryo viloyati) ham 12 -yoshli neandertal' bolaning qoldiqlari topilgan. Odamga qurol va yaroq ishslash uchun xizmat qilgan birinchi material tosh, ya`ni chaqmoqtosh yoki unga yakin mineral. jinslar, xususan oqtosh (kvarts) bo`lgan. CHaqmoqtosh er sharining barcha erida juda keng tarqalgan bo`lib, bu mineralda juda ham muhim ahamiyatga ega bo`lgan uch xususiyat—qattiqlik, yupka bulakchalarga bo`linib ketish va kosuzchi utkir chirralar mavjud bo`lgan. Agar tabiatda shu chaqmoqtosh bulmaganda, insoniyatiing boshlang'ich tarixi qandaydir boshqa yo`l bilan ketishi mumkin edi. Dastlabki qurol uchun yog'och ham material xizmatini o'tagan, lekin undan toshga nisbatan keyinroq foydalanilgan. Yog'och qurollar yoki qurollarning yog'och qismlari tosh qurollari kabi erda uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin bo`lmasligi uchun arxeologiya yog'ochdan foydalanishning ilk namunalarini ko`rsatib bera olmaydi.

Ibtidoiy odamlarga tegishli bo`lgan qoldiqlar madaniyat va texnikaning uzlusiz o`sib borganligidan dalolat bradi. Bu birin- ketin keladigan bosqichlar er sharining turli joylarida topilgan muayyan tipdagisi odam faoliyatining qoldiqlariga qarab aniqlanadi va fanda 6u qoldiqlar «madaniyat» deb nomlanadi. Bu madaniyatlar dastlab topilgan joylarning nomi bilan atalib, ular ana shu madaniyatniig eng tipik yodgorliklaridan iborat bo`ladi. Ibtidoiy davr madaniyatining eng oddiy bosqichi Shell madaniyatidir. Bu madaniyat SHimoliy Frantsiyaning Shell' shaharchasi nomi bilan ataladi. Bu davr mexnat qurollarining asosiy turi uzunligi 10 sm.dan 20 sm.gacha, og`irligi 500 grammdan 1kg.gacha bo`lgan anchagina katta xajmli, bodom shaklidagi, har ikki tomoni tosh bilan qopol ravishda tarashlangan tosh bo`lagidir. Bu qurol «qo`l cho`kichi», «qo`l chopqichi» va «qo`l boltasi» vazifasini bajargan. Ibtidoiy davr madaniyatining keyingi bosqichi Evropaning ko`p erlarida va shuningdek, Afrika va Osiyoda ma`lum bo`lgan va bir umumiy nom ASHEL' (SHimoliy Frantsiyadagi Sant-Ashel' degan joy nomi) deb ataladi. Bu madaniyat mehnat qurollarining .hajmi bir muncha kichiq shakli ancha to`g`ri, o`tkir, qirralik bo`lganligi bilan xarakterlanadi. Bu madaniyat manzilgohidan tosh qurollaridan tashqari odamlarning turmushiga oid boshqa belgilarning - mamont, karkidon kabi yovvoyi xayvonlarning kuplab suyaklari, shuningdek olov izlari topilgan. Ibtidoiy davrning uchinchi bosqichi Frantsiyaning janubi—g`arbida joylashgan qishloq va g`or nomi bilan ataluvchi MUST'E madaniyati o`rta paleolit davriga mansubdir. Teshiktosh g`oridan topilgan neandertal' bolaning qoldiqlari ham ana shu Must'e madaniyatiga tegishli. Bu bosqich mehnat qurollarining sezilarli darajada

o`sganligi bilan xarakterlanadi. Bu madaniyatning asosiy quroli uchi o`tkirlangan tosh quroldir. Bu qurol nayza sifatida ham ishlatilgan. SHuningdek bu bosqichda yaratilgan mehnat qurollari safiga suyakdan ishlangan qurollar ham kelib qo`shilgan, ya`ni bu bosqichda suyakdan o`tkir uchli manda qurollar ham yasalgan. Bu manzilgohdan mamontning, karkidon, gor ayigi, yovvoyi ot, shimol bugusi va boshqalarning suyaklari hamda olov izlari topilgan. SHell', Ashel' madaniyatlari, odatda umumiy nom bilan ilk paleolit deb ataladi. Demak, ilk paleolit davridayoq- odamlar mehnat qurollarini takomillashtirib, olovdan foydalana boshlaganlar. Bu esa insonning antropologik jarayonni bosib o`tishini tezlashtirgan va tabiat hodisalariga bo`lgan munosabatlarining sistemalashuviga olib kelgan. Olov odam tomonidan buysundirilgan va o`z manfaatiga xizmat qilgan dastlabki tabiat kuchi bo`lgan. Natijada odam hayvonot olamida ustunlikka erishib, biologik mavjudot sifatida undan uzoqlashgan. Olovning egallanishi ilk paleolit davrining buyuk madaniy yutug'i bo`lgan. Paleolit davrining yana bir yutug'i kishi tafakkuri va nutqining paydo bo`lishidir. Tafakkur va nutq kobiliyati taraqqiyotining qudratli sharti va omili bo`lib, ular kishilikni butun xayvonot dunyosidan ajratdi.

Tafakkur va nutqning vujudga kelishi odamda rivojlanishi ilk insoniy munosabatlarnnng shakllanishi va taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan. SHuningdek, til va tafakkur taraqqiyoti - moddiy ishlab chiqarishning, ya`ni moddiy madaniyatning rivojlanishini tezlashtirgan. Olov singari til va tafakkur ham odamning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishini tezlashtirgan.

Ibtidoiy madaniyatning keyingi bosqichi orin'yak-salyutr va madlen davrlari so`ngi paleolitga mansubdir. Bu davr o`zining neandertalga nisbatan ancha taraqqiy qilganligi bilan, ya`ni ham mehnat qurollarida, ham inson qiyofasida tub o`zgarishlarning vujudga kelishi bilan harakterlanadi.

Orin'yak-salyutr (Frantsiyadagi ikkita joy nomidan olingan) davrida texnika sohasida must'e madaniyatiga nisbatan anchagina yuksalish ruy bergen. eng avvalo toshni ishslash yaxshilanadi. Mehnat quroli sifatida shoh va suyaklardan keng foydalaniladi. Orin'yak—salyutr madaniyati manzilgohiga xos bo`lgan joylardan topilgan tosh va suyak qurollarning shakli ular yog'och dastaga urnatilgan qurollarning asosiy qismi bo`lganligidan darak beradi. Bu texnika taraqqiyotidagi muhim davr bo`lgan. Bu davr bir necha qismdan tuzilgan qurol-yaroqlarga o`tish davri bo`lgan. Umuman olganda orin'yak—salyutr davrining barcha qurol-yaroqlari must'e davri odamlarinikiga nisbatan beqiyos boy va xilma-xil bo`lgan. Bu davrda toshdan turli. xil pichoqlar, nayzalar va nayzachalar, keskichlar, qirg'ichlar, bigizlar yasalgan. Suyakdan ignalar yasalgan.

Odamlar bu davrga kelib, qurollardan hayvonlarni o`rab, quvib, qamab, tuzoq qo`yib ushlashni o`rganganlar. O`z manzillarini ochiq joylarga qurbanlar. Orin'yak—salyutr bosqichi turar-joylarning vujudga kelganligidan tashqari, o`troq hayotning boshlanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu davrga kelib odamlar tikishni o`rganganlar, hayvon terilaridan kiyim tikish bilan birga o`zlari yashayotgan turar-joylarning ustlarini yopishda ham foydalanganlar.

SHunday qilib bu davrga kelib odam madaniyatning yana bir boyligi — o`zining tanasini himoya etadigan kiyim-kechakka ega bo`lgan. Bu davrda nafakat olovning qoldiqlari, balki o`choq va o`ta sodda holdagi pechlarning qoldiqlari ham uchraydi.

Orin'yak—salyutr davriga oid bo`lgan maskanlardan eng sodda haykal va rasmlarniig - nusxalari xam topilgan. Bu erlardan topilgan parmalangan hayvon tishlari va boshqa ba`zi bir bezak buyumlari ham topilgan. Nihoyat, ayrim belgililar, jumladan ibridoiy odam skletlarining quylishi holati hamda ayrim ibridoiy rasm va tasvirlarning mazmuni ana shu bosqichga kelib dinning paydo bo`lganligini ham ko`rsatadi.

Xullas paleolit davrining sunggi bosqichlariga kelib antropogenez jarayoni tugallanib, hozirgi zamon odami paydo bo`lgan. Ana shu davrga kelib irqlar ham paydo bo`la borgan. SHuningdek bu davrda bir necha qismdan iborat bo`lgan qurol-yaroqlar ham paydo bo`lgan. Suyak va hayvon shoxlaridan material sifatida keng foydalanila boshlangan. Yirik xayvonlarni

ovlash osonlashib, doimiy turar-joylar vujudga kelgan. O`troqlashib yashash o`choq va xonani isitish yo`llarining o`ylab topilishiga, tikuvchilikni yuzaga kelishiga sabab bo`lgan.

Bularning barchasi ishlab chiqarish kuchlarining ancha taraqqiy etganligini ko`rsatadi. SHu bilan birga bu bosqichda tasviriy san`at, bezak buyumlari va diniy qarashlarning paydo bo`lishi ibtidoiy jamiyatning ustqurmasi shakllana borganligidan dalolat beradi.

Paleolitning orin'yak—salyut bosqichidan keyingi madlen madaniyati deb nomlanadi. Frantsianing janubi-g'arbida La Madlen degan joy nomidan olingen. Matslen madaniyati suyak za shoxdan turli buyumlar ishlab chi-karishning sezilarli darajada rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda nayza otaDigan qurollar va garpun paydo bo`lgan. Arxeologik davrlashtirishga muvofiq, paleolitdan sung kupchan-kup madaniyatlar mavjud bo`lgan. Ular neolit degan umumiy nom bilan toritiladi.

Neolit ishlab chidarish kuchlarining rivojlanishi asosida 1!shilik jamiyatining anchagina tabatsalarga bulinish davri hi-sobланади. Neolitning sunggi bosqichlari ma`lum darajada etnik birlıklarning shakllanishuvi bilan bogliq madaniyat zhisol\$-nadi. SHuning uchun ham neolit dazrini ilk neolit, rivojlangan neolit va sunggi neolit deb nomlanuvchi davrlarga bo`lib urgанилди. Ilk neolit ba`zan, mezolit (gr. mezoz—o`rta), eneolit va neolit deb ham ataladi.

Neolit davriga kelib uk-yoy ibtidoiy odamning asosiy quroli bo`lib kalgan. Uning paydo bo`lishi ovchilikning rivojlanishiga turtki buldi. SHuniigdeq bu davrda madaniyat tarixida buyuk CHodioa rui bergen, ya`ni birinchi xayvon chulga urgatila boshlan-gan. eng sodda kurinishdagi sopol idishlar ishlab chikarila bosh-langan, u esa yangi ishlab chikarish ~ kulolchilikning rivojlanishiga turtki bergen.

Neolit davrida kashf etilgan quollardan yana birn — bumerang bo`lib, u bir vaqtning uzida ovchilik ham jang, Xujum, xam mudofaa, xam kul, dam otish quroli vazifasini bajargan. Bu bumerang kattich yogochning egri b'ulagidan ishlangan za aerodinamika qonuniga ko`ra harakatlangan, Bu quroq qadimgi misrliklar, avstraliyaliklar va nemislarning asosiy quollaridan hisoblangan.

Puflab otiladigan quroq ham ibtidoiy davr odamlarniig o`ziga xos kashfiyotidir. U Iidoneziyada SUMPITAN, Janubiy Amerikada esa SARBAKAI nomi bilan mashxur bo`lgan.

Bu quroq bir vaqt uzida ham ovchilik ham harbiy quroq bo`lib, silliq bambuk bo`lagidan ishlangan. Unga 25 — 30 metr masofaga uchuvchi zaharlangan o`qlar solib puflangan. SHuningdek, bu davrda ham ovchilik xam xarbiy maqsadlarda ishlatiladigan SOPKON va PALAXMON kabilar xam keng tarqalgan. Bu qurollar Janubiy Amerikada, Polineziya, Osiyo mamlakatlari, shu jumladan Markazny Osiyo xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Xullas, inson mehnati ishlab chiqarish qurollari, shuningdek, umuman madaniyat rivojlanishining asosini tashkil etadi. Ibtidoiy davrda mehnat nixoyat darajada og`ir bo`lgan. SHell' davri. odami bizning kuzimizga juda xam sodda bo`lib kurinuvchi keskichni tayyorlash uchun qanchalik mashaqqatli mehnat qilganligini tasavvur qilishimiz juda xam qiyin. Oddiy nayza, ayniqsa, bumerang, uch-yoy, tarashlangan va parmalangan bolta uzok vaqt davomida qunt "bilan mexnat qilishni talab qilgan.

Ketma-ket keladigan ashell', must'e, orin'yak—salyut va madlen madaniyatlarini yirik hayvonlarni ovlash ayniqsa, rivojlanganligini ko`rsatadi. Madlen madaniyati davrining oxiriga kelib dexqonchilik bilan bir qatorda ovchilik ham keng rivojiana boshlagan. Ibtidoiy ovchilikning dastlabki paydo bo`lgan vaqtlaridayoq turli xil ommaviy ov usullari bir tomonidan, hayvonni o`rab olish, quvlash, ikkinchi tomonidan esa turli xil tuzoqlar qopqog`iga o`xshash ovchilik qurollari, qush ovlaydigan turlar juda katta axamiyatga ega bo`lgan ibtidoiy ovchilikda xayvon yoki qush tovushiga taqlid qilish yoki o`sha ov qilinayotgan xayvon terisinn yopinib unga yaqinlashish ancha keng tarqalgan. Ashell' davridan boshlab qo`lga o`rgatilgan it endi odamning ov vaqtidagi sodiq yordamchisi va yo`ldoshiga aylangan. Itning qulga o`rgatilishi odamga uch tomonidan foyda keltirgan, birinchidan, it ovda juda asqotgan bo`lsa, ikkinchidan, it inson yashaydigan manzillarni qo`riqlagan, xavfdan ogox qilgan,

uchinchi tomondan esa ayrim qabilalarning ko`chib yurishi paytida transport vazifasini utagan.

Dehqonchilik iqlim sharoitiga qarab turli joylarda turlicha davrlarda rivojlangan. Masalan, iqlim mu`tadil va janubiy xududlarda esa birmuncha keyinroq rivojlangan. Arxeologik izlanishlar dehqonchilik paleolitdayoq, aniqrog'i orin'yak-salyutr davrida paydo bo`lganligini ko`rsatadi. Dexqonchilikda motiga (ketmon vazifasini bajaruvchi qurol).tayoqlar, belkuraklar,toshdan yasalgan boltalardan keng ko`lamda foydalanilgan. Dehqonchilikning yanada yuksalishiga yovvoyi hayvonlarning qo`lga o`rgatilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Qo`lga o`rgatilgan hayvonlar kishilarga juda katta foya keltirgan. Birinchidan ulardan qo`shimcha mehnat kuchi sifatida foydalanilgan bo`lsa , ikkinchidan uy sharoitida o`rgangan hayvonlar o`zidan nasl qoldirgan. Ayrims hayvonlar hatto oziq-ovqat vazifasini ham o`tagan .Xar xil xayvon turlarini xonakilashtirish juda mashaqqatli ish bo`lgan va bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Chunki er yuzida yashagan 140 ming xayvon turidan bor-yo`g'i 47-turinigina xonakilashtirganlar. Uy xayvonlarini urchitib ko`paytirish xo`jalikning muxim tarmog'iga aylangan. Uy xayvonlari odamga go`sht, teri, jun, yog', suyak, sut bergen, yuk tashigan va erni haydagan va nixoyat o`g'it bergen.

Odamning eng dastlabki turar-joylari g'orlar va daraxtlarning kavaklari bo`lgan. Paleolit davriga oid arxeologik yodgorliklar ham kishilarning turar-joylari g'or bo`lganligini tasdiqlaydi. Tasmaniyaliklar daraxt kavaklarida yashaganlar. Lekin g'orlar xam, daraxt kovaklari xam tabiat tomonidan berilgan tabiiy boshpanadir. Ulardan foydalanish madaniyat tarixida tarakchiyot xodisisi xisoblanmaydi. CHunki madaniy taraqqiyot kishi mehnati natijasida vujudga keltirilgan u yoki bu predmet orqali belgilanadi.

Ibtidoiy odamlarning turar-joylari xilma-xil bo`lib, ularning rivojlanishi uch bosqichga bo`linadi.

1. Insoniyatning eng dastlabki turar-joylari shamolni tusib turadigan **g'or va yerdan kavlangan o`radan iborat bo`lgan**. Masalan, tasmaniyaliklar, avstraliyaliklar va boshqa bir qator qabilalarning eng assosiy boshpanasi **daraxt shoxlari bilan to`silgan g'or bo`lgan**.

2. Bir muncha vaqt o`tgandan so`ng **yer usti va yer osti turar-joylari paydo bo`la boshlagan**. **CHayla er usti** boshpanasi hisoblangan bo`lsa, **yer to`la yer osti boshpanasi bo`lgan**. CHayla va kapalar asosan xoda, shox-shabba, barg, loy, pustloq, poxol, teri va boshqalardan qurilgan. Keyinchalik chayla va kapaning takomillashuvi kigiz o`tovlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Yer to`la qadimgi kishilarning yerni kavlab undan boshpana sifatida foydalanishidir.

3. Nihoyat, turar-jozlarning rivojlanishidagi **uchinchi bosqichda loy devorli uylar paydo bo`la boshlaydi**. Natijada qadim ajdodlarimizning muqim qarorgohlari - qishloqlar va keyinchalik shaharlar vujudga kela boshladи.

Sunggi neolit davriga kelib g`ildirak kashf etilgan. G`ildirak dastlab yaxlit yog'och doiradan iborat bo`lgan. Qadim ajdodlarimiz qayiqni kashf etgunlariga qadar, suv ustida oqib ketayotgan daraxtlardan foydalanganlar. Keyinchalik ikki yoki bir qancha daraxt tanasini bir-biriga bog`lab, sol yasaganlar. Vaqtlar o`tishi bilan yog`ochni o`yib qayiq yasaganlar, hayvon terilaridan qayiq yasashda keng foydalanganlar.

Tafakkur dastlabki vaqtarda qanchalik chegaralangan bo`lmasin, ma`lum darajadagi xulosalar, tushuncha va tasavvurlar ifodasi bo`lib, kuzatish va tajribaning maxsuli sifatida vujudga kelgan. Birgalashib mehnat qilish, kuzatish, tajriba, ong, tafakkur, fikr, til tushuncha, bilim — bularning barchasi uzaro ajralmas aloqada bo`ladi hamda bir-birini taqozo qiladi va odamni hayvondan ajratuvchi, uni tabiat ustidan g`olib qiluvchi belgilardir. Bularning barchasi madaniyatning g`olibona taraqqiy etishi uchun asos bo`lgan.

Mehnat jarayonida kuzatish va tajriba orttirish natijasida yangidan-yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo`lgan, tafakkur xam, til xam rivojlangan. YAngi suzlar paydo bo`lib, suzlarning ma`naviy mazmuni boyigan, grammatik shakllari rivojlanib borgan.

Fikrni anglatishning sodda usullaridan biri — «signallar tili» xisoblanadi va biron bir xabarni belgilari yordami bilan nfodalash vazifasini bajaradi. Masalan, avstraliyaliklar uz joylarini tashlab ketganlarida oyoqlari bilan qumga chiziq chizganlar va chiziqning uchiga xivich tiqib qo`yanlar. "CHiziqning yo`nalishi va uning uzunligi shu guruxning qaysi tomonga va qancha masofaga ketganligini ko`rsatadi. Bu belgi guruuhlarining kechikib qolgan a`zolari va mehmonlar uchun qilingan.: «Signallar tili»ga turli xil belgilari—egilgan yoki sindarilgan novdalar. alohida quyilgan toshlar, ovlanadigan o`ljani ko`rsatish, dushmanning paydo bo`lishi yoki xavf-xatardan ogoh qilish kabi turli xil belgilari kirgan. Bu signallar ba`zan ma`lum marta qichqirish, ko`pincha sun`iy tovush chiqarish, masalan, baraban chalish yordami bilan, shuningdek olov yoki tutun va boshqalar yordami bilan berilgan.

Biror xabar, fikr yoki tuyg`uni ifodalash uchun ma`lum bir buyumni sovg`a qilishni «ramziy fikrlar tili» yoki signallar tiliga kiritish mumkin. Masalan, SHimoliy Amerika hindlarida tomagauk (suyil) yuborish urush e`lon qilishning ramziy belgisi xisoblangan. Tomagauk dushmanha alohida elchi bilan yuborilgan, u tomagauknin dushmanha olib borib, erga qo`yan. Agar karshn tomon tomagauknin erdan ko`tarsa, urishishga rozi ekanligi bildirilgan. Xullas, «signallar tili» muhim madaniy-tarixiy rol` uynagan, xususan xarbiy va mudofaa ishlarida muxim ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy meditsina davolashning folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullariga asoslangan. Lekin juda qadim zamondaryoq ayrim usimliklarning, mineral moddalarning davolash xususiyati kashf etilgan. etnografik ma`lumotlarga kura, maxsus tayyorlangan tarkibiy dorilardan ham masalan, nastoykalar, qaynatma dorilar, suriladigan va kukun holidagi dorilarni ishlatganlar. Qustiradigan va ich bushashtiradigan vositalar qullanilgan. Silash va uqalashdan keng kulamda foydalanilgan, sovuq va issik gidroterapeyani xam yaxshi bilganlar, parxezning ahamiyati ham ma`lum bo`lgan. Ibtidoiy davrda kichik va katta xirurgiya, ochishni tuxtatish, qon olish usuli, badandagi ortiqcha to`siklarni olib tashlash, singan joylarni tuzatish, xatto amputatsiya dam ma`lum bo`lgan. Hammom ham ibtidoiy davrda kashf etilgan.

Ibtidoiy odamning to`plagan bilimi qanchalik bo`lishidan qat`iy nazar, u xali bilmagan tabiat xodisalari mavjudligicha qolgan. Kishilar sababini bilmaydigan bu xodisalar ularning xayoti uchun muhim axamiyatga ega bo`lgan va uz navbatida uni bilish talab qilingan, SHu sababli ibtidoiy odam bu sohadagi kamchiliklarni to`ldirish, uzining ojizliklari o`rnini tuldirish, o`z tajribalaridan chekkada qolgan hodisalarga javob topishga urina boshlagan. Natijada jumboq bo`lib tuyulgan tabiat hodisalariga qarama-qarshi tasavvur va tushunchalarini yarata boshlaganlar. Diniy tasavvurlar ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat taraqqiyotida urug`chilik tuzumi paydo bo`lgan bosqichda vujudga kelgan.

Ibtidoiy odam o`zini tabiatdan ajratmaydi va tabiat kuchlari hamda hodisalari bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi diniy tasavvurlarning ilk shakllari quyidagilarga bo`linadi:

- a) animizm;
- b) totemizm;
- v) magiya (afsungarlik, sexgarlik);
- g) fetishizm;
- d) shomonizm.

ANIMIZM. Ingliz olimi Eduard Taylor tomonidan fanga kiritilgan. Animizm — bu kishi ruhining mavjudligiga isho-nishdir. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiyashtiradi, har bir jismda rux bor, tanadan tashqarida ham jon bor deb hisoblaydi. Ibtidoiy odamlar uyquni jonning tanani vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganida boshqa uzoq joydagisi kishilarning yoki o`lgan kishilarning joni bilan uchrashuvi deb tushunganlar. Dastlabki animisgik tasavvurlar jonni soya yoki nafas bilan aynan bir narsa deb bilar edilar. Masalan, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda, yaxudiyarda jon bilan qon, Grenlandiyada esa nafas bilan jon bitta nom bilan ataladi.

TOTEMIZM — «uning urug`i» ma`nosini anglatadi va odam kupinchaga qandaydir bir hayvon yoki o`simlik bilan, ba`zan jonsiz narsa bilan hatto tabiat

hodisalari bilan aloqasi borligi to`g'urisidagi tasavvur hamda e`tiqoddir. Totem hisoblangan hayvonni o`ldirish mumkin bo`lman. Agar o`ldirish zarur bo`lsa, albatta, undan uzr so`raganlar. Uii o`ldiriganliklari uchun ularning gunohini kechirishni iltijo qilib so`raganlar.

MAGIYA (SEHRGARLIK, AFSUNGARLIK) - insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g`ayri tabiiy yo`l bnlan ta`sir ko`rsatish maqsadida bajariladigan hatti-harakatlar. Buyum va xodisalarning afsonaviy kuchga ega ekanligiga ishonish baxt keltiruvchi yoki turli xil balo -qazolardan saqllovchi har xil buyumlar va tilsimlarning paydo bo`lishiga, yaxshilik va yomonlikdan iborat turli irim-sirim xamda harakatlarnivg kelib chiqishigap sabab bo`lgan. Biror kishiga qilinayotgan hatti-harakatda o`sha shaxsga tegishli bo`lgan narsalar (uning sochi, tirnog'i, kiyimi) ustida afsun qilish, masalan, kuydirish yoki boshqa irimlar (kinna) juda samarali natija beradi deb hisoblaganlar.

Odamlar quyoshning chiqishi, yomg`irning yog`ishiga sehrgarlik yordamida ta`sir qilish mumkin, degan tasavvurga ega bo`lganlar.

FETISHIZM - moddiy predmetlardagi g`ayritabiyy xususiyatlarga ishonish, jonsiz narsalarga sig`inishdir. Ibtidoiii odamniig ongida xar xil moddiy buyumlarning tosh, daraxt, usimlik keyinchalik turli xayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va boshchalarda g`ayri tabiiy kuchlar bor, degan xayoliy tasavvurlar paydo bo`lgan.

SHOMONIZM — ibtidoiy jamoa tuzumi emirilish davrida paydo bo`lgan qadimgi diniy e`tiqodlardan biri. SHomonizm — bu kishilar orasida guyo turli ruhlar bilan munosabatda bular ruxoniylarning qobiliyatiga ishonishdir. Kishilarning tasavvuricha guyo ruxlar shomonlarga xizmat qiladi, uning turli topshiriqlarini bajaradi, xatto shomon yovuz ruxlar bilan jang ham qila oladi, deb xisoblaganlar.

. San`at ham kishilik jamiyatining ilk bosqichlari ibtidoiy odamning tabiat xodisalariga bo`lgan munosabatlari natijasida paido bo`lgan ma`naviy madaniyatning asosiy elementlaridan biridir. San`at odamning estetik sezgisi, uning ma`naviy rivojlanishi jarayonida, tabiatga xos bo`lgan takomillikdan, guzallik va oxangdorlikdan ta`sirlanish, odam uz mexnati bilan yaratgan narsalarda tabiatning sifatlarini ko`rsata boshlaganida va o`z sezgisi hamda fikrlari hayotning turli xil voqealarini ifodalay boshlagan davrlarda vujudga kelgan.

Ibtidoiy san`at va uning barcha turlarining umumiy maibai mehnatdir, odamning mehnat faoliyatidir. Ibtidoiy san`at va uning barcha turlari uz moxiyati, mazmuni buyicha odamning mehnat faoliyati bilan bog`liq bo`lgan sezgisi, kayfiyati va fikrlarini ifodalash shaklidan boshcha narsa emas.

Orn`yak — salyut bosqichiga kelib, tasviriy san`at vujudga kela boshlagan. Toshga, suyakka juda sodda kurinishdagi sur`atlar tasviri tushirila boshlagan. Agar usha davrda ibtidoiy odamlar tomonidan ishlangan suratlarga nazar tashlansa, ko`proq hayvonlar va noaniq aks ettirilgan insonlar tasvirini kuramiz, Madlen bosqichiga kelgach tasviriy san`at asarlari bir muncha mukammallasha borgan.

Neolit davri tasviriy san`ati asosan turli xil shakllarga boy bo`lgan manzarali tasvir yuli bilan rivojlanadi. Bu davrga kelib, odamga xizmat qiluvchi, hatto kundalik turmushda ishlatiladigan oddiy buyumlarni, chunonchi, loydan ishlangan idishlarni ham buyashga harakat qilishgan. Kiyimlar, uy jihozlari, qurollarga ham turli xil, ba`zan juda chiroyli naqshlar solingen.

Musiqa san`ati mehnat jarayonida paydo bo`lgan. Ashula ham ish vaqtida chiqadigan ovozlardan va odamning harakatdagi ritmlik bilan chambarchas bog`liq holda paydo bo`lgan, ya`ni ashula dastlab ritmga solingen nutadan iborat bo`lgan. Uning eng dastlabki sodda shakli rechitativ ko`rinish kasb etgan. Demak, ibtidoiny qo`shiqdagagi asosiy narsa ritmdir,

shuning uchun ham sodda qo'shiqlarning so'zlarini ko'pincha ayrim tovush va suzlarni qayta-qayta takrorlashdan nboratdir. Ko'y esa birmuncha keyinroq paydo bulgan. Ibtidoiy davrda cholg'u asboblarn unchalik rivojlanmagan. eng qadimgi musiqa asboblarining barcha turlari — urib chalinadigan, puflab chalinadigan, keyinchalik simlik (kamon yoyining tebranishiga asoslangai xolda paydo bo'lган) musiqa asboblari vaktlar o'tishi natijasida vujudga kela borgan.

Raqs san`atining paydo bo`lishi, ham uziga xos xususiyatga ega. Sodda raqs faqat gimnastika xarakteriga ega ekanligiga hech shubha yuq. Ovga yoki boshqa bir grabila ustiga yurish oldidan tushiladigan rakslar jismoni tarbiya va mashq yoki o'ziga xos ichki junbushga kelish yo bo`lmasa qo'zg'alish xarakteriga ega bo'lган. SHuningdeq ibtidoiy raqlar afsungarlik va totemistik tasavvurlar bilan ham bog'liq bo'lган. Raqs tushganda ashula yoki musiqa chalinadi. Ko`p kabilalarning tilida ashula va raqs bir so`z bilan ifodalanadi. Madlen davriga oid bo'lган suratlarda raks kiyimi kiygan va raks tushib turgan odamlarning tasvirlari uchrab turadi. Demak, raqs yuqori paleolit davridayoq vujudga kelgan.

Sodda raqsdan san`atning yana bir turi—drama kelib chiqishi hakikatdan ham, qoloq kabilalarning rakslari ko`pincha chinakam tasviriy mazmunga ega va pantomima — suzsiz drama san`atining nlk shakllarini ifodalaydi.- Kupgina xalqlarda ekishdan tortib to yig'imterimgacha bo`lган butun dehkonzilik jarayonini ifodalovchi ashulalarga cholg'u asboblari jo'r bo`ladi. SHu bilan birga raqs tushilib, o'sha jarayonlar dramatik ravishda ifodalanadi. Ibtidoiy davrda ogzaki ijodi—folklor (inglizcha, fol'k—xalq, lore - ijodiyot so`zidan olingan) keng rivojlangan, Uning eng dastlabki turi utmish haqidagi rivoyatlar hisoblangan. ertak alohida rivojlangan bo`lsa, doston, topishmoq maqollar bir muncha keyinrok — inson miyasining keyingi taraqqiyoti mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, ma`naviy madaniyatning turli-tuman elementlari kishilik jamiyat moddiy hayotining taraqqiyotiga bevosita bog'liq bo`lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji va tabiat hodisalariga bo`lган munosabatlarning chuqurlashuviga bevosita bohliq bo`lган. Kishilarnitsg moddiy ehtiyojining oshishi natijasida mehnat unumdarligini oshirishga bo`lган intilish hamda shu paytgacha jumboq bo`lib turgan tabiat hodisalarining asl mohiyatini ochishga bo`lган urinishlar ma`naviy madaniyati tashkil etuvchi turli xil elementlarning vujudga kelishiga sabab bo`lган.

Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi misrliklar tuzilishi bo`yicha murakkab, mazmunan boy madaniyat yaratdilar. Bu madaniyat ko`pgina yaqin sharq xalqlarining madaniy taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir ko`rsatdi.

Misr madaniyati to'rt ming yil davomida shakllandı. Qadimgi Misr madaniyatining taraqqiyotini nima belgiladiq Birinchi navbatda, Qadimgi Misr ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, Nil vodiysining o'zlashtirilishi, dehqonchilikning oqilonna tashkil qilinishi, umummisr iqtisodining yuksak taraqqiyoti madaniy o'sishning moddiy asosini yaratdi. Shu bilan birga madaniyat sohasidagi yutuqlar, ta'llim, fan qadimgi misrliklarning umumiyy ma`naviy taraqqiyoti yuksalishi bu ijtimiy-iqtisodiy taraqqiyotni va davlatni takomillashtirishning asosiy sabablaridan biri bo`ldi.

Qadimgi Misr madaniyatida qator o'ziga xos xususiyatlar borki, bu madaniyatni chuqr takrorlanmas tizimini hosil qiladi. Uning o'ziga xosligi va betakrorlanmasligi sinfiy jamiyat va davlatni kelib chiqishi hamda Nil vodiysining yopiq geografik joylashuvi natijasida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirishning qiyinligi bo`ldi. Nil vodiysining tabiiy sharoiti butun Misr madaniyatida chuqr iz qoldirdi. Xo'jalik hayotida Nil daryosining yetakchi o'rni, dengizdan uzoqlik, Nilni o'rab turgan jonsiz sahro, o'zining qumli bo'ronlari, jazirama issig'i, yirtqich hayvonlari bilan qadimgi Misr dunyo qarashini va diniy e'tiqodini, qadriyatlarining butun tizimining xususiyatini belgiladi.

Fir'avnning kuchli hokimiysi orqali tashkil qilingan umum jamoa mehnati bilan misrliklar qulay hayot uchun shart-sharoit yaratdilar. Shu bois tabiatning dahshatli kuchlari oldidagi qo'rquinch, fir'avnning qudratli hokimiysi, dahshatli xudolar, ularning ulug'vorligi va

qudrati qadimgi misrliklarning dunyo-qarashiga singib ketgan edi. Oddiy odamlar qudratli xudolar va yanada qudratli fir'avnlari amaldorlari oldida o'zini juda zaifligi va kuchsizligini his qilgan.

Misr madaniyatiga chuqur konservativm va an'anaviylik xos. Misrliklar o'zlarining madaniy qadriyatlar tizimiga biror bir yangilik kiritishdan qochedilar. Aksincha ularda o'zlariga ma'lum g'oya, qonun, badiiy uslublarni asrash va taqlid qilish uzoq asrlar asosiy tamoyil bo'lib qoldi. Albatta bu hol yangi unsur, g'oya va uslublarni inkor qilmadi, ammo ular asta-sekin paydo bo'ldi. Shu sababli Misr ustalari doimo rioya qilgan an'anaviylik va konservativm Misr san'ati uchun xos bo'lgan konseptuallik va yuqori malakalilik, mohirlik, uyg'unlikni o'zida aks ettirib nihoyasiga yetkazib ishlangan. Bu sof Misr qonun va obrazlarini yaratilishiga olib keldi.

Misr dini. Misrda din ilk urug`chilik jamoalarida vujudga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo`lini bosib o'tgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan fetishizm, totemizm, ayniqsa hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan. Misr xudolarining panteoni juda katta bo'lib, u ilk davrda vujudga kelgan madaniyatga borib taqaladi. Unga odamlar totem-xayvonga, qabila boshlig`iga sig`inishgan. Misrliklarning xudolari xayvon qiyofasida: Anubis-o'liklar saltanatining podshosi, bo'ri boshli qilib tasvirlangan. Tot aql va yozuv xudosi. Soxmet-sher boshli urush iloxasi va boshqalar.

Hayvonlar ilohiy hisoblanib, ular ibodatxonalarda saqlanganlar. Ibodatxonada ular yaxshi parvarish qilingan. Masalan, ilohiy hayvonlardan biri buqa, xuddi shunday parvarish qilingan, u kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu buqaga sigir tanlashda ham ahamiyat berishgan. Agar buqa o'lib qolgudek bo'lsa uni mumiyolab, marosimlar o'tkazib alohida bir qabrga ko'mishgan. Va uning o'rniga yangi tug'ilgan xukizcha izlashgan. Bu juda mushkul ish hisoblangan, chunki ho'kiz qora rangli bo'lib, peshonasida uchburchak shaklidagi oq belgisi bo'lishi kerak bo'lgan. Bunday hayvonni topish juda mushkul hisoblangan. Misrliklar daraxtlarga, o'simliklarga va gullarga ham e'tiqod qilishgan.

Quyoshga sig`inish Misr dinida eng yuqori o'rinda turgan. Misrning o'zi «Quyosh mamlakati», uning fir'avnlari esa «Quyoshning o'gli» deb atalgan. Qadimgi podsholikda Ra-quyosh xodosi hisoblangan, keyinchalik u Amon-Ra bo'lgan. Yangi podsholik davrida esa, fir'avn Amenhotep IV (Exnaton) diniy isloxit o'tkazib, yakkaxudolikni joriy etadi. Ya'ni u hammani Atonga («Quyosh shu'llasi») sig`inishga da'vat etadi. Quyoshning belgisi (ramzi) turlicha bo'lib, u qanotli sher qiyofasida, sher ko'pgina qullar bilan, ya'ni bu qullar nur qiyofasida, lochin qiyofasida tasvirlangan. Unga atab ko'p madhiyalar aytilgan.

Gor (Xor)-zulmatni yenguvchi xudo hisoblanib, u lochin qiyofasida tasvirlangan. Gor Osirisning o'gli. «Osiris va Gor» to`g'risidagi afsona, ayniqsa Misr dinini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Afsonada aytishicha, Osiris-hosildorlik xodosi, qachonlardir Misrning podshosi bo'lgan. U odamlarga yerga ishlov berishni, boglar yaratishni urgatadi. O'zining akasi Set tomonidan o'ldiriladi. Set-zulmat va yovuzlik xodosi hisoblanadi. Osirisning o'gli Gor Setni maydonga kurashga chaqirib, uni yengadi. Shundan so'ng, Gor g'olib chiqishi uchun o'zi ko'zini Osirisga berib, uni qayta tiriltiradi. Qayta tirilgan Osiris esa yerga qaytmaydi, u yer osti saltanatining o'liklar podshosi bo'lib qoladi. Shunday qilib, uning yerdagi merosxo'ri sifatida Gor tiriklar saltanatida qoladi.

Ko'mish marosimlari. Misr madaniyatida o'lim bilan hayot doim bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajalsiz ruh Misr dinida alohida o'rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko'mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bo'lgan. Masalan, sax-inson tanasi, shunt-uning soyasi, rek-uning ismi, ax-uning arvohi hisoblangan. Bu yerda eng muhim rolni Ra-insonning joni, ya'ni ajalsizlikning negizi o'ynagan. Misr diniga ko'ra Ra o'z jasadiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bo'lgan. Chunki odam o'lganda, uning faqat tanasi o'ladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyoga, o'liklar saltanatiga mangu yashash uchun ketadi. Shunday qilib insonning tanasini abadiy saqlash fikri tug'iladi va mumiyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek ularning tanasiga hech qanday shikastlar yetmasligi uchun yoki boshqa shovqinlardan xalos bo'lish uchun

piramidalar qurish fikri to'gilgan. O'lik 70 kun ichida mumiyolanib ko'milgan.U 70 kundan so'ng narigi dunyoga mangu yashash uchun ruhi jo'natilgan. O'liklar sultanatiga borgan odamlarni ikkinchi o'lim kutgan. Bu esa asosan «O'liklar kitobi», «Darvozalar kitobi», “Yer osti g'orlari kitobi» kabi kitoblarda ko'rsatilgan.

Qadimgi misrliklarning dini Nil vodiysining tabiiy shart-sharoitlarini o'ziga xos xususiyatlarini,qadimgi Misr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining alohida tomonlarini fantastik aksi edi. Misrliklar oy,quyosh, Nil vodiysi, uni atrofidagi sahroni, yirtqich hayvonlar va tabiatning har xil kuchlarini ilohiylashtirdilar. Ular sun'iy sug`orish tizimini tashkil qiladigan,insonlar ustidan amr qiluvchi fir'avnga e'tiqod qildilar.

Misrliklar mingga yaqin har xil xudolarga sig`inganlar. Xudolar mahalliy va umumisr miqyosida e'tiqod qilingan ilohlarga bo'lingan. Qaysi bir nom hukmdori-umummisr hukmdori fir'avnlik taxtiga o'tirsa, shu nomning xudosi umummisr xudosiga aylangan. Misol uchun nom markazi bo'lган Fiva Misr poytaxti bo'lganda hech kimga ma'lum bo'lмаган Fiva xudosi Amon xudolar ichida bosh xudo deb tan olindi.

Misrda oliv xudolar quyosh xodosi Ra, yaratuvchi xudo Ptak, xudo Amon Raning ko'pgina vazifalarini olish bilan Misrning bosh xudolaridan biriga aylangan. Amon Ra dunyoni yaratuvchisi, podsho hokimiyati,Misr harbiy qudratining homiysi bo'lган.

Osiris o`layotgan va uyg`onayotgan tabiatni aksi, u dunyoning hukmdori podsho hokimiyati homiysi bo'lган. Uning rafiqasi Isida ona xudo, onalik va er-xotinlik muhabbatini homiysi bo'lган. Ularning o'gli ham osmon va yorug`lik ifodasi, fir'avn homiysi bo'lган. Donolik va hisob xodosi Tot,qudrat ramzi ma'buda Soxmet osmon, quvонch-sevgi xodosi Xatxor bo'lган. Bilim xodosi Sia, adolat xodosi Maat abstrakt tushunchani ifodalaganlar.

Misr, Nubiya, Falastin, Suriya bilan yaqin aloqada bo'lGANI sababli chet el xudolari Anat, Astarta, Ma'bud Reshefa (Semit), Dedun (Kush xodosi) Misr xudolari panteoniga qabul qilingan. Misr diniy tasavvurlarida fetishizm va totemizm qoldiqlari saqlanib qoldi. Misrliklar o'z xudolarini hayvon, ilon, qurbaqa tarzida tasavvur kilishlari shu sababli edi. Xudo Apis-kuchli ho'kiz qiyofasida ma'buda Soxmet-sher, Tot-pavian, suv girdobi xodosi Sebek-timsox, Yuqori-Qui Misr birligi timsoli ma'buda Uadjet-ilon-kobra tarzida ifodalanganlar.

Xudolarning ko'pligi, ularning vazifalarini bir-biriga bog`lanib ketishi koxinlarning xudolar panteonini tartibga solish, ular o'rtasida aniq munosabatlarni o'rmatish vazifasini qo'ydi. Geliopol kohinlari ma'lum darajada xudolar o'rtasidagi munosabatlar va ularning dunyoni yaratishdagi rolini ko'rsatadigan tizimni ishlab chiqdilar. Shunga ko'ra, dastlab ibridoiy suv xodosi Nun yashadi, undan xudo Atul (Ra) paydo bo'ldi. Atul Ra o'zidan suv xodosi Shu va uning xotini Tefnut namlikni paydo qildi. Ulardan yer xodosi Geb, osmon mabudasi Nut tug'ilib, o'z navbatida ulardan Osiris, Isida, Sia va Neftida tugilgan. Bu qadimgi ilohlar ilk ilohiy to'qqizlik-Enneada oilasiga birlashdi, ana shulardan boshqa Misr xudolari tarqaladi.

Kohinlarning Fiva maktabi esa ilk xudo, xudolar va odamlar dunyosini o'z ilohiy so'zi bilan Ptak yaratgan deb hisoblaganlar. Kohinlar to'qqizlikni ajratishdan tashqari xudolarni birlashtirgan boshqa oilalarini yaratganlar. Qaysiki oila ota-xudo, ona-ma'buda, o'gil-xudo(xudolar triadasi)dan tashkil topgan. Shunday birlashganlardan Osiris, Isida, Xor(Abidos triadasi), Ptak, Soxmet, Nefertum(Memphis triadasi), Amon, Mut, Xonsu (Fiva triadasi).

Fir'avn shaxsini ilohiylashtirish alohida rol o'ynadi.Kohinlar ta'lomitiga ko'ra, fir'avn inson ko'rinishidagi xudoning aksidir. U ikki xil inson va ilohiy tabiatga ega bo'lган. Uning tug`ilishi Amon Ra bilan fir'avnning yerdagi onasining nikohi natijasidir. Yerda fir'avn xudo Xorning aksi sıfatida boshqargan, o'limidan so'ng xudo bo'lib Osiris bilan tenglashtirilgan. Podsholik qilayotgan va vafot qilgan fir'avn o'z ibodatxonasi, koxinlarning qurbanlik keltirishi qabilarga ega bo'lган. Fir'avnning ilohiyligini ramziy aks etishi sfinks ko'rinishida bo'lган. Misrda yagona xudoga sig`inish konsepsiysi o'z o'rnini topmadi. (Exnaton islohoti).

Diniy urf-odat, an'analarga Misrda qat'iy rioya qilingan. Xudolarga sig`inish uchun ibodatxonalar, haykallar bunyod qilingan. Minglab kohinlar diniy bayram va marosimlarni tashkil qilganlar. Misr dinida u dunyodagi hayotga katta o'rin berilgan. Inson go'yoki, uch asosiy

substansiya jismoniy tana, uning ma'naviy ko'rinishi («Ka») va uning ruhi («Ba») dan iborat. Faqat shu uch unsurning birgalikda yashashga imkon beradi. Demak, shunday ekan, odamlarning jasadini saqlash (mumiylash) kerak. Ana shundagina mumiyo oldida («Ka») va «Ba» turadi. O'limdan keyingi hayot bu hayotning davomi deb tushuniladi.

Til, yozuv, ta'lim tizimi. Qadimgi misrliklarning tili va yozuvi ming yillik tarix davomida o'z taraqqiyotining 5 bosqichini bosib o'tdi. Qadimgi podsholik davridagi til: o'rta misr-klassik tili (chunki bu tilda noyob adabiy asarlar yaratilgan) yangi Misr tili (er. avv. XIV-VIII asrlar), demotik til (er. avv. VIII–eramizning V asri); kopt tili (III–VII asrlari); qadimgi podsholik aholisi tilini yangi podsholik aholisi tushunmagan, Misr tili chetga chiqmagan. Eramizning III asridayoq qadimgi Misr tili o'lik edi. Uning o'rniga yangi kopt tili keldi. VII asrda kopt tilini arab tili siqib chiqardi. Hozirgi kunda Misrda faqat 4,5 mln kishi kopt tilidan foydalanadilar.

Misr yozuvi er.avv. IV ming yillik oxirida rasm-yozuv, piktografiya asosida kelib chiqdi. Faqat o'rta podshoik davriga kelib rivojlangan yozuvga aylandi. Er.avv. II ming yillikda 700 iyeroglis keng ishlataligani. Yozuv uchun material sifatida tosh (inshoot, sog`ona, haykallar) loy taxtachalar (ostrakon), yog`och, charm va papirus xizmat qilgan.

Adabiyot. Misrliklar dunyoda eng qadimgi qiziqarli g`oyalar, badiiy obrazlar bilan sug`orilgan boy adabiyotlarni yaratdilar. Adabiyot uchun qulay omil bo'lib xalq og`zaki ijodi xizmat qildi. Ilk abadiy asarlar er.avv. IV ming yillikda paydo bo'ldi. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimai hollari, diniy matnlar va poetik asarlar qadimgi podsholik davridayoq paydo bo'ldi.

O'rta podsholik davrida janrlarning xilma-xilligi ko'paydi. Yuqori darajada yozilgan prozaik asarlar paydo bo'ldi (Sinuxet hikoyasi). Yangi podsholik davrida Misr adabiyoti g`oyaviy-badiiy tugallanish davrini boshdan kechirdi.

Misr adabiyotida **nasihatnama** va **bashoratlar** didaktik janri to'laroq aks etgan. Nasihatnomalardan eng qadimgisi «Ptaxotep nasihatnomasi»dir. Keyingilari «Gerakleopol podshosi Axtoyning o'gli Merikaraga nasihatni», «Fir'anv Amenxemxet I ning nasihatnomasi» kabi asarlarda davlatni boshqarish qoidalari bayon qilingan. «Axtoyning o'gli Dauafaga nasihatni»da mirzolikni boshqa kasblardan afzalligi ko'rsatiladi.

Yangi podsholik davrida nasihatnomalardan «Ani nasihatni», «Amenemope nasihatni»da turmush axloqi va an'anaviy axloq qoidalari batafsil bayon qilinadi.

Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllanadi. Ulardan eng mashhurlari «Fir'avn Xufu va sehrgarlar», «Kema halokatiga uchraganlar to'g'risida», «Egri va to'g'ri to'g'risida», «Ikki aka-uka to'g'risida» va fir'avnlar Petubastis to'g'risidagi bir necha ertaklardir.

Misr adabiyotining «Sinuxet hikoyasi» qissasi, «Arfa chaluvchi qo'shig'i» poetik asari kabi namunalari o'sha davr to'g'risida va yuksak adabiy janr shakllanganligining dalilidir. Turli janrlar orasida adabiyot alohida o'rinn tutadi.

Ko'pgina afsonalar, qayta ishlangan diniy madhiyalar Osiris mashaqqatlari, xudo Raning yer osti podsholigiga sayohati hikoya qilingan sikllari mashhur bo'lган. «Ko'ngli qolgan kishining o'z ruhi bilan suhbati» nomli falsafiy dialog shaklida yezilgan asar diqqatga sazovor. Dialogda dunyodagiadolatsizlik, huquqsizlik va yovuzlikdan azob chekkan kishi taqdiri hikoya qilinadi.

Tasviriy san`at va memorchilik. Nilning aholisi, moddiy resurslari va Misrning siyosiy qudrati memorchilik va tasviriy san`atning gullab yashnashiga sabab bo'ldi. Memorchilik va tasviriy san`at sekin –asta mavjud tuzumni, uning davlatchiligini va ma'naviy qadriyatlarini mafkuraviy oqlashga xizmat qila boshladi.

Misr memorchiligi, haykaltaroshligi va rel`yef san'atida badiiy vosita va bosh maqsadlarni asosiy arsenalini shakllantirdi. San'atning diniy e'tiqodga o'ta qaramligi yaqqol seziladi. Er. avv.III ming yillikdayoq Misr san'atining yetakchi yo`nalishlari bo'lgan xudo va

fir`avnlarning cheksiz qudrati g`oyasini tashkil etish shakllandi. Bu g`oyalar piramida va ibodatxonalar, ulkan haykallarda o`z aksini topdi.

Me'morchilikda xudo fir'avn piramida-qabrlari, ibodatxonalar qurish ustivor ahamiyat kasb etdi. Sog`onalarning ikki xili: yer usti sog`onalari (VI sulola piramidalari) va qoyaga o`yilgan sog`onalari (yangi podsholik davrida) keng tarqaldi.

Piramida va sog`onalalar qurish uchun I-II sulola fir'avnlari dafn qilingan mastabalar namuna bo`lib xizmat qildi. III sulola fir'anvni Joser uchun balandligi 60 m bo`lgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba o`rnida qurildi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma-ust qo`yilgan mastaba edi. IV sulola fir'avni Xufu piramidasi (146,6 m balandligi, uzunligi 233 m, maydon hajmi 54 ming.kv.m, 2 tonna 2,3 mln. tosh), Xafra piramidasi (balandligi 140 m, uzunligi asosi 220 m), Xafradan keyin piramidalar kichik hajmda qurila boshlandi. Ibodatxonalar qurilishi o`zgacha me'morchilik shaklida bo`ldi. Karnak va Luksorda Amon-Raga bag`ishlab ibodatxonalar qurildi. Bu ibodatxonalar xarobalari bizgacha yetib kelgan. Ular juda baxaybat hajmda, atrof manzaraga qo'shilib ketgan, hashamatli bezalgan edi. Ularda yuzlab keng xonalar, katta hovlilar, xudolarning ulug`vor haykallari, sfinks, pilonlar va alleyalar mavjud. Karnak ibodatxonasida kolonna zali 5,5 ming kv.metr bo`lib, 134 kolonna bor. 12 markaziy kolonnaning balandligi 21 m, 10 m. aylanasi 15 m. Har qaysi kolonnaning yuqori maydonida yuz kishini joylashtirish mumkin. Ibodatxonada 500 ta toshdan, 17 ming jez haykal va haykalchalar mavjud bo`lgan qadimda yashirib qo`yilgan joydan topilgan.

Dayr-al Baxrdagi malika Xatshepsut ibodatxonasi va Ramzes III ning Madinat Abudagi (Fiva) ibodatxonalari ulug`vor qurilgan. Yana shunday ibodatxonalar qoyalarga uyib yasalgan (Ramzes III ning Nubiyadagi Abu Simbel ibodatxonasi).

Yana bir me'morchilik san'ati namunasi podsho saroyi qarorgohi monumental shaklda qurilgan. Barcha ibodatxona va saroylar rel'yeflar, boy devoriy rang tasvirlar bilan bezatilgan.

Ilmiy bilimlar. Misr madaniyatida fan yetakchi o'rinn tutadi. U asosan matematika, astronomiya, tibbiyot yo`nalishlarida rivojlandi. Misr kalendari osmon jismlari va Nil daryosi rejimi asosida tuzilib, yil uch mavsum, har mavsum to`rt oyga bo`lindi. Oy un kunlik dekadani tashkil etgan. Yilda 36 dekada bo`lgan, oxirgi oyga 5 kun qo'shilib kalendar va astronomik yil (365 kun) tenglashtirilgan. Sutka 24 soatga bo`linib yozda kunduz soatlari uzoq, qishda qisqa bo`lgan. Misrliklar yulduzlarning aniq kattaligini tuzganlar. Suv va quyosh soatlarini kashf qilganlar. Ular 10 lik tizimga yaqin hisobni yaratdilar. Ular qo'shish, ayirish, bo`lish va ko`paytirishni bilganlar.

Misr vrachlari butun Old Osiyoga mashhur bo`lganlar. Bizgacha 10 tibbiyot papirusi yetib kelgan. Vrachlar 100 ga yaqin kasalliklarni davolash usullarini bilganlar. Qon aylanishi va yurak faoliyati to`g`risida bilimga ega bo`lganlar. Misrliklar qadimgi so`z ensiklopediyalarini tuzganlar.

Qadimgi Mesopotamiyada maktab va kutubxonalar faoliyati;

Maktablar. Qadimgi Shumer va keyingi Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o`chog'i bo`lgan. Maktabda asosan shumer tili va adabiyoti o`qitilgan. Yuqori sinf o`quvchilari kelajakda tor mutaxassislashuvga qarab grammatika astronomiya va matematikadan bilim olganlar. O`zini fanga bag`ishlamoqchi bo`lgan o`quvchi bo`lsa huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o`rgangan. Maktabda jismoniy jazo keng qo'llanilgan. Mesopotamiya maktablari o`quvchilarining sinf xonasida fanlarni o`rganish uchun loy taxtachalarda yozgan mashq matnlari bizgacha yetib kelgan.

Kutubxona. Bobil va Osuriya madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri kutubxonalar edi. Er. avv. II ming yillikdan boshlab Ur, Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlardan iborat ilk kutubxonalar paydo bo`ladi.

Qadimgi Sharqning eng mashhur kutubxonasi Ashshurbanipalning (er.avv.669-635 yillar hukmronlik qilgan) Nineviya shahrida to`plangan 30.000 taxtachadan iborat kutubxonasi bo`lgan.

Loy taxtachalarga podsho annallari, muhim tarixiy voqealar xronikasi, qonunlar to'plami, adabiy asarlar va ilmiy matnlar yozilgan. Ashshurbanipal kutubxonasining alohida ilmiy qimmati shundaki, bu kutubxonada dunyoda birinchi marta kitoblar tizimli to'plangan va ma'lum tartibda joylashtirilgan. Ko'pgina kitoblar bir necha nusxada mavjud. Katta matnlar bir xil hajmdagi loy taxtachalarda bayon qilingan. Shunday matnlar qirqdan yuztagacha taxtachaga yozilgan. Har bir taxtachada undan foydalangandan so'ng o'z o'rnila qaytarish imkonini bergen tartib raqamlari qo'yilgan.

Arxivlar. Qadimgi Mesopotamiya arxivlar makoni bo'lgan. Eng qadimgi arxivlar er.avv. III ming yillikning birinchi choragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgan taxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. Er.avv. XIX asrga oid Ur shahri arxiv maxsus xonada yog`och tokchalarida saqlangan. Er.avv. XVIII asrga oid boy arxiv Mari podshosi saroyidan, Uruk shahridan er. avv. VIII-VI asrlarga oid 2500 xo'jalik hujjatlari arxivli topilgan.

So'z janri. Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shumer shahrini qo'shni qabilalar hujumlar natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rinni tutadi. «Ur shahri aholisining falokati motam yig`isi» (er.avv. XX asr oxiri) asarida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiyinalishi, yong'indan qolgan uylarda halok bo'lganlarni tafsilotlari batafsil tavsiflagan.

Shumer adabiyotining eng mashhur-namunasi afsonaviy qahramon Gilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Bu asar akkad tilida qayta ishlangan nusxada to'laroq ko`rinishda Ashshurbanipal kutubxonasida topilgan. Er.avv. II ming yillik oxirida Bobilda akkad tilida yozilgan falsafiy mavzudagi «ha men donolik ilohini sharaflayman» asari saqlanib qolgan. U aybsiz, mashaqqat chekkan kishining shafqatsiz taqdiri to'g'risida hikoya qiladi.

Shu mavzuga yaqin «Bobil teodisiysi: (so'zma-so'z tarjimasi, «xudoni oqlash») poemasi er.avv. IX asrda paydo bo'lgan. Uning muallifi podsho saroyida koxin bo'lib xizmat qilgan, Esagil kuni-Ubbib nomli kishi bo'lgan. Asarda bobilliklarning qiziqtirgan diniy-falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Er.avv X asrga oid «Qul menga bo'ysun» asari hayotga umidsizlik ruhida yozilgan. U xo'jayinning o'z qo'li bilan dialogi tarzida yozilgan.

Katta badiiy qiymatga ega bo'lgan Osuriya annallari osur jangchilar bo'lgan begona davlatlar tabiatini to'g'risida ritmik tilda yozilgan. Eng mashhur Osuri asari bu Osuriya podsholarining dono kotibi va maslahatchisi Axikar to'grisidagi qissadir. Kissat to'liqroq holda suriya tilida saqlanib qolgan.

Yozuv. Mesopotamiya – jahon sivilizasiysi va qadimgi shahar madaniyatining ilk o'choqlaridan biri. Bu madaniyatning ilk asoschilaridan biri shumerlar bo'lib, ularning yutuqlarini bobilliklar va osuriyaliklar o'zlashtirib, davom ettirdilar. Mesopotamiya madaniyatining manbalari er. avv. IV ming yillikda shaharlar paydo bo'lishi bilan boshlandi. Uning uzoq yashash davrida unga xos ichki birlik, an'analarni merosiyligi, uning unsurlarining ajralmas aloqasi saqlanib qoldi. Mesopotamiya madaniyatining boshlang'ich davri o'ziga xos yozuvning shakllanishi bilan belgilanadi. Keyinchalik bu yozuv mixxatga aylanadi. Mixxat Mesopotamiya sivilizatsiyasining asosiy ildizi bo'lib uning barcha jihatlarini birlashtirgan an'analarni saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Er.avv. IV-III ming yilliklarda shumer yozuvi paydo bo'ldi. Taxminlarga ko'ra bu yozuv shumerlar Mesopotamiyaga kelganga qadar noma'lum xalq tomonidan kashf qilingan. Shumerlar bu yozuvni sivilizasiya xizmatiga qo'yidilar.

Dastlab shumer yozuvi pictografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalangan. Shunday yozuvdan eramizdan avvalgi III ming yillikdan boshlab foydalanilgan. Piktografiya juda sodda bo'lib, haqiqiy yozuv emas edi, u so'zlarni ifodalamas edi. Sekin-asta u mixxatga aylandi. Mixxatga 600 belgi bor edi.

Er. avv. XXIV asrda ilk batafsil yozilgan shumer matnlari paydo bo'ldi. Akkad tili janubiy Mesopotamiyada er.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Shumer va akkad tillari bir-biridan ko'pgina so'zlarni o'zlashtirib oldi. Er. avv. III ming yillikning oxirida qadimgi Shumer–akkad lug'atlari tuzilgan. Shumer yozuvi keyinchalik shumer–akkad yozuvini butun Old Osiyo xalqlari o'zlashtirib oldilar.

Akkad tili Old Osiyo xalqaro diplomatiya tiliga aylandi. Qadimgi Meosopotamiyada loy mo'l-ko'l edi. Loy taxtacha yozuv uchun asosiy manba bo'lib, xizmat qildi. Taxtacha loydan yasalib tuzlardan kuydirish yo'li bilan tozalangan. Mesopotamiyada o'rmon bo'limganligi sababli, faqat eng muhim matnlar yozilgan loy taxtachalar (podsho yozuvlari, kutubxonada saqlanishi lozim bo'lgan asarlar) kuydirilgan. Qolgan taxtachalar oftobda quirtilgan. Odatda, taxtachalar yetti-to'qqiz sm. uzunkorda bo'lgan. Yozuvlar ba'zida tosh va metall taxtachaga ham yozilgan.

Er.avv. I ming yillikda bobillik va osuriyaliklar yozuv uchun teri va chetdan keltirilgan papirusni ishlata boshlaganlar. Shu vaqtini o'zida Mesopotamiyada yog'ochdan qilingan uzun taxtachaga mum surtib mixxat belgilarini tushirganlar. Er. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari o'limga yuz tutdi.

Din. Qadimgi Mesopotamiya mafkuraviy hayotida din hukmron o'r'in egallagan. Er.avv. IV-III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga keladi. Har bir shumer shahri o'z xudo homiysiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, umumshumer shaharlari sig'ingan xudolar bo'lgan. Bu osmon xudosi Anu, yer xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat stixiyasi kuchlarini aks ettirganlar. Ko'pincha ular koinot jismiga o'xshatilgan. Har bir xudoga alohida vazifa yuklatilgan. Enlil taqdir xudosi, shaharlar asoschisi hamda motiga va omoch kashfiyotchisi, quyosh xudosi Utu (Akkad mifologiyasida Shamash), Oy xudosi Ninnar, Enlilning o'g'li sevgi va hosildorlik xudosi Innana (Bobil va Osuriya panteonida Ishtar) abadiy hayot, tabiat xudosi Dumuzi (Bobilda-Tammuz) keng tarqalgan.

Urush xodosi kasallik va o'lim xodosi Nergal (Marsen) sayyorasiga o'xshatilgan. Bobil bosh xodosi Marduk – Yupiter bilan Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yozuv va hisob xodosi Merkuriy sayyorasiga o'xshatilgan.

Xudolardan tashqari, ko'p sonli ezgulik devlariga sig'inilgan. Turli xil kasalliklar sababchisi bo'lgan yovuz devlarni rahmdil qilishga harakat qilganlar. Devlar yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlanganlar. Odamlar o'zlarini odam boshli, qanotli ho'kiz sifatida ifodalaganlar. Qanotli ulkan haykallar Osuriya podsholari saroylari kirishini qo`riqlaganlar.

Shumer va akkadlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi qaysiki, o'liklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar. Loy, chang bilan ovqatlanadilar. Shuning uchun marhumlarning bolalari ularga qurbanlik keltirishga majburdirlar.

Ilmiy bilimlar. Qadimgi Mesopotamiyada dunyoning ilmiy bilishda ma'lum yutuqlarga erishildi. Bobilda ayniqsa, matematika fanlari amaliy maqsadlar uchun yuzaga kelib, yuqori darajada rivojlanadi. Qadimdayoq, bobilliklar zikkuratlarning yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik-astronomiya vujudga keldi. Astronomlar yulduzlar o'rtasidagi masofani astronomik hisob-kitob qilganlar. Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan. Shu davrda Bobilda mashhur astronomlar Naburian va Kiden yashaganlar. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat 41 minut va 41,6 sekund xisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor yo`g'i 7 minut, 17 sekundga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan bog`langan edi.

Bizgacha juda ko'p Bobil tibbiyot matnlari yetib kelgan. Mesopotamiya vrachlari chiqqan va singan suyak bo`g`inlarini davolay olganlar, lekin odamning ichki kasalliklarni davolay olmaganlar. Er. avv. III ming yillikdayoq mesopotamiyaliklar Hindistonga boradigan yo`lni, er. avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo`lni bilganlar. Bizgacha yetib

kelgan xaritalar bobilliklarning o'z geografik bilimlarini tizimga solishga harakat qilganliklarini ko'rsatadi.

San'at. Qadimgi Mesopotamiyaning san'atini shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an'analari hal qiluvchi rol o`ynaydi. Tosh o`ymakorlik er.avv. III ming yillik boshlarida shakllandı. Toshga naqshlar o`yish (gliptika) er.avv.I asrigacha yuksak darajada rivojlandı. Er.avv. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo`lib, birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo bo`ladi.

Er.avv. II ming yillik boshlaridan qurbanlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san'ati rivojlanadi. Mesopotamiya san'ati er.avv. VIII-VII asrlarda Osuriya davlatining gullab-yashnagan davrida o`zining yuqori cho`qqisiga chiqadi. Bu asosan relief san'atida o'z aksini topgan. Bu davrda ulug`vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlandi.

Er.avv. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdo-hunarmandchilik madaniyat markazlari bo`lgan katta shaharlar paydo bo`ladi. Mesopotamiyadagi osuk podshosi Sinaxxreb tomonidan er. avv. 705-681-yillarda qurilgan, maydoni bo'yicha Old Osiyoda eng katta shahar Osuriya poytaxti Nineviya edi. Shahar 729,7 ga yerni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan.

Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta er.avv. XVII asrda boshlanadi, temirdan foydalanish esa, kechroq er.avv. XI asrga boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san'ati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti, qadimda ko'pgina sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o`lchov mezoni bo`lib xizmat qildi.

Qadimgi Hindiston madaniyati

Qadimgi Hind adabiyotida markaziy o'rinni diniy adabiyot yodgorliklari egallaydi. Ularning eng qadimgilari vedalar, o'qituvchidan o'quvchiga og`zaki uzatilgan. Veda madhiyalarining katta qismi qurbanlik rasm-rusumlariga bag`ishlangan. Er. avv. I ming yillikning II yarmida budda adabiyoti shakllangan. Ilmiy va didaktik ruhdagi adabiyotlardan er. avv. V-IV asrlarda Panini tuzgan sanskrit grammatikasidir. Bu mutaxassislarning fikricha jahon fanida XIX asrgacha tilning eng yaxshi bayon qilingan asaridir. Hindistonda yozuv kechroq paydo bo`lgan, uning ilk namunalaridan biri Ashoki yozuvlaridir.

Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o`qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytildigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi.

Eramizning I asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo`lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to'planadi, uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Me'morchilik va san'at. Maurilar davridan so'ng, g`isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar g`arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor.

Yer ustidagi monastirlardan biri Sanchida bunyod qilingan. Sanchida tepalik ustida ulkan budda monastiri qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoki yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir. Maurilardan so'ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoliy g`arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Eramizning birinchi asridan Gandxara maktabi ellin va Rim madaniyati ta'siri ostida shakllangan. Gandxara uslubi kushonlar davrida markaziy va sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta'sir qildi.

Madxura va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog`langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar hind va janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandı. Maurilar davridan keyin ming yil davomida hind tasviriy san'atining noyob yodgorligi g`ordagi Ajanta ibodatxonasi va budda monastirlari yaratildi. Monastirlarning ba'zi zallari devorlarida budda afsonalaridan manzaralar tasvirlangan. Ajantadagidek noyob tasvirlarga o`xshash tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qilish, lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Janubiy Osiyoda Maurilardan so'ng, turli davlatlarni gullab-yashnashi dunyoviy adabiyot-drama, poeziya va proza, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorliklarni yaratilishiga sabab bo'ldi. I ming yillikning o'rtalarida (shimoliy Hindiston Guptalar davri) qadimgi janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining yakuni bo'ldi.

Vedalar. Qadimgi hind adabiyotining mashhur yodgorligi «Rigveda»ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriyarning diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi.

Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud emas. Xudolar samoda yashaydi. Oriylar xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish, olovga moy quyish, arpa donini tanlash bilan ifodalangan, guyeki qurbanlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbanlikdan to'yib yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar.

Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lman. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lgan. So'nggi veda davrida koxinlar aloxida toifa, braxmanlar varnasini tashkil qilganlar va boshqa varnalardan mavqelari yuqoriligidagi da'vo qilganlar. Uch varnadan birortasining to'la huquqli azosi bo'lish uchun faqat bu varnada tug'ilish emas balki braxman o'qituvchining uyida o'qish va maxsus bag'ishlov marosimlaridan o'tishi lozim edi. Bag'ishlov marosimida bolaga muqaddas ip ilganlar bu «ikkinci tug'ilish» hisoblangan. Shudralarga marosimga ishtirok etishga ruxsat berilmagan. «Ikkinci tug'ilish» marosimi Veda matnlarini o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergen. Veda matnlarini o'qituvchidan o'quvchiga faqat og'zaki uzatganlar. Natijada vaqt o'tishi bilan matnlar mazmun o'zgarib ketgan.

Budda dini. Er. avv. I ming yillik o'rtalarida yangi diniy e'tiqodlar vujudga keldi. Ularning eng muhimi budda dinining «Uch qimmat»i edi. Bu Buddaning o'zi, draxma-uning ta'limoti va sangxa-unga e'tiqod qiluvchilar jamoasi hisoblanadi. Budda dinining asoschisi Shaq'ya zodagon urug'idan bo'lgan shaxzoda Sidxartxa Gautama bo'lgan. Uzoq azob chekishlardan so'ng, daraxt soyasida Sidxartxaga yorug'lik ma'rifati tushadi. Shundan so'ng, Sidxartxa ma'rifatli (Budda) bo'ladi.

Budda ta'limotining o'ziga xos xususiyati u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish o'lim va kasalliklar bilangina bog'liq emas, balki eng yaxshi bo'lib qayta tug'ilishlar zanjiri bilan bog'langan. Azob ko'rishning sababi yangi hayotda boylik, huzurhalovat, yaxshi hayot kechirish yoki yaxshi taqdir uchun kuyib-pishishdir. Qiynalishlardan qutilishning yo'li o'z ruxi, yurish-turishi, ustidan to'la nazorat o'rnatish va buning oxirgi maqsadi nirvana («uchish, sun'iy»)bo'lib, shundan so'ng, kishi zanjirni yorib o'tadi va u boshqa tug'ilmaydi. Buddaviylikni ilk o'qituvchini tasvirlash ananasi yo'q edi, faqat budda ramziga tayanadigan asosiy e'tiqod inshooti stupa-soyabon ostidagi sun'iy tepalik edi. Dindorlar stupa va undagi Buddha sochi yoki tishiga chapdan o'ngga (quyosh bo'yicha) o'zini gunohlardan holi qilish uchun bu dune hayotidan u oilasidan, mulkidan tashqi an'anaviy aloqlardan ruhiy bog'lanishlardan kechishi kerak. Buddha muridlari qizg'ish kiyimda, sochlari taqir olinib, qishloq va shaharlarni kezib, sadaqa so'rab yurganlar. Ularni bxikshu (gadoy) deb ataganlar.

Budda dini uchun turmush marosimi hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Dindorlar avvalgiday to'y, o'lim marosimlariga braxmanlarni chaqirar edilar. Buddha matnlari mahalliy so'zlashuv tillarida tuzilgan bo'lib, aholiga tushunarli edi. Braxmanlar esa, sanskrit adabiyotini aholining juda ko'p qismidan yashirar edilar. Buddha dini ayniqsa, shahar aholisi o'rtasida keng tarqaldi, chunki shahar paydo bo'lishining o'zi an'anaviy urug'chilik ijtimoiy aloqalarini yemirilishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi, shaxsning jamoadan ajralishi bilan bog'liq edi.

Buddaviylik e'tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida bo'ldi. Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g'oyasini ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinadi degan tushuncha mavjud edi. Adolatni tarqalishi bir vaqtin o'zida hukmdorning hokimiyatini kuchayishi bu diniy g'oyaga to'gri kelishini bildiradi. Dastlab

budda dini xudosizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o'zgardi. Uning tasviri paydo bo'ldi. Ibodatxonalar kurilib, budda ilohiy mavjudot ekanligi aytala boshlandi. Dunyoning oxirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddanining kelishi tushunchasi shakllana boshlaydi. Buddha maktablari ikki asosiy yo`nalish: «kichik arava» («yoki qutilishning tor yo`li») va «buyuk arava» («yoki qutilishning keng yuli») dan iborat edi. Ularning birinchisi eng qadimiylikka da'vo qilib, Ashoki davridayiq Lanka orolida va keyin janubiy-sharqiy Osiyoga tarqaldi. «Buyuk arava» ta'limoti yanada kattaroq yutuqlarga erishdi. Kushon podsholari homiyligi ostida bu yo`nalish O'rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaldi.

Hinduizm. Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari daraxtlar, tog`, suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig`inish tashkil etadi.

Hozirgi kunda ham hinduizmda, qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig`inish katta rol o`ynaydi. Hinduizmda bosh yaratuvchi – xudo goyasi mavjud. Bu xudo Vishna bo`lib, u hayvonlar sirtlon, baliq, toshbaqalar, yoki insonlar odatda qora tanli podsho, yoki cho`pon (krishnalar) qiyofalarida namoyon bo`ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi.

Boshqa hinduistlar bosh xudo deb sopol parchalarini osgan asket (davrish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko`pincha unga bag`ishlangan muqaddas ho`kiz hamkorlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilarga bo`linadi.

Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Hinduizmda ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo`ldi. Bayram tantanalarining eng muxim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bo`lib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibodatxona oldida uning xizmatchilar koxinlar, raqqoslari, musiqachilar yashagan.

Hinduizm mafkurasing asosiy belgilari «Bxagavadgita» («Xudo qo'shiqlari») poemasi bo`lib, «Maxabxarot» tarkibiga kiritilgan. Hinduizmning axloqida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda inson muloqoti o'z ijtimoiy doirasi bilan cheklanish kerak. Kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish ta'qilanganadi. Nikohni bolalikda o'kitish odati tarqalgan. Bevani o'z erini gulganda kuydirgan paytda o'ziga olov berishi eng savob ish hisoblangan.

Qadimgi Xitoy madaniyati

Mifologiya va din. Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g`risidagi manbalar asosan er. avv. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra ikki guruh yoki sikllarga bo`linadi.

Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g`risidagi asosiy konsepsiya, bo`linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, Yan va qorong`ulik (ayol)ning boshlanishi - In paydo bo'lган. Ikkinci konsepsiya barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi bu transformasiya natijasidir deb tushuntiradi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan.

Tabiat stixiyalari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g`risida afsonalar ko`pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg`oqchilik hodisalari afsonalarda ko`p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g`risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o`rgatgan; ilk bor shox-shabba chaylani ko'rgan. Baliq ovi va ovchilik usulini kashf qilgan; ilk dehqonchilik qurollarini yasagan, donni bug`da pishirishni o`rgatgan qahramonlar mavzusi yetakchi o'rinni tutadi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlanganlar. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir.

Qadimgi xitoyliklar u dune to'g`risidagi tushunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat vanga tegishli, osmonda xamma jismlar Oliy xudo (Di)ga buysunadi. Di qudratli, u odamlarga marxamat qiladi yeki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga hosilni sovg`a qiladi, qurg`oqchilik yuboradi, yomg`ir va shamol Diga

bogliq. Dining yaqinlarini Vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yerdam berish to'grisidagi iltimosini Diga yetkazadi. Vanning oliy koxin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunesi o'rtasida vositachi bo'lган o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfutsiylikni paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytirdi. Konfutsiy (er. avv. 551-479 yillar)ning axloqiy-syosiy ta'lomitida markaziy o'rinni «olijyanob kishi» (SzyanSzi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi. Konfutsiylik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Syuo), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li)dan iborat. Konfutsiy ochko'zlik, zo'ravonlikga qarshi axloq va burchni qarama-qarshi quyadi.

II-III asrlarda Xitoya budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoya oq otta olib kelingan: bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinini tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir.

Adabiyot. Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari eramizdan avvalgi XI-VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda yetib kelgan. «Shiszin» ("qo'shiqlar kitobi")-qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bo'limga bo'lingan («Podsholik axloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat.

«Shiszin» an'analari eramizdan avvalgi IV asrda poetik asarlar mualliflari tomonidan o'zlashtirib olindi. Bizgacha bu asarlar do'mbir shaklini eslatadigan tosh uyumlarda yetib kelgan, shu sababli ular «Tosh do'mbiralar»dagi matnlar deb ataladi. Eramizdan avvalgi IV asrda mashhur Syu Yuan, Xan davrida Sima Syan-Ju kabi shoirlar ijod qilgan.

Musiqa, poeziya va raqs kabi san'at janrlari Xitoyda yuqori darajada shakllangan. Musiqa asboblari uch asosiy guruhga: torli, tovush va urib chalinadigan asboblarga bo'lingan. Ko'pgina musiqa asboblari eramizning birinchi, ikkinchi asrlarida O'rta Osiyodan o'zlashtirib olingan.

Xitoy me'morchilik san'atida yog`och asosiy xom-ashyo edi. Xan davrining noyeb me'morchilik yodgorligi imperiya poytaxti Chanyan shahri 12 darvozali devor bilan o'rab olingan. Baland ko'p xonali imperator saroyi, ma'muriy binolar va ibodatxonalar shaharning kurki edi. Ma'muriy binolar sariq rangda, imperator saroylari qizil rangda bo`yalgan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan, saroylar portret freskalari bilan bezatilgan.

Yozuv. Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari er. avv. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yeki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir.

In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan bir belgilini yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan belgini qatorning nisbiy yo`nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lмаган. In yozuvining er. avv. I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'yadi. Er.avv. II-I ming yilliklarda iyerogliflarning mahalliy variantlari unifikasiya qilindi, belgilarni yezishning yangi husnixati paydo bo'ldi.

Qadimgi Xitoyda odatda yupqa yog`och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. Tushli mo`yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Eramizdan avvalgi I ming yillikning o'talarida ipak matoga ham yozilgan. Yangi era boshida qog`oz kashf qilinib ishlatila boshlandi va qog`oz boshqa materiallarni siqib chiqardi.

Tabiiy-ilmiy bilimlar. Qadimgi Xitoyda ilmiy bilimlar ayniqsa, matematika rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikkinchi asrda to'qqiz kitobdan iborat «matematika» traktati tuzildi. Bunda oldingi olimlarning bilimlari proporsiya, progress, bo'lishlar bayon etilgan. Pifagor teoremasi va boshqalar to'plangan. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlandi. Er. avv. 104-yilda bir yil 365,25 kun hisoblab chiqildi. Shu yil qabul qilingan kalendar eramizning 85-yilgacha foydalanildi. Bu kalendar bo'yicha yil 12 oyga bo'lindi. Qo'shimcha oy kabisa

yiliga qo'shilib 3 yilda bir marta belgilangan. Qo'yosh-oy kalendar qishloq xo'jalik ishlariga moslashtirilgan. Qadimgi Xitoyda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi. Er. avv. III asrda Xitoy vrachlari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar. 280 davolash usulini qo'llaganlar.

Nazorat savollari:

1. Madaniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ibtidoiy davr madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Qadimgi Misr va Mesopatamiya madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Hindiston madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
5. Qadimgi Xitoy madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?

2-Mavzu: Qadimgi Markaziy Osiyo va Eron xalqlari madaniyati tarixi Reja:

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar madaniyati .
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida sharq elistik madaniyati.
4. Qadimgi Eron madaniyati

Markaziy Osiyo madaniyati jahon va o`zbek madaniyati tarixida muhim o`rin tutadi. Uning o`rtalarda madaniyatiga butun dunyo allaqachon munosib o`rin bergan. Xatto baqtriya, Marg'iyona, Sug'd, Parfiya, Farg'ona, Xorazm, CHoch xalqlarining qadimgi madaniyati ham jahon xalqlarini xayratga solmoqda. Markaziy osiyo mintqasining qadimgi madaniyati o`rganish o`n yillar ilgari boshlangan bo`lsa tadqiqotchilarining bu madaniyatining o`ziga xosligi va boy mazmuni lol qoldirdi. Markaziy osiyo madaniyati G'arb va sharqning buyuk madaniyat elementlarni bir butunlikda uyg'unlashtirib o`ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi tarqqiyot uchun ham negiz bo`lib qoladi.

Markziy osiyo xalqlarining madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval jo`g'rofiy o`rni va tabiiy va tabiiy vositalarga e`tiborni qaratish kerak bo`ladi. Madaniyatshunoslikning har qanday madaniyatning o`ziga xos alfovni joy manzarasi, iqlimi, biosfera omillarining ahamiyati borligiga alohida e`tibor beradi. Markaziy osiyo mintqasining tabiat turli millat bilan farq qiladi. Bu erda serxosil vodiylari va vohalar, sersuv daryolar, qaqaroq cho'llar, dashtu adirlar, Pamir va tangritog'ning baland muzofatlari bilan yonma-yon joylashgan. Bunday xussiyat dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo`jalik tarzi va o`ziga xos madaniyatlarining shakllanishi uchun imkon yaratadi.

«Qadimgi sivilizatsiya» deb nomlangan risolada markaziy osiyo madaniyatining ikki xususiyati ko`rsatiladi: bir tamondan, turli madaniyatlarning o`zaro ta`sirida, ikkinchi tamondan, qadimgi tsivilizatsiyalarning boshqa o`choqlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi. Bu xususiyatlarini batafsil kuzatadigan bo`lsak markaziy osiyo madaniyatining shakllanish jarayolari yaqqol namayon bo`ladi.

Markaziy osiyoning serxosil vodiysi, cho'l va dashti, tog'larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi faqlar turi xo`jaliklarni ertaroq paydo bo`lishi o`ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon yaqin qo`shinchilik munosabatlari asosida sodir bo`lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tarqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog' ovchi qabilalari o`rtasida munosabat ayriboshlash Marakziy osiyo xalqlarining iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo`lib, keyingi davrlarda ham uzoq saqlanib keldi. Turmush tarzi va xo`jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintqa xalqlarining etnik va tillardagi yaqinlik juda ham uyg'unlashib ketganligini qadimgi Xitoy va YUNON manoalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularni bir-biridan ayricha yashashiga yo`l qo`ymadi.

Natijada qadimgi SHarqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimgi madaniyati ajralib, o`ziga xos ko`rinishda shakllanadi. Dastlab bu madaniyat'ga ikki xil madaniyat aralashib ketdi: ko`chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda tsivilizatsiya olami;

Markazi yOsiyoning o`troq dehqonchilik va ko`chmanchi xalqlarida ancha mucha farqlar bo`lishiga qaramasdan ilgaridan yaqin munosabatlар o`rnatilgan.Diniy e`tiqodlar, urf-odalar, fol`klorlar, ahloqiy me`yordagi umumiylik madaniy umuiylikni shakllanishiga olib kelgan. SHuning uchun bundan keyin Markaziy Osiyoning yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi turli Submadanityalar mavjudligi haqida to`xtalish joizdir: Qadimgi madanityalar sub madniyati (Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyonning), dasht ko`manchilar-sak, myassaget, dakechchilar submadaniyati, Pamir va Tangri tog' qabilalarning sub madaniyati.

Marakziy Osiyo madaniyatining o`ziga xosligining ikkinchi jihatи mintaqaning o`ta qulay jo`g'rofiy o`rnashganligi bilan bog'liq. Mintaqa Mesopatomiya, Xindiston va Xitoy kabi uchta buyu sharq tsivilizatsiyasi bilan bevosita chagaradosh bo`lib g'arb tsivilizatsiyasi beshinch-Gretsiya va rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqararligi Marakziy osiyo madaniyati vositachiligi missiyasini bajarishga sabab bo`lidi, ya`ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro sovdoda va madaniy sohalarda ham markaziy Osiyo G'arb va SHarq o`rtasida boqlovchi ko`prik vazifasini bajardi. Xususan markaziy osiyo xududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Xindiston va Xitoya ellistik ko`rinishlari o`tdi, SHarqdan G'arbga va G'arbdan SHarqga madaniy boyliklar (bilim dunyoviy g'oya, kashfiyat, badiiy asarlar) ning almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo`lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilash, o`zlashtirish,mahorati vaqayta ishlash kkabi jixatlarimiz bo`lmas edi. Bumadaniyat qadimdanoq yangi xodisalarni o`zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo`ldi. Garchi boshqa qadimgi sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy osiyo madaniyatida ham an`nanalar keng o`rin egallasada, aytarli xarakter kasb etmaydi, ya`niki, uzliksiz madniyat yangilanish va taraqqiyot jarayoniga to`sinq bo`lmaydi. SHuningdek, an`analarning mustahkam xukmronligi tarixiy vaziyatga ham to`sinqlik qilganliklarini ta`kidlash kerak. Mintaqa orqali katta bosqinchilik yurishlar, xalqlarining ko`chishlari yuz bergen bo`lib, bu markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o`zgarishlar olib keldi.

Afsuski ko`pincha urushlar Markazi Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo`q qiladi. Arxiolog qazilma ma`lumotlar va yozma manbaalar mil. avv.1-ming yilik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osiyoning ilk davlatlari Sug'd, Baqtriya va xorazm madaiyati haqida biroz ma`lumotlar beradi. Mil. avv.ning ilk davlatlari Sug'd, Baqtriya va xorazm madaiyati haqida biroz ma`lumotlar beradi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Afrafsiyob (Samarqand), Surxandaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Qizilqir kabi qadimgi shaharlarda o`tkazilagn tadqiqotlar murakkab ijtimoi ytzilma av madaniyatning yuqori rivojlanganligii ko`rsatadi. Bu shaharlar mudofaa devorlarini va sub ta`minotdagi iborat kuchli ixtexkomtizimiga ega bo`lib, ichida xunarmandlar mavzei joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy qoldiqlaridan qal`alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo`jaligining asosiy soohasi hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotining darajasi haqida ko`p tarmoqli sg'orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy osiyo xalqlarining Qadimgi sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o`rnatgan.

Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, xunarmandchilik buyumlari va xom ashyo bilan.(lojuvarld, oltin, mis, bilan) savdo sotiq qilingan. Bu haqida Ossuriya va Qadimgi YUnion yozma manbalarida gapirladi. Xususan Baqtrianing yirik shaharlari, ko`p sonli aholisi haqida Baqtriya shohi Oksiartning afsonaviy boyligi haqida Kgesiy Knidiskiy (mil.avv. V-IV asrlar) yozib qoldirgan.

Ko`chmanchi massagelarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi YUnontarixchisi geradot (mil.avv. Vasrda yozib qoldirgan.Umassagelarning harbiy qurollari (amon-yoyi,nayza oyboltasi.)oltindan bezaksifatida, misdan qurol vasovut uchun keng

foydalinishni ta`kidlaydi. Geroditning yozishicha, massagetlar yagona ma`bud quyoshiga topinib, otni qurbanlik qilganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma`naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebafo manbasi Avesto hisoblaniblangan. Avesto so`zining mazmuni umumiy izohga ega emas, ko`pincha Asosiy matn sifatida tarjima qilindi. Avesto dunyoning dunyoning eng qadimgi dinlaridan bo`lgan zardo`shtiylik tarfdorlari uchun muqaddaskalima hisoblanib, payg`ambar Zardo`sht to`planganlarga undan va`z o`qigan. Uninghayoti davri mil.avv. o`qigan. Uninghayoti davri mil.avv. IX-VI -VI asrlar atrofida deyiladi. Avesto va uning boshqa matnlarining to`planishi ko`p asrlar davomida amalga oshirilgan .Avesto ning eng qadimgi matnalarimil.avv..Avesto ning eng qadimgi matnalarimil.avv.II minginchi yillarga taalluqli.Avestoning millodiy VII asrga tegishli bo`lgan to`plami juda turlicha mazmundagi 21 kitobidan iborat bo`lib, o`sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardushtiylik an`analariga ko`ra bu yodgorlik ezgulik va YOrug`lik xudosi axuramazdaning Zaraturjtra voxysi hisoblanadi. Biroq unda qadimgi mifalogik tasavvurlar, ham tasavvurlanadi. SHuningdek, diniy yo`l-yo`riq payg`ambar davridan keyin zardushtiylikning rivojlangan e`tiqod ramzi yuzaga keldi. Hozirgacha Avestoning ayrim qismigina, faqat 4itobi saqlanib qolgan:

1. Videvdat-«Devlarga qarshi g`onunlar», bu kitobda asosan zardo`sht va Axuramazada o`rtasida suxbat, yo`l-yo`riq va ko`rsatmalar mazmunida bo`lib, zulmat va yovuzdik xudosi Axrimani boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytarish haqida.
2. Visprat-«hamma xukmdor», bu kitobda ibodat namozlari to`plangan.
4. YAsna-«ibodat», Marosim kitobi xudolarga sig`inish va murojatdan iborat. YAsnadagi «Tot»lar nomli 17 bobzardo`shtning muqaddas qo`shiqlaridir.
4. YAsh-«Qadrlash», «Hamdu-sano» kitobi xudolarni sharaflovchi qadimgi gmnlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar haqida.

Bundan tashqari «Avesto» majmuaga «kichik avesto» ham mansub, u avesto tilida yozilgan bo`lib, ibodat kalimalari joylashgan.

Ko`pchilik olimlar Zardo`sht yuksak ahloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi xaq payg`ambar ekanligini takidlaydilar. Zardo`sht ta`limotiga muvofiq barcha quruqlikning o`zgarmas ibtidosi Arta bo`lib, «Avesto»da xaqiqat, olov ruh deyiladi. Axuramazda tartibli saqlanuvchi osmon xudosi yorug`lik va ezgulik hisoblangan.(oxura-xo`shayish, ega, mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o`g`li-Atar (olov), uning vatani bulutlardek qurigan suvlar, uning makoni-xududsiz yog`du. Oxuramazda 6 ta ruhni-yordamchilarniyaratdi (amesh spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, oljanobmo`minlik, sog`lomlik va boqiylik. Unga Axrimaning zumat qo`shini-devlar, urushlar timsoli, ochlik, kasallik,adolat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik o`rtasidagi azaliy kurash yotadi.

Zardo`sht ta`limotining ulug`ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim ham yovuzlikni yo`q etish va ezgulikni xukmron bo`lishida ishtirot etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. SHu tariqa erda ilgari bo`lmagan jannat-oltin asr tiklanadi. Unda sovuqham, jazirama ham, qarilik ham, o`lim ham bo`lmaydi. YOvuzlik bilan kurashda xar kishining asosiy kuroli mehnat bo`lgan. Zardo`shtiylik ahloqi kishidan kamtarin va halol meva eksa, u xaqiqat tarqatadi. Videvdat kitobining «Dexqonchilik fazilati haqida» bobidan olingan. Fikr ,so`z va ishda taqvodorlik, ishchanlik, halollik, xolislik yuksak ahloqning asoosiy talabalari sifatida ko`tariladi. YAsna kitobidan zardushtiylikning e`tiqod ramzi haqida deyiladiki: «Qasam,ezgu fikrni, ezgu so`zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarishni talab qiladi».

Zardo`shtiylik birinchi bo`lib, esxatalogik ta`limoti rivojlantirish yaratilgan, bunga muvofiq jahon tarixi 12 ming yilni tashkil qiladi. Bu muddat tugashi bilan ezgulik va yovuzlik kuchlarini hal qiluvchi yovuzlik jang boshlanadi. Bugun olamni erigan metal oqimi o`q qiladi. Biroq xaloskor saosh`yant halok bo`lgan dunyoni va barcha marhumlarni tiriltiradi, barcha gunohkorlarni do`zoxdan chiqarib Ohurumazning ideal xukmronligida abadiy hayot kechiradi. SHu tariqa zardo`shtiylikda birinchi bo`lib oxiratdagi jazo, marhumlarning tirlishi so`roq kuni

g'oyalar Doro 1 ming Bexustun yovuzida va Kserksning Persepoldagi yozuvida ham qayd qilinadi. Zardo`shtiylik Markaziy Old Osiyo xududlarida ming yillar davomida xukmron din bo`lib keldi va shubhasiz, bu din xristianlik va islom kabi jahon dinlarining shakllanishida katta o`rin tutadi.

Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasi va madaniyatning mustaqil rivojlanishi eron ahmoniyilar tamonidan birinchi o`irik bosqichining tufayli to`htab qoldi. Sug'd, Baqtriya, xorazm mil. avv.

VI-IV asrlarda ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgan. Bu imperiya tarkibi kirishi, yagona boshqaruv, qonunchilik, tizimining o`rnatalishi, oromiy yozuvning umum davlat miqiyosida qo`llanilishi.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Ahmoniyalar davrida xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoitning vujudga kelishi Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga imkon tug'ildi. Ahmoniyalar xukmronligida mamlakatlarga sayyoxlar va olmlar borishi mumkin edi. Xuddi shu davrda SHarq mamlakatlarga Gerodit,Demokrit va boshqalar sayoxat qilgan. Ahmoniyalar imperiyasidagi yirik shaharlar-Suza, Persepol, Menfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug'ddan chiqqan kishilar, saklarning xarbiy aholisi yashagan.

O`z navbatida mil.avv. V asrda Oks daryosining o`ng sohilida Miletlik YUnionlarning manzilgohi tashkil topadi. SHu tariqa Ahmoniyalar imperiyasi tarkibida Markaziy Osiyo xalqlari forslar, midiyaliklar, bobilliklar,misrliklar, yunonlar, xindlar bilan yaqin munosabatda bo`lish madaniyatining ham o`zaro ta`siriga imkon yaratdi.

Ahmoniyalar imperiyasi madaniyati ham ko`pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e`tiqodlar, san`at yutuqlarining sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o`zining xissasini qo`shgan. Zardo`shtiylik ahmoniyarlarning davlat dini va sifatida qabul qilinishi bilan birga G`arbg'a ham keng yoyila boshladi. Ahmoniyalar san`atining Suza va persipoldagi ulkan yodgorligi qurilishiga Markaziy Osiyo mintaqasidan ko`plab xom ashyo keltirilgan. Saroylar qurilishi Baqtriyadan oltin, Sug'ddan lojuvard va qimmatli toshlar, Xoraxmdan feruza olib borilgan. 1877 yilda Tojikistonning janubidan topilgan Amudaryo xazinasi madaniy sintezning yorqin misolidir, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyat munosabatlari juda kengaydi, SHuningdek, madaniy qadriyatning boyishi va turli madaniyatlarning o`zaro ta`siri jarayoni esa o`z madaniyatlarini juda tez rivojlanishi va boyishiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo erlari yunon-makedonlar tamonidan bosib olingen Markaziy Osiyo madaniyatida ellinism elementlari kirib keldi. ellistik jarayon slavkiylar davlatidan mustaqil bo`lgan Parfiya va YUnion-Baqtriyada o`zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. YUnion Baqtriyada yunonlar mahalliy sintezi qisqa vaqtida o`zining ijobi ynatijalarini berdi, sharharlar soni tez kunlarda o`sdi, dexqochilik, chorvachilik, ayniqsa xunarmandchilik rivojlanib bordi. Markazi yosiyo mintaqasi buyuk ipak yo`li bo`lib, o`sgan xalqaro savdoning markazi sifatida o`ta muhim o`rin egalladi. Tavra-pul munosabatlarini o`sishida Baqtriyshaohlarining o`z pullarini zarb qilishi xalqaaro savdoning rivojiga ijobiy ta`sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi.

YUnion-Baqtriyada davridagi oyxonum (SHim Afg'oniston), Saksonaxur va Taxtisangin (Tojikiston), Dalvarzin tepa, YOrqo`rg'on, Afrasi,yobTolibarzu (O'zbekiston) kabi shaharlar qurildi. YUnion xarbiy manzilgohlarining aholisi turmush tarzi va madaniyatlarini aks ettiruvchi ellistik uslublar YUnion-Baqtriyada sharharlarida ochib o`rganildi. Inshootlar tosh, xom va pishiq g`ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va iboden majmualari, gimnaziya, teatrbinolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazalltar, yaproqlari, palmetallar, cheti nashlangan cherepitsa-antifikslar singari unsirlarin qo`llanilishida aks etadi.

Markaziy osiyoning antik badiy madaniyatning muhim uslubiy xususiyatini san`atlar sintezi tashkil etgan: Xaykataroshlik, tasviriy san`at, naqsh bunda umumiyy me`morchilik rasamadagi-va uning ritmiga bo`ysingan holad me`morchilik bilna yaxlitda namayon bo`ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o`z ta`sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri

Markazi yosiyo, Afg'oniston, Pokiston, Xindiston xalqlari tarixidagina emas balki dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o`rin egallaydi. Turli xalqlar madaniyati chatishishi natijasida bu erda o`ziga xos madaniyat shakllandi, shu bilan birga keyingi asarlar madaniyatining o`zaro ta`siri yangi tarixiy bosqichga qadamqo`ydi. ellin madaniyatining an`ananalari Kushonlar davrida ijodiy jixatidan qayta shshakllandi va yangicha tahlil qilina boladi.

Kushonlar imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik, xunarmandchilik, shaharsozilk, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Bunga Kushon-Baqtriya yozuvlari, barhma va qaharoshhi xind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik berdi. Buddizm dinning rasmiy darajasi budda ibodatxonalarining o`sha zamon san`ati bilan bezatilishida namayon bo`ladi. Termiz yaqinidagi ayridomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlaoriga sarg'ishroq toshdan xaykal o`rnatalgan. Bino ichida g`ishtdan ishlangan budda xaykalining qoldiqlari topilgan. Xaykallarning ishlanish uslubi, kiyimi musiqa asboblari Xindiston O`rta Osiyo, YUnioniston madaniyatlarining o`zaro ta`sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xarazm, Farg'ona, Sug'd, Parfiyadan topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalari timsolida ham ko`rsatish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlangan. SHaharlar qalin devorlar bilan o`ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko`targan Sopol idishlar nixoyatda nafis va jarangdorligi bilan va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san`at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziynat buyumlari va mehnat jang qurollari yasash, mato to`qish rivojlangan. Umuman kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho`qqis hisoblanib, ma'lum xudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Antik, Xind madaniyatlarini yutuqlarini o`zida jamlab, qo`llab sharq xalqlarining o`rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo`ldi va Jahon va o`zbek madaniyati tarixi o`chmas iz qoldirdi.

Qadimgi Eron madaniyati. Behistun qoyasiga o`yib yozilgan yozuvlar, Doro I ning yozuvlari va Naqshi Rustam hamda Bobil va Misr yozuvlari, qadimgi eron xalqlari tarixi va madaniyati to`g'risida birmuncha tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Aslida eron hududida olib borilgan arxeologi qazishmalar XIX asrning o`rtalarida boshlangan bo`lsa-da, asosiy ilmiy tekshirish ishlari XX asrda o`tkazilgan eronning qadimgi poytaxti Persepolda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi eron xalqlarining arxitekturasi, tasviriy san`ati, xunarmandchiligi to`g'risida bir qator qimmatli ma`lu-motlarni bergen.

Suza shahrida olib borilgan qazishmalar esa qadimgi eronda toshdan buyumlar yasash, kulolchilik va to`quvchilik yuksak darajada rivojlanganligini ko`rsatadi. Metallurgiya esa juda sekinlik bilan rivojlangan. SHu sababli uzok vaqtgacha tosh qurollar asosiy mehnat quroli bo`lib qolgan.

Qadimgn Eronda suv muqaddas hisoblangan. SHu sababli muqaddas Voru-kash ko`li to`g'risidagi tasavvur suvgaga e`tiqod asosiy elementi hisoblangan. Suv ruhi Apam—Napatga e`tiqod qilish muqaddas «Avesto»da saqlanib qolgan. SHuningdek, qadimgi zronliklar oliv xudo — Axuramazdaning o`g'li — olov — Atarga ham sig'inganlar, Olov xudosi marhamatli xudo hisoblangan va u uch boshli ajdaho Dahhokni engan. SHu bilan birga Qadimgi Quyosh xудоси Mitra, er, suv va hosilidorlik ma`budasi Anaxitaga e`tiqod qilish ham qadimgi eronliklar diniy qarashlarining markazida turgan.

Qadimgi eron madaniyati o`ziniig eng gullagan davrini er. avv, V asr boshlarida boshdan kechirgan. Bu davrda ko`llab hashamatli saroylar va maqbaralar qurilgan. Serjilo sopol idishlar yasalib, bo`rtma (rel`eflili) haykaltaroshlik devoriy suratlar yuzaga kelgan.

Qadimgi Eron madaniyati qadimgi Sharq madaniyati ta`siri ostida rivojlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida Axamoniylar davlatining poytaxtlaridan Pasargada, Persepol' va Suzadan ko`plab binolar — saroylar, ibodaxonalar, turar-joy binolari va boshqalarning qoldiqlari topilgan.

Er. avv. VI —IV asrlarda Persepoldagi podshox saroyi ansambli o`z kurilish uslubi jihatidan qadimgi Osuriya me`morchiligi uslubini eslatadi. SHoh saroyi tepalik ustiga

qurilgan bo`lib, unga bo`rtma suratlar solib bezatilgan keng zinapoyadan chikib borilgan. Ulkan devorlarga shox saroyining ko`riqlovchi kanotli mukaddas ho`kizlarning haykallari ishlangan. Ayniqsa, saroydan topilgan shoh shuningdeq unga turli xil sovg`alar olib kelayotgan xiroj to`lovchilarning suratlari muayyan syujet asosida ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Sarsonga 17 metrli to`rtta ustundan ishlangan darvoza orqali o`tib borilgan. Darvoza yon tomonlarda esa qanotli muqaddas xo`kizlar xaykali bo`lib ular odam boshli bo`lgan. Saroy ansambliga shox qabulxonasi, omborxona, yashash va ishlash uchun mo`ljallangan xonalar bo`lgan. SHox kabulxonasi o`zining ko`rkamligi va mahobatligi bilan ajralib turgan qabulxonaning maydonni

62,5x62,5 metr bo`lib, uch tomondan ikki qavatlari ayvonlar bilan o`ralgan. Ayvon uchun ata engil va o`ta nafis ustunlar ishlatilgan. Ularning balandligi 13,6 metr bo`lgan. Ustunlarning yuqori kapitel (mukarnas)lari muqaddas ho`kizlar haykaliga o`xshatib ishlangan. Haykallarning yuzasi esa oltin plastinkalar bilan qoplangan. Saroy xonalari, devorlari va zinalarining yon tomonidagi yuzalarga bo`rtma (rel`efli) tasvirlar ishlangan. Bu tasvirlarni tushirishda kizil, yashil, ko`k ranglardan foydalanilgan. Bo`rtma tasvirlarda shoh faoliyatiga bag`ishlangan mavzular asosiy tasvirlarda shox hayoti va faoliyatiga bag`ishlangan mavzular asosiy o`rinni egallagan. Saroyga boradigan zinaning yon tomoniga ishlangan bo`rtma tasvirlar- 33 elat va urug`larning shoxga sovg`a-salom olib kelishi tasvirlangan. Ularning kiyimlari va etnik tuzilishi (tashqi qiyofasi) aniq detalllar bilan ko`rsatilgan.

Xullas, eron Axamoniylari davrida vujudga kelgan sai`at asarlari O`rta Sharq xalqlari tarixida muxim o`rin egallaydi. Bu san`at bevosita O`rta SHarqda yashagan xalqlarning o`zaro madaniy aloqalar natijasida shakllangan va mazkur xalqlar san`ati ta`siri ostida rivojlangan. Masalan, Persepol` va Suzadagi shox saroylarining qurilishida. Sug'd, Baqtriya, Xorazm, Parfiya, Marg'iyonadan kelgan ustalar va san`atkorlar shuningdek Axamoniylar davri san`ati va madaniyati atrofdagi boshqa mamlakatlar san`ati va madaniyati taraqqiyotiga ham sezilarli ta`sir qilgan. Qadimgi eron madaniyati taraqqiyotidagi O`rta Osiyo xalqlari va qadimgi SHarqdagi boshqa ko`pgina xalqlar madaniy xayoti sezilarli ta`sir ko`rsatgan. Geradotning yozishicha, “Eronliklar boshqa xalqlarning urf-odatlarini boshqalardan ko`ra tezroq qabul qilgan”. Xaqiqatdan xam eroniylar tasviriy san`atiga chuqurroq nazar tashlansa Mesopatamiyaning ko`pgina xalqlari tasviriy san`atining ayrim tomonlarini qabul qilib o`ziga singdirganligini ko`rish mumkin. Masalan, podshohlarning xayoti, qaxramonliklarini tasvirlovchi, ko`pgina tasviriy san`at asarlari qadimgi SHumeriyarning podshosi qaxramoni deb xisoblangan Gilgamesh singari yovvoyi xayvonlar bilan kurashib ularni engayotganday qilib tasvirlangan yoki oliy xudo axuramazda ossuriyaliklarning bosh xudosi ashshurga taqliddir. Quyosh gardishiga makon qurgandek tasvirlangan. Yana bir misol saroylarning pog'onali va zinapoyali qilib qurilishi, podshox saroyiga afsoniviy xayvonlarni qo`yilishi Mesopatamiya arxitekturasiga binolarni qurishda ustunli kallonnaldandan foydalanishlari esa misrliklar arxitekturasiga mos bo`lgan. Lekin eronliklar boshqa xalqlar madaniyati elementlaridan ularni umumlashtirgan, qayta ishlangan va ijodiy yondoshgan xolda foydalanganlar, ya`ni bu elementlarning barchasini yagona monumental uslub asosida qayta ishlanganlar.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o`ziga xos xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar madaniyati xaqida nimalarni bilasiz?
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida sharq elistik madaniyati xaqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Eron madaniyati xaqida nimalarni bilasiz?

3-Mavzu: Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi. Qadimgi Rim madaniyati tarixi.

Reja:

1. Qadimgi Yunonistonda falsafa va tarixshunoslik, tibbiyat va aniq fanlar. Adabiyot va teatr. Notiqlik san`ati;
2. Qadimgi Yunonistonda xaykaltaroshlik va me`morchilik. Din.
3. Qadimgi Rimda din.
4. Qadimgi Rimda tarix , huquq va adabiyot.Me`morchilik va haykaltaroshlik .Qadimgi Rimda ta'lif va fan

Qadimgi Yunoniston falsafasi vakillari miletlik Fales, Anaksimandr, Kichik Osiyolik Anaksimon tabiatni, borliqni mohiyatini tushunishga harakat qildilar. Pifagor maktabining vakillari shuningdek Geraklit, Empedokl kabi “fiziklar” (fyuzis-tabiat demakdir) tabiatni o'rgandilar. Ular dunyoning asosini qidirdilar, tabiat mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv, Aniksimandr apeyron (boslang'ich ibtido), Geraklit esa olov deb qaradilar. Demokrit (taxminan er. avv. 470-yilda tug'ilgan) borliq to'g'risida gapirib, borliq cheksiz bo'linma atomdan iborat degan fikrni aytdi. U dunyoning sababiy bog'lanishi haqida fikr yurutdi. Platon (er. avv.4 27-347-yillar) borliq, abadiy, o'zgarmas, bo'linmas, uni aql bilan bilish mumkin deb hisoblardi. Platon akademiyasida 20 yil ta'lif olgan Arrestotel “g'oyalar dunyosi to'g'risida”gi ustozini fikrini tanqid qildi. Borliq Arrestotel fikricha jins va tur shaklida mavjut bo'ladi.

Suqrot (tax. er.avv.470-399 yillar) falsafada inson muammosiga jiddiy e'tibor berdi. U insonning o'zini, o'zligini anglashga jiddiy e'tibor beradi. U insonning falsafasining o'rganish ob'ektini tashkil etadi deb ta'kidladi.

Yunon madaniyati uch avlod muhim o'rinni tutadi. Ularning birinchisi er.avv.VI asr oxirida kirib keldi va Afina madaniyatini gullab-yashnashi uchun poydevor qo'ysi. Esxil va Frinix Attika komidiyasiga asos soldilar. Haykaltaroshlar Kritiy va Nesiot er.avv.476 yil Afina agrosini tiranlarga qarshi kurashdilar-Garmoniy va Aristogiton haykallar bilan bezadilar. Olimpda Zevs ibodatxonasini haykallar bilan jihozladilar. Tafakkur qilish xali an'anaviy shakllarda oddiylik (an'anaviy shakllarda) qat'iy o'smirlik klassikasi shaklida hukm surar edi.

Ikkinci avlod Perikl davrida eng yaxshi yutuqlarga erishdi. Sofokl Tragediyalari, Geradot “Tarix”I , Parfinon va propileyning etuk klassik shakllari shu davrda yaratildi.

Uchinchi avlod Peloponnes urushlari davriga mansub bo'lib. Afinaliklarning bu vaqtida boshqa madaniy dunyolar bilan tanishuvi natijasida ularning siyosiy va diniy qarashlari ma'lum darajada o'zgardi.

Tarixshunoslik. Er. avv. V asrda jamiyat taraqqiyotiga bag'ishlangan alohida ilmiy bilimlar sohasi tarix fani paydo bo'ldi. Uzoq vaqt turli o'lkalarda bo'lgan Gerodot (er.avv. 485-425-yillar atrofida kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'ilgan) ilk bor ko'rgan va eshitgan voqealarini ma'lum bir tizimga solib hikoya qilishga kirishdi. U o'zining 9 jildli odatda “Tarix” (yunoncha Istorija-“Tasvir” ma'nosini bildiradi.) yoki “Muzalar” deb ataladigan tarixiy asarini asosan yunon-fors urushlariga bag'ishladi, lekin bayon qilish davomida muallif Misr, Eron, skiflar tarixiga ham murojaat qiladi. “Tarix otasi” ning mushohadasi to'la an'anaviy bo'lib, tarixda ezgulikni taqdirlovchi, yovuzlikni jazolovchi ilohiy adolatni qurdi. Gerodot insonlar faoliyatida xudolarning ishtirokiga shubha qilmadi.

Agar Gerodot “Tarix otasi” deb hisoblansa uning kichik zamondoshi afinalik Fukidid haqiqiy tarixshunoslik fanini asoschisidir. Uning “Peloponnes urushlari tarixi” asari afsonaviy va haqiqiy voqealarini quruq bayon qilishdek Gerodotga xos bo'lgan bayon qilishni aksi bo'lgan haqiqiy tarixiy tadqiqot edi. Fukidid tarixchilar ichida birinchi bo'lib, tarixiy voqealarini, ularni harakatga keltiruvchi kuchlari, taraqqiyot yo'llari bilan o'zaro aloqada ko'rishga harakat qildi. Voqealarning sabablarini o'rganish uchun siyosiy voqelikni ilmiy tahlil qilish usullarini qo'lladi. Fukidid xudolarni tarix doirasidan chiqardi. U tarixni xudolar emas, balki kishilar o'z faoliyatlarini bilan yaratadilar deb hisoblar edi. Kishilarning “tabiat” hamma vaqt qonun va shartnomalardan kuchliroq bo'ladi. Kishilarning qiyofasi va uning ko'rinishlari Fukidid uchun shu davr jamiyatini

voqeligini tushinish uchun yetarli edi. Gerodot va Fukidid yunon polislarining fuqarolarini o'z ozodligini himoya qilishi, vatanparvarlik va o'zini qurbon qilishdek qahramonlik kurashiga murojaat qiladilar. Tarixshunoslikda Fukidid an'analarini tarixchi Ksenofont(er. avv. IV asr) davom ettirdi. Uning "Anabasis", "Lakedemon politiyasi", "Kiropediya", "Agesilay", "Daromadlar to'g'risida" asarlarida o'sha davr yunon dunyosining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti aks etadi.

Er. avv. V asrda yunon dunyosida yuz bergan kuchli siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan, shu davrning siyosiy arboblari Femistokl va Perikl kabi afinalik demokratiya yo'lboschchilarini ayovsiz tanqid ostiga olgan siyosiy adabiyotlar yuzaga keldi. Shunday adabiyotlardan biri er. avv. 430-yillar atrofida "Afinani boshqaruvi to'g'risida" risolasi paydo bo'ldi. Kritiyning "Lakedemeon politiyasi"da Sparta jamiyatni qurilishi ko'klarga ko'tarildi, Afina demokratiyasiga salbiy nazar bilan qaraldi.

Tibbiyot va aniq fanlar. Er. avv. V asr ikkinchi yarmidan koxinlar tibbiyoti o'rniga, aniq kuzatishlarga asoslangan vrachlarning tibbiyoti vujudga keldi. Bu davrda mashhur yunon vrachi Gippokratning tibbiyot maktabi paydo bo'ldi. Gippokrat "Tibbiyotning otasi" sifatida shuhrat qozondi. Uning matabida tabiblar tajriba, kuzatish usuliga tayanib, tez va to'g'ri tashxiz qo'yishga harakat qildilar va davolashda dieta, gigiena kabi usullarni keng qo'lladilar.

Apolloniyalik Diogen qon aylanish tizimini yaxshi o'rgandi. Krotonlik Alkmeon kasalliklarning manbai inson organizmidagi suyaklarning mutanosibligining buzilishi deb ko'rsatdi. O'sha davr tibbiy bilimlari to'g'risida 53 traktatdan iborat "Gippokrat korpusi" deb ataladigan tibbiy to'plamlar orqali ma'lumot olish mumkin.

Aniq fanlar to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Afinalik astronom matematik Meton quyosh soatini yasagani, taqvimni isloh qilgani to'g'risidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan.

Adabiyot va teatr. Qadimgi Yunonistonning eng noyob adabiy yodgorligi Gomerding "Iliada" va "Odisseya" dostonlaridir. Gomerding bu asarlari paydo bo'lzunga qadar yunon xalq og'zaki ijodidan ajoyib namunalari qo'shiqlar, ertaklar, rivoyatlar va masallar yunon adabiyotining haqiqiy poydevorlari edi. Gomerding qahramonlik dostonlari u yashagan (tahminan VII asr) davrdan oldingi er. avv. XI-IX asrlar voqealarini adabiy tasviridir.

Er. avv. VIII-VI asrlarda yunon madaniyati taraqqiyotida Qadimgi Sharq madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Yunonlar o'zlarining Kichik Osiyodagi shaharlari orqali qadimgi Sharqning boy madaniyati bilan tanishdilar. Bu davrning asosiy madaniy o'choqlari Milet, Lesbos, Samos edi.

Er. avv. VII asrda yashab, ijod qilgan Gisiotning didaktik asarlarida o'zi yashagan davrning ijtimoiy hayoti va ziddiyatlari aks ettiriladi ("Mehnat va kunlar").

Badiiy adabiyot eng avvalo poeziya janrida rivojlandi. Poeziya siyosat bilan bog'liq edi. Mashhur shoirlar Feognit, Solon, qisman Arxieloy siyosat bilan faol shug'ullangan edilar. Hatto Alkey va Safo kabi lirik shoirlar ham siyosatga tan berdilar. Shu davrdagi Ezop masallari adabiyotda demokratik yo'nالishni aks ettirib, ijtimoiyadolatsizlikni qoralaydi.

Arxaik davrda lirika keng tarqalgan bo'lsa, er. avv. V asrda Afina adabiyoti va poetik ijodiyotning markazi bo'lgan birlashma. Attika tragediyasi bilan mashhur bo'lib ketdi. Tragediya ("Echkilar qo'shig'i") vinochilik xudosi Dionisning echki terisi kiygan quvnoq, doimiy hamrohlarini ifodalovchi satirlarning aytadigan xor qo'shiqlaridan kelib chiqdi. Er. avv. VII asrdayoq butun Yunonistonda shunday "Echkilar xori" yoki satirlar keng tarqalgan edi. Attika Tragediyasining tug'ilishida Afina tirani Pisistratning umum davlat bayrami sifatida Buyuk Dionisiy bayramlarini ta'sis etish bo'ldi. Shoir Fespid xorga aktyorni qo'shdi. Aktyor xorga "javob" berib xor bilan diolog olib borar edi. Shu sababli tragediya dramatik ko'rinishga aylandi, tragediyada boshqa ko'rinish qatnashchilar Dionis to'g'risidagi afsona – miflardan sahna ko'rinishlari o'ynardilar, keyinchalik boshqa afsonalarga navbat keldi. Er. avv. V asr birinchi yarmida Esxil tomoshabin oldiga ikkinchi aktyorni, Sofokl uchinchi aktyorni qo'shdi va natijada qadimgi "Echkilar xori" to'la dramaga aylandi.

Attika teatri dionis sharafiga o'tkazilgan bayram vaqtida faqat uch kun tomosha ko'rsatilgan. Birdaniga uch tragediya qo'yilib, keyin "Satirik dramasi", yana bir mifologiyadan engil quvnoq sahnalashtirilgan parcha berilgan. Teatr ko'rinishi ochiq havoda dumaloq maydoncha- orxestrada berilgan. Tomoshabinlar uchun o'tirgichlar Akropolning toshloq qiyaligida yunilgan, yana shu tomosha teatron deb atalgan. Ochiq va katta teatrda aktyorlar mimikasi va kiyimlarini aniq ko'rib bo'lmas edi. Shu boisdan aktiyorlar sahnaga uzun tantanali kiyim va niqoblarda va aktiyor gavdasini baland qilish uchun baland poshnali oyoq kiyim-koturnada chiqar edilar. Teart tomoshalari mart oxiri aprel boshlarida ko'rsatilar edi.

Attika tragediyasining shon-shuhrati er. avv. V asrning buyuk shoirlari- Esxil (er. avv. 525-456-yillar), Sofokl (er, avv. 496-406-yillar) va Yevripid (er. avv. 480-406-yillar) ijodiyoti bilan bog'liq edi. Esxil 80 ga yaqin tragediya yozdi, undan bizgacha faqat 7 tasi yetib kelgan. Afinani gullab-yashnagan davrida yashagan Sofokl aytishlariga ko'ra 120 tragediya yozgan, undan bizgacha faqat 7 tasi yetib kelgan. Uchinchi buyuk tragik bo'lgan Yevripid 90 tra tragediya yozgan bo'lib, undan 18 tasi saqlanib qolgan. Esxilning "Forslar", "Orestiya", "Zanjirband Prometey", sofoklning "Antigona", "Shoh Edip", "Elektra", Yevripidning "Medeya", "Ippollit", "Vakxankalar", "Tavridadagi Ifsegeniya", "Fedra", "Troyalik ayollar" kabi tragediyalar chuqur falsafiy- ahloqiy mazmunga ega bo'lib, yunon fuqarolarining tarbiyasiga va dunyoqarashiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Attika teatrida tragediyadan tashqari komediya janri ham keng tarqalgan edi. Bizgacha etib kelgan komediyalarning ko'pchiligi Aristofan qalamiga mansubdir. Aristofonning "Tinchlik", "Axaryalilar", "Lisistrat", "Suvoriylar", "Qurbaqalar" va "Bulutlar" komediyalarida er. avv. V asr yunon dunyosining siyosiy ziddiyatlari xajv qilinadi.

Notiqlik san'ati. Yunon shahar-davlatlarida demokratik tartib qoidalarini o'rnatilishi, fuqorolarni xalq yig'ini, sud ishlarida faol ishtiroki notiqlik san'atini rivojlanishiga sabab bo'ldi. Sudda so'zlanadigan nutqlar keng qiziqish uyg'otdi. Qadimgi mifologiya qahramonlari hikoyasiga yoki maqtoviga bag'ishlab tuzilgan namunaviy nutqlar keng tarqalgan. Er. avv. V-IV asr boshlarida taniqli afinalik sud notig'i Lisiy shuhrat qozondi. Ikkinci bir mashhur notiq Isokrat edi. Er. avv. 391 yilda Isokrat notiqlik san'ati maktabini ochdi. Isokratning bu maktabida mashhur notiqlik Demosfen, Giperin, Essin, Likurg va tarixchilar Feopomp, Efor, Filistlar etishib chiqdilar. Isokrat kuchli ovozga ega bo'limganligi sababli omma oldida kam nutq so'zlar edi. U siyosiy targ'ibot olib bordi. Afina Periklgacha bo'lgan aristokrat tuzumini maktab, publisistik to'plamlarni tarqatdi U o'tmisni maktab, yunonlarni Filip Makedonskiy atrofida jipslashib sharq eski dushman-Eron ustiga yurishga chaqirdi. Ehtimol u Makedoniyning kuchayishi Yunonistonga qanday xavf tug'dirishini bilmagan edi. Afsonaga ko'ra yunonlarning Xeroniya yonida mag'lubiyatdan so'ng er. avv. 337-yil Isokrat o'zini ochlikdan o'ldiradi.

Isokratning eng yaxshi o'quvchilaridan biri Demosfen Afinadagi antimakedon guruhning murosasiz rahbari edi. Demosfen boshidayoq Makedonianing kuchayishi Afina demokratiyasi va mustaqilligi uchun xalokatli ekanligini ko'ra bilgan edi.

Me'morchilik. Yunon -fors urushlaridan so'ng Afrika juda katta miqdorda moliyaviy mablag'larga ega bo'ldi. Attika Pentelikonida marmar qazish boshlandi va bu me'morchilik san'atining ravnaqiga yo'l ochdi. Afinadan tashqari Yunonistonning boshqa viloyatlarida Janubiy Italiya va Sitsiliyada (Agrigentdagagi Zevs ibodatxonasi, Pestdag'i olti ustunlik Poseydon ibodatxonasi) er.avv. V asrning ikkinchi yarmida ajoyib me'morchilik inshootlari bino qilindi.

Ayniqsa Perikl davrida yigirma yil ichida ulug'vor inshootlar barpo qilindi. Parfenon, Propiley, G'olib Afina va keyinroq Erexteyon kabi ioniy, korinf va doriy uslublarida qurilgan inshootlar me'morchilik san'atining mo'jizalari edi. Parfenonning quruvchilari Iktin va Kallikrat nafislik va ulug'vorlikni uyg'unlashtirishga erishdilar. Akropol darvozalari qurishda Mnesiklet (er. avv. 438-432 yillar) ioniy va doriy ustunlarini yonma-yon qo'lladi. Peloponnes urushlari davrida ioniy an'analariga asoslangan Erex Teyon quriladi.

Haykaltaroshlik. Er. avv. V asrning 70 yillardan boshlab haykaltaroshlik san'ati gullab-yashnadi. Buyuk haykaltarosh Fidiy Afina va Zevs haykallarini yaratdi. Ma'buda Afinaning 12

metrli haykalini yasashda fil suyagi va oltindan foydalanildi. Ma'buda Afina Akropolning eng baland joyiga qo'yilgan bo'lib, uning quyoshda yaraqlagan nayzasi uzoqdan ko'rinish kemalar uchun mayoq bo'lib xizmat qilgan. Fidiyning mashhur asarlaridan biri Olimpiyalik Zevsning ulkan haykali Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi qo'yilgan edi. Mashhur haykaltarosh Miron "Diskobol" haykali bilan o'zini nomini abadiylashtirdi. Klassik yunon haykaltaroshligining yorqin vakillaridan biri argoslik Poliklet edi. Uning Diodumen asari noyob san'at namunasi edi. Yunon haykaltaroshlari inson gavdasini uyg'unligi nuqtasini qidirar edilar. Poliklet bu nuqtani izlar edilar. Poliklet qonuniga ko'ra haykal tovonining uzunligi gavdaning 1/6 qismini, boshining uzunligi 1/8 qismini tashkil qilishi kerak edi. Bu va boshqa nisbatlar "Dorifor" haykalida qat'iy rioya qilingan. Poliklet qonuni yuz yil davomida haykaltaroshlik san'atida qonun sifatida amal qilib keldi.

Er. avv. V asrda Praksitelning "Germeychaqaloq Dionis bilan", "Knidlik Afrodita", "Kaltakesakni o'ldirayotgan Apollon" haykallarida nafislik, go'zallik yaqqol aks etadi. Er. avv. IV asrda polis tizimining tushkunligi davrida haykaltaroshlikda qahramonlik mavzusidan uzoqlashiib, insonni ichki ruhiy dunyosini ko'rsatish asosiy yo'naliш bo'ldi. Shu davrning mashhur haykaltaroshlaridan Skopas, Praksitil va Lisipp (Makedoniyalik Iskandarning saroy haykaltaroshi)larni aytish mumkin. Er. avv. IV asrda yashagan haykaltarosh Lisipp Makedoniyalik Iskandarning byustini yaratdi. Lisipp haykaltaroshlik san'atida Poliklet qonunini o'rniga yangi qonunni tadbiq qildi.

Tasviriy san'at taraqqiyotini vazalar tasviri orqali yaqqol tasavvur qilish mumkin. Bu san'at janrda sikon maktabi, afina maktabi shakllangan edi. Kundalik hayotda mifologiyadan olingan tasvirlar ko'plab uchraydi. Birinchi mashhur yunon rassomi Tasoslik Poliklet faqat to'rt rang oq, qora, qizil va sariqni ishlatgan.

Klassik davrda yunon tasviriy san'atining eng mashhur namoyondalaridan biri Polignot ulkan ko'p figurali kompozitsiyalar ustasi edi. Afinalik Apollodor tasviriy san'atda yorug'lik soyasini kashf qildi. U bo'yoq bilan chizgan ko'pgina vazalar bizgacha yetib kelgan. Bu davrdagi Zevksid va Parrasiy, Apellis (Iskandarning saroy rassomi), Nikiylar tasviriy san'at janrida yorqin iz qoldirdilar.

Din. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra dastlab Yer (Geya) va Xaos, hayotning boshlanishi (Eros) va yer osti dunyosi (Tartar) bo'lgan. Geya yulduzli osmon Uranma tug'adi. Uran dunyoning birinchi hukmdori va Yer ma'budasi Geyani turmush o'rtog'i bo'ladi. Uran va Geyadan keyin xudolarning II avlodи titanlar boshlanadi. Uran o'z o'g'li, dehqonchilik xudosi titan Tironos tomonidan ag'dariladi. Kronosning bolalari Ait, Poseydon, Gestiya, Demetra, Zevs, Gera bo'ladi. Olimpning bosh xudosi Zevs osmon, chaqmoq hukmdori, Poseydon yer va dengizni sug'oradigan namlik xudosi, Ait (Pluton) yer osti dunyosi hukmdori bo'ldi. Zevsning rafiqasi Gera nikoh homiysi, Gestya uy o'chog'i ma'budasi, Demetra dehqonchilik homiysi deb sig'inganlar. Zevs va Geradan o'smirlik ma'budasi Geba, urush xudosi Ares, temirchi va hunarmandlar homiysi Gefest tug'iladi.

Zevsning avlodlaridan tabiatning ilk uyg'onish xudosi Apollon alohida turadi. U hamda san'at homiysi davolovchi xudo. Apollonning singles Artimida ovchilik ma'budasi va yoshlarning homiysi. Germes-moddiy mo'l-ko'lchilik xudosi, keyin savdo xudosi, aldamchi va o'g'rilar xudosi, keyinchalik esa notiqlar va sportchilar homiysi. Dionis (Vakxa) tabiat kuchlari, uzumchilik va vinochilik xudosi deb sig'inganlar. Jangovar Afina donolik ma'budasi sifatida shuhrat qozondi.

Yunon diniy dunyo qarashi bo'yicha xudolar odamlarga o'xshab azob chekishlari, insoniy his-tuyg'uga ega bo'lishlari mumkun edi. Yunonlarning fikri bo'yicha odamlar va xudolar dunyolari o'rtasida o'tib bo'lmaydigan chegara yo'q edi. Ularni bog'laydigan bo'g'in sifatida xudolar va yerdagi ayollarning aloqasi natijasida tug'ilgan qahramonlar (yarim xudolar) bo'lgan. Misol uchun o'z qahramonliklari uchun xudolar safiga kiritilgan Gerakl shunday dedi.

Alohida polislarning homiylari hisoblangan xudolar va qahramonlarga bag'ishlab ibodatxonalar qurilgan va ko'p sonli qurbanliklar keltirilgan. Ba'zi ibodatxonalar oldida ibodat

qilayotgan kohinlar xudolardan kelajak to'g'risida bashoratlarni so'rashlari mumkin edi. Ba'zi ibodatxonalar oldida bir necha yilda bir marta xudolar sharafiga gimnastik mashqlar, she'rlar o'qish, raqslar, notiqlik san'ati bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan. Yunonistonda Zevs sharafiga har 4 yilda bir marta g'arbiy Peloponnesdagi Olimpiya Zevs ibodatxonasida o'tkaziladigan o'yinlar eng mashhur edi. Yunonlar bu 4 yillik muddatni olimpiada deb ataganlar. Er. avv. 776-yildan olimpiya o'yinlariga butun Yunoniston va koloniyalardan ishtirokchi va tomoshabinlar kelganlar. Olimpiya o'yinlari o'tkazilayotgan vaqtida urushayotgan yunon polislari o'rtasidagi harbiy harakatlar to'xtatilgan. Olimpiya musobaqalari g'oliblari ibodatxona yonida o'sgan muqaddas lavr daraxti barglaridan oddiy gulchambar bilan mukofotlanganlar. G'olib sharafiga jez yoki marmar haykal qo'yilgan.

Bu musobaqalar fuqarolarni jismoniy rivojlanishiga imkoniyat yaratgan va yoshlarni harbiy jihatdan chiniqtirish uchun xizmat qilgan. Yunonlar bayramlar, o'yinlarni hamkorlikda tashkil qilish va eng muqaddas ziyoratgohlarni himoya qilish uchun alohida ittifoqlar-amfiktioniyalar tashkil qildilar.

Qadimgi Rim madaniyati

Qadimgi Rimda din. Rimliklarning an'anaviy e'tiqodida totemizm, fetishism va animizmning qoldiqlari mavjud edi. Rim dinida urug' va oila e'tiqodlari muhim o'rinni tutar edi. Har bir uyda oila e'tiqodini markazi o'choq, bosh oilaning otasi kohin edi. Har bir kishida o'zining ruhi, homysi bo'lib, erkaklarda geniy, ayollarda yunona edi. Rimliklarning e'tiqodiga ko'ra vafot etgan ajdodlar xudo-homiylar bo'lar edi.

Rimliklarda har biri qandaydir bir aniq funksiyani bajaradigan kichik xudolar juda ko'p edi. Misol uchun xudo Forkul uy eshigini qo'riqchisi, Liment ostonani, Kardia eshik zulfinlarini qo'riqchisi edi. Lekin asosiy e'tiqod qilinadigan qudratli xudolar alohida o'rinni tutar edi. Ularni orasida eng birinchisi chaqmoq xudosi Yupiter bo'lib, uning ibodatxonasi Kapitoliyda Tarkviniy Mag'rur davrida qurilgan edi. Uning xotini Yunona nikoh va onalik hamda ayollar homysi edi. Ularning qizi Minerva-hunar, san'at va urushlar ma'budasi; Vesta-fuqarolik jamoasi homysi, uy o'chog'i ma'budasi; Mars-urush xodosi; Yanus-o'tmish va kelajak, kirish va chiqish. boshlanish va tugallanish ikkiyuzlamachilik xodosi; Venera-sevgi va hosildorlik ma'budasi; Serera-ekinlar va hosil ma'budasi; Neptun-dengiz xodosi; Merkuriy-savdo va o'g'rilar homysi; Vulqon-temirchilar xodosi; Pluton-narigi dunyo qorong'ulik xodosi; Baxus-vinochilik xodosi; Diana-oy va ovchilik xodosi; Silvana-o'rmon xodosi va boshqalar.

Rim e'tiqodiga o'z vaqtida etrusk va yunon e'tiqodi qarashlari ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Yunona, Minerva, Vulqon. Etrusklardan hayvonlarning ichki a'zolariga qarab fol ochish o'zlashtirib olingan edi. Er. avv. III asrdan boshlab rimliklar o'z xudolarini yunon xudolari bilan: Yupiterni Zevs bilan, Yunonani Gera bilan, Minervani Afina bilan, Marsni Ares bilan Venerani Afrodita bilan, Sererani Demetra bilan, Merkuriyni Germes bilan, Bahusni Diones bilan tenglashtirgan edilar. Rim e'tiqodi diniy qonun-qoidalariga rasman rioya qilish bilan cheklangan bo'lib, chuqur diniy his-tuyg'udan mutlaq mahrum edi. Kohinlar odamlar va xudolar o'rtasidagi vositachi rolni o'ynar edilar. Er. avv. III-I asrlarda Italiyaga sharqdan Seraps, Isida, Mitra va boshqa diniy e'tiqodlar kirib keldi.

Davlat hokimiyyati diniy e'tiqodga katta e'tibor berar edi. Kohinlar davlat xizmatchilari hisoblanib, lekin hech qachon qadimgi sharqdagidek alohida toifaga birlashmagan edilar. Rimda bir qancha kohinlik kollegiyalari mavjud edi. Kohinlar elitasiga oliy pontifik (barcha ilohiy va insoniy ishlar sudyasi), pontifiklar kollegiyasini bevosita rahbari va uch bosh flamin (ular Yupiter, Mars va Kvelin e'tiqodlarini boshqarar edilar)dan iborat edi. Pontifiklar dastlab 6 ta bo'lib Tsezar davrida 16 taga yetdi, ular diniy marosimlarni qat'iy bajarilishini nazorat qilar edilar. Oliy pontifik taqvim tuzilib, diniy bayramlarni o'tkarilishiga mas'ul edi. Unga 15 flamin bo'ysunib, flaminlar alohida xudolarga qurbanlik keltirar edilar. Avgurlar fol ochish bilan shug'ullanar edilar.

Rim diniy kalendarida 70 ga yaqin bayramlar mavjud edi. Bu bayramlar, mo'l-ko'l qurbanlik keltirish, marosimlar, quvnoq bazmlar bilan tantanali o'tkazilar edi. Respublikaning oxirida bayramlar bir yilda 115 kunni tashkil qilar edi.

Tarix. Ilk imperiya davrida tarixiy asarlar va biografik janr keng rivojlandi, er. avv. 59-eramizning 17-yillari Pataviya shahrida yashagan notiq Tit Liviy latin tilida "shaharga asos solingenidan" nomida Rim tarixini 142 jidda yaratdi. Tit Liviy voqealar bayonini er. avv. 9-yilgacha olib bordi. Yangi era boshlarida Pompey Trog "Jahon tarixi"ni 44 jidda latin tilida yozdi. Yana bir "Jahon tarixi" yunon tilida Yahudiya podshosi Irod I ning maslahatchisi damashqlik Nikolay tomonidan 144 jidda yozildi, asarda voqealar er. avv. IV asrgacha yoritilgan.

Er. avv. I asrda Korneliy Nepot "Mashhur kishilar to'g'risida" biografik asarini yozdi. Er. avv. I asr oxirida Galikarnaslik Dionisiy "Rim qadriyatlari" nomli tarixiy asarini yozdi, bizgacha bu asardan faqat 9 tasi yetib kelgan. Italiya va uning provinsiyalari tarixi va geografiyasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar Strabonning "Geografiya" asarida (17 kitob) beriladi. Strabonning yana bir asari "Tarixiy yozishmalar" bizgacha yetib kelmagan.

Eramizning I asrida Velley Paterkulning "Jahon tarixi" nomli 2 jildli kitobi, notiq Valeriy Maksimning "Mashhur ishlar va so'zlar" nomli 9 kitobda tarixiy latifalaru, Kvint Kursiy Rufning "Makedoniyalik Iskandar tarixi" 10 jildli kitobi yozildi. Imperatorlar Vespasian va Titning klienti yahudiy Iosif Flaviyning 7 jildli "Yahudiya urushi tarixi", 20 jildli "Yahudiya qadimiyatlari" asarlari sharqiy provinsiyalar to'g'risida boy ma'lumotlar beradi.

Davlat arbobi, tarixchi, yozuvchi Gay Pliniy Sekund (24-79-yillar) san'at, madaniyat va fan sohalaridan noyob ma'lumotlar to'plami "Tabiiy tarix" nomli 37 jildli entsiklopedik asarini yozdi. Bu ulkan asarda 500 muallif, 2 ming kitobdan olingan ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Eramizning 58-120-yillarida yashagan senator, tarixchi Kvimdetsimbir Publiy Korneliy Totxit 16 jildli "Annalar", 14 jildli "Tarix" asarlarini yozdi. Bu asarlar Yuliy Klavdiylar va Flaviylarni 14-96-yillardagi tarixini qamragan davrni aks ettiradi, Tatsitning "Germaniya" asari german qabilalarini ijtimoiy tuzumi, dini va turmushi to'g'risidagi tarixiy-geografik ocherk hisoblanadi.

Tatsitning kichik zamondoshi imperator Adrianning kotibi Gay Svetoniy Trankvill (70-140-yillar) "12 Tsezar hayoti tasviri" Tsezardan Domitsiangacha rim imperatorlarining biografiyasi to'plamini yaratdi. Tatsitni zamondoshi 46-126-yillarda yashagan yunon yozuvchisi Plutarx 210 har xil asarlar yozgan, bizgacha ulardan 150 tasi yetib kelgan, Plutarx mashhur yunon-rim arbollarini 50 biografiyasini, bir makedon-Iskandarni bir fors Artakresks Ini biografiyasini yozadi.

Makedoniyalik Appian 160-165-yillarda 24 jildli "Rim tarixi" asarini, 155-235-yillarda yashagan Rim senatori Dion Kassiy Koksian yunon tilida 80 jildli "Rim tarixi"ni yozdi, Dion Kassiyning bu kitobidan 25 jildi va ko'p sonli parchalar bizgacha yetib kelgan. Dion Kassiyning kichik zamondoshi Gerodian "Markdan keyin imperator hokimiyati", (Mark Avreliyning o'limidan keyin Gordian III hukmronligigacha 180-238-yillar) 8 jildli tarix kitobini yunon tilida yozdi.

Mashhur davlat arbobi Gay Yuliy Tsezar (er. avv. 100-44-yillar) yirik yozuvchi edi. Uning asarlaridan bizgacha faqat 2 tasi "Gall urushlari to'g'risidagi yozuvlar" (7 kitob), "Fuqarolik urushi to'g'risidagi yozuvlar" (3 kitob) yetib kelgan.

Tarixiy monografiya janrinining asoschisi Gay Sallyustiy Krisp (er. avv. 86-35-yillar) keksalik paytida "Katilina fitnasi to'g'risida", "Yugo'rtta urushi to'g'risida" hamda er. avv. 78-67-yillar voqealarini qamrab olgan "Tarix" asarini yozgan.

III-IV asrlarning ikkinchi yarmida Rim tarixshunosligi tushkunlikka yuz tutdi. IV asrda "Imperatorlar tarixi yozuvchilar" nomi bilan II-III asrlar imperatorlari biografiyalari to'plami paydo bo'ldi. Bu to'plam materiallarida Antoniylar boshqaruv davridan imperianing yemirilish davriga o'tishi yaqqol ko'rsatiladi.

So'ngi mashhur Rim tarixchisi Ammian Martsellin (330-400-yillar) edi. Uning kelib chiqishi yunon bo'lib, latin tilida "faoliyat" nomli 31 jildli tarixiy asarini yozdi. Bu asar Tatsit "tarix"ini davom ettirib 96-378-yillardagi voqealarni o'z ichiga oladi. IV asrda so'ngi imperiya davrining siyosati va mafkurasi tarixi bo'yicha imperatorlarga maqtovlar, notiq Libaniyning nutq va xatlari paydo bo'ldi.

IV asrda xristian tarixshunosligini shakllanishi boshlandi. Xristian cherkovi tarixi bo'yicha "Cherkov tarixlari" latin va yunon tilida paydo bo'ldi. Ularning orasida kesariyalik Yevseviyning taniqli tarixchi va ilohiyotshunos, buyuk Konstantinning biografiyasini muallifining "Cherkov tarixi" asari alohida o'r'in tutadi.

Rimning tushkunlik sabablarini xristian tarixchilari ham o'z nuqtai nazarlaridan yoritdilar. Episkop Avgustin o'zining "Xudoning shahari to'g'risida" nomli asarida ispan diakoni Oroziy, marsellik presviter Sal'veian o'z asarlarida Rimning xalokatini uning o'tmishi, o'zaro urushlar, hukmdorlarning adolatsizligi, birinchi xristianlarni ta'qib qilinishidan keltirib chiqardilar.

Huquq. Rim huquqi antik sivilizatsiyaning eng katta yutuqlaridan bo'lib, asrdan-asrga yuridik tafakkurning klassik namunasi bo'ldi. Rim huquqining manbalari odadtagi huquq, senat qabul qiladigan qonunlar, magistratlarning ediktleri va yuristlarning faoliyati tashkil qilar edi. Rim tarixida huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish natijasida XII qonunlar jadvalini yaratilishi bo'ldi.

Er. avv. 366-yilda xususiy kishilar o'rtasidagi huquqiy qarama-qarshiliklartni tartibga solish uchun Rimda shahar pretori lavozimi joriy etildi. Pretorlarning yuridik amaliyotidan fuqarolik protsessual huquqi paydo bo'ldi.

I-III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr hisoblanadi. Rim imperiyasida 212-yilgacha huquq va sud amaliyotini ikki shakli kvirit (Rim) huquqi va xalqlar huquqi mavjud edi. Bundan tashqari ba'zi provinsiyalarda mahalliy-huquqiy tizimlar va Rim noiblarining ediktleri amal qilar edi. Imperator Adrian (abadiy ediktini e'lon qilinishi imperiya hududida yagona huquqiy kenglikni yaratish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. II asrning ikkinchi yarmida Gay 4 jiddan iborat huquq darsligi (institutsiyalar) to'plamini tayyorladi. II asr oxiri III asrning boshlarida mashhur huquqshunoslar Emiliy Papinian, Domitsiy Ul'pian va Yuliy Pavel faoliyat ko'rsatdilar.

429-438-yillar imperator Feodosiy II buyrug'i bilan "Feodosiy kodeksi" nomida imperator qonunlari to'plami tayyorlandi, 529-yilda "Yustinian kodeksi", 533-yilda "Digetslar"-rim huquqshunoslarning asarlaridan olingan ma'lumotlar to'plami 50 jidda er'lon qilindi.

Adabiyot. Rim adabiyotini shakllanishi va taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi va yunon adabiy an'analari muhim o'rinni egalladi. Rim adabiyoti tarixi er. avv. III asr o'rtalarida yunon janrlarida taqlid qilish bilan boshlandi. Tarentlik ozod qo'yilgan qul yunon Liviay Adronik (er. avv. 280-204-yillar) birinchi latin muallifi edi. U Gomerning "Odisseya"sinи latin tiliga tarjima qildi, yunon dramalarini erkin tarjima qilish va badiiy qayta ishlash bilan shug'ullandi. Liviy Andronikdan Rim badiiy adabiyoti boshlanadi.

Uning zamondoshlari shoirlar Neviy va Enniylar edi. Giney Neviy (er. avv. 201-yilda vafot qilgan) Rim syujetlariga asoslangan birinchi tradegiyalarini yaratdi, yunon mualliflari syujetlaridan o'zlashtirib dramalar yozdi. Neviy I puni urushi to'g'risida 7 jidda epik poema yozdi. Kvint Enniy (er. avv. 239-169-yillar) Rim tarixiga bag'ishlangan "Annalar" epik poemasini 18 jidda yozdi, bu shoirdan 1100 dan ortiq she'rlar meros qoldi.

Tit Maktsisy Plavt (er. avv. 250-184-yillar) birinchi Rim komediografi bo'lib, uning 130 komediyasidan 21 tasi saqlanib qolgan. Ikkinci buyuk rim komediografi Publiy Terensiy Afrikalik (er. avv. 185-159-yillar) bo'lib, uning pyesalaridan 6 tasi bizgacha yetib kelgan.

Rimda tradegiya keng tarqalmadi. Rim tragiklari Mark Pakui (er. avv. 220-130-yillar) va Lutsiy Aksiy (er. avv. 170-90-yillar) o'z tradegiyalarini yaratish uchun buyuk yunon dramaturglarining asarlaridan foydalandilar. Rimda keng tarqalgan adabiy janr satira (she'r, masal, latifa va dialoglar aralashmasi) edi. Vaqt o'tishi bilan u bizga yaxshi tanish bo'lgan

satiraga aylandi. Birinchi Rim satiriki Gay Lutsiliy (er. avv. 180-102-yillar) 30 kitobdan iborat satiralar to'plamini bunyod qildi.

Latin prozasining eng ilk namunalaridan biri Mark Portsiy Katon Kattaning (er. avv. 234-249-yillar) “Dehqonchilik to'g'risida” nomli asari edi. Uning 7 jildli Rimning qadimgi davrlaridan II puni urushigacha bo'lgan tarixan yoritilgan kitobi, tibbiyot bo'yicha traktatlari, notiqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari, 150 nutqlari saqlanib qolmagan.

So'ngi respublika davrining latin poeziysi Tit Lukretsiy Kar (er. avv. 95-51-yillar) va Gay Valeriya Katull (er. avv. 87-54-yillar) kabi taniqli vakillari bilan mashhur. Lukretsiyga “Narsalarni tabiatni to'g'risida” nomli 6 jildli falsafiy poema tegishli. Katull mashhur Rim liriki bo'lib, 116 she'rlaridan iborat to'plam qoldirgan.

Latin madaniyatining mashhur vakillari Mark Terentsiy Varron “er. avv. 116-27-yillar) va Mark Tulliy Sitseron (er. avv. 106-43-yillar) adabiyot sohasida muhim iz qoldirdilar. Varron 620 jilda 74 asar muallifi bo'lgan ensiklopedist yozuvchi edi. Uning asosiy asarlari “Qadiniyatlar” (41 jild) va latin tili to'g'risida (25 jild)gi kitobda edi. Sitseron qadimda notiqlik san'atining nazariyotchisi va amaliyotchisi, davlat arbobi, huqushunos va advokat, faylasuf va fiolog tarjimon, adabiy tanqidchi, san'atshunos edi. Uning 58 siyosiy va sud sohasidagi nutqlari, 12 ta falsafiy to'plami, notiqlik san'ati bo'yicha 7 traktati, 800 xatlari, ko'pgina nutqlari va poetic asarlari mavjud bo'lgan.

Avgust davri hisoblanadi. Bu davrda buyuk shoirlar Publy Vergiliy Maron (er. avv. 79-19-yillar), Kvint Goratsiy Flakk (er. avv. 65-8-yillar) Publy Ovidiy Nazon (er. avv. 49-eramizning 18-yillari) yashab ijod qildilar. Vergiliy dehqonlar mehnatiga bag'ishlab 14 jildli didaktik poema, 12 jildli “Eneyda” poemasini, “Bukolika” she'riy to'plamini yaratdi.

Goratsiy ijodini satira va munozara janrida boshladi (Epolar, 2 jilda satiralar). Keyin esa 4 jiddli “Odalar”ni, “Maktublar” kitobini, 5 jiddli elegiyalarni parodiya didaktik janrida “Sevgi fani”, “Sevgi da'vosi” asarlarini 15 jiddli “G'amgin elegiyalar”, 4 jiddli “Pontdan maktublar” asarlarini yozdi.

Qobiliyatli lirik shoirlar Tibull (er. avv. 50-eramizning 19-yillari) va Sekst Propertsiy (er. avv. 49-15-yillar). Tibul o'zidan elegiyalarni ikki to'plamini, Propertsiya bir to'plamini qoldirdi. Oktavian Avgustni o'zi proza va she'riyatda ko'p asarlar yozdi.

Satirik janrda kichik Seneka (er. avv. 4-eramizning 65-yillari) va Petroniy Arbitr mashhur edilar.. Petroniying mashhur romani “Satirikon” bo'lib, 20 bobidan 3 bobi qolgan. Persiy Flakk (34-62-yillar), Mark Valeriya Martsial (40-102-yillar), Detsey Yuney Yuvenal (60-127-yillar) hamda 120-190-yillarda yashagan Lukian satira janrida ajoyib asarlar yaratdilar. Bizgacha bu davrning qimmatli yodgorliklari mashhur notiqlar Dion Xrizotomning 78 nutqi, Eliy Aristidning 55 nutqi yetib kelgan.

IV asr ritorika-notiqlikning yangidan gullab yashnagan davri bo'ldi. Antik O'rtayer dengizining notiqlik maktablarida bo'lg'usi oliy amaldorlar va xristian targ'ibotchilari tarbiyalandi. Bu davrda Afinada Gimeriy, Konstantinopolda Femistiy kabi mashhur ritorlar dars berdilar.

Eng kuchli notiq va notiqlik san'ati o'qituvchisi Libaniy edi. U Antioxiyada imperatorlar, lashkarboshilar, oliy amaldorlarga qarata u bu ijtimoiy dolzarb muammolar yuzasidan erkin nutqlar bilan murojaat qilar edi. Libaniy “Kichik Demosfen” taxallusini oldi. U imperator Yulianning ashaddiy muxlisi edi. Ko'pgina taniqli xristian targ'ibotchilari jumladan Nazianlik Grigoriy va Ioann Zlatous uning maktabidan chiqqan edilar. O'sha davrdagi Rim notiqlaridan IV asr oxirlarida oliy davlat mansablarini egallagan Kvint avremiy Simmaxni aytish mumkin.

Sarguzasht romani janriga Apuliyning “Olin eshak”, “Afnis va Xloya”, Geliodorning “Efiopika” asarlari mansubdir. Bu davrda dramatik janr to'la tushkunlikka uchradi. Undan faqat pantomima, atellan va mim shakllari qoldi. Bizgacha yunon klassik obrazlariga taqlid qilib yozilgan Senekani 10 tragediyasi yetib kelgan.

IV-V asrlarda poeziyada klassik namunada asarlar yaratish an'anaga aylandi. Bu davrning eng mashxur mifologik eposiga Panapolis ellinlashgan misrlik Nonning Dionis to'g'risidagi

dostonini aytish mumkin. Bu asar boy fantaziya, ifodali obrazlarga ega bo'lib, epik tarzda yozilgan.

IV-V asrlarda latin shoirlari mifologiyadan tashqari tabiatni tasvirlashga jiddiy e'tibor berdilar. Ana shunday latin shoirlaridan biri Detsim Magin Avzoniy edi. U tajribali ritorik, yunon, lotin tillari va adabiyotining bilag'oni, salohiyatl Shoir edi. So'ng ikki mashhur Rim shoirlari Iskandariyalik Klavdiy Klavdian, kelib chiqishi Galliyadan Klavdiy Rutimi Namatsian o'z she'rlarida Rimga murojaat qilib, uning buyuk o'tmishi va g'alabalarini kuyladilar. Klavdian imperator Gonoriy saroyida yashab, hukmdorning yaqinlaridan biri Stilixonga bag'shab, "Stilixonga maqtov" va "Gotlar bilan urush to'g'risida" poemasida Rimga buyuk kelajakni bashorat qildi.

Me'morchilik va haykaltaroshlik. Rim me'morchiligi va haykaltaroshligi yunon va etrusklarni kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Rimliklar etrusklardan qurilish texnikasini ba'zi usullarini o'zlashtirib oldilar. Er. avv. 312-yilda Senzor Appiy Klavdiy Tseke davrida rimliklar ilk bor tosh to'shalgan Appiy yo'lini qurdilar, odatda rimliklar yo'llarni 5 qatlamlı tuzilma bilan qurar edilar. O'sha 312-yilda rimlik injenerlar Rimning suv ta'minotini yaxshilash uchun arkli suv quvurlari-akveduklar qura boshladilar.

Er. avv. II asrda beton kashf qiliundi. binolar qurilishida g'isht, tuf, travertin va marmar ishlatila boshlandi. Rim qurilish san'atining ko'p asrlik tajribasi Mark Vitruviy Pollionning 10 jildlik "Arxitektura tog'risida" (er. avv. I asrda) asarida umumlashtirildi. Bu vaqtda Rimda ko'p qavatlari uylar, ko'priklar, termalar, zafar arklari qurildi. Er. avv. 55-yilda Mars maydonida toshdan qutilgan birinchi amfiteatr "pompeya" qurildi.

Respublika davrida rimning jamoatchilik markazi forum bo'ldi. Bu yerda davlat xazinasi va arxivi (Tabulyarir), notiqlar minbari (rostra), kuriya (senat majlislari o'rni), davlat qamoqxonasi (Tullianum) binolari qurilgan edi. Ellin davrida Rim yunon haykallari va boshqa san'at asarlari bilan bezatila boshlandi. Imperiya davrida forum, ibodatxona, bazilika, portik, zafar arklari, memorial kollonlar va otliq haykallari bilan bezatildi. Ularning ichida xashamatli Trayan kolonnesi va forumi ajralib turadi. Rim va boshqa shaharlarda termalar-basseyn, gimnastika zallari, park va kutubxonalari bo'lган hashamatli jamoa hammomlari ko'plab bunyod qilindi. Imperator termalarida tasviriy san'at va haykaltaroshlikning eng yaxshi namunalarini quyitilar edi. Rimda eng katta va hashamatli termani imperator Karakalla qurban edi. Uning maydoni 12 ga. bo'lib, bir vaqtini o'zida 1600 kishi yuvinishi mumkin edi.

Imperiyada jami uzunligi 80 ming km. bo'lган 372 yo'l bor edi. Dengiz portlari, gavanlar yaxshi jixozlangan edi. Fortifikatsiya inshootlari ham mustahkam bunyod qilinib, muntazam ta'mirlab turilar edi.

Boy rimliklarning hashamatli saroylari marmar kolonnalar, san'at asarlari, mozaika, haykallar bilan bezatilgan va isitgichlarga ega edi. Kambag'al fuqarolar esa ko'p qavatlari hech qanday qulayliklarga ega bo'lмаган, rejasiz qurilgan uylarda yashar edilar.

Rim san'atining eng katta yutuqlaridan biri haykal portret edi. Yunon haykallari barkamol fuqaro obrazini yaratgan bo'lsa, Rim haykali odamning o'zini aynan ko'rinishida bunyod qilingan edi.

Qadimgi odatga ko'ra rimliklar uylarida ajdodlarini mum niqoblarini saqlar edilar. Ilk davrda etrusklar bronza haykallarni yaratdilar. Er. avv. I asrdan boshlab bronzani o'rniga marmar ishlatila boshlandi. Rim haykaltaroshligini so'ngi respublika asarlаридан "Orator", "Togatus", "Brut" haykallari, Mariy, Pompey, Tsitseron, Kichik Katon va Sezarni byustlarini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ko'pgina imperator va malikalarni, amaldor, sarkarda, shoir va faylasuflarni marmar byustlari saqlanib qolgan.

Ta'lim va fan. Rimda ta'limning birinchi bosqichi maktab edi. Maktablar xususiy bo'lib, davlat ta'lim jarayoniga aralashmas edi. Maktabda ishi yurishmagan, kelib chiqishi qorong'i bo'lган kimsalar dars berar edi. Boshlang'ich maktabda 7-12 yoshli bolalar o'qish-yozish, og'zaki sanashga o'rgatilar, o'qish faqat bir semestrni tashkil etar edi. Keyingi o'qish pullik edi.

O’rta maktabda olimlar, yozuvchi va adabiy tanqidchilar (ko’pincha ozod qo’yilgan qul-yunonlar) grammatikani o’qitar edilar.

Antik davrda notiqlik maktablari ham mashhur bo’lib, 15-16 yoshli qobiliyatli o’quvchilar notiqlik san’atini o’zlashtirganlar. Imperiya davrida siyosiy notiqlarda o’rin qolmagani uchun notiqlik maktablari faxrli va daromadli kasb bo’lgan advokatlarni tayyorladilar.

Rim imperiyasining madaniy markazlari Rim, Iskandariya, Pergam, Rodos, Afina, Karfagen, Massiliya edi. Bu shaharlarda kutubxonalar, teatrлar, maktablar mavjud edi.

Tabiiy fanlar rivojlanib qator ilmiy asarlar yaratildi. Vitruviyning 10 jildli “Arxitektura to’g’risida”gi kitobi, I asrda Tsekts Yuliy Frontonning “Akveduklar to’g’risida” injenerlik asari, Strabonning 17 jildli “Geografiya”si, Pomponiy Melaning “Yer tuzilishi to’g’risida” nomli 3 jildli kitobi, Klavdiy Ptolemeyning “Geografiya bo’yicha yo’riqnomasi” nomli 8 jildli asari, Kvintilinning “Notiqni o’qitish” 12 jildli notiqlik nazariyasi to’plami, Kolumellani astronomiya bo’yicha “Qishloq xo’jaligi to’g’risida” nomli 12 jildli asarlari fan taraqqiyotining katta yutuqlari edi. I asr o’rtalarida Katta Pliniy (24-79-yillar) o’zining 37 jildli “Tabiatshunoslik” asarini yozdi. Bu asar entsiklopedik mazmunda bo’lib fizika, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va boshqa fanlar bo’yicha ma’lumotlar beradi. Fiziolog Klavdiy Galen (129-199-yillar) akusher va pediatr Soran shuhrat qozondilar. Avl Korneliy Tsels “Fanlar” asarida dehqonchilik, ritorika, harbiy ish va tibbiyot to’g’risida turli ma’lumotlarni jamladi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Ilk yunon falsafasi vakillari: Fales, Anaksimandr, Demokrit, Suqrot xaqida nimalarni bilasiz?
3. Qadimgi Rim madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Rimda diniy dunyoqarashi xaqida nimalarni bilasiz?
5. Rim diniy dunyoqarashida etrusk va yunon e’tiqodining ta’siri xaqida nimalarni bilasiz?
6. Qadimgi Rimda tarixshunoslik ilmi: Tit Liviy, Korneliy va boshqalar ijodi xaqida nimalarni bilasiz?

4-Mavzu: O’rta asrlarning birinchi yarmida Yevropa madaniyati tarixi. XI-XV asrlarda G’arbiy Yevropa madaniyati tarixi.XV -XVII asrlarda G’arbiy Yevropa madaniyati tarixi.

XVIII - XIX asrning birinchi yarmida jahonda fan va madaniyat rivoji.

Reja:

1. O’rta asr jamiyatni to’g’risida umumiyligi tushuncha
2. O’rta asrlarning birinchi davrida ta’lim tizimi
3. VI-XI asrlarda qo’l yozma, kitob san’ati, yozuv va adabiyot

O’rta asrlar degan terminni XVI-XVII asrlarda o’tgan gumanist tarixchilar kiritgan bo’lib, bu terminlogiya XVIII asrda uzil kesil qaror topdi. O’rta tarix yoki ko’proq o’rta asrlar tarixi deb atalgan tarixning xronologik chegaralari turli vaqlarda turlicha belgilanib kelgan. Ba’zi tarixchilar o’rta asrlar tarixi Konstantin Buyuk podsholik qilgan davrdan (4-asr boshlaridan) boshlanib, 1453 yilda Konstantinopolning qulashi bilan tamom bo’ladi deb xisoblaganlar.

XIX-asr tarixchilari o’rta asrlar tarixinining xronologik chegaralari 476-yildan –G’arbiy Rim imperiyasi qulagan yildan boshlanib, 1492 yil Amerika kashf qilingan yil bilan tamom bo’ladi, deb xisoblaganlar.

Uchinchi gurux tarixchilari esa bu davrni V-(476yy)-XVII asrlar bilan belgilaganlar. Bugungi kunda o’rta asrlar tarixi ikki buyuk davrga bo’lib o’rganilmoqda. **Birinchi davr, V-asr oxiridan 11-asr o’rtalariga qadar bo’lgan davrni** o’z ichiga oladi va quyidagi omillar bilan belgilanadi: yangi feodal jamiyatga o’tish; yer egaligining yangi turlari shakllanishi, G’arbiy yevropada yangi diniy ta’lmot -xristiyanlikning keng tarqalishi; Sharqda islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi; yirik feodal davlatlarning paydo bo’lishi.

Ikkinchi davr: yer egaligi ishlab chiqarish munosabatlarining yuksalishi; natural xo'jalikdan bozor ho'jaligiga o'tish; savdo va xunarmandchilikning rivojlanish; shaharlarning rivojlanishi; markazlashgan davlatlarning shakllanishi; markaziy xokimiyatning kuchayishi, toifaviy hokimiyat organlari (parlament, general shtatlar) ning shakllanishi. O'rta asrlar tarixi feodal ishlab chiqarish usuli xukmron bo'lган davr tarixi xisoblanadi. Feodal jamiyatda katta yer egaligi feodallar va qaram dehqonlar toifasi shakllanadi. G'arbdagi feodal jamiyat bilan sharqdagi feodal jamiyat ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Ushbu davr tarixi va madaniyatini o'rganishda yozma va moddiy manbalarga asoslaniladi. O'rta asrlarning dastlabki yuz yilliklarida o'zlarining qishloq doirasidan chetga chiqqan kishilar kamdan-kam bo'lardi. Ko'pchilik kishining olam to'g'risidagi bilimlari eng baland bo'lган mahalliy cherkov minoridan ko'z ilg'agan doira bilan cheklanardi. Boshqa mamlakatlar to'g'risida juda oz, chala-chulpagina ma'lumotlar kelardi. yevropaliklar uzoq vaqtlargacha yevropadan tashqarida nima bo'layotganini bilmasdi va olisdagi mamlakatlar to'g'risida har qanday uydirmalarni to'qishardi, Cherkov yer olam markazida turadi, deb da`vo qilardi. Tabiat to'g'risida qadimda to'plangan bilimlar g'alati uydirmalar bilan almashtirilardi. U vaqtarda ko'pchilik yerni kosadek osmon bilan qoplangan likopchadek yalpoq bir narsa, Quyosh, Oy va beshta sayyora esa osmonda suzib yuradi deb tasavvur qilardi. Antik dunyodan o'rta asrlarga o'tish G'arbiy yevropada madaniyatning inqirozi bilan birga sodir bo'ldi. Odamlar qadimdagи kabi o'rta asrlarda ham tabiatning mudxish kuchlari oldida vahima qilardi. Fan va texnika taraqqiyotining saviyasi juda past bo'lganligidan odamlar qurg'oqchilik, toshqin va kasalliklar oldida ojiz edi. Dehqonlar feodallarning jabr-zulmidan qutulib bo'lmaydi, deb o'yldi. Tortayotgan kulfat va azob-uqubatlarning chek-chegarasini ko'rmay, odamlar xudodan madad istab, osmonga tikilardi. Xudoga hamma-dehqonlar ham, feodallar ham, ruhoniylar ham ishonardi.

Din o'rta asrlarda kishilarning aql va hislari ustidan hukmronlik qilardi. Kishi xudoga va «mo'jizalar»ga ishonmay olamni izohlay olmasdi. Savodli kishilar dehqonlar orasidagina emas, feodallar orasida ham kam edi. Ritsarlarning ko'pi imzo chekish o'rniga krest qo'yardi. Xattoki qirollar ham ko'pincha na o'qishni va na yozishni bilardi. G'arbiy yevropada uzoq vaqtlargacha ruxoniylar savdo egalari bo'lib keldi: ular diniy kitoblarni o'qishlari, ibodat duolarini bilishlari, xudoning qudratini dindorlarga chiroyli qilib tasvirlab, ularni bunga ishontirishlari lozim edi. Xristian cherkovi antik dunyo madaniyatidan o'zi uchun zarur bo'lган ozgina narsalarni o'zida saqlagan edi. Buyuk Karl ruxoniylar tayyorlash uchun katta monastirlar qoshida maktablar ochishni buyurgan. U o'z davlatida yangi maorif tizimini yaratadi. Qirol tomonidan 789 yili xalq maktablari joriy etiladi. Qonunga binoan maktablar ibodatxonalar qoshida tashkil etilib, Ruxoniylarga oddiy xalq farzandlarini bepul o'qitish buyurilgan. Qirol saroyida ham mакtab tashkil etilib, unda Karlning do'stlari, olimlar- saroy akademiyasi a'zolari dars berishgan. Akademiya deb nomlangan saroy olimlari birlashmasi antik davr mualliflari asarlarini o'rganish va she'rlar yozish bilan mashg'ul bo'lishgan. Bu saroyda tarixchi, roxib Eyngard (zamondoshlari tomonidan mehnatsevar chumoli deya e'tirof etilgan) va Alkuin kabilar maorifni rivojlantirishda katta xizmat qilganlar . Karlning o'zi ham lotin va yunon tillarini mukammal egallagan.

Diniy maktablarda sakkiz yoshli bolalar ham, o'smir, yigitlar ham baravar o'qigan; o'quvchilar yoshiga karab sinflarga bo'linmagan. O'quvchilar ko'pdan-ko'p duolarni yod olgan, o'qish va yozishni, hisoblash va cherkov ashulalarini o'rgangan. Ba'zi diniy bayramlarni xisoblab aniqlash uchungina astronomiyadan foydalanilgan. Geometriyadan cherkov binolarini qurish uchun talab qilingan ma'lumotlar o'rgatilgan.

G'arbiy yevropadagi mamlakatlarning hammasida ham bolalarni o'sha vaqtida biron xalq gapirmaydigan latin tilida o'qitganlar: kitoblar latin tilida yozilgan, duolar latin tilida o'qilgan, qonunlar latin tilida yozilgan. Ko'pincha butun mакtabda faqat bir dona kitob bo'lган, muallim uni navbat bilan bolalarga berib undan parchalar o'qitgan.Kittoblar

monastirlarda va qirollarnng saroylarida saqlangan. Qimmatbaho kitoblar tokchalarga zanjirlab qo'yilgan.

Bolalarda o'qishga havas tug'dirishga harakat qilinmas, o'qishda yodlash hukmron edi. Beg'am va sarkash — itoatsiz talabalarni qattiq urardilar. Ilm olgan kishi to'g'risida: «U domlaning darrasi ostida katta bo'ldi» deyishardi. O'quvchilarning ko'pi maktabdan chalasavod bo'lib chiqardi. Ruxoni bo'lib olgandan keyin ham hamma vaqt latincha tekstlarni o'qiy olmas va o'qib mag'zini chaqa olmasdi.

Qulyozma kitob san'ati. Katta monastirlarda monarxlar kitoblarni ko'chirib yozadigan ishxonalar bo'lardi. Yozuv buzoq yoki quy terisidan maxsus ishlangan yupqa teri — pergamentga bitilardi. Qo'lyozma kitob chinakam san'at asari edi. Bitta kitob ko'p kishining ko'p vaqt sarflagan mehnati bilan yuzaga kelardi: birovlar (xattotlar) teksti xushxat qilib yozar, boshqalari bosh xarflarni chiroqli qilib, jum-jimador suratlar solib chizar, uchinchi birovlar kitobning lavhalari va naqshlarini ishlar va yana birovlar miniatyuralar chizardi. VIII—IX asrlarda qadim zamon olimlari va yozuvchilarining ko'p asarlari ko'chirib yozilgan edi. Shunga kura bu kitoblar bizgacha yetib kelgan. Kitoblar kam bo'lib, juda qimmat turardi. Juda kam odam, faqat boyonlarninggina kitob sotib olishga qurbi yetardi. Qirollar va oqsuyak zodagonlar eng zarur tantanali voqealar munosabati bilan: shartnomalar tuzganda, farzand ko'rganda, tuylarda bir-birlariga kitob tortiq qilishardi. XI asrdagi dunyo xaritasida dunyoning o'sha vaqtarda ma'lum bo'lган uch qismi: yevropa, Osiyo va Afrika ko'rsatilgan. Kishilarning xayoliga ko'ra olis mamlakatlarda g'alati hayvonlar, qushlar, ot oyoqli, kuchuk boshli mushtday kichkina odamlar yashagan. Slavyan yozuvining paydo bo'lishi. Slavyan xalqlarining ko'pi xristian dinini Sharqiy Rim imperiyasidan qabul qildi. Diniy kitoblarni slavyan tiliga ko'chirishga zarurat tug'ildi, ammo buning uchun avvalo slavyanlarning yozuvini barpo qilish kerak edi. Monax olimlardan aka-uka Kirill bilan Mefodiy slavyanlarning. To'ng'ich ma'rifatchilari edi. IX asr o'rtalarida Kirill greklar alifbesi asosida slavyan alifbesini yaratdi. U Mefodiy yordamida grek diniy kitoblarini slavyan tiliga tarjima qildi. Kirill bilan Mefodiy g'arbiy slavyanlarga xristian dinini targib qilish uchun Vizantiyadan yuborilgan edi. Keyinchalik ularning nemis ruxoniylari ta'qibiga uchragan shogirdlari Bolgariyaga kelib joylashdi. Ular ko'pgina grekcha kitoblarni slavyan tiliga tarjima qildi. **Slavyan yozuvi Bolgariyadan Rusga tarqaldi.**

Adabiyot. O'rta asrlarda odamlar Bibliyani hamda cherkov avliyo deb topgan monarxlarning «qahramonliklari» va ko'rsatgan «mo'jizalari» bayon qilingan «Avliyolar hayoti»ni o'qigan. Bu kitobda monarxlarning xar qanaqa vasvasalarga berilmaslik uchun o'zlarini qiynashi, badanlarini arqon va zanjir bilan o'rab olib ezishi, o'z-o'zlarini savalashi tasvir etilgan. Cherkov dindorlarni avliyolarga taqlid qilishga chaqirar, ularning bardoshliligi va dinni kattiq ushlashlarini namuna qilib ko'rsatar edi. Monastirlarda yilnomalar yozilardi. Bu yilnomalarda insoniyat tarixi odatda «olamning yaratilishi»dan boshlanar, voqealar sababi «xudoning irodasi»ga bog'lanar edi. Ezilgan benavo xalq o'z madaniyatini yaratardi. Qishloqlarda va qasrlarda, yo'llarda va karvonsaroylarda darbadar artistlar — xushovoz (jonglyor)lar tomosha ko'rsatardi. Qishloq to'ylari va ritsarlarning turnirlari ularning ishtirokisiz o'tmas edi. Huqqadavozlar muzika asboblari chalib, harbiy yurishlar va janglar to'g'risida qo'shiqlar va dostonlarni aytar, qahramonlarning mardliklarini madx qilardi. Ular o'zlarini bilan birga ayiq va maymunlar olib yurar, fokus ko'rsatar, akrobatika mashqlarini qilar, kichik-kechik p yesalarni o'ynab tomosha ko'rsatardi. Huqqavozlarning ruxoniylarni va feodallarni qattiq masxara qilib ularni ustidan kulishardi. Yilnomalardan birida huqqavozning ikkita maymunni uyinchoq qurol-aslaha bilan kiyintirib va itga mingazib ritsarlar turnirini ko'rsatganligi aytilgan. Feodallarning harbiy o'yinlari ustidan bunday achchiq istexzo oddiy xalqqa juda manzur bo'lgan. Huqqavozlarning dadil hazil-mutoyibasi turalarga yoqmagan, albatta. Cherkov darbadar artistlarni ta'qib qilar, xaydab yuborar va hatto ularning jasadlarini

xristianlar go'ristoniga ko'mishni man qilardi. Xalq ijodining ko'p asarlarida feodallar va cherkovga qarshi zahmatkash axolining qattiq noroziligi ifodalangan.

Fanda yirik, salmoqli ma'rifiy yuksalish uyg'onish, ya`ni renessans deb atalgan. Frantsuz tilidan olingen bu so'z "tiklanish", "uyg'onish" ma'nosida tarjima qilinib, adabiyotga kirib kelgan. Renessans, odatda, u yoki bu xududda, mamlakatda yuz bergan moddiy, ma'rifiy, ma`naviy jihatdan katta yuksalish davrini tasnif etishda ishlatiladi.

Sharq Uyg'onishi, Sharq Renessansi haqida gap ketganda turli soxa olimlari-tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslar bu masalaga befark bulmaganlaridek, karashlar ham asosan ikkiga bulinadi. Uyg'onish atamasi (**italyancha-frantsuzcha-Renaissans-Uyg'onish**) ni dastavval shu madaniyat soxiblariital yan gumanistlari ishlatganlar. Jumladan italiyalik yozuvchi J. Bakachcho bu atamani Djotto ijodiga karata, "u antik san'atni uyg'otdi" deb birinchi bor ishlatgan edi. Butun bir davrni anglatuvchi tushuncha sifatida san'at tarixchisi J.Vazari (1511-1574 y.) tarafidan uning "Mashxur san'atkorlar xayotidan lavxalar" kitobida (1550) tilga olingen. Bu tushuncha birinchi paytda antik madaniyat an'analarini Italiyada "ming yillik yovvoyilikdan so'ng" tiklanishini anglatib, so'ngrok ilmiy tadkikotlarida keng ishlatila boshlandi. Ya.Burxart Uyg'onish (Renessans) ni aloxida tipdag'i madaniyat deb baxoladi. Masalaga kizikish ortib, ilmiy izlanishlar ko'paya borgani sayin Uyg'onish tushunchasi, bu davr madaniyatining xronologik va geografik chegaralari, uni davrlashtirish xususida ziddiyatli, turlicha fikrlar bildirila boshlandi. Y.Xeyzing uzining "O'rta asr chilikning kuz fasli" asarida Uyg'onish davri-O'rta asr madaniyatining intixo davri deb xisoblasa, boshqa olimlar Uyg'onish davri Yangi davr madaniyatining boshlanishi deb sanaydilar. Ko'pchilik olimlar yevropa Uyg'onish davrini klassik tarzda davrlashtirib u XIV-XVI asrlarga xos deb bilsalar, boshqalar Uyg'onish madaniyatini bir muncha ilgarirok XII asr Karolinglar Renessansidan boshlab, Ispaniya, Italiya, shimolidagi mamlakatlar (Shimoliy Uyg'onish) Uyg'onish – XVII asr Bilan yakunlaydilar. 1950 yillarning o'rtalaridan e'tiboran "Shark" Uyg'onish davri masalasida jiddiy munozara baxs ketdi. Xitoy madaniyati tarixi taxlilida akademik N.Kondrad Uyg'onish davrini qadimgi, o'rta asrlar singari insoniyat tsivilizatsiyasining barcha mintakalariga xos umubashariy xodisa deb karaydi. Umumjaxoni jarayon xisoblagan Uyg'onish Sharqda (Xitoy) VI-VIII asrlarda boshlanib, G`arb sari siljigan va XIV asrda yevropa xodisasiga aylangan. Uyg'onishning bunday talqiniga qarshi bu xodisa turli mamlakatlarda mintaqaviy, ayrim ko`rinishlarda amal qilishi mumkin, lekin u umumjaxon fenomeni bo`lishi mumkin emas, deb xisoblovchilar ham bor. Uyg'onish davri Xitoyda (Konrad), Kuriyada (Ten), Eron-Tojikistonda (Braginskiy, Nikitin), Xindistonda (TSelishev), Turkiyada (Mellov), Armanistonda (Chaloyan), Ozorboyjonda (Gajiev), Gruziyada (Nutsibidze, Natadze) kechkaknligi haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Ayni chokda xar ikki karash tarafdarlarini yevropa Uyg'onish davrini mutlako betakror xodisa deb karovchi mualliflar (A.Losev, M.Petrov) jiddiy tankid kiladilar.

Uzbekistonda Sharq Uyg'onish davri masalasi maxalliy materiallarni umumlashtirgan xolda yetarli ishlanmagan. **Markaziy Osiyo mintaqasidagi Uyg'onish haqida gap borganda IX-XII asrlar avvalo xorijiy madaniyat va qaror topgan islomiy e'tikodga nisbatan rivojlangan** va boyigan kadimiylar negizida milliy Uyg'onish deb karalmogi lozim. Markaziy Osiyo uzok yillik tarixida ko'p boskin va talonchiliklarni kurdi, ularga Karshi ozodlik va mustakillik uchun kurash olib bordi. Xakikat shundaki, xar bir boskichdan so'ng milliy davlatchilik va madaniyat tiklandi. Mustakillikka intilish goyasi va xarakati uzga xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarni inkori emas. Markaziy Osiyo madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik jamiki madaniyat yutuklari ijodiy uygunlashganidek, Ayni paytda mintaka madaniyati boshqa xalqlar madaniyatlariga samarali ta'sir kursatdi va ularni boyitdi.

O'rta asr madaniyati cherkov-diniy ideologiya bilan chambarchas bog'langan edi. Cherkov ta'siri o'rta asr madaniyatining juda turli-tuman sohalarida fanda, maktabda, adabiyotda, san'atda aks etdi.

O'rta asr jamiyatida cherkovning ahamiyati juda katta edi. Cherkov yevropa mamlakatlarining har bittasida eng yirik yer egasi edi. Turli korolliklardagi yerlarning deyarli uchdan biri cherkov korporatsiyalariga qarardi. Cherkov katta siyosiy kuch edi. Ruhoniylar o'z oralaridan korol amaldorlari, kantslerlar, davlat sekretarlari, markaziy muassasalarning amaldorlari va boshqalarni yetishtirib chiqardilar. O'rta asrdagi toifaviy yig'inlarda (General shtatlar, parlament, korgeslar va h.k.larda) ruhoniylarning vakillari ko'plab qatnashardi. Lekin ideologiya masalasida cherkov ayniqsa katta rol o'ynar edi. Cherkov o'z obro'-e tibori bilan o'rta asr feodal tuzumini muqaddaslashtirgan bo'lib, feodal jamiyatining diniy rahbari hisoblanar edi.

Xalq ommasi tarbiyalangan o'rta asr dunyoqarashining xarakterli xususiyatlaridan biri – diniy asketizm edi. Asketizm ta'limotiga ko'ra, yer yuzidagi hayot insonning o'zi va uning gavdasi gunoh va yovuzlikning mujassamlashgani emish. Dinga ishonuvchi insonning burchi – narigi dunyodagi, ya'ni oxiratdagi eng a'lo hayotga o'tish tayyorgarligi ko'rish uchun yerdagi azob-uqubatlardan o'z jonini asta-sekin xalos etishdan, insoniy "havaslar" bilan to'xtovsiz kurashishdan iborat emish. Buning uchun cherkov odamlarga ro'za tutish, ibodat qilish, chilla o'tirish va h.k.larni tavsiya etdi. Tarki dunyo qilib ibodatxonaga (monastirga) ketish eng oliy darajadagi jasturlik deb hisoblangan.

Amalda esa asketizm uncha izchillik bilan olib borilmadi. Quturgan va beadab feodallar, albatta, asket bo'lishni hatto o'ylariga ham keltirmadilar. Ruhoniylarning o'zлari, xususan ularning oliy martabali vakillari, aslida dunyoviy feodallarning turmush tarziga ergashib hatto o'zlarining asketik qoidalarini ham qo'pol ravishda buzardilar. Shaharliklar va dehqon halq ommasi hayotining butun alam va kulfatiga bardosh berib "osoyishta" mehnat qilib kun kechiravergan. O'rta asr jamiyatni bevosita monastirlardan iborat bo'lib, unda odamlar faqat chilla o'tirardilar va tota-ibodat bilangina mashg'ul bo'lardilar deyilsa, albatta hato bo'lur edi. Ammo, shunga qaramasdan, asketizm rasmiy ta'limot bo'lib, u cherkov kafeckrasidan turib propoganda qilinardi, maktabda yoshlarga o'rta asr davri adabiyotining ko'pgina xillariga zaruriy element bo'lib kirgan asketizm ta'limoti o'qitildi. Turli sinflarga mansub bo'lgan kishilarning anchagini ozmi-ko'pmi asketizmni yoqlab, uning qoidalarini ba'zan jiddiy ravishda bajarardi. O'rta asrlar davrida asketizm diniy hukmronlikning eng yaqqol ifodasi edi. Bu vaqtarda aniq fanlar endigina ko'rtak otib kelayotgan edi, insonning tabiat kuchlari ustidan hokimligi hali uncha takomillashmagan edi, ijtimoiy munosabatlar esa keskin antagonistik va krepostniklik asosiga qurilgan bo'lib, xalq ommasi doimo azob-uqubat chekar, lom-mim deb ovoz chiqarmas, qo'rquv vahimada kun kechirar va oxiratdagi jannat arsh a'lo haqida xayol surur edi.

Biroq o'rta asr dunyoqarashiga cherkovnning ta'siri hamisha birdek kuchli emas edi. Ilk o'rta asr davrida – taxminan XI asrning ikkinchi yarmigacha o'rta asr jamiyatiga ideologik rahbarlik eng ko'p cherkov monopoliyasida bo'ldi. So'ngra, XII—XIII asrlarda cherkov ideologik rahbarlikni rasman o'z qo'lida tutib turgan va hatto uni ayrim formalarda kuchaytirgan bo'lsa-da (universitetlarning ravnaq topishi, tugal falsafiy-teologik sistemasining — sxolastikaning vujudga kelishi va h. k.), ammo ayni zamonda, bu davrda yevropadagi cherkovdan tashqari va hatto qisman unga qarshi ham madaniyat rivojlandi. Shahar byurgerlari adabiyotining, uning antifeodal va realistik tendentsiyalarining tarkib topishi va ruhoniylarga keskin hujumlar qilish jamiyatni cherkovning ideologik vasiyligidan ozod qilish bobida boshlanib ketgan jarayonni yaqqol ko'rsatdi.

XIV—XVI asrlarda yevropada Uyg'onish davrining yangi madaniyati yoki gumanizm olyi darajaga erishdi. Bu madaniyat ochiq ifodalangan dunyoviy madaniyat edi. Gumanistlarning ko'pchiligi cherkov-diniy masalalarga butunlay beparvolik bilan qarardi. Gumanistlariing maydonga kelishi keyingi o'rta asr davrida yevropa jamiyatidagi eng progressiv peshqadam tabaqalarga cherkovning ta'siri yo'qolganligidan darak berardi.

O'rta asr davrida uch xil mакtab bor edi. Cherkov va monastirlar huzurida tashkil etilgan quyи maktablar elementar savodli dindor shaxslar — klirkilar tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maktablarda latin tilini (katoliklarning toat-ibodat qilishi shu

tipda olib borilgan) o'rganishga, ibodat qilish va duolar o'qish tartiblarini o'rganishga asosiy e'tibor berilar zdi. **Ko'proq yepiskoplilik kafedralari huzurida vujudga kelgan o'rta maktabda yetti «erkin san'at»ni** (grammatika, ritorika, dialektika yoki logika, arifmetika, geometriya, geografiya, astronomiya va muzika ham shunga kirardi) o'rganish tajriba qilinardi Birinchi uch fan trivium, so'nggi to'rttasi — kvadrivium deb atalgan. Keyinroq «erkin san'at»ni **oliy maktabda o'rganila boshlagan, unda bu fanlar kichik (artistik) fakul tetdagi** uqitishning mazmunini tashkil etgan. Oliy maktab dastlabki vaqtida «umumiy fanlar» deb atalgan, keyin bu nomni boshqasi — universitetlar degan nom surib chiqargan.

Birinchi universitetlar XII asrda bir qismi teologiya va falsafa sohasida eng yirik professorlari bo'lган yepiskop maktablaridan, bir qismi xususiy muallimlarning — falsafa, huquq (Rim huquqi) va meditsina mutaxassislarining birlashmalaridan kelib chiqqan. yevropada eng qadimi universitet. Parij universiteti bo'lib, u XII asrning birinchi yarmidayoq «erkin maktab» sifatida mashg'ulot olib borgan. **Parij universiteti XII asrning ikkinchi rasmiylashgan** (Filipp II Avgust 1200 yilda Sorbonna hukuqlari to'g'risidagi yorlig'i bilan ta'sis etgan). Ammo **Italiyaning oliy maktablari — Rim huquqiga ixtisoslashgan Bolon yuridik maktabi** va **Saler meditsina maktabi ancha ilgari**, XI asradyoq universitetlarning markazlari rolini o'ynay boshlaganlar. yevropadagi boshqa universitetlar asos qilib olgan Parij universiteti ustavi to'rtta fakul ttetdan: artistik, meditsiyana, yuridik va teologiya (diniy ruhda falsafa o'qitish ham bunga kiradi) fakul tetlaridan iborat bo'lgan.

Angliyadagi XIII asrda ta'sis etilgan Oksford va Kembrij universitetlari, Ispaniyadagi Salamank va Italiyadagi Neapol universitetlari yevropadagi eng qadimi universitetlar edi. XIV asrda Markaziy yevropada – Praga, Krakov, Geydel berg, Erfura va Kyoln shaharlaridagi universitetlar barpo etildi. XV asrda universitetlar soni tez ko'paydi. 1500 yilda butun yevropada 65 ta universitet bor edi.

O'rta asr universitetlarida dars lotin tilida olib borilardi. Universitetda dars berishning asosiy metodi professorlar lektsiyasi edi. Ilmiy aloqa qilishning tarqalgan formasi ilmiy tortishuv yoki ochiq munozaralar bo'lib, bunday ilmiy tortishuv va ochiq munozaralar vaqt-i-vaqt bilan teologiya-falsafiy temalarda bo'lardi. Ilmiy tortishuvlarda asosan universitetlarning professorlari qatnashardilar. Lekin sxolalar (studentlar) uchun ham shunday ilmiy tortishuvlar o'tkazib turilardi.

O'rta asr universiteti fani sxolastika (chola so'zidan) deb atalardi. Sxolastika o'rt asrning asosiy fani hisolangan **teologiyada o'zining eng yorqin ifodasini topgan edi**. Sxolastikaning asosiy xususiyati biror-bir yangi narsani kashf etish emas, balki xristian dinining mazmunin tushuntirish va uni bir sisitemaga solishdangina iborat edi. Xristian ta'limotining asosiy manbalari bo'lган muqaddas yozuv va muqaddas rivoyatga tayangan sxolastlar qadimiy faylasuflardan, asosan ARiistoteldan tegishli o'rinnarni dalil qilib keltirib, o'z fikrlarini isbotlashga harakat qilardilar. O'rta asr ta'limoti Aristoteldan turli xil murakkab mulohaza yuritish va xulosa chiqarish tarzida mantiqiy bayon qilish formasini qabul qilib oldi. O'rta asr olimlari teologiya-falsafiy masalalar bilan shug'ullangan paytlaridagina emas, balki tabiatni o'rgangan paytlarida ham shaxsiy obro'-e'tibor g'oyat katta rol o'ynagan, lekin amaliy tajriba kichik miqyos kasb etgan edi. Masalan, o'rta asr zamonlarida geografiya sohasida Aristotelning va boshqa qadimi avtorlarning orbo'-e'tibori begumon bo'lib, uning to'g'rilingiga hech kim shak-shubha qilolmasdi. Meditsinada "bir qancha bid'at-xurofotlar mavjud bo'lib, bu bid'at xurofotlar asrlar bo'yicha mustahkam saqlanib keldi, chunki o'rta asrlar davrida Sivisektsiya singari zaruriy eksperiment deyarli o'tkazilmasdi va murdalar anatomiysi bo'yicha muntazam ish olib borilmasdi. Anatomiya doir ba'zi bir bilimlar ko'proq arab meditsina kitoblaridan olingan edi. O'rta asrlar davrigacha yetib kelgan vrachlik ishlariga doir bir necha qadimiy traktatlar singari, arablarning bu kitoblari ham yevropada shak-shubhasiz obro'-e'tibor qozongan edi.

Yevropaning ko'p mamlakatlariga yoyilgan ilmiy harakat, ya'ni ilk davrdagi sxolastika o'z taraqqiyotida muayyan ijobiy natijaga ega bo'ldi. Avvalo sxolastlar uzoqqa cho'zilgan

tanaffusdai keyii antik merosni o'rganishni (antik madaniyatning ba`zi vakillari chunonchi, Aristotel kabi mashhur kishilar) yangidan boshlab yubordilar. So'ngra, sxolastlar XII—XIII asrlarda bilishning ba`zi bir eng muhim problemalarini ishlab chiqdilar. XI—XII asrlarda yevropada universallar, ya`ni umumiy tushunchalar tabiat to'g'risida qizg'in baxs davom qildi. Sxolastlarning ba`zilari, ya`ni nomikalislari, umumiy tushunchalar degan gap butkul yo'q, balki so'zlar, nom demakdir, deb faraz qillardilar (latincha nomen — nom ham ana shundan kelib chiqqan). Boshqalari, ularning raqiblari bo'l mish realistlar, aksincha, umumiy tushunchalar haqiqatda mavjud bo'lib, ular xususiy predmetlardan qat'i nazar, idealistik qarashlarni ochiqdan-ochiq rivojlantiradilar. Nominalistlarning realistlar bilan olib borgan munozarasi idealistlarning (Platon va uning maktabi) qadimiy falsafadagi materialistlar Demokrit, Epikur, Lukretsiy va h. k.) bilan eski munozaralarini qaytadan tikladi va yangi zamonda esa materialistlarning idealistlari bilan olib borgan bundan keyingi kurashini tayyorladi. Nihoyat, sxolastlarning ko'plari universal olimlar bo'lib, ular o'sha mahalda barchaga mos keladigan fanlar bilan, shu jumladan, hali ibtidoiy holatda bo'lgan tabiiyot fani bilan ham shug'ullangan edilar.

Parij professorlari: Parij universitetini ta'sis etishda katta rol o'ynagan va o'zining «erkin fikri» bilan oliy martabali cherkov ruhoniylarining keskin ta`nasiga duchor bo'lgap P yer Abelyar (1079-1142); Aristotelning va uning mantiqiy metodining samimiyy murxisi, qisman teologiya, qisman tabiiy-ilmiy xarakterdagi bir qancha asarlar avtori Al bert Buyuk (1193-1280) hamda tabiat va jamiyatni bilishning hamma masalalarini cherkov-diniy ruhda yoritgan o'rta asr dunyoqarashining go'yo entsiklopediyasi bo'lgan «Teologiya summasi» («Summa theologoe») nomli mashhur asar avtori Foma Akvinskiy, (1225-1274) o'rta asr zamonlarining eng yirik sxolastlari hisoblanardilar. Foma Akvinskiy cherkov-xristian dogmatik ta'limotini sistemalashtirishdan tashqari, o'sha zamonning eng muhim iqtisodiy masalalariga to'xtaldi, feodal doiralarning manfaatlari bilan shaharliklarning manfaatlarni (protsent haqida «adolatli baho» va h. k. lar to'g'risida fikr yuritish) kelishtirishga harakat qildi. Holbuki, XIII asrning ikkinchi yarmida shaharliklarning salmog'i endi ancha katta edi. Tabiiyot masalalariga eng katta e'tibor bergen sxolastlardan biri — ingлиз olimi monax Rodjer Bekon (1214-1292) bo'lib, u tabiatni tajribaviy yo'sinda o'rganish zarurligini birlinchi marta ko'tarib chiqqan edi. Xalqaro miqyosda mashhur bo'lgan so'nggi eng yirik olim-sxolast Dunyo Skott (1260-1309) bo'lib, u Oksford va Parij universitetlarida dars berardi. Dunyo Skott e'tiqod bilan bilim o'rtasidagi, ya`ni din bilan fan o'rtasidagi farq masalasini boshqa sxolastlarga qaraganda keskinroq qilib qo'ydi. U o'zining ba`zi bir traktatlarida, materiya fikr qilish qobiliyatiga ega bo'lsa ajab emas, degan fikr bildirdi. Dunyo matematika bilan tabiiyotni o'rganishga katta e'tibor qildi.

XIV asrdan, xususan XV-XVI asrlardan e'tiboran sxolastika orqaga ketadi. Tabiiyot bilan antik adabiyotni yanada o'rganish sxolastlardan tashqari bordi. Sxolastika teologiyaning maddohlik-dogmatik masalalarida uzil-kesil ixtisoslashib, ilmiy taraqqiyotning yanada olg'a qadam ko'yishiga monelik qildi va tug'ilib kelayotgan yangi burjuaziya vakillari bo'l mish gumanistlar bilan qattiq kurashdi.

Mistik. O'rta asrlar zamonida sxolastikadan tashqari, yana bir oqim, ya`ni sxolastlar bilan qizg'in kurash olib borgan oqim ham mavjud edi. Bu oqim — mistika edi. Masalan, Abelyarning zamondoshi, ikkinchi salib yurishining sobiq tashkilotchisi Bernard Klervosskiy (1091-1153) Abelyar bilan qattiq kurashdi. XIV-XV asrlarda nemis mistiklari Iogann Tauler (1300-1361) bilan Foma Qempiyskiy (1379-1471) eng ko'p nom qozongan edilar. Tauler bilan Kempiyskiy asarlari boshqa mamlakatlarga ham tarqalib, bir necha bor nashr qilingan. Mistiklar Aristotel ta'limotini o'rganish va din asoslarini mantiq jihatdan isbot etish zarurligini rad etdilar. Ular, diniy qoidalar faqat «mushohada qilish», ya`ni biror-bir «majusiy fan» yordamisiz ibodat qilish va xudojo'ylik yo'li bilangina o'zlashtiriladi, derdilar. Mistiklar ana shu taxlitda maydonga chiqib ochiqdan-ochiq reaktsion mavqeni egalladilar. Ammo mistiklar sxolastlarga qaraganda oz sonni tashkil qilganliklari sababli mukstiklar teologiya va falsafiy obro'-e'tibori bilan bog'langan edilar, mistiklar orasida ba'zan demokratik kayfiyatdagи mutafakkirlar paydo bo'lib, ular o'z «mushohadalari»da va «mulohazalari»da feodal tartibning o'zining asl mohiyatiga tanqidiy

nadar bilan qarab, bu tartibning «abadiyligi» va «adolatliligi»ni rad qilardilar hamda «yangi zamonlar» kelishini, «buyuk to'ntarish» yaqin qolganligini, «er yuzida tangri hukmronligi» qaror topajagini oldindan karomat qilardilar. Masalan, XVI asrda bo'lg'usi cherkov reformatsiyasining eng ko'zga ko'ringan radikal rahbarlariga ta'sir ko'rsatgan mistik italiyalik Ioaxim Kalabriyskiy (yoki Florskiy) (1145-1202) bo'lib, u tez orada yer yuzida xususiy mulk bo'limgan, ekspluatatsiya ham bo'limgan mukammal «ming yillik hukmronlik» davri qaror topajagini oldindan aytgan edi.

O'rta asr yereslari va ularning ijtimoiy xarakteri. XI asrdan e'tiboran G'arbiy yevropada yereslar, ya'ni hukmron feodal-katolik cherkoviga qarshi bo'lgan va, oqibat-natijada, ko'p yoki oz sonli dinga ishonuvchilarni cherkovdan ajratib olgan diniy oqimlar tarqala boshladi. O'rta asr yereslarining ravnaq topishi shaharlarning o'sishi bilan alohida uchinchi toifa bo'lgan shaharliklar sinfining kuchayishi bilan, shaharliklar bilan feodallar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashishi bilan chambarchas bog'langan edi. yereslar harakatida qatnashgan shaharliklarning feodal tuzumga qilgan hujumlari o'ziga xos yangi diniy-ideologik shaklga ega bo'ldi. Odatda yereslar G'arbiy yevropaning shahar hayoti eng ko'p rivojlangan mamlakatlarida ham vujudga kelardi. Janubiy Frantsiya, Janubiy Germaniya, Shimoliy Italiya, Niderlandiya, Angliya, Chexiyada yeteklik harakati o'choqlari juda ko'p edi.

XI asrning ikkinchi yarmida vujudga kelib, eng ko'p tarqalgan yeres — katarlar yeresi bo'lib u Shimoliy Italiyada (Lombariyada) va ayniqsa Janubiy Frantsiyada keng yoyilgan edi. Katarlar harakatining asosiy markazlaridan biri bo'lgan Frantsiyaning Al bi shahari nomiga nisbat berilib, bu harakatga ergashuvchilar ham al bigoychilar deb atalgan. Katarlar harakatining kelib chiqishi salib yurishlari bilan aloqadordir. yevropaliklar Sharqda bu harakat bilan tanishib, so'ng uni G'arbiy yevropaga olib keldilar. Katarlar — al bigoychilar ta'limotining eng yaqin manbai bolgarlar xudojo'yligi bo'lib, u o'z navbatida Vizantiya pavlikanligiga va Eron manixeyligiga g'oyaviy jihatdan asoslangan edi.

Xudojo'ylar singari, katarlar ham jiddiy dualizmga asoslangan edilar. Dunyoda yaxshilik bilan yomonlik, xudo bilan shayton bir-birovlariga raqib bo'lib, doimo kurashadilar, tashqi dunyo insonga nisbatan yovuzlik, inson tanasi, ya'ni jonnini kishanlab turuvchi materiya ham yovuzlikdir. Insonning muddaosi dunyoning ana shu yovuzligidan xalos bo'lishdir. Katarlar tashqi dunyoni (aslida, hukmronlik qiluvchi feudal tartibni) qoralab, feudal katolik cherkovining, feudal davlatning zarurligini rad etib, urushlarga, sudlarga va boshqa feudal muassasalariga qarshi bosh ko'tarardilar. Katarlar o'zlarini «pokizalar» va «mukammallar» deb atardilar. Biroq, to'liq asketizmni amalga oshirishda ifodalangan «mukammal» hayot ideali katarlarda oz sonli odamlarga — ularning ustozlari va diniy rahbarlariga nisbatangina qo'llanilardi. Oddiy, «avom» katarlar esa odatda mayjud vaziyatga moslashib, oilali bo'lardilar va ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanardilar va h. k. Oddiy, «avom» katarlar o'lim oldida maxsus «taskin berish» urf-odatidan o'tkazilgach «mukammallar» safiga o'tardilar va, shunday qilib, tashqi dunyo bilan batamom aloqani uzardilar.

Katarlar o'zlarining alohida ruhoniylariga, alohida maxfiy majlislariga, alohida ta'limot va hayotga ega bo'lish bilan katolik cherkovini vayron qilib, uning ta'siridan qutuldilar. Faqat shaharliklarga emas, balki dunyoviy feodallarning bir qismi ham yeresga ixlosmand bo'lib, xususan katolik cherkoviga qarashli yer-mulkarni sekulyarizatsiya qilish umidida yereslik oldida tiz cho'kdilar. Chunki yetekklar ta'limotidan ana shu narsalar mantiqan kelib chiqar edi. Innocentiy III XIII asr boshlarida Frantsiyaning janubidagi yeteklarga qarshi salib yurishi uyuştirib, unda ko'p sonli shimoliy frantsuz feodallari qatnashganligi va natijada butun Langedok xarob qilinib, so'ng u frantsuz koroli mulklariga qo'shib olinganligi yuqorida ko'rsatib o'tilgan edi.

Shaharda vujudga kelib, ammo keyin qishloqqa ham tarqalgan ikkinchi bir yeres — val denslar yeresi edi. U lionlik savdogar Pyotr Val da nomidan olingen bo'lib, Pyotr o'z molu mulkini gadoylarga ulashib berdi, o'zi bo'lsa tavba-tazarru qilishni targ'ib qildi va qashshoqlikka da`vat etdi (XII asrning 70-yillari). Boylikka, ijtimoiy tengsizlira va adolatsizlikka qarshi

norozilikni o'zida aks ettirgan val denslar ta'limoti ayniqsa shahar plebey elementlari orasida yoyildi. Zamondoshlar val denslar yeresian ko'pincha «Lion qashshoqlari yeresi» deb ham atardilar. Ammo val denslar yeresi Janubiy Frantsiya va Janubiy Germaniya dehqonlari orasida ham tarqaldi. Val denslar yeresi Shveytsariyaga yoyildi, bu yerda mahalliy feodallar tomonidan qullik asoratiga tushirilmoqchi bo'lgan dehqonlar ana shu val denslar diniy bayrog'i ostida mahalliy feodallarga qarshi bosh ko'tardilar. XIII-XIV asrlarda ko'p val denslar Chexiyada edi.

XIV-XV asrlarda yetetiklik harakati ayniqsa keng qanot yoyib, u ikki asosiy oqimga: 1) papalikka qarshi chiqqan va ruhoniylarning alohida toifasini tugatishni va o'zining «ancha arzon» byurgerlik cherkovini tuzishni maqsad qilib qo'ygan mo'tadil byurgerlar yeresiga va 2) jamiyatni radikal — demokratik antifeodal ruhda ijtimoiy isloh qilish programmasini o'rtaga tashlagan dehqon-plebeylar yereisga keskin suratda ajraladi. Chunonchi, Angliyada viklefizmdan ajralib chiqqan lollandizm u bilan bir qatorda rivojlandi, lollandizm vakillari (Jon Boll va boshqalar) 1381 yildagi qo'zg'olonda aktiv qatnashdilar. XV asr boshlarida Chexiyadagi taboriylar chek dehqonlari harakatiga boshchilik qilib, urushning borishida Yan Gusning izdoshlari bo'lgan chashniklar bilan aloqani uzdilar.

Katolik cherkovining yereslar bilan kurashi. Katolik cherkovi yetetiklik harakatiga qattiq jazo choralar qo'llash bilan javob berdi. yetetiklarga qarshi salib yurishlari uyuşhtirish papalikning yereslikka qarshi olib borgan kurashining ko'pdan-ko'p metodlaridan biri edi. Inkvizitsiya yetetiklar bilan kurashda g'oyat katta ahamiyat kasb etdi. yetetiklarni ildizi bilan yo'q qilish uchun tuzilgan maxsus sud inkvizitsiya (latincha— «tekshirish» so'zidan) deb atalardi. Inkvizitsiya sudi chaqimchilarning (qisman ismi noma'lum odamlarning) bergan ma'lumotlariga asoslanib ish ko'ruvchi maxfiy tashkilot bo'lib, ayblanuvchilarni juda qattiq qyinoq-azobga duchor qilardi va ish aksar ayblanuvchilarni qatl qilish (olovda yoqish) bilan tamom bo'lardi; ularning mol-mulkleri esa musodara qilinardi. yetetiklarni olovda yoqib yuborish ommaviy tus olgan edi. yetetiklarni qatl qilish o'ziga xos oshkora diniy «bayram» (Ispaniyadagi autodafe va boshqalar)ga aylanar edi. Dunyoviy feodal hokimiyati, jumladan, hukm qilingan yetetiklar molu mulkining ulkan ulushini olish niyatida odatda inkvizitsiyaga to'la-to'kis yordam ko'rsatardi.

Iniokentiy III davridayoq inkvizitsiya yangi monaxlik ordeni bo'l mish dominikanlar, yoki «va'xon-birodarlar» qo'liga batamom topshirib qo'yilgan edi. Dominikanlarning bu yangi monaxlik ordeni yetetiklar bilan maxsus kurash olib bormoq uchun ispaniyalik dvoryan Gusman Dominik tomonidan (1207-1208 yillarda) ta'sis etilgan edi. Yana shu Innokentiy III davrida paydo bo'lgan ikkinchi bir monaxlik ordeni, ya'ni frantsiskanlar ordeni taxminan xuddi shu vaqtarda (1209-1210 yillarda) ital yan Frantsisko Assizskiy tomonidan tuzilgan edi. Bu «gadoylar ordeni» ning muddaosi shahar kambag'allarini yereslik xavf-xataridan chetga tortish edi. Frantsiskanlar sadaqa tilab tirikchilik qilib, xususiy mulkka ega bo'lmashiklari kerak edi. Ular dag'al matodan kiyim kiyib, har doim yalang oyoq yurishlari, bellariga arqon bog'lab olishlari lozim edi va h. k. Keyinchalik, oradan sal vaqt o'tmay, frantsiskanlar ordeni ham anchagina molu mulkka ega bo'lib oldi.

Shu tariqa cherkov ordenning «faqirligi»ni ro'kach qilsa-da, lekin bu narsa muvaqqat va nisbiy bir hol edi, aslida esa papalikning mehnatkashlar ommasi masalasida ochiqdan-ochiq, qo'pol demogogiya bilangina shug'ullanganligi ma'lum bo'lib qoldi.

O'rta asr arxitekturasi. O'rta asrlar o'zidan keyin arxitektura san'atining ko'p ulkan yodg'orliklarini qoldirdi. O'rta asrlarning dastlabki yuz yilliklarida (taxminan, Karl Buyuk zamonigacha) binokorlik texnikasidagi zaiflik o'rnini bundan keyingi asrlarda binokorlik san'atidagi katta yuksalish egalladi.

IX-XIII asrlar zamonida yevropada ikkita asosiy arxitektura uslubi roman va gotik uslubi o'rin almashinishdi. Zamon ideologiyasiga muvofiq yevropaning turli mamlakatlaridagi sobor cherkovlari — ibodatxonalari roman va gotik arxitekturasiga mansub bo'lgan eng ko'p yodgorliklardir. Karolinglar zamonida rivojlana boshlagan birinchi uslub (ya'ni roman uslubi) ning nomi qadimgi Rimdag'i binolarga taqlid qilishdan kelib chiqqan. Haqiqatda, roman

arxitektura uslubi antik, ya`ni rim uslubiga qaraganda xiyla dag`alroq takomillashmagan va g`alizroq edi. Roman uslubidagi soborlarning devorlari qalin, gumbazlari nisbatan past, ustunlari yo`g`on va pakana, romlari kambar va kichik bo`lib, ular o`sha davr (IX-XII asrlar)dagи binokorlik texnikasining hali zaif ekanligini va siyosiy vaziyatning o`zini ham oppa-ochiq aks ettirardilar, bunga sabab shuki, bu davrda feudal urushlari va o`zaro nizo-janjallar har doim davom qilib, dushman hujumlar qilgan paytlarda bu cherkovlar mahalliy aholining qochib kirib jon saqlaydigan qal`alariga osongina aylantirilar edi.

XII-XIII asrlarda rivojlangan va keyingi asrlarda dastlab Frantsiyada, keyin esa yevropaning boshqa mamlakatlarida ravnaq topgan gotik arxitekturasi texnika jihatdan g`oyat antiqa va mukammalroq edi.

Gotik arxitekturasining xarakterli xususiyati shunda ediki, arxitektor binoni mumkin qadar balandroq qilib qurishga intiladi. Yarim doirali qubba peshtoq o`rniga uchi nayza peshtoq qilinadigan bo`ldi. Gotik uslubidagi soborlarning ichki qismida baland va ko`rkam qilib ishlangan ustunlar ko`p. Soborlarning derazalari katta-katta bo`lib, ularning oynalariga rang-barang bo`yoqlar berilgan edi. Bo`rttirib ishlangan ziynatlarning mo`lligi, ya`ni haykallar barel yeflar, osma peshtoqlar, ajoyib qilib o`yib ishlangan toshlar binoning ham tashqi, ham ichki tomonini bezatib turar edi. Bitta yoki bir nechta baland-minoralar va ulug`vor eshiklar gotik uslubida qurilgan binoni alohida shohona qilib ko`rsatardi. Gotik sobori o`cta asr shaharining o`ziga xos artitektura markazi hisoblanardi.

Roman arxitekturasi yodgorliklaridan eng mashhurlari Frantsiyada Puat ye va Arl soborlari, Germaniyadagi Shpeyer, Vorms, Mayints, Aaxen soborlaridir. Gotik san`atining eng yaxshi yodgorliklari Parijdagi Bibimar yam (ibodatxonasi) sobori, shuningdek, Frantsiyada Ruan, Reyms va Shartr soborlari, Angliyadagi London Vestministrlik abbatligi va Linkol n shaharidagi sobor, Italiyadagi Milan sobori, Chexiyadagi Praga sobori, Pol shadagi Krakov sobori va boshqalar hisoblanadi.

Gotik arxitekturasining grajdani binolari orasida Bryusseldagi shahar ratushasi, XV asrdagi mashhur frantsuz moliyachisi Jak Kernning Burjadagi uyi, Ambuazdagi (Frantsiyada) korol qasri va boshqalar bor.

Roman va gotik uslublaridan tashqari, o`cta asr arxitekturasi yana ikkita uslubdan: Italiyadagi vizantiya uslubidan (Venetsiyada — avliyo Mark sobori, qisman dojlar saroyi va b.) hamda Ispaniyadagi arab (mavr) lar uslubidan (eng mashhur yodgorliklar Granadada arablarning Al gambra nomli sobiq saroy-masjidi, hozirgi Sevil ye sobori va Sevyl yadagi Al kasar qasri) keng foydalandi.

Ritsarlar madaniyati. Feodal jamiyatining har bir sinfi cherkovning diniy rahbarligini tan olar ekan, ayni vaqtida, u o`z kayfiyatlari va ideallarini aks ettirib, o`zining alohida madaniyatini ham rivojlantirdi. Dunyoviy feodallarning hokim sinfi, ya`ni keng ma`nodagi ritsarlar XIII asrda urf-odatlar, uslub, dvoryanlik nazokati, turli xil dunyoviy, saroy va harbiy-ritsarlik ko`ngil ochishlarning murakkab tartibini yaratdi. O`cta asrlarning so`nggi asrlarida ayniqsa ritsarlik turnirlari, ya`ni qurol-yarog` ishlata bilishdek feodalning harbiy kasbini aks ettiradigan ritsarlik musobaqalari degan qismi keng tarqaldi.

Ritsarlar orasida ritsarlarning jasoratini osmonlarga ko`tarib maqtagan harbiy qo`shiqlar vujudga keldi. Keyinchalik harbiy qo`shiqlar yig`indisi butun-butun dostonlarga aylandi. Ular orasida XI asrda Shimoliy Frantsiyada vujudga kelgan va XII asrda batamom ishlangan «Roland haqidagi qo`shiq» ayniqsa mashhurdir. Karl Buyukning Ispaniyaga qilgan yurishlarining ideallashtirilgan shakli bu qo`shiqning mazmuni bo`ldi. XII asrda Ispaniyada maydonga kelib, xalq qahramoni bo`lmish «Mening Sidim haqidagi qo`shiq» nomli doston ham ana shunday qahramonlik dostonlaridan biridir. Bu dostonda ispan xalqlarining arablarga qarshi olib borgan ko`p asrlik kurashi o`z aksini topgan. XIII asr boshlarida Germaniyada vujudga kelgan «Nibelunglar haqida qo`shiq» nomli doston uchinchi eng yirik doston hisoblanadi. Bu dostonda afsonaviy elementlar ilk o`cta asr zamonlaridagi xalq rivoyatlari bilan (Brungil d, Attila va

boshqalar to'g'risidagi rivoyatlar) hamda keyinroq zamondagi ritsarlik hayoti (XII-XIII asrlar) bilan chatishib ketgan.

XII asrda ritsarlik romanlari paydo bo'lib, ular tez orada keng tarqaladi. yevropaning turli mamlakatlaridagi ritsarlar Sharqqa qilingan salib yurishlari jarayonida bir-birlari bilan tanisha borgan va uzoq-uzoq mamlakatlar haqidagi taassurotlari bilan boyiganlaridan keyin, bu mamlakatlar to'g'risida turli ritsarlik sarguzashtlari proza shaklida bayon qilindi. Qadimgi Britaniya koroli Artur haqida yozilgan romanlar tsikli ayniqsa katta shuhrat qozonib, u Angliyada va Frantsiyada sevilib o'qiladigan bo'lди va Amadis Gall skiy to'g'risidagi romanlar Ispaniyada, Frantsiya va Italiyada keng tarqaldi.

Shahar madaniyati. O'rta asrlar zamonida muhim siyosiy rol o'ynagan o'rta asr shahari madaniyatni ravnaq toptirish uchun ham ko'p ish qildi. O'zining antifeodal xususiyatlari oldinroq namoyon bo'lgan dunyoviy adabiyot, avvalo, shaharda tez muvaffaqiyatlarga zrishdi. XII-XIII asrlardayoq shaharlarda fablio (frantsuzlarda), yoki shvanklar (nemislarda) deb atalgan formada satirik asarlar maydonga kela boshladi, bu satirik asarlar feodallarni masxara qilib, ular ustidan zaharxandalik bilan kulardi. Italiyaning shahar povestlarida (novellalarida) ham feodallarga qarshi satirik momentlar ko'p uchraydi.

XIII asrda Frantsiyada uzil-kesil tarkib topgan «Tulki haqida roman» nomli satirik asar umumevropada nom chiqargan edi. Bu satirik asarda doim dog'uli Tulki tomonidan aldanadigan och va tamagir bo'ri obrazida feodallar tasvirlangan edi. XIII asrda ikki frantsuz avtorlari ritsar Gil om de Loris (I-qism) va shaharlik Jan de Men (2-qism) tomonidan badiiy tilda yozilgan «Gul haqida roman» nomli ajoyib katta bir asar yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida zo'r shuhrat qozondi. She'riy tilda va mifologiya-majoziy tarzda yozilgan bu «Gul xaqida roman»da, ayniqsa uning ikkinchi qismida realistik xususiyatlar bor. Romanda ruhoniylarga va Rim papasining o'ziga, korol despotizmiga qarshi o'zining zodagonligi bilan maqtanadigan feodallarga qarshi hujum qilinadi. De Men, insonning chinakam olijanobligi uning zodagon avlod-ajdodga mansubligida emas, balki uning shaxsiy aql-idrokida va axloqiy go'zalligidadir, degan fikrni olg'a suradi va keyinroq bu fikrni gumanistlar davom ettiradilar.

Shaharda o'rta asr teatri ham yaratildi, avvalo u misteriy shaklida bo'lib, ya`ni tavrotning turli mazmundagi dramatik sahnalari ko'rinishida ish olib bordi. Keyin bu dramatik asarlarga asta-sekin dunyoviy, hayotiy materiallar kiritildi, bu materiallar ko'pincha, fors formasidagi kulgi-satirik xarakterda bo'lar edi.

Ritsarlar singari, shaharliklarning ham o'zları qiziqqan ommaviy ko'ngil ochishlari bo'lardi, ammo bular ritsarlarnikidan boshqacha turda bo'ladi. Bu ko'ngil ochishlarning biri karnaval bo'lib, karnaval qish oxirida, rojdestvo bilan bahorgi katta ro'za o'rtaida qilinib, shaharliklar muzika chalib va yuziga niqob kiyib ko'chalarda yurganlar. Italiya shaharlarida XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridayoq uyg'onish davrining yangi madaniyati vujudga keladi.

Xalq ijodi. O'rta asrlardagi dehqonlar madaniyati asosan (fol klor, ismi noma'lum og'zaki ijod tarzida bo'lib, unint bir qismi latin va milliy tillarda turlicha tekstlarda yozilgan va bizgacha yetib kelgan, boshqa qismi yozilmay qolgan bo'lsa-da, lekin adabiy asarlarga uzviy bir parcha bo'lib kirgan hamda undan xalq ohanglarining manbai sifatida foydalanilgan. **Xalq o'yinlari**—xristian dini joriy etilmasdan burungi majusiylik zamonlaridagi qadimiy xorovodlarning raqslari, turli lirik qo'shiqlar — sevgi qo'shiqlari, ziyofatlarda aytildigan qo'shiqlar va to'y laparlari, ko'mish marosimida aytildigan Marsiyalar, turli xil va ko'p sonli cho'pchaklari, qahramonlik afsonalari, maqollar, matallar, topishmoqlar va boshqalar xalq fol klorining xilma-xil formalari ana shular edi. Xalq poeziyasining formalari yaratilib, ko'z qorachig'iday saqlanib keldi va avloddan-avlodga o'tib bordi, bu formalar tobora murakkablashib, ravnaq topib va takomillashib, umuman, xalq hayotini, uning kayfiyat va orzu-umidlarini g'oyat darajada ravshan aks ettirdi. Shahar shoirlari folkloarning anchagina qismidan foydalandilar. Jumladan, asosan qishloqda paydo bo'lgan afsonaviy epos, yuqorida aytib o'tilganidek, shaharning hikoyaviy satirasida keng foydalilaniladigan bo'ladi. O'rta asrlarning eng

yirik poemalari yuqorida aytib o'tilganidek avvalo, xalq og'zaki ijodidan manba sifatida foydalandilar. «Nibelunglar haqida qo'shiq» to'g'risida xuddi shunday demoq kerak.

Ko'pchilik qismi, shuningdek, xalq ommasi orasidan yetishib chiqqan, ismi noma'lum avtorlarga mansub bo'lgan va qishloq bilan chambarchas bog'langan xalq ijodining o'ziga xos turi — xalq balladalaridir. Bunday balladalar o'rta asr Angliyasiда va Shotlandiyada ayniqsa ko'p saqlangan. Xalq balladalarida o'rta asr qishlog'ining hayoti, dehqonlar ommasining feodallarga munosabatlari, o'rta asrlarda turli ko'rinishda namoyon bo'lgan xalq harakatlari, xalq ongida u yoki bu ko'rinishda yuz bergen eng muhim tarixiy voqealar aks etgan.

Dehqonlarga yaqin turgan shaharning quyi tabaqa aholisi ham o'rta asrlar davomida o'z madaniyatini rivojlantirdiki, u shaharning o'ziga xos plebey xalq poeziyasida o'z aksini topdi. Bu poeziyaning ifodachilari va xalq san'atining bu bilan bog'langan formalari-shahar jonglyorlari (sirk artistlari) va shpilmanlari (darbozlari) bo'lib, ular odatda shahar yarmarkalarida va bozorlarda o'z hunarlarini namoyish qilardilar. Umuman qadimgi Rus dagi skomoroxlar (nayrangbozlar) ga o'xshab ketadigan jonglyorlar va shpil manlar qisman xalq qo'shiqlarini, qisman o'zları yozgan yangi qo'shiqlarni ijro etuvchi hofiz va muzikantlar edilar. Ular qisqa sahna asarlarini qo'yib, bu asarlarda ko'pincha satirik tarzda turli toifalarning aft-basharalarini ochib tashlardilar. Jonglyorlar va shpil manlar ayni zamonda ham akrobat, ham masxaraboz, ham qiziqlichi edilar. Ko'p sonli mahalliy aholi va shaharga kelgan dehqonlar ularning tomoshabinlari edilar.

Xalq san'ati bu oddiy turining ijtimoiy ahamiyati anchagina katta edi. Tomoshabinlarning ko'plab kelishi shuni ko'rsatardi. Vaqt o'tishi bilan, ya'ni o'rta asr jamiyatida ijtimoiy ziddiyatlar keskinlasha borishi bilan, jonglyorlar bilan shpil manlarning sahna asarları tobora o'tkirlasha va ko'pchilikni qiziqtira boshlaydi. Bu sahna asarları, bir tomondan, mehnatkashlar o'rtasida hamkorlik hissini uyg'otsa, ikkinchi tomondan, zolim feodallarga va shahar boylariga nisbatan nafrat hissisi alangalantiradi. Bularning hammasi hokim sinflariing jonglyorlarni va shpil manlarni quvg'in ostiga olishiga sabab bo'ldi. Katolik cherkovi ularga ayniqsa yomon ko'z bilan qarardi. Cherkov soborlari jonglyorlar bilan shpil manlarning faoliyatini taqiqlovchi qarorlar chiqarardilar. Ularni ibodatxonalarga kirgizmasdilar. Ba'zi joylarda o'lgan jonglyorlar va shpil manlarni xristian diniy yo'li bilan dafn qilishdan bosh tortdilar va ularni hatto oddiy jamoat mozorlariga olib borib ko'mish ham taqiqlab qo'yilgan edi.

XIV-XV asrlarda Italiyada shu vaqtdagi yevropaning boshqa mamlakatlariiga nisbatan shaharlar ancha gurillab o'sdi. Italiya shaharlarida sanoat juda rivojlangan bo'lib, uning bir qismi manufakturna formasida tashkil etilgan edi; bu shaharlar yevropaning qolgan mamlakatlari va xususan Yaqin Sharq bilan savdo qiluvchi yirik savdo markazlari edi; bu shaharlarda eng yirik banklar mavjud bo'lib, ularning ishlari (operatsiyalari) keng xalqaro xarakterga ega edi. Bu shaharlarning sanoat, savdo va sudxo'r burjuaziysi juda katta mablag' ishlab, mablag'larning bir qismini madaniyatni rivojlantirishga sarflay olardi. Burjuaziya aniq fanlarni, tabiiyot va matematikani rivojlantirishga muhtoj edi. Burjuaziyaning xo'jalik faoliyati tobora kengayib murakkablasha borishi munosabati bilan bu fanlarni ravnaq toptirish uning uchun zarur edi. Manufakturna texnikasining rivojlanishi, navigatsiya ishi, murakkab kommertsiya va bank hisob-kitobi – bularning hammasi tabiiy fanlarni va matematikani o'rganishni talab qidi. Ayni zamonda burjuaziya va Italiya shaharlarida istiqomat qilib, shahar ta'siriga tushib qolgan dunyoviy va ruhoniyligi feodallar hashamatli, huzur-halovatli hayot qurishga intilar va shu boisdan san'at asarlariga talab katta edi.

Tarkib topayotgan g'oyatda boy ital'yan burjuaziya sinfi bilan bir qatorda Italiya shaharlarida aaqliy mehnat vakillari hamda adabiyotva san'at bilan shug'ullangan kishilarning ko'pdan-ko'p gruppasi: ko'pdan-ko'p adabiyotchilar, shoirlar, publitsistlar, vrachlar, o'qituvchilar, injenerlar, "erkin kasb ustalari", ya'ni rassomlar, haykaltaroshlar, arxitektorlar va boshqalar o'sib bormoqda edi.

Yangidan tug'ilib kelayotgan ijtimoiy tabaqaning – intelligentsiyaning bu barcha vakillari Uyg'onish madaniyati yoki gumanizm deb nom olgan yangi madaniyatning bevosita arboblariga aylandilar.

Italiya xalq ommasi yangi progressiv, ilg'or madaniyatning ravnaqiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Xalq ommasining kundalik qattiq mehnati, hali o'z ahmiyatini yo'qotmagan yuksak darajadagi hunarmandchilik, shu xalq ommasining hokim (plutokratiya) boylarga qarshi juda qattiq ba'zan jon-jahdi bilan olib brigan kurashi, umumiy hayotiy optimizm va bardamlik uyg'onish madaniyatining eng yaxshi vakillarini ruhlantirib yubordi, gumanistlar ijodiga shunday chuqur xalq-demokratik xususiyatlarni kiritdiki, bu xususiyatlar pirovardida ularning asarlarini juda ham jozibador qilib yubordi.

Ilk ital'yan uyg'onishi daniyat bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Sharq bilan, xususan Vizantiya bilan tanishish, salib yurishlari davrida va undan keyingi davrda Levant bilan muntazam aloqa qilish natijasida ital'yanlar qadimgi grek qo'lyozmalar, antik tasviriy san'ati va arxitekturasining turli xil yodgorliklari bilan tanishadilar. Bu barcha qadimiy yodgorliklarni qisman italiyaga olib kela boshladilar, bu yerda ular kolleksiya qilindi va o'rganildi. Ammo italiyaning o'zida ham ancha-muncha antik Rim yodgorliklari bo'lib, Italiya shahar intelligentsiyasining vakillari ularni ham sinchkovlik bilan o'rgana boshladilar. Italiya jamiyatida qadimiy klassik tillarga, qadimiy falsafa, tarix va adabiyotga chuqur qiziqish paydo bo'ldi. Florentsiya shahri bu harakatda ayniqsa katta rol o'yndi. Florentsiya shahridan yangi madaniyatning bir qancha atoqli arboblari yetishib chiqdi.

Qachonlardir iqtisodiy jihatdan eng gavjum va o'zining siyosiy tuzumi jihatidan eng demokratik bo'lган qadimiy shaharlarda vujudga kelgan antik ideologiyadan foydalanim, tug'ilib kelayotgan yangi burjuaziya qadimiy madaniyatni oddiy passivlik bilan o'zlashtirmay, balki uni o'zicha qaytadan ishlab chiqdi, feodalizmning bungacha hukm surgan dunyoqarashiga qarama-qarshi o'laroq yangi dunyoqarashni shakllantirdi. Yangi ital'yan madaniyatining ikkinchi nomi gumanizm ham xuddi shundan dalolat beradi. O'rta asr ideologiyasi diqqat markaziga ilohiyini, oxiratni qo'ygan bo'lsa, gumanizm madaniyati insonning o'zini o'z dunyoqarashining diqqat markazaga qo'ydi. Gumanistik dunyoqarashda endi asketizmga o'ren qolmadidi. Inson tanasi, uning zavq-shavqi va ehtiyoji gumanistlar tomonidan bostirish yoki azoblash kerak bo'lган qandaydir gunoh bir narsa deb emas, balki hayotdagagi eng asosiy muddaodir, deb qaraldi. yer yuzidagi hayot birdan-bir real hodisadir, deb tan olindi. Tabiat bilan insonni e'tirof etish fanning mohiyatidir, deb e'lon qilindi. O'rta asr sxolastlari va mistiklarning dunyoqarashida hukm surgan pessimistik ohanglarga zid o'laroq, Uyg'onish davri kishilarining dunyoqarashi va kayfiyatida optimistik ohanglar ustunlik qilardi, bu kishilar uchun insonga, insoniyatning yorug' kelajagiga, inson aql-zakovati va ma'rifatning kelgusida tantana qilishiga ishonish xarakterli bir hol edi.

Bu yangi buyuk aqliy harakatda atoqli shoirlar va yozuvchilar, olimlar va har xil san'at arboblari guruhi qatnashdi. O'rta asr bilan yangi zamon chegarasida turgan eng yirik siymo ("O'rta asrning so'nggi shoiri va shu bilan birga yangi zamonning birinchi shoiri") florentsiyalik Dante Alig'eri edi(1265-1321) edi. Dante zamonidagi boshqa hech qanday asar uning "Ilohiy komediya" dagidek o'rta asrlarning butun ideologiyasini aks ettirmagandi. "Do'zax", "Mashxar" va "Jannat" uning poemasining uch qismini tashkil etardi. Olamning to'zilishi haqidagi o'rta asr tushunchasi Dante asarida ravshan qilib poetik tarzda ifodalangan. Ammo shu bilan bir vaqtida Dante poeziyasida yangi, chuqur realistik ohanglar sezilib turadi. Uning qahramonlari yakka holda bo'lib, ular chuqur va kuchli zavq-shavqqa egadirlar. Dante tug'ilib o'sgan Florentsiya shahridagi sinfiy kurashning o'zi poemada xuddi oynadagidek qilib tiniq aks ettirilgan. Konret tarixiy shaxslar o'quvchi ko'zi oldidan ko'plab o'tib turadi. Poema sahifalarida siyosiy ehtiros nihoyat darajada jo'sh urib turadi, o'rta asr Italiyasi kommunalari to'lqinli tarixining eng yirik siyosiy voqealari abadiylashtiriladi. Shunisi xarakterlik, "Ilohiy komediya" latin tilida emas, balki Italiya milliy adabiy tilining negizi bo'lган toskana tilida yozilgan.

Florentsiyalik boshqa ikkita yozuvchi: Franchesko Petrarka (1304-1374), Jovanni Bokkachcho (1313-1375) Uyg'onish davri adabiyotining atoqli vakillari edilar. Birinchisi – o'z mahbubi Lauraga bag'ishlangan ishqiy sonetalari bilan, ikkinchisi – ko'proq Florentsiyaning shahar hayotini mavzu qilib olgan 100 novellalik to'plami, ya'ni o'zining mashhur "Dekameron"i bilan gumanistik adabiyotga asos soldilar va bu adabiyotni faqat Italiyaninggina emas, balki boshqa mamlakatlarnig mutolaachi xalqlari orasida ham juda keng yoyilishiga yordam qildilar. Bu asarlarning qilingan ko'plab tarjimalari G'arbiy yevropaning barcha mamlakatlarida paydo bo'ldi.

Dante bilan birgalikda Petrarka va Bokkachcho Italiya adabiy tilining chinakam asoschilar bo'lib, ular o'zlarining klassik asrlari bilan dunyo adabiyotida bu tilga mustahkam o'rinn hozirlab berdilar.

XIV-XV asrlarda Florentsiyadagi gumanizmning boshqa arboblaridan gumanistik ruhdagi yangi pedagogik sistemani yaratgan Leonardo Bruni (1369-1444)ni ko'rsatish kerak. Bruni "ruhnigina emas, balki tanani ham, tarbiyalash"ni talab qildi: u ayollar maorifini tashkil qilishni birinchilardan bo'lib talab qildi. Bruni o'zining 12 kitobdan iborat "Florentsiya tarixi" nomli asarida XIII va ayniqsa XIV asrlarda bu shaharda yuz bergen ijtimoiy harakatlarga katta e'tibor berdi.

Yirik tanqidchi, faylasuf, tarixch va filolog Epikurning muxlisi Lorentso Valla (1407-1457) Florentsiya gumanistlari bilan bog'langan edi. Lorentso Valla papa kuriyasining bir qancha hujjatlari (shu jumladan, mashhur "Konstantin armug'oni") soxta ekanligini isbot qildi, bir vaqtlar u papa kuriyasiga qattiq nafrat bilan qaradi, hatto butun papa davlatini sekulyarizatsiya qilish loyihasini ham ishlab chiqqan edi. Valla tavrot tekstini ilmiy jihatdan tanqid qilishni ham boshlab berdi.

XIV-XV asrlardagi boshqa tarixchi gumanistlardan biri Flavio Biondo (1388-1463) eng ko'p nom qozongan bo'lib, u "Rim imperiyasining qulashidan boshlanadigan tarix" (410 yildan 1410 ylgacha bo'lgan davr) nomli umumlashtiruvchi xarakterda katta asar yozdi. Bu asarning eng qimmatli tomoni shundaki, Biondo asl ma'nodagi o'rta asr davrini eng keyingi davrdan (XV asr va undan keyingi) ochiq-oydin farq qilib, eng keyingi o'rta asrni yangi tarixni keyingi davri deb qaradi.

Ilk Uyg'onish davri san'ati. Ilk Uyg'onish davri san'ati avvalo rassomlikda namoyon bo'ldi. Asosan cherkov-diniy mavzuda devorga solingen rasmlarni, ya'ni turli ibodatxonalarning ichki devorlariga naqsh qilib solingen, lekin bu rasmlarga realistik xususiyatlarni bergen florentsiyalik rassomlar Jotto (1266-1337) va Mazachcho (1401-1428) yangi rassomlikning eng yirik ustalari edi. Uyg'onish davri rassomlari tomonidan istiqbol qonunlarining kashf etilishi o'rta asr rassomlari texnikasiga nisbatan olg'a qarab qo'yilgan katta qadam bo'lib, u tasvirlanadigan shaklni yassi qilib emas, balki qabariq qilib berish imkoniyatini yaratib berdi. Donatello (1386-1466) ilk Uyg'onish davrining eng yirik haykaltaroshi bo'lib, u, ayni eamonda, yirik portretchi – rassom ham edi. Donatello o'zi yasaydigan haykallarga real odamlarning xususiyatlarini berishga intildi. Shu bilan bir vaqtida u, haykaltaroshlikning klassik antik namunalarini zo'r berib o'rgandi, bu namunalarni tengi yo'q namunalar, deb hisobladi.

Italiyada ilk Uyg'onish san'ati arxitektura sohasida ham katta yutqlarga erishdi.

Uyg'onish davrining yangi arxitekturasi, uning ulkan binolari baland gumbaz va g'oyat katta qator-qator ustunlari puxta matematik hisoblashlarni talab qilardi. Binokorlik texnikasi takomillashtirilishi tufayli katta binolar, soborlar va saroylar qurilishi bundan avvalgi zamonlagiga nisbatan ancha qisqa muddatlarga (ba'zan bir necha yilda) quriladigan bo'ldi. Bundan avvalgi davrda gotik soborlarini qurish uchun o'n yillab, ba'zan esa yuz yillab vaqt talab etilar edi. Uyg'onish davri arxitekturasini yaratgan eng yirik arxitektorlar ham florentsiyalik Filippo Brunelleski (1377-1446) va Leon Battista Al'berti (1404-1472) edi. Yangi arxitektorlar orasida Brunelleski birinchi bo'lib katta gumbazli bino qurish problemasini hal qildi. U Florentsiyadagi ko'pgina cherkov va saroylarining quruvchisi bo'lib, bu binolar o'zining

ko'rkamligi bilan zamondoshlarni hayratda qoldirardi va ularning turli qismlari asosan bir-birovi bilan to'g'ri moslashtirilgan bo'lardi.

Al'berti "Arxiektura to'g'risida o'n kitob" nomli asar yozib, bularda antik yodgorliklarni o'rganish asosida o'zi yaratgan yangi arxitekturaning ilmiy nazariyasini bayon qilib berdi. "Rassomlik to'g'risida" degan ikkinchibar asarida ham antik rassomlarning merosiga tayanib turib, rassomalik san'ati nazariyasini ta'riflab berdi.

Evropada gumanizmning yoyilishi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelganda yevropaning barscha mamlakatlarida gumanizm keng tarqaldi. Qadimiy avtorlar, ya'ni TSitseron, Seneka, Tatsit va boshqalarning uslubida "qaytadan tiklangan" internatsional latin tilidan foydalangan gumanist yozuvchilar, rassomlar va olimlar yevropada o'ziga xos birodarlik tashkil etdilar, bu birodarlik turli mamlakatlarning olimlari qizg'in yozishmalar olib bordi va aloqalar bog'ladi. Feodal-krepostnoylik munosabatlarining keskinlashishi gumanizmning antifeodaloy'lga tushib olishiga sababchi bo'lgan, uni, jumladan, feodalizmning ideologik tayanchi bo'lmish katolik cherkoviga qarshi qat'iyroq kurashgamajbur etgan qo'shni Germaniyada gumanistlar ayniqsa ko'p paydo bo'ldilar.

Italiyaning o'zida, XV asrda, Florentsiyadan tashqari yana Rimda, Neapolda, Milanda va Venetsiyada Uyg'onishning boshqa markazlari bor edi. Uyg'onish san'ati, shuningdek, gumanistik falsafa, adabiyot siyosiy fikr bundan keyingi, XVI asr, so'nggi Italiya va Yuksak Renessans davri deb atalgan davri zo'r rivoj topdi.

XVI asrda gumanizm uzil-kesil umumyevropa madaniy harakatiga aylanib, o'rta asr sxolastikasiga juda qattiq zarba yetkazdi.

Kitob bosishning boshlanishi. Kitob bosishning ixtiro qilinishi yangi, burjua madaniyatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. XV asr boshlaridanoq G'arbiy yevropa diniy-ommaviy adabiyotini (ibodat va duolar to'plami hamda boshqalar) tarqatish uchun alohida ksilografik usuldan foydalanildi. Taxtaga rasm va yozuvlarni o'yib yozib, keyin ularni qog'ozga bosardilar (XIV asrdan e'tiboran yevropada qog'oz yozuvi qo'llaniladigan bo'ldi). Ksilografik usul bilan kitob bosish kitoblar tarqatish masalasini hal qilmadi. Ish sekinlik bilan bordi, taxtadan o'yiib yozilgan do'ng harflar, kitob teksti qog'ozga bosib bo'lingandan keyin keraksiz bo'lib qolardi. Mayntsda tug'ilib, keyin Strasburgga ko'chib kelgan Iogann Gutenberg (1400-1468)ning kitob bosish ishini ixtiro qilishda ko'rsatgan xizmati shundaki, u, harakatlanadigan harflar ixtiro qilib, ular boshda yog'ochdan yasaldi, keyin esa bu harflar metall harflar bilan almashtirildi. Bundan tashqari, **Gutenberg, qog'ozning ikkala tomoniga tekst bosish imkoniyatini beradigan alohida press-dastgoh ixtiro etdi**. Bu ixtiro, taxminan, 1445 yilda qilingan bo'lib, dastlabki paytda u qattiq sir tutildi. Ammo, oradan 15 yil o'tgach, bu ixtiro oshkora bo'lib, u Gurmaniyadan boshqa mamlakatlarga yoyildi.

1490 yilda o'z bosmaxonasini qurgan nashriyotchi gumanist Al'd Manutsiy (1448-1515) XV asr oxirida yevropada juda katta shuhrat qozondi, bu bosmxonada u ko'pgina antik avtorlarning asarlarini, shuningdek, italiyalik eng yirik gumanist yozuvchilarning – Dante, Petrarka, Bokkachchoning asarlarini bosdi.

XV asr oxirida Fransiyada Et'enlarga qarashli Parijdagi nashriyot firmasi xalqaro shuhrat qozondi. Bu firmaga asos solgan Anri Et'en (1460-1520) falsafa, matematika va astronomiyaga doir 120 asar nashr etdi, bu asarlar asosan latish tilida, qisman fransuz tilida bosib chiqarildi.

Kitob bosishning ixtiro qilinishi juda katta ahamiyat kasb etdi. Kitob bosish kitob tayyorlashni ko'p marta tezlashtirdi va ayni zamonda ularning nirxini arzonlashtirdi. Shuning o'zi bilan, yangi zamondagi burjua maorifini ravnaq toptirish uchun na qadimgi dunyoda, na o'rta asr davrida sira ko'rilmagan juda qulay texnika shart-sharoitlari vujudga keltirildi.

Nazorat savollari:

1. O'rta asrlarning birinchi yarmida Yevropa madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
2. XI-XV asrlarda G'arbiy Yevropa madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?
3. XV -XVII asrlarda G'arbiy Yevropa madaniyati tarixi xaqida nimalarni bilasiz?

4. XVIII - XIX asrning birinchi yarmida jahonda fan va madaniyat rivoji xaqida nimalarni bilasiz?

5-Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati

Reja:

1. Amir Temur — ilm-fan va madaniyat homiysi
2. Ulug’bek –buyuk olim, ilm –fan rahnamosi
3. Temuriylar davrida tarixshunoslik, xattotlik, tasviriy san’at va musiqa.
4. Temur va temuriylar davri badiiy adabiyoti

Vatanimiz tarixida temuriylar davrining tom ma’noda milliy va ma’naviy uyg’onish (ikkinchi «Renessans» davri) sifatida namoyon buli-shi, jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyoti bilan birlikda madaniy yuksalishga erishishi Amir Temur nomi bilan chambarchas bog’likdir. Negaki, bu tengsiz siymo kudratli, yaxlit sultanatni barpo etish, uning har tomonlama ravnaqini ta`minlash barobarida ma’naviy-madaniy hayotning ham gurkirab rivojlanishiga, ilm-urfon, adabiyot va san’at soxalarining o’sishiga, bu jabxa soxiblarining iste’dodi va ijodkorligining kamolotiga benazir raxnamolik ko’rsatdi. Bu o’rinda Amir Temur, Shoxrux Mirzo, Ulug’bek, Boysunqur Mirzo, Sulton Xusayn, Bobur Mirzo singari ulug’ xukmdor siyomolarning shaxsiy ibrati tahsing loyiqidir.

Amir Temur o’z mamlakatining ilmu urfon, madaniyat va san’at axliga xorijiy ellardan ko’plab xunar-kasb ahllarini, me`moru nakshdoshlarini, olimu fozillarini oldirib kelib, ularga kulay shart-sharoitlar yaratib berib, ularning bilimi, tajribasi va iste’ dodini ishga solib, xayratomuz buniyodkorlik va ijodkorlik ishlarini ruyobga chiqardi.

Bu davrda buniyod etilgan betakror me`moriy obidalar, osori-atiqalar, yuksak san’at asarlari, ilmiy-madaniy meros namunalari bunga yorqin dalil bula oladi. Amir Temur salohiyatining ajoyib ifodasi bo’lgan «Tuzukot»da soxibqironning ilm-fan, ma`rifat axliga xar doim alohida e’tibor bergenligi va xar bir muhim ishni amalga oshirishda ularga qat iyan suyanganligi qayta-qayta ta`kidlab o’tilgan. Amir Temur davrida yashab ijod qilgan allomalardan Jaloliddin Turonshoh (vafoti 1385), Baxruddin Naqshband (vafoti 1389), Xoja Xofiz Sheroyziy (vafoti 1389), Xoja Kamol Xujandiy (vafoti 1391), Allomai Taftazoniy (vafoti 1392) va boshqalarni eslash kifoyadir.

Muhammad Taragay Ulug’bekning tarixdagagi alohida muhim o’rni uning davlat xukmdori sifatidagi ko’p yillik faoliyatidan ko’ra ham ko’proq buyuk olimlik, ilmu urfon xomiysi . Chunki u o’zining aql-zakovati, jo’shqin hayotining asosiy qismini ilmu fan ravnaqiga bag’ishladi, shu soxada katta kashfiyotlarga bosh bo’ldi.

Ulug’bek zamonida buniyod etilgan Samarqand, Buxoro, G’ijduvon, Shosh va boshqa shaharlardagi masjidu madrasalar, ilm maskanlari, jumladan, Samarkand yaqinida barpo etilgan tenggi yo’q ilm koshonasi — Rasadxona — bular uning yuksak darajada ma`rifatparvar donishmand xukmdor bo’lganligidan dalolat beradi. Ulug’bek ayniqsa fanning astronomiya, matematika, geometriya singari muhim sohalarida katta ijod qildi va o’zidan bebbaho ilmiy meros qoldirdi. Uning ko’p yillik zaxmatli mehnati, ijodiy izlanishlari mahsuli bo’lgan mashxur «Ziji Ko’ragoniy» asari olimga jahonshumul shuxrat keltirdi. Ulug’bek ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham o’z iste’ dodini namoyon eta olgan zabardast allomadir. Uning qalamiga mansub «Tarixi arba’ ulus» («Turt ulus tarixi») asari, hech shubxasiz, tarixshunoslik fanida qimmatli manbalardan biri xisoblanadi.

Mirzo Ulug’bek ilm-fan va madaniyat raxnamosi sifatida iste’ dod soxiblariga moddiy va ma’naviy jixatlardan g’amxurlik ko’rsatdi, ustozlik qilib ularni voyaga yetkazdi.

Ulug’bek akademiyasi. Ulug’bek nomini shonu shuhratga burkagan, ilmiy tafakkuri va salohiyatini yuksak darajaga ko’targan asosiy narsa, bu alloma dahosining yorkin kuzgusi bo’lgan ilmiy akademianing yaratilib, samarali faoliyat ko’rsatganligidir. Ulug’bek akademiyasida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan 100 dan ortiq olim faoliyat ko’rsatdi.

Ulug’bek atrofiga uyushgan ko’plab buyuk qomusiy olim sohiblari—Qozizoda Rumi, G’iyosidtsin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Xavofiyilar ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa astronomiya, matematika singari aniq fanlar buyicha barakali ijod qildilar hamda o’zlaridan ulkan ilmiy meros qoldirib ketdilar. Muarrix Davlatshoh Samarqandiy yozganidek «Olim, odil, g’olib va ximmatli podshoh Ulug’bek ko’ragon... yulduzlar ilmida olis qadar yuksala bordi, masniy ilmida qilni kirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nixoyat cho’qqisiga ko’tarildi».

Ulug’bek ilmiy maktabining eng katta yutug’i, avvalo, astronomiya, matematika, geometriya, trigonometriya fanlari soxasida yaratilgan muxim kashfiyotlardir. Ulubek rasadxonasida 1018 ta yulduzlar xarakati o’rganilib katolog tuzildi. Uning qalamiga mansub «Ziji Kuragoniy» asari uzining beqiyos tugri ilmiy yechimla-ri, xulosalari bilan xrzirga qadar ham jahon olimlari e’tiborini krzonib kelmokda. Shuningdeq bu ilmiy mакtab olimlarining uchinchi darajali algebraik tenglamani yechib, bir darajali yoyning sinusini aniqlash borasidagi tadkikrtlari ham matematik tafakkurning katta yututidir:

Tarixshunoslik fani rivoj topdi. Bu davrda yashab ijod etgan muarrixlarning asarlarda o’sha zamon tarixiy voqealarining mufassal tafsilotlari, sharxlardan tashqari ularning chuqr ijtimoiy moxiyati, mazmuni o’zining butun ziddiyatliligi va murakkabliligi bilan ifoda etilgan.

Bu davr tarixchilaridan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Xofizu Abruning «Zubdat at-tavorix», Sharofiddan Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Fosih Xavofiyning «Mujmali Fashiy», Abdurazzoq Sa-marqandiyning «Matla sa’dayn va majmai baxrayn» («Ikki saodatli yudduzning chikishi urni va ikki azim daryoning kuyilishi joyi»), Ibn Arabshoxding «Amir Temur tarixi» («Ajoib al-makdur fi tarixi.Taymur»), Riyosiddin Alining «Amir Temurning Xindistonga kilgan gazo urushi», Mirxondning yetty jildli «Rav-zat us-safo» («Poklik boki»), Xondamirning «Mako-rimul axlok», «Xabib as-siyar» hamda Amir Temur xuzuriga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gon-sales de Klavixoning «Temurbek saroyiga sayohat kundaligi» singari asarlarini keltirib o’tish joizdir.

Yuqorida nomlari zikr etilganlar XV asr muarrixlari bo’lib, ular o’sha davr ijtimoiy xayoti jarayonining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda temuriy xukmdorlarning turli-tuman faoliyati, sa’y-harakatlari bilan bog’liq tarixiy hodisalar, voqealar silsilasini o’z imkoniyatlari darajasida xolis va xaqqoniyligi aks ettirishga intilganlar. Shu bilan birlikda bunda ularning o’z shaxsiy karashlari yoxud u yoki bu hodisalarni ba’zan burttirib, ba’zan esa kamsitib, bir yoklama tarzda ifodalashga uringan bo’lishlari ham shubhasizdir. Bunday dollar, jumladan, Ibn Arabshoh, Riyosiddin Ali, Sharofiddin Ali Yazdiy va boshqa muarrixlarning asarlarini uchun ham birdek taalluqdidir. Biroq, eng muhim, tilga olingan bu asarlar o’zining ilmiy qimmati, muhim tarixiy manbalar sifatidagi benazir qadri bilan biz minnatdor avlodlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kitob nashri hali vujudga kelmagan bir davrda bu soxa soxiblari mehnati yuksak qadr etilgani shubxasiz. Shu bois kitob ko’chiruvechi xattotlar o’z qalamlariga sayqal berib, uni san`at asari darajasiga ko’targanlar. Masalan, Mirali Tabriziy (vafotи 1401) Temur davrining yetuk xattotlaridan bo’lgan. Bu talant soxibi nash va ta`liq xati uslublari asosida nastaliq xatini kashf kilgan.

Temuriylar davrining eng tanikli xattotlari orasida Sultonali Mashxadiy, Abdujamil Kotib, Dar-vish Muxdmmad Tokiy, Mirali Kilqalam, Ali ibn Nur, Sulton Muhammad Xandon, Ali Xijroniy, Buxoro xattotlik maktabining yirik vakili Muhammad Ali as-Sultoniy nomlari ko’zga alohida tashlanib turadi.

Xattotlik san’atida o’ziga xos maktab yaratgan Sultonali Mashxadiy (1432—1520) nastaliq xatining mislsiz ustozи, Alisher Navoiyning kotiblaridan biri sifatida sharaf topgan edi. U Nizomiy, Farididdin Attor, Xuja Xofiz, Sa’diy, Xusrav Dexlaviy, Abdu-raxmon Jomiy, Xusayniy (Xusayn Boyqaro) va boshqa mualliflarning asarlarini kitobot qilgan. Sultonali tomonidan ko’chirilgan 50 dan ziyod kitoblar nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Abdujamil Kotib qalamiga mansub Alisher Navoiyning «Hamsa», «Novodir un-nixoya» asarlari qo'lyozmalari ham o'sha davr xattotlik san`atining go'zal namunalaridan sanaladi. Bunday yuksak bahrni, shuningdek, Darvish Muhammad Tokiy, Ali Xijroniy, Ali ibn Nur, Sulton Muhammad Xandon va boshqa kshhalam soxiblari ijodiga ham nisbat berish mumkin. Temuriylar davrida yetishib tasviriy san`at dongini olamga taratganlar jumlasiga ustoz Shamsiddin Abdulhay, Muhammad Nur, Shayx Turoni, Abdulla Xiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir, Pir Sayid Axad Bog'ishamoliy va boshqa musavvir va naqshdoshlarni kiritish mumkin. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari yoxud jang tafsilotlari o'zining tabiiyligi, tiniqligi va originalligi bilan kishini xayratga soladi. Masalan, Muhammad Siyoqalam, Xoja Muhammad va ustoz Abdulkay tuyqalami bilan sayqal topgan 96 ta muroqda (al bom) shunday tasvirlar sirasiga kiradi.

Tadqiqotchilar Samarqandda qadimdan musavvirlar mahallasi mavjud bo'lганligini ta`kidlaydilar. Amir Temur davrida shakllanib, yuksalish jarayonini kechirgan nafis san`at akademiyasi uning o'g'li Shoxruh, nabiralari Ulug'bek, Boysunqur Mirzolar davriga kelib har tomonlama ravnaq topdi, o'zining kamolot bosqichi sari rivojlanib bordi. Ayniqsa Boysunqur Mirzo Nigoristoni (nafis akademiyasi) shuhrati tafakkur olamini munavvar etdi. Unga jalb qilingan, o'z davrining taniqli, yetuk ijodkorlari Sayd Ahmad Naqqosh, Xattot Ja`far Tabriziy, Mavlono Xalil, G'iyosiddin Nakqosh, Ma'ruf Bag'dodiy va boshqalar katta ilxom va qaynoq extiros bilan bu yerda ijod qilganlar.

Xusayn Boyqaro davriga kelib esa Xirot tasviriy san`at maktabi yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Bu yerda Miroq Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Shoh Muzaffar singari yetuk va zukko musavvirlar ijod qildilar.

Qomusiy bilim va hunar soxibi Miroq Naqqosh (vafoti 1507 yil) Xirot maktabining juda ko'plab san`at namoyandalarining yetishib chiqishi va ijodining barq urishida yorkin iz qoldirgan buyuk shaxsdir.

Temuriylar davri tasviriy san`atining ulkan namoyandasasi, tengsiz talant soxibi, o'nlab moxir musavvirlarning ustozi, benazir ijodi hozirgacha ham insoniyat axlini lol qoldirib kelayotgan muyqalam sexrgari Kamoliddin Behzod (1455-1537) ham Xirot ijodiy muhitida faoliyat ko'rsatdi.

Temuriylar davri musiqa madaniyatining rivoj topishida ham alohida o'rinn tutdi.

Tarixchi Ibn Arabshoh Temur saroyidagi ijodiy muhitni shunday tasvirlaydi: ...«Kur'onne qiroatda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domgoniy, Mavlono Asaduddin, Sharif Xofiz Xuzayniy, Maximud Muxriq al-Xorazmiy va Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al-Marog'i edi».

Alisher Navoiy o'zining «Mavzonul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining 8 turi rivojlanganligini qayd etadi. Tuyuq, changchi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnama, mustahzod shular jumlasidandir.

Amir Temur davrida san`at va musiqa olamida Abdulqodir Guyanda (1334—1435) mashxur bo'lgan. Uning hayotining asosiy qismi Samarqandda kechgan. Abdurazzoq Samarqandiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar uni musiqa va advor (musiqa nazariyasi)da zamona yagonasi, deb yozadilar.

Temuriylar davri musiqa san`atida ayniqsa Xirot ijodiy muhitining roli katta bo'lgan. Xirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiy, Xiloliy va Jomiy singari mumtoz shoirlarning she'r, g'azallaridan keng foydalanganlar. Xo'ja Abdulla Marvarid, Kul Muhammad, Shayx Noiy, Xusayn Udiy va Shayx Kumiyalar mashxur va taniqli musiqa san`ati vakillari sanaladilar.

Navoiyga zamondosh bo'lgan Abuqodir va Kutbiddin Qoiy, qo'shiqchi va musiqa nazariyasi bilimdoni Abdulloh Loriy, konunchi Darvesh Ahmad Qonuniy, naychi Sulton Axmad Devona, Shoh Kuliy Rijjakiy, Xiriy, shuningdek 360 dan ziyod ko'ylar ijodkori Xoja Yusuf Andijoniy singarilar ham davr musiqa olamining benazir namoyandalari edil ar.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining to'laqonli mazmuni, manzarasi va ko'lami o'sha zamonda har taraflama gurkirab ravnaq topgan badiiy tafakkur samarasini — badiiy

adabiyotda yaqqol namoyon bo'ldi. Negaki Vatanimiz tarixining mana shu chinakam Uyg'onish davrida o'zlarining serqirra, serjilva ijodi bilan yuksak insonparvarlik umumbashariy g'oyalarni tarannum etgan ko'plab zabardast adibu shoirlar, daxr ijodkorlar yetishib chiqdilar. Eng muhimi shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an'anaviy bayroqdar bo'lib kelgan fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon turkiy-o'zbek adabiyoti ham rivojlanib, uning namoyandalari safi ko'payib bordi. Bu o'rinda o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, Durbeq Ga-doiy, Atoiy, Sakkokiy, Xusayniy singari badiiy suz sexgarlari nomini aloxida tilga olib utish joizdir. Ularning ko'plari forsiy va turkiy tillarda ham bab-baravar ijod qildilar. Lutfiyning «Gul va Navruz», «Zafarnoma», Xaydar Xorazmiyning «Maxzunul asror» («Sirlar xazinasi»), Durbekning «Yusuf va Zulayxr» asarlari, shuningdek Atoiy, Gadoiy va Sakkokiy larning nafis g'azallari, she'riy meroslari o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rinn tutadi.

Ulug' o'zbek shoiri, mumtoz she'riyatimiz sulton Alisher Navoiyning katta ijodi ham shu tarixiy davr bilan borliqdir. Alisher Navoiy (1441—1501) ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bunda yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtparvarlik va erksevarlik g'oyalari butun tarovati bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa bu yuksak goyalar uning mashxur «Hamsa»siga kirgan «Xayratul abror», «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» dos-tonlarida tuda kuch bilan barq urib turadi. Navoiy she'riy ijodining cho'qqisi bo'lgan «Xazoinul ma'oniy», «Muxokamatul lug'atayn» («Ikki til bahsi»), «Majo-lisun nafois» («Nafis majlislar») singari nasriy asarlari o'zbek (turkiy) tilining badiiy ko'rki va kudrati dovrug'ini olamaro taratishda mislsiz voqeа bo'ldi.

Shoirning Xuroson xukmdori, bolalik do'sti Xusayn Boyqaroning vaziri, eng yaqin maslakdoshi sifatida mamlakat obodonchiligi, xalq farovonligi, ilmu urfon ravnaqi yo'lidagi benazir sa'y-harakatlari ham minnatdor avlodlar tahsiniga sazovordir.

Temuriylar davrida madaniyatimizning buyuk allomalari Bahouddin Nakshband (1318—1389), Xoja Axror Valiy (1404—1490) ham samarali ijod qildilar. Ko'p zamonlar (ayniqsa shurolar xukmronligi davrida) nomlari asossiz ravishda yomon otliq etilib, ijodlari chetga surilib, ilmiy merosi o'rganilmay kelingan bu buyuk siymolarimiz to'g'risidagi haqiqat milliy istiqlol sharofati tufayli ruyobga chiqdi. Bahouddin Nakshband tariqat ilmining asoschilaridan biri sifatida insonlarni Xaq Taolo yo'lida halol xizmat qilishga, hamma narsada insof, diyonatli, adolatli bo'lishga, peshona teri bilan kun kechirishga da`vat etadi. Uning «Dil ba yoru, dast ba kor» («Diling Allohda, qo'ling ishda bo'lsin») nakli naqshbandiya ta'limotining tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasasi va targ'ibotchisi, o'z zamonasining peshqadam allomasi Xoja Ubaydulloh Axror Valiy islam olamida din peshvosi bo'lish bilan birga el-ulus manfaati uchun qayg'urgan, temuriylar saltanati birligi va barqarorligi uchun doimo harakat qilgan. Uning «Risolai Validiya», «Risolai Xavroiya», «Fikrat ul-orifin» singari durdona asarlari ilm-ma'rifat axli orasida mashxur bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. Amir Temur — ilm-fan va madaniyat sohasiga qo'shgan xissasi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Ulug'bek —buyuk olim, ilm —fan rahnamosi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Temuriylar davrida tarixshunoslik, xattotlik, tasviriy san'at va musiqa xaqida nimalarni bilasiz?
4. Temur va temuriylar davri badiiy adabiyoti xaqida nimalarni bilasiz?

6-Mavzu: O'rta Osiyo xonliklarida madaniy hayot

Reja:

1. XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyo xonliklaridagi madaniy hayot.
2. Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Islom.
3. Xiva xonligidagi adabiy hayot.
4. Qo'qon xonligidagi adabiy hayot.

Buxoro xonligidagi madaniy hayot. Islom. O'rta Osiyo hududida X-XII asrlarda vujudga kelgan so'fiylik tariqatlari bu davrga kelib nafaqat diniy sohada, balki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham muhim rol o'ynay boshladilar. Ayniqsa naqshbandiylik tariqati keng quloch yozgan. Siyosiy hokimiyat shayboniylar sulolasiga qo'liga o'tishi bilan temuriylar davridagi diniy arboblar o'rnini yangilari egallay boshladi. Xususan, XVI asrning ikkinchi yarmidan Jo'ybor xojalari (shayxlari) nufuzi kuchaydi. Mashhur Maxdumi A'zam Kosoniy (1549 yil vafot etgan)ning shogirdi bo'lgan Jo'ybor xonlaridan Xoja Muhammad Islom va uning o'g'li Xoja Sa'dlar mamlakat ma'naviy, siyosiy – iqtisodiy hayotida yetakchi rol o'ynaydilar. Ular XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroning shayxulislomlari, shayboniylar hukmdorlarining pirlari bo'lishgan. Ularning Jo'ybor xojalari nomini olishi Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo'ybor degan mavzega ko'chib kelishi bilan bog'liqidir. Jo'ybor xojalari o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodni deb hisoblaganlar.

Xoja Muhammad Islom shayboniylar davlatidagi toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarga aralashib, o'z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam bergan. Shu tufayli unga Buxoro yaqinidagi Sumiton qishlog'i in'om etiladi. Jo'ybor xojalarning ota-bobolari Buxoro yaqinidagi Chor bakr mozoriga qo'yilgani uchun XVI asrdan boshlab bu yer ziyoratgohga aylantirilgan.

XVI asrdan e'tiboran O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy tafakkur ikki bosqich (XVI-XVII asrlar va XVIII - XIX asrning birinchi yarmi)da rivojlangan. Birinchi bosqichga Mirzajon Sheroyi, Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy kabi o'z davrining yetuk faylasuflarini kiritish mumkin. Ular falsafa, tarix, tilshunoslik bo'yicha ko'plab asarlar mualliflari bo'lishlari bilan birga falsafiy xarakterdagi ko'plab sharhlar va izohlar ham yozishgan. Masalan, Yusuf Qorabog'iy (1563-1647) o'tmishdagi buyuk faylasuflarning an'analarini davom ettirib, XVI-XVII asrlarda falsafaning O'rta Osiyodagi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Uning "Risolai botiniyya" (bu asar "yetti jannat" nomi bilan mashhur), "Fi ta'rifi ilm" ("Ilm ta'rifida"), "Mafotih" ("Kalitlar") va boshqa asarlari ma'lum. Olim, shuningdek, arab tili, mantiq, riyoziyot, lug'atshunoslik va fiqh masalalariga oid qator risolalar, she'rlar ham yozgan.

O'rta Osiyo falsafiy tafakkuri Hindistondagi Boburiylar davlatiga ham yoyilib, hind falsafasi bilan ma'lum darajada uyg'unlashgan. Bunda Bedil falsafasi keng tarqalgan. Bedil inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy fikrlar bayon etgan. Uning yirik asari "Chor unsur" ("To'rt unsur", 1703)da to'rt unsur - havo, suv, yer, olov to'g'risida; o'simliklar, hayvonlar va odamning paydo bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Bedil "Irfon" ("Bilim", 1711-12; "Komde va Mudan", "Nukot" asarlari ham shuning tarkibida) dostonida falsafa, tarix, tabiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to'xtalgan. Bedilning ijtimoiy masalalarga oid qarashlarida ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik asosiy o'rinni egallaydi. Uning asarlari ayniqsa XIX asrdan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Ikkinchi bosqichda ayrim sharhlar, falsafiy risolalar yozilgan. Falsafiy tafakkur sohasidagi yirik muallimlari bu davrda uchramaydi, tasavvuf ta'siri kuchaygan, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi she'rlar bitgan shoirlar ijod qilgan.

Tabiiy fanlar. XVI-XIX asrlarda o'tgan davrga nisbatan O'rta Osiyo tabiiy fanlar rivojida birmuncha turg'unlik holati vujudga keldi. Bu jamiyat madaniy hayotida va musulmon ruhoniylarining mutaassib qatlaminu nufuzi kuchayib ketishi bilan bog'liq edi. Shunga qaramay O'rta Osiyolik olimlar o'tmishdagi buyuk ajdodlari Xorazmiy, Forobi, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarining asarlariga sharhlar yozdilar, yangi g'oyalarni o'rtaga tashladilar. Bu davr matematik olimlari qatorida Muhammad al-Xodi Toj al-Sayidiy, Latif Muhammad ibn Bobo Samarqandiy (Bobokalon Muftiy nomi bilan shuhrat qozongan), Muhammad Amin al-Mo'minobodiy, Abdusamat ibn Qozi Muhammad Akbarxon (Xon Ulum laqabi bilan mashhur), Tursun az-Zominiy al-Farxizi, Soqi Muhammad ibn Muhammad Amin as-Son Chahoryoqiy, Mirza Bade' devonlarni ko'rsatish mumkin.

Bu olimlardan Latif Muhammad ibn bobo Samarqandiy (XVI asr)ning O'rta Osiyodagi madrasalarda XVII – XIX asrlarda darslik sifatida o'qitilgan. "Risola dar ilmi hisob" ("Hisob ilmi risolasi"), "Vasiyat bar chahor qism" ("To'rt xil vasiyat") va boshqa asarlari diqqatga sazovor.

Qozizoda Rumiyning nabirasi Mahmud Muhammad Miram Chalabiy **astronomiya** va matematikaga oid bir qancha asarlar yozgan.

Ashtarxoniylardan bo'lган Buxoro xoni Subxonqulixon ilmi nujum (astronomiya)ga doir "Lubb ul-lavyiyh ul-qamar fil-ixtiyorot" ("Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati") risolasi muallifi hisoblanadi. Astronomiya ilmi rivojiga, shuningdek Ahmad Donish (1827-1897) ham munosib xissa ("Manozir ul-kavokib"), ("Sayyoralarning joylashishlari" asari) qo'shgan. XVI-XIX asrlarda **geografiya** fani ham birmuncha rivojlandi. Goegrafiyaga doir maxsus asarlardan tashqari memuar xarakterdagi risolalar, sayohatnomalar paydo bo'ldi. Nizomiddin Abduvali al-Birjandiy, Bobur, Sulton Muhammad al-Balxiy, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Sayid Muhammad Tohir ibn Abdulqosim, Abulg'ozzi Bahodirxon, Abdulkarim Buxoriy, Xudoyberdi ibn Qushmuhammad, Abu Toxirxoja Samarqandiy kabilar bu sohaga munosib hissa qo'shganlar. Jumladan, Birjandiy (taxminan 1525 yil vafot etgan) "Ajoyib ul-buldon" ("Mamlakatlar ajoyibotlari") asarida O'rta Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, unda yetti iqlimdag'i dengizlar, tog'lar, daryolar, shuningdek yirik shaharlar – Samarqand, Buxoro va Xorazm haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Boburning "Boburnomasi"da Farg'ona vodiysi, Buxoro, Toshkent, Hisor, Xirot, va Qobulning tabiiy sharoitlari keltirilgan hamda boshqa mamlakatlar haqidagi geografik ma'lumotlar, o'simlik va xayvonot dunyosi, aholisi haqida qiziqarli faktlar keltirilgan.

O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida **tibbiyotga** doir asarlar keng tarqalgan. Ularning orasida Sharq olimlarining tibbiyotga oid mumtoz asarlarining tarjima qilingan nusxalari, shuningdek mahalliy olimlarning risolalari ham bo'lган. Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf al-Hiraviyning fors tilida yozilgan "Jome' al-favoid" ("Foydali ma'lumotlar to'plami") asari (1511y) ko'plab kasalliklarni davolashda qo'llanma bo'lган. U 1882 yil Mulla Muhammad Zohir al-Xorazmiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Shuningdek Nurulloh A'lo al-Hakim, Mulla Muhammad Yusuf Qahhol, Ubaydulloh ibn Yusuf Ali, Muhammad Kozim, Solih ibn Muhammad Solih Qandahoriy, Ja'farxo'ja ibn Nasriddinxo'ja, Junaydullo ibn Shayx al-Islom, Muhammad Sharif Buxoriy va boshqalar tibbiyot sohasiga oid ko'plab asarlar yozdi. Subhonqulixonning "Ihyo at-tibb Subhoni" asari turli kasalliklarni davolashga bag'ishlagan.

Adabiy hayot. XVI asrda Samarqand va Buxoro mamlakatning madaniy va adabiy markazlari hisoblangan. Tarix va tilshunoslik, adabiyotshunoslik va sufylilikka doir XVI asrda yozilgan va bizgacha yetib kelgan asarlar o'sha davrdagi adabiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Bunday asarlar sirasiga Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniyning "Tarixi Abulxayrxoniy", noma'lum muallifning "Tarixi guzida nusratnama", Abdulloh Nasrullohiyning "Zubdat al-osor", Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solhining "Shaybonynomma", Fazlullox ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro", Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullahoma" Gulbadanbeginning "Humoyunnoma", Muhammad Xaydarning "Tarixi Rashidiy", Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoi al-vaqoe", Ali Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiyning "Rashahat ayn ul hayot" kabilarni kiritish mumkin.

Hofiz Ko'hakiy (1490-1584) Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchining avlodidan bo'lib, shayboniylar davrining yetuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmidagi olimi bo'lган. Uning "Tarixi ali Chingiz" ("Chingizzon va uning avlodlari tarixi"), "Sharhi odobul al-munozara" ("Odob va ahloq to'g'risida munozara" kitobiga sharh), "Favoid ziyoysi" ("Munavvar foydalar") kabi asarlari ma'lum.

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda ko'plab adiblar, shoirlar bo'lib, ular orasida forsigo'y shoir Abdurahmon Mushfiqiy ajralib turadi. Hajviy shoir sifatida shuhrat qozongan. Mushfiqiy Abdullaxonning saroy shoiri bo'lgani uchun unga atalgan ko'plab madhiyalari saqlanib qolgan. Shayboniy hukmdorlar, shahzodalarining ko'plari ham shoir bo'lishgan.

Shayboniy, Ubaydiy, Xoni va boshqalarning she'rlari bizgacha yetib kelgan. Shu davrda ijod etgan shoirlardan Majlisiyi qayd etib o'tish joiz. Uning "Qissai Sayfulmuluk" dostoni xalq mehrini qozongan. Asarda adolat, yaxshilik va ezzulik madh etilgan, podshohlar adolatga chaqirilgan, xotin-qizlar xuquqlarini himoya qilish g'oyalari ilgari surilgan. Shoир Ibodulla Sayid Podshoxoja ibn Abdulvahhobxoja ham mashhur bo'lib, u Xoja taxallusida ham nasr, ham nazmda ijod qilgan.

Buxoroda bu davrdagi adabiy hayot to'rtta asosiy tazkira-Mutribiyning "Tazkirat ash-shuarо", Maleho Samarqandiyning "Muzakkir al-as'hob", Mulla Sodiq Samarqandiyning "Riyoz ash-shuarо" va Nurmuhammad Nasafiyning "Mazhar al-musannifin"larni yaratilishi bilan e'tiborga molik.

Turdi Farg'oniy, Mulla Mastiy Oxundiш va boshqalar shu davr adabiyotida progressiv rol o'ynadilar. Ularning g'azallarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagи adolatsizliklar qoralandi. Shuningdek, Sayid Nasafiy ijodi alohida ajralib turadi. Uning "Xayvonotnama"asari mashhur. Shoир hayvonlar timsoli orqali adolatsizlik, poraxo'rlik, amaldorlarning kirdikorlarini fosh etadi.

Shoир Mujrim Obid o'zbek va tojik tillarida yozilgan she'rlaridan maxsus devon tuzgan. Bulardan tashqari Vola, Shavqiy Kattaqurg'oniy Xiromiy kabi shoirlar ham ijod qilishgan.

Xiva xonligidagi adabiy hayot. Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotidagi voqyealar madaniy hayotga ham ta'sir etmay qolmadi. Ijtimoiy tafakkurning barcha sohalarida reaksiyon va progressiv dunyoqarash o'rtasida kurash olib borildi. Buni biz o'sha davrda yaratilgan tarixshunoslikka oid asarlarda va she'riy to'plamlardan kuzatishimiz mumkin. Abulg'ozi Bahodirxonning ikki tarixiy asari alohida e'tiborga sazovor.

Abulg'ozi (1603-1664) nafaqat Xiva xoni, balki turkiy va forsiyda ijod etgan yirik tarixchi olim hamdir. Uning "Shajayi tarokima" va "Shajayi turk" asarlari O'rta Osiy xalqlari tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi. Abulg'ozi tib ilmiga oid "Manofi'ul inson" ("Insonga foydali narsalar") asarini ham yozgan. Xiva xonligida ijod etgan adiblardan Andalib, Pahlavon Ravnaq, Rahim, Nishotiy, Muhammad Hokisorlarni sanab o'tish mumkin.

XVII – XVIII asrlarda "Go'ro'g'li" dostonlari turkumi va "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyodxon va Hamro", "Sanobar", "Yusufbek va Ahmadbek", "Bahrom va Dilorom" kabi xalq-folklor dostonlari xalq orasida keng tarqaldi. Bu davrda Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Xudoybergan Muhrkan, Muhammad Yoqub Devon Xorazmiy, Muhammad Rizo Oxund va boshqa xattotlar ijod etdi.

Munis va Ogahiyarning tarixiy asarlari "Firdavs ul iqbol", "Riyoz ad-davla", "Zubdat at-tavorix", "Gulshani davlat" va boshqalar Xiva xonligi tarixini o'rganishda beqiyos qimmatga ega. Munisning "Savodi ta'lim" asari yoshlarni xattotlik san'atini o'rganishlariga bag'ishlangan.

Bu davrda Xorazimda ko'plab tarixiy, ilmiy va badiiy asarlar o'zbek, tiliga tarjima qilingan. Xonlikda o'ziga xos tarjima maktabi shakllangan. Ogahiy, Komil, Sanoiy, Dilovar xoya, Muhammad Yoqubxo'ja va boshqalar ko'plab asarlarni tarjima qilishgan.

Komil Xorazmiy (1825-1899) shoир, bastakor, xattot va rassom bo'lgan. U musiqaga oid "Xorazm notasi"ni yozgan.

Qo'qon xonligidagi adabiy hayot. Qo'qonlik shoир Abdulkarim Fazliy Namangoniy tomonidan 1821 yilda yozilgan "Majmua ush shuarо" asari XVIII-XIX asr boshlarida Qo'qon xonligidagi adabiy hayot haqida batafsil ma'lumot beruvchi muhim manbadir. Vozehning "Tuhrat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" tazkirasida 200 ga yaqin shoир va olim haqida ma'lumot to'plangan. XVII asrning ikkinchi yarmi - XVIII asrning birinchi choragida Farg'ona vodiyida yashagan iqtidorli shoир va mutafakkirlardan biri Boborahim Mashrab edi. U adabiyotda progressiv yo'nalish taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Mashrab asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib, o'sha davr hayoti, jamiyatdagи voqyea-hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Xususan, u ba'zi ruhoniylarning kirdikorlarini va xiylakorliklarini fosh etadi, tekinoxo'rlar, mulkdorlar va johil amaldorlarning zo'ravonliklarini tanqid qiladi. Mashrabning bu tur asarlari qo'ldan qo'lga, og'izdan og'iga o'tib, tez tarqalgan.

XVIII asr o‘zbek adabiyotining yana bir yirik namoyondalaridan biri Xuvaydo edi. Uning “Devoni Xuvaydo” kulliyotidagi she’rlarda insonparvarlik g‘oyalari, sevgi, sadoqat, ahloqiy poklik tarannum etilgan.

Qo‘qon xoni Umarxon va uning xotini, mashhur o‘zbek shoirasi Nodirabegim o‘zlarini ijodkor bo‘lganlari tufayli shoir, tarixchi, adabiyotshunoslarga homiylik qilishgan. Ular atrofida **Qo‘qon adabiy muhiti** vujudga kelgan. Bu muhit namoyondalaridan Akmal (Mahmurning otasi), Amiri (amir Umarxon), Boqixon to‘ra, Gulxaniy, Yoriy, Zavqiy, Zoriy, Ma’dan, Mahjub, Maxmur, Mushrif, Nizomiy, Nodir, Nozil, G‘oziyarlarni sanab o‘tish mumkin. Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari o‘zbek va tojik tillarida ijod etishgan.

Gulxaniy “Zarbulmasal” asari bilan o‘zbek adabiyoti tarixiga masal janrini boyitgan shoir sifatida kirdi. Maxmur “Hapalak” hajviy she’rida Qo‘qon xonligidagi xalq tur mush tarzini aks ettirgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalaridan biri bo‘lgan Maxmur ijodi merosida hajv san’atining murakkab, ayni zamonda, mahsuldar va yorqin usullaridan biri – o‘z-o‘zini fosh etish usulida yaratilgan asarlar alohida o‘rin tutadi.

Qo‘qon adabiy muhiti Jahon otin - Uvaysiy va Mohlaroyim-Nodirabegimlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uvaysiy she’riyatida el-yurt dardi, xalq qismati, hasrati bosh mezon bo‘lgan. Nodirabegim she’riyati asosini lirk she’rlar tashkil qilgan, ularda muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda sharq ayollarining dard-alamlari kuylanadi. Nodirabegim nafaqat ajoyib shoira, ma’rifatparvar, balki yetuk davlat arbobi ham bo‘lgan. U mamlakatda bunyodkorlik ishlariga ham katta e’tibor bergen. Xususan, bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga boshchilik qilgan. Nodirabeginning adabiy merosi o‘z g‘oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she’riyatining go‘zal namunalaridir.

Badiiy madaniyat. XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo xududida Buxoro, Xiva va keyinchalik Qo‘qon xonliklarini barpo etilishi xonlikdagi xalqlar san’atining keyingi taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bunda har bir xonlikda san’at mahalliy ijtimoiy, etnik xususiyatlari, geografik muhit, mahalliy maktab yo‘nalishida, an’analarga ko‘ra rivojlandi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida badiiy madaniyat markazlari Mavarounnahrda (Buxoro, Samarqand), Xorazmda (Xiva) va Farg‘ona vodiysida (Qo‘qon, Andijon, Namangan) qaror topdi.

Me’morchilik. Me’morchilik taraqqiyotida to‘rtta davr ko‘zga tashlanadi. **Birinchisi** – XVI asrning boshidan 60-yillarigacha bo‘lgan davr. Uning xususiyati shundan iboratki, temuriylar davri an’anasini davom ettirishga harakat qilindi. Xususan, poytaxt Buxoroga ko‘chirilishi munosabati bilan uning bosh maydonida Kalon masjidi (1514), uning qarshisida esa Miri Arab madrasasi bunyod etildi. (1535/36). Mahalla guzarlari qo‘ynida Xoja Zayniddin xonaqohi va baland masjid qurilgan. **Ikkinci davr** – XVI asrning 60-yillaridan shu asrning oxirigacha bo‘lgan davr. Unda Abdullaxon hukmdorligi vaqtida davlat hokimiyyati mustahkamlanishi munosabati bilan qurilish va me’morchilik yuksalgan. Ayniqsa, Buxoro va uning atrofida keng qurilish ishlari olib borilgan. Buxoroda o‘z tarkibiga Modarixon madrasasi (1566) va Abdullaxon madrasalari (1588-90)ni birlashtirgan Qo‘sh madrasa majmuasi, Govkushon madrasasi (1570) oldida maydon va Xoja masjidi (1598) qurildi. Shaharning bosh savdo yo‘li chetlarida rastalar, markaziy bozor bunyod etildi. Rabodning sharqiy qismida yirik Ko‘kaldosh madrasasi (1568-1569), shahar chetidagi Namozgoh masjidi qayta qurildi. Shuningdek, Abdullaxoni davrida mamlakatda 1000 dan ortiq rabot va sardoba, ko‘plab masjid, madrasa, ko‘prik, suv omborlari qurilgan. Xususan, shunday suv ombori qoldiqlaridan biri Nurota tumani markazidan 65 km sharqda, eski Oqchob qishlog‘i yaqinidagi Beklarsoy dasasida hozirgacha saqlanib qolgan. XVI asarda ushbu to‘g‘on yordamida 1,2 ming hektar yer maydoni sug‘orilgan. Abdullaxon davrida qurilish ishlari nafaqat Buxoro vohasi, balki Samarqand, Toshkent, Balh va boshqa shaharlarda ham keng ko‘lamda olib borilgan.

Uchinchi davr – XVII asrda yirik me’moriy majmular qurilishi davom ettirildi. Buxoroda Labihovuz (1619-1622) Nodir devonbegi madrasa va xonaqohi qurilishi yakunlandi. Ayniqsa, Samarqand hokimi Yalangto‘shbiy bahodirning obodonchilik, qurilish ishlari

sohasidagi faoliyati e'tiborga sazovor. U o‘z mablag‘lari hisobiga Registon maydonida Sherdor madrasa (1619-36), Ulug‘bek davrida bunyod etilgan. Mirzoyi karvonsaroyi o‘rnida Tillakori madrasasini qurdirgan (1641-46). Tillakori madrasasidan jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun “tillakori” (tilladan ishlov berilgan) deb atalgan.

To‘rtinchi davr – XVIII asr oxiri - XIX asrlar me'moriy obidalari O‘zbekistonning butun hududida saqlanib qolgan. Bu davr o‘zidan ajoyib shaharsozlik ansambli – Xivani qoldirdi. Uning obidalari aynan shu vaqtida bunyod etilgan. Muhammad Amin inoq (1805), Qutlimurod inoq (1809), Sayidboy (1842) madrasalari, Solihbiy masjidi (1842) va boshqalar jumlasidandir. Olloqulixon tomonidan qurilgan Xivadagi Toshhovli qasri (1832-1841) Xorazm me'morchiligining o‘ziga xos uslubini o‘zida aks ettirgan

Amaliy bezak san'ati. XVI-XIX asrlar amaliy bezak san'atida ikki asosiy yo‘nalishrasmiy va xalq san'ati mavjud bo‘lgan. Xalq san'ati izchil, birmuncha erkin, hayotga yaqinroq bo‘lgan. Xalq san'ati ko‘p turli an'analarni saqlab qolgan, biroq XVII asr oxiridan e'tiboran uning rivojlanishida turg‘unlik holatlari kuzatila boshlandi, buyumlar turi, shakli va bezagi soddalashib borgan.

XVI asr oxiri – XVII asrda amaliy bezak san'ati sekin rivojlandi, bu mujassamot tuzilishidagi bir xillikda, bezakning murakkablashuvi va vazminlashuvida, gullarning maydalashuvi va takomillashuvida, tashqi bezakning kuchayishida o‘z ifodasini topdi.

XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy bezak san'ati garchi sekin rivojlansada, biroq u o‘zining asosiy hayotiylik mazmunini va ip matolar ishlab chiqarish, ipakchilik, gilamchilik, palos to‘qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och, metalga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. XVIII asrning oxirida amaliy bezak san'ati taraqqiyotida yuksalish ko‘zga tashlanib, u XIX asrning so‘nggi choragiga qadar davom etgan. XIX asrning birinchi yarmida qat‘iy shakl mujassamotini tuzishga intilish kuzatiladi. Bu xususiyatlar, ayniqsa, badiiy hunarmandchilik (abrli matolar guli, zardo‘zlik, kandakorlik)da aniq ko‘zga tashlanadi. Naqsh mujassamoti va mavzu shakliga ko‘ra bir oz qat‘iy, sipo va tashqi ko‘rinishi takomillashgan. Xonadonlarda yaratilgan kashtalarda XVIII asr san'ati xususiyatlari (soddalik va go‘zallik) uzoqroq saqlangan. Bu davr amaliy bezak san'atining barcha sohalari shakl, rasm va o‘ziga xosligini saqlagan.

Miniatyura. Mavarounnahrda miniatyura san'ati XVI-XVII asrning birinchi yarmida ravnaq topdi. O‘rtta Osiyo xalqlari orasida miniatyura san'ati “naqshi nigor” nomi bilan ma'lum bo‘lgan. Bugungi kunlarimizda jahon muzeylari to‘plamlarida O‘rtta Osiyo musavvirlari tomonidan bezatilgan 60 dan ortiq nodir qo‘lyozmalar saqlanadi. Mahalliy va Hirotlit ustalarining o‘zaro ijodiy hamkorligi tufayli Samarqand va Buxoroda miniatyura maktablari gullab yashnadi. Behzod an'analari bilan bog‘liq birinchi yo‘nalish qalamtasvirining o‘ta nozikligi, manzara va me'moriy tasvirlarga boyligi, jarangdor, tiniq ranglarning uyg‘unligi, murakkab mujassamoti bilan diqqatga sazovor. Mahmud Musahhib va Chag‘ri Muxassin (Nizomiy asarlariga ishlangan rasmlar, 1537-38 yillar), “Ash’or”ni bezagan noma'lum musavvir (1529 y.) va boshqalar mashhur bo‘lgan. Ikkinci yo‘nalish qahramonlar sonining cheklanganligi, tasviriy vositaning lo‘ndaligi, ixcham mujassamoti, keskin ranglarga boyligi bilan farqlanadi. Jumladan, Shayboniyalar davrida hukmdorlar uchun shajaraviy, tarixiy asarlar ko‘plab yaratilib, ular miniatyuralar bilan bezatildi. Xususan, Muhammad Shodining “Fathnama” (1502-1507), Ma’sud ibn Usmon Qo‘histoniying “Tarixi Abdulkayrxoni” va boshqalar shular jumlasidandir. Miniatyuralarda hukmdorlar va ularning turli hayotiy jarayonlardagi tasvirlaridan tashqari, tasavvuf g‘oyalari, folklor, mehnat va ijod, tabiat, hayvonot dunyosi kabi mavzular aks ettirildi.

XVIII asrda madaniy hayotning keskin pasayishi kuzatiladi. Ammo shunday bo‘lsada kitobat san'atining rivojlanishi musavvirlarning faollashuviga olib keldi. XIX asr boshlarida yaratilgan qo‘lyozmalardagi suratlarda avvalgi badiiy nafosat ko‘rinmaydi. Hindiston, Qashg‘or va Eron miniatyura maktablariga taqlid ortdi. Xususan, Navoiyning “Xamsa”siga ishlangan

miniatyurlar (1824, Farg'ona qo'lyozmasi) mavzui badiiy talqini o'ta sodda, ranglar majmuitor, ohangi so'niq va yasamaligi bilan ajralib turadi.

Musiqa. XVI-XIX asrning birinchi yarmida musiqiy hayot asosan poytaxt va yirik shaharlarda jonlandi. Mohir musiqachilar xuddi avvalgi davrlardagi kabi hukmdorlar saroyida to'plangan. O'tmish an'analariga sadoqat, vorisiylik, mohirona ijrochilik san'ati tufayli Buxoro va Samarqand O'rta Sharqning musiqa markazlariga aylandi.

XVI asr boshida Xurosonning, Hirot va boshqa shaharlaridan Movarounnahrga ko'plab musiqachilar keldi. Buxoroga Husayn Udiy, G'ulom Shodi va boshqa atoqli qo'shiqchilar, sozandalar, musiqa nazariyotchilar ko'chib keldi. Bu ma'lum darajada mahalliy musiqa-ijrochilik va musiqiy-nazariy faoliyatning jonlanishiga olib keladi. XVI-XVIII asrda maqom janri taraqqiy etdi. XVIII asr o'rtasida Buxoro (tojikcha-o'zbekcha) Shashmaqomi shakllandi.

Movarounnahr musiqachilari Hindiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Rusiya davlati bilan musiqiy aloqalar o'rnatganlar. Ushbu mamlakatlarning musiqachilari va shoirlari ijodi O'rta Osiyo shaharlarining musiqiy hayotini qandaydir ma'noda boyitishga xizmat qildi.

Bu davrning musiqiy hayotida Najmiddin Kavkabiy, Ja'far Qonuniy, Ali Do'st Nayi, Hofiz Mahmud, Hofiz Miraklar mashhur bo'lishgan. Xususan, Najmiddin Kavkabiy musiqashunos, shoir, bastakor bo'lib, musiqa ilmi va amaliyotining turli masalalariga doir ilmiy qismlar yozgan. "Risolai musiqiy" asarida ilmi musiqiy, o'n ikki maqom tizimiga oid nazariy tushunchalar berib, turli zarb-usullarining nomini keltirib ta'riflagan, kuyning amaliyotidagi xillari haqida ma'lumot bergen. Kavkabiy maqomlarni kecha-kunduzning qaysi soatlarida ijro etilishi va har xil ruhiy halovatdagi kishilarga ta'siri masalalarini bayon etgan. Ayniqsa Darvish Ali Changiy shuhrat qozongan. Uning "Risolayi musiqiy" asarlarida XV asr oxiri – XVII asr boshida Movarounnahrda yashagan, ijod etgan ijrochilar, bastakorlar haqida bat afsil ma'lumot to'plangan.

Shunday qilib XVI-XIX asr birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi bir muncha susaygan bo'lsada, Movarounnahr aholisining madaniy darajasi nisbatan yuqoriligidicha qolgan.

Teatr. XVI-XVIII asrlarda masxarabozlik teatri nafaqat poytaxt shaharlar – Buxoro, Xiva, Qo'qonda, balki boshqa shaharlarda ham faoliyat olib borgan. Turli xonliklardagi teatr guruhlari bir-biridan ijro usuli, mahorati, repertuari va taqdim etish shakllari bilan farq qilishgan.

Buxoro vohasida XVIII-XIX asrlarda Sayfulla masxara, Zokir masxara, Ergash masxara va boshqalar o'z spektakllari bilan tomosha ko'rsatganlar.

Qo'qon xonligida XVIII asr boshida qiziqchilik teatri faoliyat yuritgan. Muhammad Solih Bidiyorshum ko'plab og'zaki pesalar ijro etgan. Bidiyorshum truppasida 30 dan ortiq aktyorlar, qiziqchilar (Bahrom qiziq, Mo'min qiziq, Davlatyor qiziq va boshqalar) bo'lgan. Ular shaxarning Chorsu maydonida, ba'zan xon saroyida qiziqchilik qilganlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda qo'g'irchoq teatri keng tarqalgan. Uning "Qo'l qo'g'irchog'i", "Chodir xayol" kabi turlari bo'lgan. Ularning har ikkisida bittadan asosiy pesa – Polvon kachal ("Qo'l qo'g'irchoq") va "Sarkardalar" – "Amaldorlar" ("Chodir xayol") bo'lgan. XIX asrda O'zbekiston hududida Shosolih, G'afur, Xalfarang (Qo'qon), Orifjon qo'g'irchoqboz, Azim burun, Doniyor (Toshkent), Jo'ra Qayroq, Hamro qo'g'irchoq boz (Samarqand), Sharif Sayyoh, Qori xoji (Buxoro) va boshqa usta-qo'g'irchoqbozlar o'z maktablarini yaratganlar.

Bu davrda raqs san'ati ham yuksak rivojlangan. Xalq-raqs san'atining Farg'ona maktabi o'z tarkibiga quyidagi raqs turlari va guruhlarini olgan: "Katta o'yin", "Xonaki o'yin", "Yalla" va boshqalar. Shulardan "Katta o'yin" murakkab raqs kompozitsiyasiga ega bo'lib, 60 usuldan tashkil topgan.

Xorazmda "Maqom o'yin", "Lazgi", "Qayroq o'yin", "Yalla" va boshqa raqs turlari tarqalgan.

Buxoroda raqs maktabi yettita katta va kichik shakllardan tashkil topgan: "Maqom o'yin", "Qayroq o'yin", "Xonaki o'yin", "Zang bozi", "Yalla" va boshqalar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida sayyor sirk artistlari – dorbozlar, akrobatlar, ko‘zboytag‘ichlar, jonglyorlar, hayvon o‘rgatuvchilar va boshqalar shahar va qishloqlar maydonlarida tomosha ko‘rsatib o‘zlarining mahoratlarini namoyish etishgan.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshida O‘rtal Osiyo xonliklarida an'anaviy teatr faoliyatida o‘ziga xos uslubiy ko‘rinishlar paydo bo‘ldi. Buxoro amirligida, masalan, masxaraboz, qo‘g‘irchoqboz, raqqos va boshqalarning uyushmalari vujudga keldi, bu o‘z navbatida ularning reperturarлari boyishga va ijrochilik mahoratining oshishiga olib bordi. Xorazm an'anaviy teatrida 2 turkum tomoshalar - “To‘qma” va “Xatarli” o‘yin yaxshi shakllandi. Farg‘ona va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etib, so‘z san'atiga alohida e’tibor berildi.

Shunday qilib XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rtal Osiyo xonliklari tarixi faqat o‘zaro urushlar, ichki nizolardan iborat bo‘lib qolmagan. Xatto shunday og‘ir kezlarda ham mamlakatda madaniy hayot o‘z rivojlanishida davom etgan. Garchi XIV-XV asrlardagi kabi yuksak darajaga erishilmagan bo‘lsada, uning yutuqlarini saqlab qolishga, uni yangi g‘oyalar bilan boyitishga harakat qilingan.

Shunday qilib, XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rtal Osiyo jamiyati hayoti notekis rivojlangan; ayrim o‘n yilliklarda erishilgan yutuqlar, ko‘pincha o‘zaro nizolar tufayli yuzaga kelgan navbatdagi tanazul davri bilan almashgan. Biroq ana shunday og‘ir damlarda ham o‘zbek xalqining ijodkorlik faoliyati to‘xtamaganidan faqat faxrlanishimiz mumkin. Qishloq, shaharlar qayta qad ko‘targan. Hunarmandchilik turlari rivojlangan. Xalq ustalari tomonidan bunyod etilgan mahobatli me’moriy obidalar butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Har qanday og‘ir, noqulay sharoitlarda ham xalqimizning ijodiy tafakkuri rivojlanishda davom etgan. Ular orasidan ko‘plab iqtidorli olimlar, mutafakkirlar, qo‘sishchilar, musiqachilar, rassomlar, me’morlar va quruvchilar yetishib chiqdi.

O‘zbekiston madaniyatining bir qator arboblarining ismlari insoniyat hayoti solnomasiga abadiy yozib qo‘yilgan.

Nazorat savollari:

1. XVI-XVII asrlarda O‘rtal Osiyo xonliklaridagi madaniy hayot xaqida nimalarni bilasiz?
2. Buxoro xonligidagi madaniy hayot xaqida nimalarni bilasiz?
3. Islom dini xaqida nimalarni bilasiz?
4. Xiva xonligidagi adabiy hayot xaqida nimalarni bilasiz?
5. Qo‘qon xonligidagi adabiy hayot xaqida nimalarni bilasiz?

7-Mavzu: Chor Rossiyasi va Sho‘rolar hukmronligi davrida o‘zbek madaniyatining rivojlanishi.

Reja:

1. Chor Rossiyasi tomonidan O‘rtal Osiyo xonliklarining zabt etilishi va rus mustamlakachilarining madaniyatga bo‘lgan munosabati. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat soxasidagi siyosati.
2. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va bu harakatning namoyondalari. Jadidlarning maorif, fan, adabiyot, san‘at sohasidagi islohiy qarashlari va bu boradagi faoliyatları. Sovet davrida madaniy hayotning bir tomonlama rivojlanishi.
3. XIX asrning 20-30 yillarda O‘zbekistonda “Madaniy inqilob” siyosati. Sovet tipidagi maktablar yangi oliy va o‘rtal maxsus o‘quv yurtlarining tashkil topishi.
4. Madaniy – ma’rifiy, diniy muassasalarga qilingan hurujlar.
5. Sovet hukumatining qatag‘onlik siyosati.

O‘rtal Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtisodiy, xarbiy jihatdan qoloqligi, tarqoqligi, o‘zaro adovatidan unumli foydalangan podsho Rossiyasi Turkistonni bosib olishga kirishgan. 1868 y. Buxoro xonligi, 1873 y. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, siyosiy mustaqillikdan mahrum bo‘lgan. 1876 y. Qo‘qon xonligi tugatilib, 1867 yil tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg‘ona oblastiga aylantirilgan. Shu tariqa o‘lkada chorizmning mustamlakachilik rejimi o‘rnatalgan.

Turkiston o‘lkasi xalqlari og‘ir mustamlaka sharoitida yashashlariga qaramay, ularning ijodkorlik faoliyati to‘xtab qolmagan. Buni Xiva xonligi misolida ham ko‘rishimiz mumkin, xususan Muhammad Rahimxon II (Feruz) (xonlik davri 1864-1910) davrida Xivada mashhur **kutubxona** tashkil etiladi. Kutubxona dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan nodir qo‘lyozmalar bilan muttasil boyitib borilgan. O‘rta Osiyoda birinchi marta Xivada litografiya tashkil qilinib, noshirlik ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Bu hol ma‘naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirishda, o‘lka milliy-madaniy merosini boyitishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu o‘rinda, Muhammad Rahimxonning o‘zi ham shoir va bastakor bo‘lib, she’rlarini “Feruz” taxallusi bilan nashr ettirgani, shular qatorida zamondosh adibu olimlar asarlarini ham chop qildirganligini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Uning Xorazm shoirlari haqidagi “Majmuat ush shuaro” tazkirasi juda mashhur edi.

Xivaga kelgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon kutubxonasini ko‘rishga muyassar bo‘lgan. Rus olimida kutubxonaning boyligi va undagi kitoblarning muayyan tartib va tabaqalar bilan saqlanishi juda katta taassurot qoldiradi. U o‘zining “Xiva saroy kutubxonasi va kitob chop etish” nomli maqolasida bu kutubxonaga katta baho beradi¹

Bu kutubxonalarda nafaqat O‘rta Osiyoda yozilgan, balki xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ko‘plab kitoblar ham saqlanar edi. Bu yerda arab va fors tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar ham mo‘l bo‘lgan, xonning o‘zi saroyga shoir va olimlarni to‘plagan. Kutubxona qoshida xattotlar va musavvirlardan iborat katta guruh faoliyat ko‘rsatgan.

Kitob, qo‘lyozmalarni yig‘ib borish, ularni ma‘naviy-milliy boylik sifatida e’zozlash va saqlash, kelajak avlodga berish xalqimiz orasida uzoq yillar davomida an’ana va odatga aylangan edi.

Qo‘qon qadimdan **hunarmandchilik** markazi bo‘lgan. Qo‘qonda misgarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, qurolosozlik, kulolchilik, qog‘ozgarlik, badiiy to‘qimachilik, do‘ppichilik, kashtachilik, temirchilik, ko‘priksoszlik kabilar rivoj topgan. Qo‘qon gazmollari Sharqda va Rossiyada mashhur bo‘lgan. Ayniqsa, Qo‘qon qog‘oz hunarmandchilikning alohida tarmog‘i sifatida nom qozongan va O‘rta Osiyoda eng sifatli qog‘oz hisoblangan.

XX asr boshiga kelib Qo‘qonda 52 madrasa 120 ta eski maktab, o‘ndan ortiq jadid maktabi, 3 ta rus-tuzem maktabi, savdo-tijorat maktablari bor edi. “Sadoi Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona”, “Qo‘qon sadosi” gazetalari chop etila boshlagan.

Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat soxasidagi siyosati. Turkiston podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingach, rus olimlari tomonidan mahalliy xalqlar tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasini o‘rganishga oid dastlabki ilmiy ishlar yaratildi. Turkistonda muzey ochildi, kutubxona ish boshladi. Bu davrda O‘rta Osiyo tarixi, etnografiyasi, iqtisodi, botanikasi, arxeologiyasi va madaniyatiga oid noyob bibliografik asar – “Turkiston to‘plami” (594 j.dan iborat) hamda «Turkiston albomi» yaratildi. Rus va o‘zbek tillarida gazetalar (“Turkestanskie vedomosti”, “Turkiston viloyatining gazeti” va boshqalar) hamda jurnallar chop etildi. Maorif sohasi ham rivojlandi. Ammo bu sohadagi har qanday o‘zgarishlar Rossiya imperiyasi mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi.

Mustamlakachilar madaniyat sohasida ruslashtirish siyosatini yurgizdilar. Bu avvalo maorif tizimi-maktab va madrasalardan boshlandi. O‘lkada «rus-tuzem» maktablari ochila boshlandi. Dastlabki «rus-tuzem» maktabi 1884 yil 19 dekabrdan Toshkentda ochildi. XIX asr oxirida ularni soni yuzdan oshib ketdi. 1917 yilning boshlarida esa 170 taga yetgan edi. Bunday maktablarda o‘quv jarayoni ikki qismidan iborat bo‘lib, birinchi qismda 2 soatlik mashg‘ulotni rus o‘qituvchisi (o‘quv, yozuv, hisob bo‘yicha), ikkinchi qismda esa saboqni o‘zbek muallimi olib borgan. Uni ochishdan asosiy maqsad – mustamlaka ma‘muriyati uchun tarjimon (tilmoch)lar tayyorlash edi. Rus-tuzem maktablari uchun S.M.Gramenitskiyning 3 qismidan

¹ Самойлович А.Н. О Хивинской придворной библиотеке и книгопечатании // Туркестанские ведомости, 1880, №24.

iborat ruscha kitoblari, Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval» (1902), Ali Asqar Kalininning «Muallimi soniy» (1903) darsliklari nashr etildi.

Mahalliy aholi turmushiga ma'naviy – ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini va oilalarni ruscha hayot tarziga o'rgatish alohida o'rinni egallagan. Buning uchun o'lka xotin-qizlar ambulatoriyalari ko'paytiriladi.

XIX asr oxiriga kelib jahonning bir qancha mamlakatlarida hayot tarzining yuksakligi, ijtimoiy tartibotlarning inson tabiatiga muvofiqligi, ilm-fan taraqqiyotining yuqoriligi turkistonlik ziyolilarni ham sergaklantirdi. Ta'lim tizimini yaxshilash, uning samaradorligini ko'tarish ehtiyoji paydo bo'ldi. Dastlab, 1884 yilda Qrimning Boqchasarov shahrida Ismoilbek Gaspirali tomonidan birinchi jadid maktabi tashkil etildi. Musulmoncha ta'lim tizimining mohiyatiga dahl qilmagan holda ta'limning mazmunini boyitish, chuqurlashtirish va uni dunyoviy ruh bilan sug'orish, yoshlarni tezkor sur'atlar bilan hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy ilm-fanni qiyalmay o'zlashtira olish darajasiga yetkazish jadid maktablarining oldidagi asosiy vazifa edi.

Turkiston o'lkasida ham jadid maktablari ochildi. Ushbu maktablar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Xamza, Isoqjon Ibrat, Saidrasul Saidazizov, Saidahmad Siddiqiy va boshqa jadidchilik namoyandalarining tuzgan darslik va o'quv qo'llanmalari saviyasi jihatidan eng zamonaviy pedagogik asarlar darajasida edi. Podsho ma'muriyati bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho'chib, ular faoliyatini bo'g'ish uchun turli tadbirlar ko'rdi.

Teatr. Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasiga o'z g'oyaviy-estetik xususiyatlari bilan mahalliy an'anaviy teatr dan keskin farq qiluvchi rus, keyinroq tatar va ozarbayjon teatr to'dalari kirib kela boshladi. O'zbek madaniyatining ilg'or namoyandalarini (Furqat, Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy va b.) mahalliy aholini ulardan o'rganishga chaqirdilar. Shu tarzda milliy teatr yaratish harakati yuzaga keldi, unga jadidlar bosh bo'ldi. 1914 yil Samarqandda Behbudiy boshchiligidagi tashkil etilgan birinchi o'zbek havaskorlik teatr guruhi, uning «Padarkush» dramasini sahnalashtirdi. O'sha yil Toshkentda Abdulla Avloniy tuzgan teatr guruhi ham «Padarkush» bilan ochildi. Tadqiqotchilarining ma'lumotiga qaraganda «Padarkush» pesasidan keyin 1917 yilgacha o'zbek dramalarining soni 40 ga yetgan.

Kitob san'ati. Turkistonda bosmaxonalar tashkil topishi va ularda gazetalar, jurnallar va kitoblarining chiqishi tasviriy san'at rivojiga ta'sir qildi, mahalliy tillarda kitob, gazeta, ilmiy to'plam va taqvimlar nashr etila boshladi. Bu nashrlarda tasviriy san'atning ilk namunalari yuzaga kela boshladi. Nashr qilinayotgan kitoblarni bezashga mahalliy rassomlar ham jalg' etila boshlandi. 1908 yili Toshkentda nashr qilingan «Shohnoma», «Farhod va Shirin» kabi kitoblar suratlar bilan bezatildi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida badiiy hayot birmuncha rivoj topib san'at uslublari yevropa san'ati uslublari bilan uyg'unlasha boshladi. Kitob san'atida XX asr yevropa san'atida keng tarqala boshlagan «modern» uslubi o'z aksini topa borgan. «O'rta Osiyo almanaxi» shunday nashrlardan bo'lib, unda geometrik shakl va chiziqlar, ularning murakkab birlashma va hosilalari yaratilgan. XIX asr oxirida xattotlik, qo'lyozmalar tayyorlash bosmaxonalar yordamida kitob yaratish jarayoni juda kengayib ketdi. Bu so'zsiz xattotlik san'atiga bo'lgan talabni ham kamaytirib yubordi. Plakatning turli ko'rinishlari, afisha, reklama, amaliy grafik asarlar bu davrdagi Turkiston badiiy muhitida yetakchi o'rinni egallab, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etdi.

Tasviriy san'at. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasasi badiiy hayotida qalamtasvir va ayniqsa rangtasvir san'ati yetakchi mavqyeni egallab, bu san'at turlarida rus ijodkorlari peshqadam bo'ldilar. Bulardan V.Vereshchagin, N.Karazin, V.Veleje, O.Fedchenko va boshqalarni ko'rish mumkin. V.Vereshchagin «Turkiston» asarlari turkumini yaratdi, unda rus quroli, rus shuhrati ko'klarga ko'tarildi, jang manzaralari, mahalliy xalq vakillarini jazolash mavzui yetakchilik qildi. S.Yudin manzara janrida san'at muhlislari orasida shuhrat qozongan edi. U 1889-1923 yillarda Turkiston o'lkasasi badiiy maktabida ustozlik qildi.

An'anaviy tasviriy san'at Samarqand, Buxoro, Qo'qon naqqosh –musavvirlari (Abdulhaq Maxdum, A.Donish, S.Siddiqiy va b.) ijodida ko'rindi. Uy-joylardagi (maskovchi boylarning) devoriy rasmlari orasiga daryolarda suzib yurgan paroxod, temir yo'l, hayvonlar tasviri kabi yangi tasviriy ko'rinishlar kiritila boshlandi. Bu esa azaliy an'analarni o'zgarishiga olib keladi.

Fan. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyon Rossiya bosib olganidan so'ng o'lkani ilmiy jihatdan har tomonlama o'rganishga kirishi. 1867 yil Turkiston harbiy topografiya bo'limi tashkil qilindi. Bu bo'lim o'lkanning topografik xaritasini tuzish bilan shug'ullandi. 1867 yili Toshkentda metereologiya stansiyasi ochildi. Birin-ketin tabiat, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi (1870), O'rta Osiyo ilmiy jamiyatni (1870) va boshqalar tashkil qilindi.

O'lkada ishlayotgan arxeologlar 1895 yilda Turkiston arxeologiya xavaskorlari to'garagiga birlashdilar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi (1895) a'zolari tomonidan Orol dengizi, muzliklar, o'lkanning o'simliklar va hayvonot dunyosi, seysmik jarayonlari tadqiq etildi, foydali qazilma konlari ochildi. Rus olimlarining maxsus ekspeditsiyalari tuproqshunoslik va gidrologiya tadqiqotlari o'tkazdi. 1870 yilda Turkiston ommaviy kutubxonasi, 1876 yilda Toshkent ommaviy muzeyi rus sharqshunoslarining sa'y-harakati bilan tashkil topdi. Bu muassasalar aslida Turkiston ma'naviy boyliklarini chorizm manfaatlari yo'lida o'zlashtirish yo'lida xizmat qilishi kerak edi. Muzeylardagi eng noyob boyliklar markazga - Sankt Peterburg va Moskvaga olib ketilgan.

Samarqand viloyatining Xo'jand tumanida Xoji Yusuf Mirfayozovning ilmiy-madaniy faoliyati ham diqqatga sazovor. Uning uyi Xo'jand madaniy markaziga aylangan. Falakiyotshunos, matematika, geografiya, tabobat, tarix bo'yicha bilimdon Xoji Yusuf rahbarligida yaratilgan yer shari globusi XIX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy kashfiyotlardan biri edi. Globusda 1000 dan ortiq geografik nomlar joylashtirilgan. Umuman olganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Sattorxon Abdug'afforov, Saidrasul Saidazizov, Jo'rabeq Qalandar qorio'g'li, Shohimardon Mirg'iyo's o'g'li va boshqa ma'rifatparvarlar guruhi shakllangan.

Musiqa san'ati. **An'anaviy qo'shiqchilik san'ati.** Ma'lumki o'tmishda mahalliy hukmdorlar musiqa san'ati ahliga homiylik qilib kelgan.

Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, bu an'analar yo'qqa chiqarildi. Mahalliy xalq orasidagi milliy musiqa san'atiga bo'lgan azaliy qiziqish yevropacha musiqa janrlari, ijrochiligi va ta'lif tizimini astoydil singdirish yo'li bilan paymol qilindi. Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaxarlarda rus imperatori musiqa jamiyati bo'limlari, uning tarkibida esa «Lira» xor jamiyati (1898), Musiqa va drama (1907), Simfonik va kamer musiqa (1908), Vokal musiqa (1914) singari yevropacha musiqa shahobchalari keng faoliyat boshladi.

Bunday sharoitda mahalliy atoqli xonanda, bastakor, sozandalar atrofida muayyan «ustoz-shogird»tarzidagi maktablargina mahalliy an'analarni davom ettirib keldi. Xusan, Buxoroda – «Shashmaqom» ijrochilik maktabi Ota Jalol (1845-1928), Ota G'iyos (1859-1927) va Levi Boboxon (1873-1926)lar, Samarqandda – maqomchilik va bastakorlik Xoji Abdulaziz (1852-1936), Xorazmda – maqomchilik Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy, 1825-1897), Farg'onada - sozandalik Rustam Mehtor (1860-1933), katta ashulachilik Erkaqori (1877-1954), Toshkentda – maqomchilik va ashullachilik To'ychi Hofiz (1868-1943) singari ustozlar atrofida taraqqiy topdi.

Mustamlaka sharoitida bo'lishiga qaramasdan, Turkiston o'lkasida an'anaviy qo'shiqchilik san'ati taraqqiy eta bordi. Ayniqsa, Farg'ona vodisida yaratilgan kuylar va qo'shiqlar o'sha davrning og'ir kunlarini, ezilgan mehnatkash xalq ommasining orzu umidlarini ifodalaganligi bilan xarakterlanadi.

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi murakkab iqtisodiy, siyosiy vaziyatga qaramasdan o'zbek san'atkorlarining nomi boshqa davlatlarga ham tarqalgan. Masalan, Samarqandlik mashhur hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg'oniston, Hindiston, Iraq va Yunoniston mamlakatlarida o'z san'atini namoyish qilgan. Toshkentlik Mulla To'ychi

Toshmuhammedovning ovozini Yorkent, G‘ulja, Chuguchak ahli sevib tinglagan. To‘ychi hofizning 25 ga yaqin qo‘sishig‘i Riga «Grammafon» jamiyatni tomonidan 1905 yilda yozib olinib, tarqatilgan.

An'anaviy o‘zbek qo‘sishchilik madaniyatining rivojlanishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning alohida o‘rni bor. U o‘z she’rlarini xalq kuylariga solib, tanish ashula yoki qo‘sishqlar ohangiga mo‘ljallab yozilishini ta’minladi va bu bilan ushbu asarlar tezroq xalq orasida yoyildi.

Me‘morchilik. Xalq me‘morchiligi. XIX asrga kelib O‘rta Osiyo xonliklarida o‘ziga xos me‘morlik makteblari shakllandi. Xivada bino bezagiga olgan uch xil rang (ko‘k, oq va qora) qo‘llanilgan. Masalan, Muhammad Aminxon madrasasi (1851-52), kaltaminor (1885) va boshqalar. Buxoro me‘morlik maktabiga xos uslublar Xalifa Niyozqul madrasasi, Sitorai Mohi xosa (XIX asr oxiri)da ko‘zga yaqqol tashlanadi. Buxoro Arkidagi uy-joy binolari, atrofdagi guzarlar tarkibi, sinchkori uy-joy va hovlilar me‘moriy uslubi, bezaklari yuksak san‘ati va mahorati bilan hozirgacha alohida e’tiborni tortadi. Xiva shahrining Ichon qal’asidagi Sherg‘ozixon madrasasi, Bog‘bonli masjidi, Pahlavon Mahmud maqbarasi majmuoti, Toshhovli saroyi, Olloqulixon karvonsaroyi va timi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kaltaminor va atrofidagi uy-joylar Xorazm me‘moriy maktabi, mahalliy an‘analari yangidan qad ko‘tarib, rivojlanganidan darak beradi. Ichon qal’adagi eng baland Islomxo‘ja minorasi (1908) Xorazm me‘morchiligining eng so‘nggi yorqin nidosi desak bo‘ladi. Qo‘qon maktabidagi me‘moriy uslub xususiyatlarini Xo‘ja Amir maqbarasi XVIII-XIX asr birinchi yarmida qurilgan Norbo‘tabiy madrasasi, Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari (1825), Norbo‘tabiy va uning avlodlari maqbaralari hamda keyingi davrda bunyod etilgan Xudoyorxon o‘rdasi, Andijon, Marg‘ilon va Qo‘qondagi jome masjid va madrasalar misolida kuzatish mumkin.

Marg‘ilondagi Said Ahmadxo‘ja madrasasi, Shahrixondagi Ponsod masjidi, Andijondagi Jome madrasa masjidining ichki ko‘rinishi Farg‘ona me‘morligining yuksak badiiy mahorati haqida tasavvur beradigan nodir manzarali bezaklarga boy.

Xalq me‘morchiligining o‘ziga xos tomonlari XX-asr boshlarida qurilgan Ayubboy, Olimxon hoji, Abdurahmon qozi, Sa’dixon qozi, Ahmadbek hoji va boshqa uylarda o‘z ifodasini topgan.

Ayubboy uyi ikki hovlili (ichkari va tashqari), poydevori baland qilib qurilgan. Tashqari hovlida mehmonxona, G simon ayvon bo‘lib, ayvonda qator o‘ymakor ustunlar ishlangan. Mehmonxona ichki devorlaridagi tokchalar atrofi ganchkor turli shakllar hamda arabiy yozuvlar uyg‘unlashgan naqshlar bilan bezatilgan. Shift bezagida qizil zaminda bosma handasiy naqshlar, islimi bezaklar, markaziga esa muqarnasli havzak ishlangan.

Olimxon hoji uyi bir qavatlari o‘zaro mutanosib tarixga ega bo‘lib, xom g‘ishtdan qurilgan kvadrat dahliz, ikkita to‘g‘ri burchak tarhli xona va P simon ayvon, mehmonxonadan iborat. Dahliz va sharqiy xona yevropacha uslubda pardozlangan, shiftlari ganchkor turunjlar bilan bezatilgan va och yashil zaminga naqshlar, deraza va eshiklarga shakldor hoshiyalar ishlangan. Xarbiy xona va ayvon mahalliy ayvonlarga muvofiq holda pardozlangan: qizil zaminda handasiy va islimi naqshlar bilan bezatilgan.

Sa’dixon qozi uyi ikki hovlili, o‘zaro qo‘silib ketgan tashqari va ichkaridan iborat, bu ikki qismning kiriladigan alohida-alohida eshigi bo‘lgan. Ko‘cha tomon (tashqari) dahlizdagи molxona va unga taqab qurilgan ayvondan iborat. To‘g‘ri burchakli ichkari hovlida esa ikkita ayvonli xona va bir necha xo‘jalik binolari qad ko‘targan. Uning poydevori 2 m, uning birinchi qavati (tagxona)da molxona va omborxona joylashgan. Ayvonga toshdan ishlangan zina orqali chiqilgan. Zina bo‘ylab temir panjara, ayvonning to‘slnlari orasida toq o‘rnatilgan. To‘slnlarni salobatli yog‘och ustunlar ko‘tarib turgan. Ayvonlar tosho‘choqlar bilan isitilgan. Xona devorlari tokchali ganchkor naqshlar bilan ishlangan. Shiftiga to‘ldirib gul solingenan.

Andijonlik savdogar Ahmadbekhojining uyi P simon tarhli, janubga qaratib qurilgan. Uyning ikki qavatlari g‘arbiy qismi uy egasining idorasini vazifasini o‘tagan, qolgan qismi turar joyi bo‘lgan. Hovlining tevarak atrofi bo‘ylab ayvon qurilgan. Ikkinci qavat yo‘lagi qator xonalarni

birlashtirgan. Hamma darvoza va eshiklar an'anaviy holda hovli tomonga qaragan. Uyning idora vazifasini o'taydigan qismi yevropacha usulda pardozlangan-shifti naqshinkor ganch bilan bezatilgan, katta xonalarga naqshinkor sirlangan pechlar qurilgan, devorlar tokchasiz bo'lib, moybo'yoq bilan pardozlangan, ayvon eshiklarining orasiga Farg'ona turar joylari uchun an'anaviy bo'lган ko'k rangda islimiy va handasiy naqshlar ishlangan. Yog'och karniz jumjimador qilib o'yilgan.

XIX - asr oxiri XX - asr boshlarida O'zbekistonning yirik shaharlari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qonda rus harbiy muhandis va me'morlari tomonidan eng zamonaviy loyihalari asosida ma'muriy va turar joy binolari qurilgan.

Bu loyixalar modern uslubida yevropa me'morlariga taqlidan yaratilgan edi. Bular Toshkentdagi Romanov saroyi (1880), O'qituvchilar seminariyasi (1881), Erkaklar gimnaziyasi (1883), Marg'ilonda Farg'ona gubernatori qarorgohi (1885) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

"Nemis renessans" me'moriy uslubida esa asosan mehmonxonalar, savdo markazlari, qurilgan: XX - asr boshlarida shaxsiy uylarni qurishda rus me'morlari mahalliy me'morlik an'analaridan ham keng foydalandilar – Toshkentdagi A.L.Polovsev uyi (1900, hozirgi Xalq amaliy san'at muzeyi) qurilishiga mahalliy xalq me'morlari jalb etilgani uchun arxitektura jihatidan keng omma e'tiborini qozondi.

XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek **amaliy bezak san'atida** hayotni chuqur his etish, san'at turlarining qadimgi, foydalanimadigan materiallarning xilma-xilligi, yuksak mahorat ko'zga tashlanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida san'atda soddalashtirishga intilish kuzatildi iqtisodiy va texnika taraqqiyotining yangi sharoitlarida yangi xususiyatlар yuzaga keldi. Bu davrda amaliy bezak san'ati sekin va notekis rivojlandi, unga uslubiy birlikning yo'qligi xos bo'lib, qaramaqarshi an'analar va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Mavjud ijtimoiy-iqtsodiy sharoitlar amaliy bezak san'ati badiiy yo'qotishlarga olib keldi.

Qiziqchilik - o'zbek an'anaviy teatr turi. Qiziqchilik teatri, asosan Qo'qon xonligi hududida (ayniqsa, Farg'ona vodiysi va Toshkentda) rasm bo'lgan, ijrochisi qiziqchi (qiziq), to'da boshlig'i va ish yurituvchisi korfarmon deb atalgan.

XIX asrda qiziqchilarning truppalari (mas. Bidiyorshum, Zokir Eshon boshchiligidagi to'dalar) faoliyat ko'rsatgan. Bidiyorshum truppassi XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi yarmida Qo'qonda ijod qilgan. Uning repertuari, asosan, hajviya, askiya, musiqa, ashula va raqslardan iborat bo'lgan. XIX asr ikkinchi yarmida Zokirjon qiziq to'dasiga 20 dan ziyod qiziqchi uyushgan bo'lib, yuzga yaqin tanqid, muqallid, kulki-hikoyalari va latifalar namoyish etishgan².

Davriy matbuot. O'zbekiston hududida matbuotning paydo bo'lish jarayoni XIX - asrning 70 - yillariga to'g'ri keldi. Mustamlakachilar mintaqada yashovchi yerli xalqlarga o'zlarining siyosatlarini targ'ib va tashviq etish maqsadida 1870 yilda Toshkentda "Turkestanskie vedomosti" va "Turkiston viloyatining gazeti"ni tashkil etgan. Markaziy Osiyoda davriy matbuot shu tariqa paydo bo'lди. Mazkur gazetalarning har ikkisi ham 1917 yilgacha chop ettirilgani bois Turkiston matbuoti tarixida uzoq muddat davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatgan davriy nashrlar sanaladi.

"Turkiston viloyatining gazeti" o'zbek publisistikasining shakllanishiga yo'l ochdi. Zokirjon Furqat, Sattorxon Abdug'afforov, Is'hoqxon Ibrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa ko'plab ziyyolilarning bu gazeta bilan ijodiy hamkorligi natijasida Turkiston o'lkasida jaholatga qarshi kurash, ommani, ayniqsa, yosh avlodni har tomonlama ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashga intilish harakatining kuchayishini ta'minladi. Boshqacha aytganda, mazkur nashr ma'rifatparvarlarning fikr va so'z aytishi uchun ilk minbar vazifasini o'tadi.

XIX asrning 90-yillariga kelib Turkistonda matbuot sohasida o'ziga xos yangilanish jarayonlari kuzatildi. Rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar nashr qilina boshlandi. Dastlab

* Зокиржон Эшон (лақаби Зокиров) қарийб ярим аср даврида Кўқон актёрлар гурухига раҳбарлик қилган. Тақлидчилик, маъноли имо-ишора ва ҳаракатлари, маъноли сўз ва оҳангдор товуш унинг асосий бадиий ифода куроли бўлган.

Samarqandda, keyinroq Toshkentda nashr etilgan “Okraina” (1890-1907), Toshkentda chiqqan “Russkiy Turkestan” (1898-1907) gazetalari shular jumlasidandir.

Aynan shu davrda “Sredneaziatskiy vestnik” (1896), “Turkestanskiy skorpion” (1907, hajviy), “Srednyaya Aziya” (1910-11), “Turkestanskiy karakurt” (1911, hajviy) jurnallari Turkiston jurnalchiligining ilk namunalari edi. O‘zbek tilida esa “Oyna” (1913-15), “Al-isloh” (1915) kabi jurnallar hamda “Al-izoh” (1917) va boshqa almanaxlar ham o‘lkaning tarixini, o‘scha kezdagi ahvolini o‘rganishga, o‘quvchilarining madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashdi.

Chorizm mahalliy xalqlar ongi va bilim saviyasining yuksalishidan manfaatdor bo‘lmagan. Shu bois hukmron siyosat milliy ongning yuksalishiga xizmat qiladigan vositalarning, jumladan, milliy tildagi davriy nashrlarning yuzaga kelishiga imkon qadar yo‘l qo‘ymadi. 1906 yilga qadar butun o‘lkada yagona “Turkiston viloyatining gazeti”dan bo‘lak mahalliy tilda bironqa gazeta nashr qilinmagani ham buning isbotidir.

Turkiston jadidlarining yetakchi namoyandalari: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniyalar demokratik yo‘nalishdagi o‘zbek matbuotini shakkantirishga katta hissa qo‘shdilar. Jadidlar milliy davriy nashrlar faoliyatini tashkil etish va yo‘lga qo‘yishda mahalliy rus matbuoti hamda Rossiyaning turli hududlarida tatar tilida nashr qilingan gazetalarning, xususan, ma’rifatchi Ismoilbek Gaspirali muharrirligida chiqqan “Tarjumon” gezetasining ish tajribasiga tayandilar.

O‘zbekistonda chinakam milliy matbuotning yuzaga kelishi 1906 yil 27 iyundan Toshkentda chiqqa boshlagan jadidlarning “Taraqqiy” gazetasi bilan bog‘liq. Uning sahifalarida podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi maqola, xabarlar bosilgan. Gazeta materiallaridagi tanqidiy ruh mustamlakachi ma’murlarga yoqmagan. 19 soni chiqqach, gazeta yopib qo‘yilgan. Gazetaning ilk soni chiqqan 27 iyun 1993 yildan buyon mamlakatimizda «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni» sifatida nishonlanadi.

“Sadoi Turkiston” (Toshkent, 1914-15), “Samarqand” (1913), “Sadoi Farg‘ona” (1914) gazetalari hamda “Oyna” (Samarqand, 1913-15) jurnallarini saviyasi, omma ongiga ta’siri jihatidan o‘zbek matbuoti tarixidagi eng ibratli nashrlardan deb hisoblash mumkin.

1917 yil Rossiadagi fevral inqilobi Turkistondagi ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, matbuot rivojiga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadni. Milliy birlik harakatini avj oldirishga, o‘zbek xalqining istiqlolga erishish yo‘lidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga 1917 yilda tashkil etilgan “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat” (Samarqand), “El bayrog‘i” (Qo‘qon) gazetalari va “Yurt” (Qo‘qon), “Chayon” jurnallari o‘ziga xos hissa qo‘shdi.

Madaniyatimizning dunyoga sochilgan durdonalari. Tarixdan ma'lumki, Turkiston hududi qadimdan turli mamlakatlar uchun o‘lja manbai bo‘lib kelgan. O‘rta Osiyoga turli maqsadlarni ko‘zlab kelib-ketgan ilmiy, harbiy ekspeditsiyalar, sayyoohlар, tijorat vakillarini eng avvalo O‘rta Osiyoning qimmatbaho, betakror boyliklari qiziqtirgan.

Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bosqini nafaqt uning hududini egallash, aholisini talash bilan cheklangan, balki o‘zbek xalqining madaniy merosini talon-taroj qilib, tashib ketish va madaniyat yodgorliklarini harob qilish bilan birga sodir etilgan.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo‘qon kabi ko‘hna shaharlar xazinasida to‘plangan boyliklar maxfiy rejalar asosida ba’zan ochiqchasiga talon-taroj etildi.

Xiva yurishi vaqtida harbiy maslahatchi bo‘lgan sharqshunos A.L.Kun turli yo‘llar bilan to‘plangan 300 kitobdan iborat sharq qo‘lyozmalarini 1873 yil Imperator xalq kutubxonasiga topshirgan. A.L.Kun va uning guruhi Xivadan tanga zarb qilishga mo‘ljallangan 200 nusxa qolip, muhrlar bog‘lami, xon taxti, 172 nusxa Jo‘jixon tangalari, Qo‘ng‘irot sulolasidan bo‘lgan Xiva xonlarining 3 nusxa tanga va bir qator etnografik ashyolarini, xususan, ayollar va bolalar kiyim-boshlari, ko‘plab tilla va kumush bezaklarini³ olib ketgan.

²² Садкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. Т., Фан, 1975, С.31.

Qo‘qon bosqini vaqtida ham tarix, tibbiyat, huquq va ilohiyotga doir 130 qo‘lyozma kitob Rossiyaga olib ketilgan va Imperator xalq kutubxonasiga topshirilgan. Demak, Qo‘qon arxivi ham, xuddi Xiva xonlari arxivi kabi bosqinchilar tomonidan zo‘ravonlik bilan olib ketilgan.

Turkiston general - gubernatorlarining o‘zlari Turkistondagi boyliklarning eng birinchi qaroqchilari
va shaxsiy kolleksiyalarning tuzuvchilari edi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq tarkibida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zug‘um sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to‘xtamadi. Mustamlakachilar xalqimizning ilm-ma'rifatga intilishi, ilg‘or g‘oyalar va istiqlol istagini bo‘g‘ib tashlay olmadilar.

Chorizmnинг madaniyat sohasidagi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- Chor hukumati Turkistonda turg‘unlik xolatini saqlash, o‘zaro nizodovatlar urug‘ini sepib turgan xolda ulardagi millatparvarlik, yurtsevarlik va jangovarlik tuyg‘ularini o‘ldirish.
- O‘lka xalqlarini o‘z tarixi va madaniyatidan uzoqlashtirish. Bu sohada chorizm juda izchil ish yuritdi. Olimlar, ilmiy jamiyatlar tomonidan Turkiston tarixiga doir moddiy va ma‘naviy yodgorliklar yig‘ib olindi va Moskva hamda Sankt-Peterburgga jo‘natildi. Shunday qilindiki, endilikda o‘lka tarixini o‘rganish uchun turkistonliklar ana shu markazlarga borishga majbur bo‘lishdi.
- Mustamlaka ma‘muriyati o‘lkadagi tarixiy adabiyotlarning qarovsiz qolib vayron bo‘lishiga ataylab yo‘l qo‘ydi.
- Chorizm xalq maorifi sohasidagi ruslashtirish siyosatini rus-tuzem maktablari tizimini vujudga keltirish va rus tiliga davlat maqomi berish vositasida amalga oshirdi.

Sovet tuzumi davrida O‘zbekiston madaniyati.

1925 yil SSSR tarkibidagi O‘zbekiston SSR tuzilgan. Albatta, bu «o‘zbek xalqining milliy davlatchiligi tashkil qilindi» degan fikrni anglatmaydi. Chunki O‘zSSR amalda hyech qanday suverenitet va mustaqillikka ega emas edi. Rossiya imperiyasi davrida bo‘lgani singari sovet davrida ham O‘zbekiston markazning chekka mustamlaka o‘lkasi bo‘lib qolaverdi.

Sovet davlati o‘zining dastlabki yillardayoq madaniyatga nisbatan sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshib, butun mamlakat bo‘yicha “markscha-leninchcha metodologiya”ga asoslangan sotsialistik madaniy-ma'rifiy qurilishni amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib oлgan edi.

Mamlakatda ko‘plab klublar, madaniyat uylari, saroylari, kinoteatrlar, muzaylar barpo etila boshlandi.

Bu sohada kommunistik partiya rolini kuchaytirish, siyosiy mafkurani omma ongiga turli yo‘llar bilan singdirishga katta e’tibor berildi.

Sho‘rolar davrida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G‘arb madaniyatiga taqlidan rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o‘tmishi bir yoqlama o‘rganilib, uning ko‘pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo‘lib keldi. Ammo har qanday to‘sqliarga qaramay madaniyat sohasida O‘zbekistonda bir muncha yutuqlar qo‘lga kiritildi.

O‘zbekiston ma‘naviy-siyosiy hayotida madaniy-ma'rifiy muassasalarning eng sinalgan shakli sifatida **klub** muassasalari ochilib, ularning faoliyati siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'rifiy, mafkuraviy masalalarni hal qilishga yo‘naltirildi.

O‘zbekistonda birinchi klublar 1918 yil Toshkent (Turkiston xalq universiteti huzurida) va Samarqand (Qushhovuz mahallasidagi musulmon klubida ochildi. 1920 yillarda maxsus madaniy - ma'rifiy muassasalar (klub, xalq uyi, qizil choyxona, qiroatxona va boshqalar) tizimi

«mehnatkashlarning communistik tarbiyasi» va Xalq ma'rifatining asosiy vositalaridan biri sifatida xalq maorif komissarligi tarkibida tashkil topgan. 1924 yili klub muassasalari soni 134 taga yetgan bo'lsa, 1978 yili O'zbekistonda 3880 ta madaniyat uyi va saroylari faoliyat ko'rsatdi.

Madaniy-ma'rifiy, siyosiy-mafkuraviy ishlardan tizimida **kutubxona** alohida e'tibor berildi. Ularga partiya va sovet davlatining siyosatini keng omma orasida targ'ib etishning muhim vositasi sifatida qaraldi.

Ushbu kutubxonalar asosan ommaning g'oyaviy-siyosiy ongini oshirish uchun ish olib borar edilar. Shu maqsadda kutubxonalaridagi sovet mafkurasiga zid ko'plab nashrlar yo'q qilindi. Natijada, o'zbek milliy madaniyati, tarixi, ma'naviy merosiga oid ko'plab noyob asarlar ilmiy-badiiy muomaladan olib tashlandi.

Madaniy - ma'rifiy ishlarda **muzeylarning** rolini oshirishga katta ahamiyat berildi. Muzeylar asosan g'oyaviy-mafkuraviy vazifalarni bajarar edilar⁴.

Respublikadagi mavjud muzeylar ish faoliyatini takomillashtirish, ularga yagona markazlashgan rahbarlikni tashkil etish maqsadida 1921 yil 20 mayda Turkiston Respublikasi muzey, qadimiy yodgorliklar, san'at, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi (Turkkomstaris, 1927 yilda Uzkomstaris) tashkil etildi. Qo'mitaga respublikadagi barcha tarixiy yodgorliklarni himoya qilish, hisobga olish va undan foydalanish huquqi berildi. Natijada, shu yilning o'zida 52 ta yirik yodgorliklar hisobga olindi, 114045 ta moddiy va madaniy boyliklar muzeylarga to'plandi. 1975 yilda 34 ta davlat muzeyi mavjud bo'lib, shulardan 4 tasi tarixiy 4 ta memorial, 2 san'at va 15ta o'lakashunoslik muzeylari edi. Xiva (1964), Samarqand (1982), Buxoro (1985)da muzey-qo'riqxonalar tashkil etildi.

Sho'rular davrida O'zbekiston **adabiyoti** o'ziga xos tarzda, keskin mafkuraviy tazyiqlar ta'siri ostida rivojlandi.

Sovet davlatining izchil mafkuraviy targ'ibot ishlari natijasida kechagi jadid yozuvchilarining bir qismi sho'rular tomoniga o'tgan, o'tmaganlar esa ta'qib qilina boshlandi. Sovet davlati nazoratidagi «Qizil qalam» adabiy tashkiloti (1926-30), Turkiston yo'qsil yozuvchilari uyushmasi hamda bu uyushma viloyat va shahar bo'limlari (1928-32)ning tashkil etilishi, yozuvchilarning «o'ng», «so'l», «yo'lovchi» kabi turli guruhlarga ajratilishi o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga katta zarba berdi. Mustabid tuzumning insoniyat tarixida misli ko'rilmagan qatag'on siyosati natijasida 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Tavallo, Elbek, G'ulom Zafary, G'ozi Yunus, Usmon Nosir singari o'nlab shoir va yozuvchilar yo'q qilib yuborildi. 50-yillarning boshlarida esa M.Shayxzoda, Shuxrat, Shukrullo, Said Axmad, M.Ismoilov, Hamid Sulaymon singari yozuvchi va adabiyotshunoslar qatag'on etildi.

20 – yillarda yo'qsil (proletar) adabiyotining barpo etishga qaratilgan sa'y-harakat natijasida shunday nasriy asarlar maydonga keldiki, ular boylar faqat zolimlar, kambag'allar esa yangi jamiyatni barpo etuvchi ilg'or kuchlar sifatida talqin etila boshladi va xalqning bu har ikkala qatlami o'rtasidagi ziddiyat shu davr adabiyotining asosiy konflikti sifatida tasvirlandi.

Sovet yozuvchilarining 1-qurultoyi (Moskva, 1934)da sotsialistik realizm sovet yozuvchilari uchun yagona ijodiy metod deb e'lon qilingan. Bu metodga ko'ra sovet voqyeligini «inqilobi taraqqiyot»da, ya'ni pardozlab ko'rsatish va aksincha, «feodal o'tmish»da ro'y bergan voqyea-hodisalarini qora bo'yoqlar bilan tasvirlash zarur edi. Ammo shunday davrda ham A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» singari davrning mafkuraviy panjaralarini yorib-parchalab tashlagan romanlari ham yaratildi.

Jadid yozuvchilari boshlab bergan zamонавиyo'zbek adabiy tili va uslubini yaratish jarayoni shu davrda, birinchi navbatda, A.Qodiriy va Cho'lpon, shuningdek Oybek, G.G'ulom, H.Olimjon va boshqa yozuvchilarning ijodiy mehnatlari bilan ma'lum darajada o'z yakunini

* 1918 yilda князь Романов тўплаган коллекциясидан Ўрта Осиёда биринчи бадиий музей (ҳозирги Ўзбекистон давлат санъат музейи), 1920-30-йилларда Наманган, Хива, Бухоро, Кўкон, Андижон, Термиз, Нукус ва бошқа йирик шаҳарларда ўлкашунослик музейлари очилди.

topdi. Oybekning «Qutlug‘ qon» romani 20-30 yillarda o‘zbek nasrida olib borilgan ijodiy izlanishlarning sintezi sifatida yuzaga keldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida adabiyot urush mavzusini yoritishga safarbar etildi. Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Shayxzoda, Uyg‘un, Mirtemir va boshqa yozuvchi, shoirlar o‘z asarlari bilan front va front orqasida kurashayotgan armiya va hamda dushmaniga nisbatan nafrat va g‘azab tuyg‘ularini uyg‘otuvchi, ularni g‘alabaga undovchi urushida qahramonona kurashga rag‘batlashtiruvchi asarlar yozdilar. Ayniqsa, Oybekning Navoiy romani bu davrning o‘lmas asari bo‘lib, adib bu asari bilan o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab berdi.

Davlat va partiya urushdan keyingi dastlabki yillarda (1946-48) adabiyot va san‘atni tamomila izdan chiqaruvchi, yana 1937-38 yillar qatag‘onini yodga soluvchi mafkuraviy qarorlarni chiqardi. Bu qarorlar asosida o‘zbek xalq og‘zaki ijodining durdonasi - «Alpomish» eposi «feodal davr mafkurasi bilan sug‘orilgan», «sovet xalqiga yot asar», deb e‘lon qilindi. Aruz vazni she’riyatda sovet davrida ro‘y berayotgan «olamshumul o‘zgarishlarni ifodalashga qodir bo‘lmagan vazn» sifatida quvg‘inga uchradi.

Urush va urushdan keyingi mashaqqatli yillar tasviri Sh.Rashidovning «Bo‘rondan kuchli», I.Rahimning «Ixlos» (1958) romanlarining g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab berdi.

Shu davrda tarixiy o‘tmish mavzuida yozilgan asarlar orasida atoqli adib M.Osimning «To‘maris», «Shiroq», «Temur Malik», «Maxmud Torobiyy», «O‘tror» qissalar, shuningdek, 20-asrning 20-30 yillarida o‘zbek diyorida bo‘lib o‘tgan murakkab voqyealar haqida hikoya qiluvchi M.Ismoiliiyning «Farg‘ona tong otguncha» (1959, 1967) dilogiyasi yaratildi.

50 - yillarning oxiri - 60 - yillarning boshlarida adabiy hayotga E. Vohidov, Yu.Shomansur, B.Boyqobulov, X.Saloh, A.Orlov, M.Jalilov, O.Matchon va boshqa o‘nlab yosh shoirlar avlodni kirib keldi.

Shu davr o‘zbek she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri ijtimoiy adolatsizliklar bilan murosa qila olmagan kenja avlod vakillari (A.Orlov, R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmon va b.) o‘z asarlarida turli yo‘llar bilan millatparvarlik va erkparvarlik g‘oyalarini kuyladilar.

80 - yillarda voqyelikda ro‘y bergen voqyea va hodisalar mustabid sovet tuzumining inqirozga yuz tutgani, uning yolg‘on ideal va g‘oyalarga asoslanganidan darak bera boshladi. Dramaturglar jamiyatdagi ko‘ngilsiz hollarga qarshi kurashda komediya janri imkoniyatlaridan samarali foydalandilar. Istiqlol arafasida Sh.Boshbekov «Temir xotin» asari bilan komediyaning kishilarga shunchalik hordiq beradigan, ularni dunyo tashvishlaridan forig‘ etadigan janr emas, balki ularni o‘ylatadigan, ular orqali jamiyatni haq yo‘lga yetaklaydigan vosita ekanini to‘la asoslab berdi.

O‘zbek xalqining ma’naviy - mafkuraviy hayotida **san‘at** har doim ham muhim rol o‘ynagan. San‘at va uning barcha turlari bilan shug‘ullanish, bu borada yangiliklar yaratish, ularning jahon andozalari darajasida yaratilishini ta‘minlash o‘zbek xalqi uchun yangilik emas edi.

Sovet mustabid tuzumining dastlabki davrida teatr, musiqa, tasviriy san‘at va kino san‘atida ma‘lum ijobiy siljishlar ko‘zga tashlandi. Ammo bu san‘at turlari kommunistik mafkuraning siyosiy aqidalari tazyiqi asosida «rivoj» topdi. Sovet hukumatining O‘zbekistonda san‘at turlarini rivojlantirishga bo‘lgan intilishini esa ushbu vosita orqali o‘z mafkuraviy maqsadlariga erishish ma‘nosida tushunish kerak. Shuning uchun ham o‘zbek san‘atkorlarining u yoki bu san‘at turini rivojlantirishga bo‘lgan barcha sa'y-harakatlari sovet hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlab turildi. Yaratilayotgan asarlarning mezoni esa siyosiy - mafkuraviy qarashlarning darajasi bilan belgilanar edi.

O‘zbekiston **teatr** san‘atining shakllanish jarayoni juda murakkab sharoitda yuz berdi. Bir tomonidan, milliy san‘at arboblari xalq madaniy merosi, o‘ziga xos madaniy qadriyatlar asosida sahna asarlarini yaratishga harakat qilgan bo‘lsalar, boshqa tomonidan, hukmron siyosiy kuch «proletar madaniyatini barpo etish» bayrog‘i ostida teatr san‘atida «sovietlashtirish» ishini kuchaytirib yubordi.

1918 y. Hamza Farg'onada o'lka sayyor siyosiy truppasini tashkil etdi. M.Qoriyoqubov, Y.Egamberdiev, H.Islomov, M.Kuznetsovalar shu teatr qaldirg'ochlari bo'ldi. O'sha yili Mannon Uyg'ur Toshkentda «Turon» jamiyatni qoshida teatrni tikladi. Bu to'da keyinchalik O'lka davlat namuna teatriga aylandi. Abror Xidoyatov, Obid Jalilov, Sayfi Olimov, Ziyo Said va boshqalar teatrning birinchi aktyorlari bo'lishgan.

Teatrlar soni asta - sekin orta borgan. Andijon (1919), Xivada (1922) teatr tashkil topdi.

20 – yillarda Moskava va Boku shaharlarida tashkil bo'lgan teatr studiyalarida M.Uyg'ur boshchiligidagi artistlar tahsil ko'rib (1924-27) qaytdilar. 1924 y. Samarqandda O'zbek davlat drama teatri barpo etildi. 20 – yillar oxiri Rus yosh tomoshabinlar teatri (1928), O'zbek yosh teletomoshabinlar teatri (1929) tashkil topdi. 30-yillarda Farg'ona (1930), Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1955) viloyat teatrlari, o'nlab shaxar va tuman teatrlari tashkil qilindi. Toshkentda M.Gorkiy nomida Rus drama teatri (1934), Respublika qo'g'irchoq teatri (1939) ochildi. 1939 yil dastlab kinoteatrlar tashkil etilib, bir yildan so'ng Muqimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi. Garchi teatrlar soni ko'payib borsada, kommunistik mafkura, sinfiylik talabi ko'pgina dramaturqlar va teatr arboblarining qatag'on qilinishiga sabab bo'ldi, sahna san'atining erkin rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Ikkinchi jaxon urushi yillarida o'zbek teatri namoyondalari «Muqanna» (H.Olimjon), «Jaloliddin Manguberdi» (M.Shayxzoda), «O'lim bosqinchilarga» (K.Yashin) va b., musiqali dramalardan «Nurxon» va «Oftobxon» (K.Yashin, T.Jalilov) spektakllari shuhrat qozondi.

1968 yili «Yosh gvardiya» (1990 - yillardan Abror Hidoyatov nomidagi o'zbek drama teatri tashkil qilindi). 70 - yillarning birinchi yarmi o'zbek teatrinda ziddiyat davri bo'ldi: bir tomonidan, turli teatr anjumanlari o'tkazilib, ba'zi rejissyorlarda (B.Yo'ldoshev va b.) milliy meros va an'analarga e'tibor kuchayib, bu ijobjiy natijalar, hatto kashfiyotlarga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan dabdababozlik, ho'jako'rsinga ishslash, haqiqatdan qo'rqib, hayotni xaspo'shab ko'rsatish teatr san'atining imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Bu davrda o'zbek teatrlari tarixiy mavzuda va mumtoz asarlar talqinida bir muncha yutuqlarga erishdi. Hamza teatrining «Tirik murda» (L.Tolstoy), «Otello» (Shekspir) spektakllari shular jumlasidandir. Ba'zi komedyalar («Oltin devor», «Kelinlar qo'zg'oloni») xalq qadriyatlarini ruhida ishlandi. 1986 y. Respublika satira teatri tashkil topdi.

80 - yillar ikkinchi yarmidagi oshkorlik davrida teatr san'atida ham axvol bir qadar o'zgardi: hayotni haqqoniy aks ettirish, nuqsonlarni ro'yrost ochish, uslub va janr rang-barangligi kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov teatri yetakchi o'ringa chiqdi. Teatr «Maysaraning ishi», «Paranji sirlari» (Hamza), «Qora kamar», «Ziyofat» (Sh.Xolmirzaev), «Iskandar» (Navoiy dostoni Sh.Rizaev pesasi) spektakllari bilan tarixiy va zamonaviy mavzularni aks ettirishda milliy vositalarni keng ishlatish, ijroda katta yutuqlarga erishdi.

Me'morlik. 1917 yilgi Oktyabr to'ntarishi va fuqarolar urushi oqibatida o'lka me'morchiligi tamoman tanazzulga uchradi. Sho'ro tuzumi davrida yer, suv qatorida, me'morlik ham davlat tasarrufiga o'tdi. Yirik binolar musodara qilindi, masjid va madrasalar berkitildi. 1930-yillardan boshlab esa yangi tipdagi binolar qurila boshladi: kommunal uyi, ishchilar shaharchasi, maktab, bolalar bog'chasi, ishchi-yoshlar klubi, kinoteatr, muzeylar, istiroxat bog'lari paydo bo'ldi, suv omborlari qurildi. Yangi tartibdagi loyixali shaharlarga asos solindi. Ayniqsa, 1940-yillardan boshlab Yangiyo'l, Chirchiq, Olmaliq, Angren, Bekobod kabi shaharlar tez taraqqiy etdi, yangi tipdagi zavod-fabrikalar qad ko'tara boshladi. Toshkentda urushning eng og'ir yillarida (1943) Muqimiy teatri qurildi. Alisher Navoiy teatri (1947) binosi umuman o'zbek me'morchiligi ijobjiy imkoniyatlarining yorqin namoyishi bo'ldi.

20-asrning ikkinchi yarmida binokorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Davlatning me'morchilikda ortiqcha bezakdorlik alomatlariga chek qo'yish, binokorlik industriyasini rivojlantirish haqidagi qarori 1950-60 yillarda temir - beton zavodlari tayyorlagan konstruksiyalar bilan, bir qolipdagagi (tipovoy) loyixalar asosida kata - kichik mikrorayonlar qurish odatga aylandi. Qurilishda temir - beton bilan bir qatorda yaxlit yirik oynalardan

foydalananildi: San'atshunoslik instituti, ma'muriy binolar, san'at muzeyi va boshqalar. 1960 - yillarning ikkinchi yarmi -70 yillarda sinchli, yirik panelli va yirik blokli, zilzilabardosh binolar qurish avj oldi. Qurilishlar ko'cha bo'yab qurilmasdan yangi uslub - mikrorayon qurilishi joriy etildi. Toshkentdagi Chilonzor, Shimoliy-Sharqiy, Yunusobod, Qoraqamish, Qorasuv massivlar qad ko'tardi.

Qishloq bilan shahar orasidagi tafovutni yo'qotish shiori ostida yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda, ayniqsa, Mirzacho'lida o'nlab sovxozi shaharchalari qurildi, namuna tarzida ikki qavatli kottejlar dexxonlarga tavsiya etildi, lekin qishloq sharoitida bunday binolar g'ayri tabiiy, begona tarzida aholiga ma'qul bo'lmadi. Qishloqlarda 3-4 qavatli uylar qurilishi butunlay salbiy natija berdi.

Lekin shunday bo'lsada, yakka tartibdagi yirik imoratlar me'morchiligi ba'zan ijobiy yutuqlarga erishildi. Toshkentdagi San'at saroyi kinoteatri (1964), Markaziy universal magazini (1964), O'zbekiston tarixi muzeyi (1970), Bosh universal magazin (1972), «O'zbekiston» mehmonxonasi (1974), Toshkent teleminorasi (1981), Xalqlar do'stligi saroyi (1981) kabi imoratlar yangi davr ruxida yaratilgan. Toshkentda metropoliten ochilishi (1977) milliy me'morchilikning yangi imkoniyatlarini namoyish etdi. Metro bekatlarining me'moriy tuzilishi, husnu jamoli esda qoladigan shohona ko'rinish kasb etdi.

Amaliy bezak san'ati. 20 - asrning 20-yillaridan keyin o'zbek bezak san'ati qo'shni xalqlar san'ati bilan bir oqimda rivojlandi. G'oyaviy-badiiy jihatdan bu davr tushkunlik an'analarini yengib o'tish, o'tmishning yaxshi an'analariga tayangan xolda yangi taraqqiyot yo'llarini izlash davri bo'ldi.

1920-30 yillarda O'zbekistonda maxalliy badiiy san'at vujudga keldi. Badiiy hunarmandchilikning ko'plab sohalari (ipakchilik, kashtachilik, zardo'zlik va boshqalar) tiklandi. 30 - yillarning o'ttalarida amaliy bezak san'atining sanoat taraqqiyoti boshlandi. Badiiy san'atning dastlabki korxonasi – Toshkent to'qimachilik kombinati ishga tushdi (1934), chitga gul bosishning yangi tarmog'i yuzaga keldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda to'qimachilik va kulollik taraqqiy etdi. Marg'ilon shoyi to'qish kombinati ishga tushdi (1943-47). Xalq ustalari Usta Shirin Murodov, Mahmud Usmonov, Abdulla Boltaev va b. binolarni bezashda faol qatnashib, milliy ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligining noyob namunalarini yaratdi.

Buyumlarida an'anaviy va zamonaviylik uyg'unlashgan zargarlik sanoati vujudga keldi (Toshkent zargarlik zavodi, 1963). Chinni sanoati yaratildi. Respublikada birinchi chinni zavodi 1953 yilda ochildi.

1960-70 yillardan boshlab O'zbekistonda amaliy bezak san'atining noan'anaviy shakllari yuzaga keldi. Badiiy mato, an'anaviy bo'lmagan chinni, shisha, kulollik, zargarlik buyumlar ko'rgazmalarda namoyish etildi.

1970-yillarda badiiy shishasozlik noan'anaviy amaliy bezak san'atining gobelen, batik kabi turlari ham 70 - 80 yillarda paydo bo'ldi. Kashtachilik, gilamchilik, kigizchilik, naqqoshlik bo'yicha ustalar kasabachilik guruhiga birlashgan. 1978 yilda Rassomlar uyushmasi qoshida tuzilgan «Usto» birlashmasi mohir xalq ustalarini birlashtirgan. Bu uyushma tizimida ustaxona ochilib, Ch.Ahmarov boshchiligidagi qadimgi san'at turlaridan bo'yama naqshli buyumlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Bu davrda ma'muriy - buyruqbozlik tizimining qattiq tazyiqlariga qaramasdan qo'shiqchilik - **musiqiy san'at** ham rivoj topdi. 1928 yili Samarqandda O'zbekiston xalqlari musiqiy madaniyatini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy - tadqiqot instituti barpo etildi. Bu yillarda ijodkorlarimiz tomonidan «O'zbeklar musiqasi» va «Farg'ona, Buxoro va Xiva qo'shiqlari» nomli turkum tadqiqotlar yaratildi.

20-30-yillarda musiqa ta'limi, ijrochiligi va ilmida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Toshkentda Turkiston xalq konservatoriysi (1918), musiqa texnikumi (1924, 1936 yildan musiqa bilim yurti), davlat konservatoriysi (1936), ilk o'rta maxsus (1927, keyinchalik R.Glier nomidagi) va boshlang'ich musiqa maktablari kabi yevropa tizimidagi muassasalar ochilgan.

Samarqanddagi O'zbekiston musiqa va xoreografiya instituti (1928) ham o'quv, ham ilmiy dargoh bo'lgan.

Bu davrda o'zbek ijrochilari chet el gastrollarida bo'lishgan: Tamaraxonim va M.Qoriyoqbovlar Parij va Berlin(1925), Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov va Abduqodir Ismoilovlar London (1935)da katta muvaffaqiyat qozonishgan. O'zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi (1936) ijrochilik san'atining ma'lum darajada tizimlanishiga asos bo'ldi.

1958 y. O'zdavestrada tarkibida, 1963 yilda esa O'zteleradio qoshida estrada orkestrlari tashkil etilganidan so'ng estrada qo'shiqchiligi jadallahshdi.

1960-80-yillarda an'anaviy mumtoz musiqa ijodining badiiy madaniyatdagi mavzu qayta tiklanib, ko'tarildi. I. Rajabovning milliy musiqa merosiga bag'ishlangan «Maqomlar masalasiga doir» (1963) ilk yirik tadqiqoti chop etildi. Buxoro Shashmaqomi (Yu.Rajabiy, 1966-75), Xorazm maqomlari (M.Yusupov, 1980-87)ning yangi turli nashrlari e'lon qilindi. Maqom ijrochiligi bo'yicha xonanda va sozandalarning respublika tanlovlari (1983 yilda) o'tkazildi.

1970 - yillarda shahar, rayon va qishloq madaniyat uylarida folklor – etnografik ansamblar faoliyat ko'rsata boshladи. 1980 yillardan folklor – etnografik ansamblari, baxshishoirlar va ko'rik-tanlovlarining o'tkazilishi o'zbek xalq musiqa ijodining targ'iboti, tiklanishi, yangi sharoitda rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbek milliy san'ati rivojida **kino** san'atining o'rni va ahamiyati ham juda katta. Sovet mustabid tuzumi kinoning mafkuraviy kurashdagi o'rnini yaxshi tasavvur etardi. Shuning uchun ham sovet hukumati kino rivoji uchun mablag'ni ayamadi.

Kommunistik partiya va davlat tomonidan kino san'ati omma orasida g'oyaviy - siyosiy tarbiya va mafkura targ'iboti uchun zarur muhim vosita deb qaraldi.

Bu davrda ommaviy axborot vositalarining kuchli tarmog'i sifatida **radio**, radioeshittirishga ham muhim e'tibor qaratildi. Sovet xukumati kommunistik dunyoqarashni shakllantirish, kommunizm g'oyalarini targ'ib etish, ilmiy, siyosiy-mafkuraviy bilimlarni tarqatishda radiodan unumli foydalandi. O'zbekistonda birinchi keng tarmoqli radiostansiya 1927 yil 11 fevralda Toshkentda faoliyat ko'rsata boshlagan edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki mustabid tuzum davrda milliy madaniyatimiz zaiflashib, qadriyatlar, an'analar va milliy bayramlarimiz unutila bordi.

Har bir xalqning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyati, nodir qadriyatlar, an'anasi, urf-odatlari mavjud.

Lekin bu davrda tarixan ildiz otgan milliy qadriyatlarimiz oyoq osti qilinib, yet firqa mafkurasi va uning "dohiy"lari esa ulug'landi. Mustabid sho'ro hukumatining milliy madaniyatimizga, qadriyatlarimizga qarshi kurashi «Qizil imperiya»ning parchalanishi davrigacha davom etdi.

Mustabid sho'ro tuzumi davrida (20-30-yillar) "din-afyun" degan shior bayroq qilib olinib barcha dinlar, jumladan Islom dini, u yaratgan beba ho madaniy obidalar, diniy qadriyatlar inkor etildi. Islom madaniyatining zamонавиyl ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tan olinmadи. Odamlarni go'yo diniy sarqitlardan xalos qilish va dahriylik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil qilingan "xudosizlar jamiyati"ning minglab faollari milliy urf-odatlarmiz, udum va marosimlarimizga qarshi tashviqotni avj oldirdilar.

Yangi «madaniy hayot»ga «soviet turmush tarzi»ga tezroq ko'niktirish uchun ko'p asrlik tarix - ma'naviy merosimiz bitilgan alifbo ham shosha-pisha o'zgartirildi va o'zgartirilib turildi. Arab alifbosida asarlar "diniy" deb turli yo'llar bilan yo'q qilishga harakat qilindi. Hatto "hujumkor ateizm" shiori ostida muqaddas madaniy merosimiz-betakror tarixiy yodgorliklar, obidalar qarovsiz qoldi, ko'plab masjid va madrasalar vayron qilindi.

Sovet mustabid tuzumi sharoitida madaniyatda siyosiy badiiylik o'rniga ustuvorlik o'rnatildi. Badiiy jamoalar, madaniyat maskanlari, ijodiy uyushmalarning mehnat faoliyati faqat bir narsaga, sovet voqyeligini madh etish, uning dunyoda eng nufuzli va adolatli tuzum ekanligini isbotlashga qaratildi.

Bu davrda ham turli mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan o'zbek milliy madaniyatida umumiy rivojlanish bo'ldi. Ammo, juda katta intellektual salohiyatga, buyuk madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqi bundan ham ko'ra ko'proq yutuqlarga erishishi mumkin edi. Uzoq yillar davomida madaniyatga sinfiylik, g'oyaviylik, partiyaviylik asosida munosabatda bo'lish milliy madaniyatimizga juda katta salbiy tasir ko'rsatdi.

Nazorat savollari:

1. Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabit etilishi va rus mustamlakachilarining madaniyatga bo'lgan munosabati xaqida nimalarni bilasiz?
2. Chorizmning Turkistonda maorif, fan va madaniyat soxasidagi siyosati xaqida nimalarni bilasiz?
3. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va bu harakatning namoyondalari xaqida nimalarni bilasiz?
4. Jadidlarning maorif, fan, adabiyot, san'at sohasidagi islohiy qarashlari va bu boradagi faoliyatlarini xaqida nimalarni bilasiz?
5. Sovet davrida madaniy hayotning bir tomonlama rivojlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
6. XIX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda "Madaniy inqilob" siyosati xaqida nimalarni bilasiz?
7. Sovet tipidagi maktablar yangi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining tashkil topishi xaqida nimalarni bilasiz?
8. Sovet davrida madaniy – ma'rifiy, diniy muassasalarga qilingan hurujlar xaqida nimalarni bilasiz?
9. Sovet hukumatining qatag'onlik siyosati xaqida nimalarni bilasiz?

8-Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot.

Reja:

1. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va madaniy hayotda yangi davrning boshlanishi.
2. Ta'lif tizimidagi o'zgarishlar va uning o'ziga xos hususiyatlari.
3. Mustaqillik davri adabiyoti. Bu davrda yaratilgan yangi asarlar.
4. O'zbekistonning ma'naviy yangilanishida san'atning tutgan o'rni.
5. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar.

Mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida madaniyatimiz katta zarar ko'rdi. Ayniqsa kommunistik mafkura maddohlari xalqimiz madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar. O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini hyech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. Demak madaniy merosni tiklash, uni yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun imkoniyat saqlab qolingga edi.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot, san'at, teatr rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi. Zero, yuksak ma'naviyatli jamiyat qurish va jahon hamjamiyatiga kirib borish ko'p jihatdan ma'naviy madaniyatning taraqqiyoti va mustahkamlanishiga bog'liqdir.

O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jabg'asi bo'lgan **musiqa san'ati** ham jadval rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozik ta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Sho'rolar davrida asosan mafkuraviy quronga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 dekabrdagi «Respublikada musiqiy ta'lif, madaniyat va san'at o'quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra ularga 6,5 mingta musiqa asboblari va turli xil texnik jihozlar ajratilgan. Respublikamiz

Prezidentining 1997 yil 8 fevraldagagi «Milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 21 fevraldagagi Qarori «O‘zbeknavo» va «O‘zbekraqs» birlashmalarining moddiy texnik negizini mustahkamlashga yordam berdi.

O‘zbekiston hukumati xalqimizning **milliy qo‘sinqchilikka** bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojini e‘tiborga olib milliy ruhdagi, xalqning ko‘ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo‘lgan qiziqishni doimo rag‘batlantirdi.

Istiqlolniig dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo‘yicha qator ko‘rik-tanlovlari o‘tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yili Toshkent shahrida tanbur, sato, qo‘shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko‘rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo‘g‘irchoq teatrлari jamoalarining ko‘rik-tanlovi, shuningdek, mashhur san'atkorlar Jo‘raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janak Shomuratovlarning asarları ijrochilarining «Boqiy ovozlar» deb nomlangan ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Shu yili Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning Qo‘qonda o‘tkazilgan IX an'anaviy ko‘rik tanlovi, lapar, yalla ijrochilarining Toshkent shahrida o‘tkazilgan XI an'anaviy ko‘rik tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.

Mamlakatimiz hukumati qo‘sinqchilik san'atidan mustaqillikning ma‘naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e‘tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda 1995 yil dekabrda «**O‘zbekiston - Vatanim manim**» mavzuidagi qo‘sinqlar ko‘rik-tanlovi e’lon qilindi. Tanlov natijasida yuzlab yangi qo‘sinqlar yaratildi, u xalq orasidan chiqqan ko‘plab iste‘dodli san'atkorlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

«O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘sinq ko‘rik-tanloving 1996 yil mart oyida bo‘lib o‘tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi.

Bularning barchasini e‘tiborga olib, 1996 yil avgustda «O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘sinq bayrami xaqida» maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg‘usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarları va qo‘sinqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘sinq bayrami kuni, deb belgilab qo‘yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo‘sinqchilik san'atiga bo‘lgan katta qiziqishini e‘tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida «O‘zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko‘rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o‘zbek milliy, balki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o‘z san'atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san'atning qo‘sinqchilik turiga teng e‘tibor berilishi, ularning uyg‘un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi yanada rivoj topmoqda.

1998 yil 26 martda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning «O‘zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi. Unga binoan, O‘zbekiston tomosha san'atining ko‘p asrlik an'alarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma‘naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarining faol qatnashishini ta'minlash, respublika Madaniyat ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamонавиу sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O‘zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Teatr san'atini rivojlantirish yo‘lida 1998 yil noyabr oyida o‘tkazilgan «Xumo» xalqaro yoshlari teatrлaring festivali alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu festivalda O‘zbekiston va Isroi davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi **madaniy aloqalari** kengayib bordi. Milliy teatr san'atimiz sohasidagi ilg'or yutuqlar chet ellarda namoyish qilib kelinmoqda.

Masalan, faqat 2005 yilda O'zbek Milliy akademik drama teatri san'atkorlari Turkiya, Rossiya mamlakatlarida, O'zbekiston Yoshlari teatri esa Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan Xalqaro festivallarda ishtirok etishdi.

O'zbekistonda yetakchi teatrlardan biri bo'lган Muqimiyy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatri jamoasi Qohira shahrida (2005) o'tkazilgan Xalqaro teatr san'ati festivalida "To'da" spektakli bilan ishtirok etdi. Spektakl mavzusi hozirgi davrning eng dolzarb muammosi - yoshlar orasida giyohvandlikka ruju qo'yish kabi mudhish xalokatlari holatlarni sahnada san'atkorlar mahorat bilan namoyish qila olishdi. Jahonning 50 dan ortiq mamlakat teatr jamoalari orasidan o'zbek teatr san'atining umidli yosh ijrochilari mahorati yuksak baholandi. "Eng dolzarb muammoni ko'tarib chiqqanligi uchun" nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 37 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar.

O'zbekistondagi muhim tarixiy madaniy va badiiy ahamiyatga ega bo'lган **muzeylarning** to'laqonli ishlashi uchun qator chora tadbirlar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrdagi «Respublika muzeylarining faoliyatini yaxshilash choralarini to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni 1999 yil 5 dekabrda esa «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi bu masalalarga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Prezidentning 1998 yil 12 yanvardagi Farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi. Unga binoan barcha turdag'i muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi⁵.

Respublikamiz mustaqilligining 15 yilligiga Boysunning so'lim joylarining birida qad ko'targan hunarmandchilik markazi va xalq amaliy san'at muzeyi xalq an'anaviy me'morchiligi andozasida ochildi. Bunday muzeylarning ochilishi bir tomonidan davlatimizni an'anaviy qadriyatlarimizga, boy madaniy merosimizga katta e'tiboridan dalolat beradi, xalqning o'z tarixi, madaniyati, san'atiga bo'lган hurmatini oshiradi. Eng asosiysi o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mo'jizalarga boy yurtimizning chekka tumanida barpo etilgan bu muzey ham o'ziga xos tarbiya o'chog'i, o'tmis bilan bugunni, bugun bilan keljakni bog'lab turuvchi muhim madaniy vositadir.

Abdulxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 685 yilligi munosabati bilan Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasida joylashgan «Bahouddin Naqshband tarixiy muzeyi» qayta tashkil etildi. Bu moziygoh tasavvuf tarixiga bag'ishlangan Respublikamizdagi yagona muzeydir. Ekspozitsiya ilmiy xronologiyasi milodning VII asridan hozirga qadar bo'lган davrni o'z ichiga oladi.

Respublikamizdagi eng yosh **O'zbekiston kino san'ati muzeyi** 2005 yil 22 fevralida ochildi. Keyingi yillarda yig'ila boshlagan kino tarixiga oid ashyolar muzey eksponatlaridan joy oldi. O'zbekiston kino san'atida eksponatlar, fotosuratlar, ssenariylar, montaj varaqalari va boshqa hujjatlar to'planib, 30 mingdan ortiq saqlash birligidan iborat katta xazinaga aylandi. Hozirgi kunda muzey jamg'armasida O'zbekiston kino san'ati tarixini muhrlagan 5000 dan ortiq surat va negativ, o'tgan asrning 20-50 yillarida suratga olingan 48 badiiy film saqlanmoqda. Shulardan 5 tasi YUNESKO «Oltin jamg'armasi» ro'yxatiga kiritilgan. Ular orasida «Tohir va Zuhra», «Alisher Navoiy» kabi mashhur tasmalar mavjud. O'zbekiston kino san'ati muzeyining tashkil etilishi xalqimiz madaniy taraqqiyoti yo'lida qilingan muhim ishlardan biri bo'lib koladi.

¹¹ «Гулистан», 1998, №2, 5-бет.

Mustaqillik yillarda Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizga, Farg‘ona va Quvada al-Farg‘oniy, Andijonda Zahiriddin Muhammad Bobur, Xorazmda Jaloliddin Manguberdi, Samarqand hamda Nukusda Mirzo Ulug‘bek, Termizda Alpomish, Navoiy shahrida hazrat Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga bag‘ishlab yodgorlik va majmualar barpo etildi. Ulug‘ allomalarimiz yashab o‘tgan joylarning hammasi muqaddas qadamjolarga aylantirilmoqda. 2006 yili Qarshi shahrining 2700 yilligi, Xorazm Ma’mun akademiyasi tashkil etilganligining 1000 yilligi tantanalari bo‘lib o‘tdi. 2007 yilda esa qadim Samarqandning 2750 yilligi hamda Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi YuNeSKO bilan hamkorlikda keng nishonlanadi.

Xalqimizning boy tarixi, madaniy merosi va yuksak qadriyatlarini mustaqil O‘zbekistonning madaniy qiyoferasini ko‘rsatuvchi omil darajasiga ko‘tarish va bu bilan xalqimizni, ajdodlarimiz merosi va ularning mislsiz bunyodkorlik xizmatlarini muzey vositalari bilan namoyish etish orqali fuqarolarimizda istiqlolimizning qadrini yanada chuqur anglash tuyg‘ularini shakllantirish muzeylar faoliyatining bugungi kundagi asosiy vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng **hunarmandchilik** rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalarida qaytadan tiklandi. O‘zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiyashtirilishi natijasida ular mayda davlat korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorga balki eksportga ham ishlay boshladи. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o‘zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagи mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995yil 24-25 oktyabrda Toshkentda BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda xalq ustalari va hunarmandlari 1- Respublika yarmarkasi o‘tkazildi. 1997 yilda Respublika xalq amaliy san’ati va hunarmandlari ustalarining “Usto” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlanishini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa tadbirlar O‘zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba’zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hunarmandlar maxsus tashkilot – “Hunarmand” Respublika uyushmasiga birlashtirildi; hunarmandchilik sub'ektlari O‘zbekistonda tadbirkorlar va fermer xo‘jaliklarining har yili o‘tkaziladigan “Tashabbus” respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok eta boshladilar. 1996-2005 yillar mobaynida 10 nafar hunarmand xalq hunarmandchiligida erishgan yutuqlari uchun “Tashabbus” tanloving g‘olibi deb topildi.

Mustaqillik yillarda **tarixiy obidalarni tiklash va ta'mirlash ishlari** katta e’tibor berilmoqda. Xususan, Buxorodagi tarixiy obidalarda tiklanish ishlari amalga oshirildi (Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon savdo rastalari, Sarrofon hammomi, Bozori Kord va boshqalar). Bundan tashqari, Somoniylar maqbarasi, Abdullaxon, Nodir Devonbegi madrasalari, Ark majmuasi O‘zbekiston ustalari, tajribali mutaxassislar me’morlar, pardoz ustalari jalgan holda tiklandi.

Xivaning 2500 yilligiga bag‘ishlab shahardagi bir qator majmualarning to‘liq yoki qisman qayta tiklanishi amalga oshirildi (Muhammad Aminxon, Matniyoz Devonbegi madrasalari, Kalta Minor minorasi, Toshhovli saroyi, Pahlavon Mahmud memorial majmuasi, Musa to‘ra madrasasi, Nurullahboy saroyi, Juma masjid, Islomxo‘ja minorasi, Ark masjidi, Olloqulixon savdo rastasi va boshqalar). Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligiga bag‘ishlab Farg‘ona va Quva shaharlarida yodgorliklar o‘rnatildi.

Din. Barcha sobiq sho‘ro respublikalarida 1990 yilgacha RSFSR hukumatining 1929 yil qabul qilingan “Diniy uyushmalar to‘g‘risida”gi qarori amalda edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, O‘zbekistonda ob’ektiv ravishda diniy omil kuchaydi.

Masjid va madrasalar, Makka va Madinaga haj va umra qiluvchilar, erkin tarqalayotgan diniy adabiyotlar soni keskin ortdi. 1991 yilda O‘zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Qonunda diniy

tashkilotlar faoliyatining yangi sharoitdagi huquqiy asoslari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari aniq belgilab berilgan.

Ushbu qonun har bir fuqaroga mustaqil, ixtiyoriy ravishda o‘zining dinga munosabatini ifoda etish imkonini beradi. Davlat uning organlari diniy tashkilotlar ichki faoliyatiga aralashmaydi, diniy marosimlarni cheklab qo‘ymaydi. Barcha diniy tashkilotlar va teng huquqqa egadirlar. Diniy tashkilotlar, o‘z navbatida, davlatning sekulyar (dunyoviy) xarakterini e’tirof etadi. Diniy tashkilotlar davlat va maktabdan ajratilgan bo‘lsa-da, jamiyatdan, uning ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalaridan ajratilgan emas.

Mustaqil O‘zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. 1992 yildan Ro‘za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adho) bayramining birinchi kunlari dam olish kuni deb e’lon qilindi. Islom ta’limoti va falsafasini keng o‘rganish, o‘zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti ochildi (1999). Universitet huzuridagi gimnaziya, litsey, bakalavriat, magistratura, aspirantura bosqichlarida 1,5 mingga yaqin yoshlar tahsil oladi (2005). Universitet qoshida tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz respublikada islom tarixi va islomshunoslik bo‘yicha olib berilayotgan tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi va zarur ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

2006 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublikada 2186 ta diniy tashkilot, jumladan, 1987 ta masjid rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan. Imomlarning 484 nafari (24,4%) oliy, 1194 nafari (60,1%) o‘rta maxsus diniy ma'lumotga ega. Respublikada Toshkent islom instituti (Islom ma’hadisi), o‘rta maxsus islom bilim yurtlari hamda pravoslav va protestant seminariyalar mavjud. Barcha dindorlar O‘zbekistonda va xorijda nashr qilingan diniy adabiyotlardan erkin foydalamoqdalar. Alouddin Mansur tomonidan Qur'onning o‘zbek tilidagi dastlabki izohli tarjimasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1990-92 yilgi sonlarida e’lon qilindi, so‘ng “Cho‘lpon” nashriyotida jamlanib kitob holida nashr etildi. 2001 va 2004 yillarda Toshkent islom universiteti nashriyoti Abdulaziz Mansurning «Qu’oni Karim ma’nolarning tarjimasi va tafsiri»ni chop etdi.

Toshkent islom madaniyati poytaxti.

Mamlakatimizda mustaqillik sharoitida islom diniga berilayotgan katta e’tibor, xususan mashhur din arboblari Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xoja Ahror va boshqalarning xotiralarini nishonlanishi, ularga atab me’moriy majmular bunyod etilishi jahondagi islom mamlakatlari nazaridan chetda qolmadı. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkentda ko‘plab masjidlar qurilishi, o‘quv yurtlari tashkil etilishi, islom me’moriy obidalarini ta’mirlashga bo‘lgan hukumatimizning sa'y-harakatlari xalqaro islom tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda.

2007 yil yanvarda Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT) tarkibidagi muassasalardan biri-Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Xalqaro islom tashkiloti (AYSEKO) tomonidan Toshkent shahriga “Islom madaniyati poytaxti”, degan nom berildi. Toshkent bilan bir qatorda Fes (Marokash), Tripoli (Liviya), Dakar (Senegal) shaharlari ham Islom madaniyatining poytaxti, deb e’lon qilindi.

Toshkent shahri “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi yurtimiz ma’naviy-madaniy hayotida juda katta voqyea bo‘ldi. Qolaversa bu o‘zbek xalqining islom madaniy taraqqiyotiga qo‘shtan beqiyos hissasining benazir e’tirofi bo‘ldi. Toshkentda bunga javoban ulkan Hazrati Imom majmuasi bunyod etildi.

Milliy madaniy markazlar O‘zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamiyat tashkilotlari bo‘lib, dastlab 1989 yilda koreyslar, qozoqlar, yaxudiyilar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida tuzilgan. Hozirda ularning soni 140 dan oshadi.

O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarini Respublika ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatini muhim

yo‘nalishlaridan biridir. Jumladan, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do‘stlik, hamkorlik, madaniy - ma‘rifiy aloqalar o‘rnatish va hamdo‘stlik aloqalarini rivojlantirish va Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoa tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjixatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko‘maklashish markazning asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1992 yil 13 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi.

Mustaqillikka erishilgach, **o‘zbek adabiyoti** tarixining yangi davri boshlandi. Uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri avvalo sotsialistik realizm metodi o‘z kuchini yo‘qotganligida bo‘ldi. Ikkinchidan, o‘zbek tilining sofliji va adabiy til sifatidagi mavqyeini tiklash uchun harakat boshlandi. Uchinchidan, sovet davrida qoralanib kelingan tarixiy siymolar (Amir Temur va b.) haqida tarixiy mavzuda asar yozish imkoniyati yaratildi. To‘rtinchidan, islom dini g‘oyalari va arboblarining obrazlari badiiy ijodda o‘z ifodasini topa boshladi. Beshinchidan, yozuvchilar umuman erkin ijod etish huquqiga ega bo‘ldilar. Oltinchidan, badiiy ijod biror ijtimoiy guruh, partiya yoki davlatning mafkuraviy quroli emas, balki xalqning adabiyoti, shu xalq hayoti, orzu va umidlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. yettinchidan, o‘zbek adabiyoti milliy adabiyot sifatida kamol topa boshladi. Bu davr she’riyatida she’rlar sekin-asta yangi voqyelikni yuzaki tasvirlashdan uning ichki mohiyatini ochishga, yangi tarixiy - ijtimoiy davrning ma’naviy masalalarini yoritishga o‘ta boshladilar (Erkin Voxidov, Abulla Oripov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xalima Xudoyberdieva, M. Yusuf va b.).

Xalq hayoti va tarixiy o‘tmishida ro‘y bergan voqyea-hodisalarini garchad hikoya va ocherk janrlarida tasvirlash oson va qulay bo‘lishiga qaramay, shu davrda yirik nasriy asarlar yaratildi. Bu janrlarda O.Yoqubov va P.Qodirov kabi tajribali romannavislar qatorida X.Shayxov, Muhammad Ali, Sh.Bo‘taev, X.Davronlar ham ijod qildilar.

Mustaqillik davri **dramaturgiyasida** Amir Temur, Bobur, Ulug‘bek va Jaloliddin Manguberdi singari davlat arboblari obrazini yaratishga alohida e’tibor berildi. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasining yaratilishi adabiy hayotda voqyea bo‘ldi va bu asar qo‘sni mamlakatlar teatrlarida ham saxnalashtirildi. Dramaturg I.Sulton 90 - yillar boshlarida «Qaqnus», «Oydin kecha asirligida» va «Yangi odamlar» kabi pesalarini yozib, ularda yangi davr qahramoni va shu davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolarini sahnaga olib chiqishga urindi.

O‘zbek xalqiga xos hazil mutoyiba va kulgiga bo‘lgan mayl ko‘plab **komediyalarni** paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. X.Muxammadning «Xotinlar gapidan chiqqan hangoma» komediyasi bilan boshlangan ijodiy jarayon E.Xushvaqtovning «Chimildiq», «Qalliq o‘yin», «Andishali kelin» singari o‘nlab komediyalari bilan davom ettirildi.

Me’morlik. O‘zbekiston mustaqilligi sharofati bilan me’morlik ilgarigi chekllovlar iskanjasidan qutildi. Me’morlik ustidan o‘rnatalgan davlat monopoliyasi o‘z kuchini qisman yo‘qtdi, xususiy uy-joy qurilishida yangi sifat va sur’at darajasi tez ko‘tarildi. O‘zbekiston shaharlari, ayniqsa Toshkent qisqa muddat ichida me’moriy jihatdan juda o‘zgarib ketdi (Oliy Majlis, Oqsaroy qarorgohi, Toshkent hokimiyyati, Turkiston saroyi, Milliy bank, Interkontinental, Markaziy mehmonxona, Akvapark va b.). Kasb-hunar kollejlari binolari, saroy inshootlari qurilishga katta e’tibor qaratildi (Toshkentdagi Yunusobod tennis korti, «Jar sport majmuasi va b.»).

O‘zbek xalqi tarixiy xotirasini tiklash yo‘lida muhim me’moriy tadbirlar amalga oshirildi (Imom Buxoriy majmuasi, Ahmad al-Farg‘oniya atab Quva va Farg‘onada haykal va sayilgoh bog‘lar barpo etildi, Samarqandda Imom Maturidiy me’moriy yodgorligi tiklandi, Marg‘ilonda Burxoniddin Marg‘inoniy majmuasi, Toshkentda Qaffol Shoshiy nomi bilan bog‘liq Hazrati Imom me’moriy majmuasi va b.).

Qadimgi yodgorliklarni ta’mirlashga xalq ustalari jalb etilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yodgorliklarga boy shaharlarimiz me’moriy ko‘rik tarzida YuNeSKOning jahon

madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani soha mutaxassislari oldida nihoyatda ma'suliyatlari vazifalarni ko'ndalang qo'yan.

Mustaqillik yillarida an'anaviy madaniyatga e'tibor kuchaydi. 1997 yil «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda **amaliy bezak san'atining** ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlash, asriy an'analarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash, shuningdek, xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi. An'anaviy amaliy bezak san'ati mustaqillik davrida tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan Amaliy bezak san'ati asarlar ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda. 1997 yil «Musavvir» ilmiy ishlab chiqarish markazi qoshida «Hunarmand» assotsiatsiyasi tashkil qilinib, respublikada ijod qilib kelayotgan ustalar birlashtirildi. Bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikni yo'q bo'lib ketgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketayapti.

Tasviri san'atning turli sohalarini rivojlanishida 1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (BA)ning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy Rassomlik va dizayn instituti, Respublika badiiy kolleji va litsey-internati, barcha viloyatlar va Qoraqalpog'istonda tasviriya va amaliy san'at o'quv yurtlaridan iborat tarmoq qujudga keldi. BA tashkil bo'lgandan so'ng ko'rgazmalar faoliyati jadallahshdi, o'zbek rassomlari turli respublika va xalqaro ko'rgazma, tanlov, festivallarda ishtirot etishdi.

O'zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviri san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi Yubileyлari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Ahmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarga haykallar o'rnatildi, ularga bag'ishlangan rasmlar ijod qilindi. Ushbu davrning mahobatli rangtasvir sohasida B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Aliqulov va boshqa rassomlar yorqin asarlar yaratishdi. Xaykaltaroshlik sohasida I.Jabborov, R.Mirtojiev, A.Rahmatullaev va boshqalar ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini aks ettirdilar. Manzara janrida R.Ahmedov, N.Qo'ziboev, R.Choriev, M.Saidov va boshqalar ijod qildilar. Grafika sohasida M.Kagarov, V.Apuxtin, P.Annenkov, G'.Boymatov, A.Mamajonov va boshqalarning ijodiy izlanishlari ahamiyatga sazovor bo'ldi.

So'nggi yillarda qurilgan binolar – O'zbekiston konservatoriysi, Senat, O'zbek kiyimlari muzeyini bezashda rassomlar faol ishtirot etishdi. O'zbekiston tasviri san'at galereyasi (2004), Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyining zamonaviy yangi binosi qurib bitkazilishi (2002), Samarqanddagi Registon majmuasida «Chorsu» kartinalar galereyasining tashkil etilishi san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etdi, ijodiy izlanishlar doirasining kengayishiga turtki bo'ldi.

Mustaqillik yillarida o'zbek **an'anaviy musiqa** san'ati rivojiga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, shu davrda oilaviy ansambllar, folklor-etnografik ansambllar, to'y marosim qo'shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirlar, maqom ijrochiligi bo'yicha ko'rik-tanlovlari bilan birga «Alla» (1991 yildan), «Sharq taronalari» (1997 y. Samarqand) Ma'murjon Uzoqov va Jo'raxon Sultonov nomidagi (1997 yildan, Marg'ilon), Xojaabdulaziz Abdurasulov nomidagi (1997 yildan, Samarqand), Komiljon Otaniyozov nomidagi (2001 yildan, Urganch), «Boysun bahori» (2003 yildan, Boysun) va boshqa yangi tashkil etilgan respublika va xalqaro musiqa festival va tanlovlari o'tkazildi. Ayni paytda an'anaviy musiqa ijrochiligini o'rganish barcha musiqa kollejlari hamda ko'pgina bolalar musiqa maktablarida joriy etildi.

O'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligi sohasida keksa, yetuk hamda yosh avlodga mansub o'nlab san'atkorlar-hofiz, sozanda va bastakorlar (T.Alimatov, G'.Hojiqulov, Q.Iskandarov, X.Rajabiy, O.Xudoyshukurov, A.Ismoilov, F.Umarov, O'.Rasulov, Q.Rahimov, Sh.Jo'raev, O.Xotamov, F.Mamadaliev) sermaxsul ijod qilishdi.

Maxsus musiqa ta'limi tizimi O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, 300 dan ziyod 7 yillik bolalar musiqa maktablari, 5 o'rtalik maxsus musiqa maktab

(internat) va litseylari, 14 musiqa (san'at) kollejlari va O'zbekiston davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqilligi davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek **teatr** sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Teatr san'atining ahamiyati oshdi: u endi mustaqillik g'oyasiga xizmat qilishi, buyuk ajodolarimiz merosining, necha ming yillik o'ziga xos noyob madaniyatining vorisi ekanligini anglashga yordam berishi, ushbu boylikni asrash va umuminsoniy qadriyatlar, jahon taraqqiyoti yutuqlari asosida ko'paytirishga ko'maklashishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni undan bahramand qilib, har tomonlama kamol topgan, qat'iy iroda va e'tiqodga ega kishilar qilib tarbiyalashi lozim edi.

Teatrlar nafaqat ijodiy, balki tashkiliy va iqtisodiy ishlarni ham mustaqil hal qila boshladilar.

Teatrlar repertuarida barcha mavzu yo'nalishlarini, ijoddha shu kunda mavjud bo'lgan barcha uslub va vositalarni kuzatish mumkin. Tarixiy mavzularni ijodiy o'zlashtirishda mamlakat teatrlari katta yutuqlarni qo'lga kiritdi.

O'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun keng yo'l ochildi. Milliy teatrimiz 1997 yil ilk marotaba Qohira shahrida o'tadigan xalqaro festivalda o'zining «Chimildiq» spektakli bilan qatnashdi.

Davlat teatrlari asosan O'zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi «O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan boshqariladi. Teatrlar uchun mutaxassis kadrlar M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti, madaniyat va san'at kollejlarida tayyorlanadi. «Teatr» jurnali ta'sis etilgan (1998).

Mustaqillik yillarda **kino** va **televideniye** sohada ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kino san'atida badiiy filmlar mavzular va qahramonlar bilan boyidi, kinoda ma'muriy tashkiliy ishlar qayta tashkil etilishi sodir bo'ldi. 90-yillar oxiri - XXI asr boshlari filmlarida kinoning adabiyot, teatr bilan hamkorligining kuchayishi, haqiqiy hayot borligicha tasvirlanishi, mavzu, janrlar xilma-xilligi, o'ziga xos ijod, yuqoriy tasviriy madaniyat, mualliflik filmlarining paydo bo'lishi ko'zga tashlanadi. («Otamdan qolgan dalalar», rej.Sh.Abbosov, «Voiz», «O'rtoq Boykenjaev», rej. Yu.Roziqov, «Buyuk Amir Temur», I.Ergashev, «Alpomish», H. Fayziev va b.)

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2004 yil 16 martdagি farmoniga ko'ra «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi «O'zbekkino» Milliy agnetligiga aylantirildi. Televideniyada ko'rsatuvlarning asosiy qismi sho'rolar davrida Markaz teledasturlaridan iborat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilardi. Istiqlol davrida mahalliy ko'rsatuvlar hajmi oshdi, o'zbek tilidagi ko'rsatuvlar ko'paytirildi.

1992 yil 11 martda O'zbekiston Respublikasi Televenenie va radioeshittirish davlat komiteti O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirilishi munosabati bilan 4 ta telekanal tashkil etildi. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2003 yili 4 noyabrdagi «Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida «Sport» telekanali tashkil etildi.

Televidenie qoshida «O'zbektelefilm» 2005 yildan teleradiokompaniya tarkibida badiiy, musiqiy va hujjatl filmlar yaratuvchi davlat korxonasiga aylantirildi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston milliy telekompaniyasining xalqaro aloqalari mustahkamlanib, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro teledastur va videofilmlar ayriboshlash sohasiga hamkorlikka keng yo'l ochilmoqda.

Mustaqillik yillarda mamlakatda **jismoniy tarbiya** va **sportni** rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik vazifa etib belgilandi. Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlari (futbol, tennis, kurash)ni rivojlantirishga oid qarorlari bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori (2006 y. 1 may) mamlakatda professional futbol klublari tashkil etishga yo'l ochdi.

Istiqlol davrida O'zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda muntazam ishtirok etishi ta'minlandi. 1996 yil 6 fevralda sog'lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, olimpiya g'oyalarini rivojlantirishdagi beqiyos xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Lozanna (Shveytsariya)da Xalqaro Olimpiada qo'mitasining oltin ordeni topshirildi. Bu orden namunasi 1996 yilda Toshkentda ochilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyidan joy oldi.

1996 yildan O'zbekistonda professional sport ham rasm bo'la boshladi. Ayniqsa, bokschilar yutug'i xalqimizni xursand etib kelmoqda. Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullaev, Ruslan Chagaev va boshqalar bu sohada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Rustam Qosimjonov shaxmat bo'yicha jahon championi bo'ldi (2004)

1998 yil 6 sentyabrda Toshkentda 28 davlat vakillari Kurash xalqaro assotsiatsiya (KXA)ga asos solishdi. 2005 yil unga 88 ta mamlakat a'zo bo'lgan.

O'zbekistonda o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida 3 bo'g'inli ommaviy sport musobaqalari o'tkaziladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari», akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod» hamda Oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida «Universiada» sport musobaqalarini o'tkazish ta'lim-tarbiya tizimiga kiritilgan.

Xullas, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy hayot ulkan sur'atlar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Mamlakatimizda buyuk bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda madaniy hayot xaqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va madaniy hayotda yangi davrning boshlanishi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va uning o'ziga xos hususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
4. Mustaqillik davri adabiyoti xaqida nimalarni bilasiz?
5. Mustaqillik davrida yaratilgan yangi asarlar xaqida nimalarni bilasiz?
6. O'zbekistonning ma'naviy yangilanishida san'atning tutgan o'rni xaqida nimalarni bilasiz?
7. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatidagi ijobiylar o'zgarishlar xaqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Miziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Pf-4947-son farmoni // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 29 dekabr
5. Mualliflar jamoasi. O'zbekistonning yangi tarixi / I,II,III-kitob –T.: Sharq, 2000.
6. Shamsutdinov R. Vatan tarixi I,II,III-kitob – T.: Sharq, 2013.
7. Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -276 b.
8. Gulmetov E. Madaniyatshunoslik. Darslik. – T. 2000.
9. Mavru洛 A.A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. – T. 2004.
10. Mavru洛 A.A. Ta'lim tizimida madaniyat masalalari. – T. 2004.
11. Mavru洛 A.A. Nishonboyeva Q. Madaniyat tarixi. O'quv uslubiy qo'llanma. - T. 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Dreevnya Gretsiya: Istorya. Nit. Kultura. Iz knig sovremenix uchenix. M. 1997.
2. Xidoyatov G. A. Jahon tarixi. T. Sharq, 2003.
3. Volk S.S. Eng yangi tarix. T., O'qituvchi , 1995.
4. Mirzayeva M. Madaniyat pedagogikasi. O'quv qo'llanma. T., 2005.
5. Ergashov Sh. Xorijiy mamlakatlarning yangi tarixi. Darslik. Farg'ona. 2008.
6. Abdullayev N San`at tarixi: ikki jildlik. - T.: San`at nashriyoti, 2001.-192 b.
7. Abdullayev N San`at tarixi: ikki tomlik. -T.: O'qituvchi. 1986. - 272 b.
8. Avdiyev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. –T.: O'rta va oliv maktab. 1964.- 828 b.
9. Qurbongaliyeva R. O'rta asrlar tarixi: o'quv-metodik qo'llanma.-T.: O'Qituvchi, 1991.-280
10. Semyonov B.F. O'rta asrlar tarixi.-T.: O'qituvchi . 1973 . -640 b.
11. Lafasov M. Jahon tarixi. –T.: Turon-Iqbol. 2008 . -368 b.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.madaniyat.uz

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MADANIYATSHUNOSLIK
KAFEDRASI**

**“MADANIYAT TARIXI”
FANIDAN**

**SEMINAR VA AMALIY MASHG`ULOTLAR
ISHLANMASI**

Namangan – 2021

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“Madaniyat tarixi” fanidan
seminar mashg`ulotlar ishlanmasi**

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi oliy o`quv yurtlarining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ijtimoiy madaniy faoliyat ta`lim yo`nalishi talabalarini uchun “Madaniyat tarixi” fanidan seminar mashg`ulotlar ishlanmasi NamDU Madaniyatshunoslik kafedrasining 2021 yil _____ dagi ____-sonli yig`ilishi qaroriga ko`ra NamDU o`quv uslubiy kengashi tomonidan bakalavr larning tayorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar bo`yicha qo`llanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

t.f.n., dots. O.Topildiyev

Taqrizchi:

t.f.n., dots. Z. Xaydarov

Kirish

Ozbekiston Respublikasining mustaqil bo`lishi va madaniyat sohasidagi o`zgarishlar tarixan zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo`lmoqda. Inson hayotiy faoliyatining, uning tevarak-atrofdagi olamni bilish shakllarining madaniyatda aks etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat hayotining madaniy-tarixiy rivodlanishi asosida moddiy buyumlar va ma`naviy omillar – bilim, tajriba, taraqqiyot natijasida insoniyat madaniy taraqqiyotning yuksak cho`qqisiga chiqib bormoqda. Yo`nilgan tayoq va toshdan yasalgan quroldan tortib madaniy boyliklar va ilmiy bilimlargacha bo`lgan madaniyat yodgorliklari muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat tarixi umumjahon jarayoni sifatida jamiyatda ma`naviy va moddiy madaniyatning tutgan o`rni hamda vazifalari yoritishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida moddiy madaniyat va ma`naviy madaniyatning o`zaro bog`liqligi hamda bir-biriga ta`sir ko`rsatishini taqozo qiladi.

O`quv fanining maqsad va vazifalari.

Fanning maqsadi –jahon xalqlari madaniyatining qadimgi davrlardan toki bugungi kungacha bo`lgan davrdagi tarixi, insoniyatning asrlar mobaynida jahon madaniyati darajasiga yetgan yutuqlarini talablar ongiga to`laqonli singdirishdan iborat. Shuningdek talabalarda bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lish, maxsus ko`nikmalar hosil qilishga ko`maklashishdir.

Fanning vazifasi – Vatanimiz juda qadimiylar va boy moddiy ma`naviy madaniyatga ega ekanligi tarixiy hamda shu bois qudratli xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga ulkan xissa qo`shganligi haqidagi asriy tarixiy bogichlarning mukammal bayoninni suhbat, savol-javob, bahs-munozara olib borishga oid mahsus ko`nikmalar hosil qilishga ko`maklashishdan iborat.

Fan bo`yicha bilim, ko`nikma va malakaga qo`yiladigan talablar.

“Madaniyat tarixi” fanini o`rganish jrayonida bakalavr qo`ydigalarini bilishi lozim:

- Madaniyat xodimlari va madaniyatshunoslar o`z ona tarixi madaniyati, shu jumladan, jahon madaniyatining noyob jihatlarini mukammal ravishda bilish talim va tarbiya vositalaridan biri ekanligini bilishi;
- Madaniyat tarixi talabalar bilimini, saviyasini oshirishga, ularni o`z vatanlari madaniy qadriyatlarni chuqurroq o`rganishga, jahon madaniyatining eng noyob jihatlaridan xabardor bo`lishga o`rgatuvchi fan bo`lib, joylarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarmizni qaror toptirish;
- Madaniyat tarixi faoliyatiga oid adabiyotlar bilan samarali ishslash;
- Mustaqil ravishda biron bir suhbat, uchurashuv yoki munozara kechalarini o`tkaza olishi;
- Zamonaviy madaniy o`zgarish, dunyodagi madaniy yangiliklardan boxabar bo`lishi;
- Madaniyat tarixi fanining tarbiyaviy funksiyalarini uyg`unlashtirish **ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.**

Umumiylar va o`quv ishlari turlari bo`yicha hajmi

Fanga umumiylar 64 soat ajratilgan bo`lib, shundan 7-semestrda auditoriya mashg`ulotlari 36 soat bo`lib, semester davomida haftasiga 2 soatdan o`tiladi.

Yuklamani auditoriya mashg`ulotlari bo`yicha taqsimlanishi:

Semestr	Yuklama	Yuklamani auditoriya mashg`ulotlari bo`yicha taqsimlanishi			Mustaqil ta`lim
		Jami	Ma`ruza	Seminar mashg`ulotlari	
7-semestr	64	36	18	18	28
Jami	64	36	18	18	28

Seminar mashg`ulotlariga ajratilgan soatlar taqsimoti.

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni		Soati
		7-semestr		
1	Madaniyati tarixi faniga kirish. Ibtidoiy davr madaniyati tarixi Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyati tarixi Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyati tarixi	<p>Madaniyat tarixi fanning predmeti, o`qitishdan ko`zlangan maqsad va vazifalar. Bu fanning jamiyatda tutgan o`rni, ma`naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli. Ibtidoiy davr madaniyati tarixi, Ibtidoiy davr madaniy bosqichlari, Ibtidoiy davrning ma`naviy madaniyati.</p> <p>Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyati tarixi. Misr-qadimiy madaniyat o`chog`i (mil.av. 4 ming yillik). Misr madaniyatining o`ziga xos xususiyatlari. Misr davlatchiligi sulolalari. Misrliklar e`tiqodi: suv, quyoshga sig`inish. Marosim va ma`rakalar. Oziris – o`luvchi va tirluvchi ma`bud. “O`liklar kitobi”. Misr hunarmandchiligi, zargarligi, kiyim-kechaklari. Misr yozuvi – suratli belgilar va shakllar. Ta`lim tizimi. Misr adabiyoti. ertak, rivoyat, duo, pandnoma, masal, sayohatnomalar. She`riyatda jo`shqinlik va ehtiros. Tasviriy san`at va me`morchilik. Ilm-fan. Misr tabobati. Misr madaniyatining Jahonshumul ahamiyati.</p> <p>Mesopotamiyaning tabiiy qulay sharoiti. Qadimgi shaharlarning vujudga kelishi. Dajla va Frot daryolari – Mesopotamiyaning hayot tomiri. Miloddan avvalgi 1 ming yillikda Shumer-Akkad madaniyati. Maktablar, kutubxona va arxivlar. Mesopotamiyada so`z janri va yozuv. “Dunyoning yaratilishi haqida”, “Gul’gamesh haqida doston” – Shumer va bobilliklarning ilk adabiyot namunasi. Lirik, diniy-falsafyi she`riyat. Diniy dunyoqarash. Qadimgi Mesopotamiyada ilm-fan: matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, san`at. Shumer-Bobil mixxat yozuvi. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatining Old Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotiga ta`siri.</p> <p>Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyati tarixi. Hindiston-insoniyat madaniyatining eng qadimgi beshiklaridan biri. Hindistonda qabilachilik va davlatchilik. Bu o`lka tabiatining ajoyib-g`aroyiblarga boyligi. “Mahobxarata”, “Ramayana” – hind adabiyotining nodir yodgorliklari. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, sevgi, muhabbat ulug`lanishi. Kitob bezash, me`morchilik. Braxmanlikning vujudga kelishi. Braxma- butun olamni yaratuvchi deb tasavvur qilinishi. Buddaviylikning vujudga kelishi (mil.av. VI asr). Buddha – haqiqat najotkori. Buddaning “to`rtta oliy haqiqati”. Hindiston ilm-fani. Olti falsafiy tizim vujudga kelishi: n`nya, vaysheshika, sankx`ya, yoga, mimansa, ‘edanta. Hind ma`rifatchiligi. Hindiston madaniyatining jahonshumul ahamiyati.</p>	2	

		Xitoy - ilk madaniyat o`choqlaridan biri. Xitoyda sinantrop qoldiqlari. Xitoy davlatchiligi, axloq, huquq va falsafiy ta`limotlar qadimiyligi. Konfutsiylik – axloqiy ta`limot. Insonda-rahbarda besh sifatning bo`lishi shartligi: hurmat-izzat; muloyim-mulozimatilik;adolatlilik; zukkolik-aqlilik; oljanoblik. Konfutsiy ta`limotida ota-onaga hurmatda bo`lish va insonparvarlik masalasi. Konfutsiy – jamiyat hayotini tartibga soluvchi islohotchi. Xitoy yozuvi. Xitoy adabiyotining ilk namunalari. Me`morchilikda tabiiy sharoitning hisobga olinishi. Buyuk Xitoy devori. Xitoy tasviriy san`atida milliylik. Ilm-fan, Kompas va poroxning ixtiro qilinishi. Xitoyda qog'oz ixtirosi (II asr) va kitob bosish ishlari (V-VI asrlar).	
2	Qadimgi Markaziy Osiyo va Eron xalqlari madaniyati tarixi	Markaziy Osiyo xalqlarinig boy madaniy merosi. Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi o`choqlaridan biri ekanligi moddiy va ma`naviy madaniyat o`choqlari. Qadimgi xorazmliklarning madaniyati, san`ati va diniy qarashlari. Qadimgi Baqtriya madaniyati va san`ati. Ellistik va mahalliy madaniyatlarning o`zaro aloqasi. Sug`diyononaliklarning madaniyati va diniy qarashlari. Avestoning O`rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy hayotidagi o`rni. Qadimgi Eronda dastlabki davlatlarning tashkil topishi, qadimgi Elam davlati va madaniyati, Axmoniyilar saltanatining vujudga kelishi, madaniyati, san`ati Qadimgi Eronda tabiiy fanlarning rivojlanishi, diniy e'tiqodi.	2
3	Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi Qadimgi Rim madaniyati tarixi	Qadimgi Yunoniston madaniyati tarixi. Ilk yunon falsafasi vakillari: Fales, Anaksimandr, Demokrit, Suqrot. Yunon madaniyatida muhim o`rin tutgan 3 avlod. Ilmiy bilmlar sohasida tarix fanining tutgan o`rni. Geradot(tarix otasi), Fukidid, Ksenofont kabilar faoliyati. Tibbiyat va aniq fanlar taraqqiyoti. Gomerning qahramonlik dostonlari, Gisiotning didaktik asarlari, badiiy adabiyotda poeziya janrining rivoji. Teatr va notiqlik san`ati. Memorchilik va xaykaltaroshlik. Qadimgi yunon madaniy hayotida diniy dunyoqarashning tutgan o`rni. ellin madaniyati va uning o`ziga xos xususiyalari. Qadimgi Rim madaniyati tarixi. Qadimgi Rimda diniy dunyoqarash. Rimdagi xudolar, ularning vazifalari. Rim diniy dunyoqarashida etrusk va yunon e'tiqodining ta'siri. Qadimgi Rimda tarixshunoslik ilmi: Tit Liviy, Korneliy va boshqalar ijodi. Rim huquqi antik sivilizatsiyasining klassik namunasi sifatida. I-III asrlar Rim huquqi tarixi davrida klassik davr. Rim adabiyotida Giney Neviy, Kvint Enniy, Tit Maktsisu Plavt, Tit Lukretsi Kar, Kvint Goratsiy Flakk kabilarning tutgan o`rni. Ta`lim va fan. Memorchilik va xaykaltaroshlik.	2
4	O`rta asrlarning birinchi yarmida	O`rta asr madaniyatida cherkovning tutgan o`rni, uning fanga matabga, adabiyotga, san`atga ta'siri. Cherkov	2

